

TOSHKULOV ABDUKODIR
XUDOYQULOV SADIRDIN



SOLIQ
NAZARIYASI — — —

33
65.9(5028)yo 43.

10

10/11-1 2-5.
201-8 10.
2010-1 10.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKULOV ABDUKODIR,
XUDOYQULOV SADIRDIN**

SOLIQ NAZARIYASI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi tomonidan darslik sifatida
tavsiya etilgan*



«HISTORY AND PAGE»
Toshkent – 2022



4/4994/1-10

UO‘K: 37.015.3(075.8)

KBK: 88.4ya73

Soliq nazariyasi / darslik. Abdukodir Toshkulov,

Sadirdin Xudoyqulov – Toshkent: «HISTORY AND PAGE», 2022.

– 368 b.

Mazkur darslik bakalavriat bosqichining «Soliqlar va soliqqa tortish» yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda «Soliq nazariyasi» fanining rivojlanish taraqqiyoti, soliqlarning yuzaga kelish shart-sharoitlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning davlatchilikning turli davrlarida amal qilish xususiyatlari, soliqlarga oid ilmiy nazariyalar va qarashlarning qisqacha mazmuni yoritib berilgan. Shuningdek, mazkur darslikda soliqqa tortish amaliyoti uchun muhim sanalgan soliq elementlari va ularni qo‘llanish xususiyatlari, soliq tamoyillari, soliq siyosati va tizimining tarkibi hamda ularni tashkil etish asoslari, soliqlarning makroiqtisodiy jarayon bilan uzviy bog‘liqlik masalalari nazariy jihatdan yoritilgan.

Darslikda keltirilgan materiallar va ma‘lumotlar bo‘ljak soliq mutaxassislarining o‘z kasbiy bilim va malakalarini oshirish uchun asosiy manbaalardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Darslik haqidagi fikr-mulohazalar, uni mukammallashtirishga doir takliflar mamnuniyat bilan qabul qilinadi.

Mas‘ul muharrir:

Sh.A.Toshmatov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

M.I.Alaimardanov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

B.A. Xasanov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

ISBN 978-9943-8561-0-3

© Abdukodir Toshkulov, Sadirdin Xudoyqulov 2022

© «HISTORY AND PAGE», 2022.

MUNDARIJA

MUALLIFDAN	6
1-BOB. «SOLIQ NAZARIYASI» FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA O‘RGANISH USULLARI.....	10
1.1-§. «Soliq nazariyasi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari.....	10
1.2-§. «Soliq nazariyasi» fanining tadqiqot predmetini o‘rganish metodlari.....	15
1.3-§. «Soliq nazariyasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi	23
2-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TARIXIY SHAKLLANISHI	25
2.1-§. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va belgilari	25
2.2-§. Soliqlar va soliqsiz to‘lovlarning o‘zaro o‘xshash va farqli jihatlari	41
2.3-§. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari	45
3-BOB. SOLIQLARNING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI.....	53
3.1-§. Qadimgi davlatlarda soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlari	53
3.2-§. Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishi va shakllanishi	56
3.3-§. Yevropa va Osiyo davlatlari va Rossiyada soliqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlari.....	65
3.4-§. Vatanimizda qadimda va o‘rta asrlarda amal qilgan davlatchilik va chet el bosqinchiliklari davrida soliqlar	75
3.5-§. Amirlik va xonliklar davridagi soliqlar.....	84
3.6-§. Chor Rossiyasi va Sobiq ittifoq davrida soliq tizimi	88
4-BOB. SOLIQLARGA OID NAZARIYALAR.....	98
4.1-§. Soliqlarga oid qadimgi nazariy qarashlar.....	98

4.2-§. Sharq olimlari va Vatanimiz mutafakkirlarining soliqlarga oid nazariy qarashlari	101
4.3-§. Yevropa davlatlari va Rossiyadagi soliqlarga oid nazariyalar va ularning talqini	105
5-BOB. SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI....	137
5.1-§. Soliq va soliqqa tortish tamoyillarining mohiyati	137
5.2-§. Soliqqa tortishning klassik tamoyillari.....	141
5.3-§. Soliqqa tortishning zamonaviy va xususiy tamoyillari	151
6-BOB. SOLIQ ELEMENTLARI	166
6.1-§. Soliq elementlari va uning tarkibi.....	166
6.2-§. Soliq sub'ektlari	167
6.3-§. Soliq ob'ektlari.....	178
6.4-§. Soliq bazasi	180
6.5-§. Soliq stavkasi	183
6.6-§. Soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish va soliqlarni to'lash tartibi.....	189
6.7-§. Soliq imtiyozlari va preferensiyalari.....	199
7-BOB. SOLIQ SIYOSATI.....	209
7.1-§. Soliq siyosati va uning mazmuni	209
7.2-§. Soliq siyosatining shakllari.....	215
7.3-§. Soliq siyosatining ishlab chiqilishi va unda Hokimiyat organlarining ishtiroki.....	222
7.4-§. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi	237
7.5-§. O'zbekiston soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari	245
7.6-§. Yangi O'zbekiston sharoitida soliq siyosati.....	259
7.7-§. Soliq siyosatining samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar	287
8-BOB. SOLIQ TIZIMI.....	293
8.1-§ Soliq tizimining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibi.....	293

8.2-§. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi.....	299
8.3-§. Soliq mexanizmi	308
8.4-§. Soliq menejmenti	319
9-BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG'LIQLIGI	336
9.1-§. Soliqlar va yalpi ichki mahsulotning o'zaro bog'liqligi.....	336
9.2-§. Soliq multiplikatori va uning makroiqtisodiy samarasi.....	342
9.3-§. Soliqlarning narx, talab va taklif bilan o'zaro bog'liqligi.....	350
9.4-§. Soliqlarning egiluvchanligi va uning omilli o'zgarishi.....	357
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	363

MUALLIFDAN

*Soliq bu – qurbonlikdir,
shu bilan birgalikda
manfaat hamdir.
J. Simond de Sismondi*

Soliqlarsiz jamiyat qurish mumkinmi yoki davlat o'zining funksiyalari va vazifalarini soliqlarni ishga solmasdan turib ham zarur bo'ladigan moliyaviy resurslarni shakllantira oladimi? Jahon amaliyotida o'tgan asrning 60-yillarida Sobiq ittifoqning ayrim moliya nazariyachilari tomonidan soliq kategoriyasi va munosabatlariga nisbatan haddan tashqari mafkuraviy nuqtai nazardan yondashuvi sifatida bunday soliqlarsiz Davlat budjetini shakllantiradigan yagona davlat qurish haqidagi puch nazariyalari o'zini oqlamadi. Vaholanki, bu davrda soliqlarning soni va og'irligi oshib bordi, uning adolatlilik tamoyili keskin buzildi. Soliqlarning ob'ektiv zarurligi faqatgina davlat faoliyatini moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojidan emas, balki, uning ildizi xuddi moliya kategoriyasi singari¹ taqsimot munosabatlari hamda jamiyatning ikki sohasi (ishlab chiqarish va noishlab chiqarish) o'rtasidagi nisbatni ta'minlashning ijtimoiy-iqtisodiy zarurligidan kelib chiqadi.

Jamiyatda soliqlar amal qilar ekan, avvalo, uning o'zi nima ekanligini bilish undiruvchiga ham uni to'lovchiga ham birdek muhim sanaladi. Shu sabab soliqlarning mohiyati va ularning o'ziga xos «qaysar xususiyatlari»ni bilish davlat

¹ Aslida soliq kategoriyasi alohida jarayon va holatlarni izohlasada, ammo u moliya kategoriyasining zamirida bo'ladi va moliyaviy munosabatlar tizimida amal qiladi.

uchun muhim va uni qo'llashda ehtiyotkor bo'lishi kerak bo'ladi. Soliqlar xuddi o'tkir pichoqqa o'xshaydi, agar undan o'z manfaatlarida to'g'ri foydalanmasa, katta salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Soliqlarning ichki va tashqi tabiatini yaxshi bilish davlat uchun qanchalik muhim sanalsa, uni nima uchun to'layotganligi va uni to'lashdan manfaat nima bo'lishini tushunib yetish to'lovchi uchun ham muhim. Shvetsariyalik iqtisodchi Jan Sharl Leonar Simond de Sismondi aytganidek, soliqlar bir tomondan qurbonlik bo'lsa, (o'zining mulki va boyligining bir qismini davlatga ulashsa) boshqa tomondan uning manfaat ekanligini tushunib etish zarur bo'ladi. Demak, soliqlar shunday muhim va o'ta qaltis iqtisodiy kategoriyalardan biri sanaladiki, uni qo'llovchi davlat tomonidan qanday foydalanishi jamiyatning barcha jabhalariga ta'sir qiladi, milliy daromadni taqsimlash jarayoni orqali ijtimoiy sohalarning faoliyatini belgilab beradi. Ushbu jarayonni to'g'ri tashkil qilinishi to'lovchilarda soliqlarga bo'lgan munosabatni ijobiy tomonga shakllantiradi. Bu borada davlat o'ta ehtiyotkorlik bilan tizimni tashkil qilish zarur.

Yangi soliq konsepsiyasining eng asosiy g'oyasi soliq yukini kamaytirish, sodda va barqaror soliq tizimini qo'llashni ko'zda tutadi. Shu orqali iqtisodiyotimiz raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkor va investorlar uchun har tomonlama qulay muhit yaratishga erishish mumkin¹. Ushbu fikrlar bizning qarashlarimizda soliq nazariyasi barcha davlatlar uchun asosiy tamoyillarini o'zida aks ettiradi.

Mazkur darslikda asosiy yondashuvlardan biri bu – soliqlarning yuzaga kelish shart-sharoitlari an'anaviy tarz-

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2019-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

dan biroz boshqacharoq shaklda, ya'ni soliqlarning asosini taqsimot munosabatlari qamrab olishligi, davlatning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoji esa sohalar o'rtasidagi muvozanatni o'rnatishda moliyaviy dastaklaridan biri sifatida yuzaga kelganligi jihatidan yoritilgan. Soliq kategoriyasi ham iqtisodiy ham tarixiy ham sotsial kategoriya hisoblanadi. Bu esa unga bo'lgan yondashuvlar turlicha bo'lishligini bildiradi. Shu boisdan soliqlarning ichki mohiyati va ularning boshqa xususiyatlari haqida keltirilgan nazariy talqinlar boshqa adabiyotlardagi qarashlardan farq qilishi va bahsli bo'lishi tabiiy. Bu boradagi tanqidiy fikrlar mazkur darslikning mazmunini yanada oshirishga hamda soliqlarga oid nazariyalarni yanada rivojlantirishga ijobiy ta'sir qiladi deb hisoblaymiz.

Darslikni yozishdagi ayrim manbaalar shuni ko'rsatdiki, shu vaqtgacha soliqlar nazariyasida uni joriy etishning demokratik shakli sifatidagi «Parlament usuli» Angliya davlatida yuzaga kelgan degan fikrlarga qarshi o'laroq, bu aslida eramizdan avvalgi ming-ikki minginchi yillar oralig'ida amal qilgan qadimgi Farg'ona davlati boshqaruvida yuzaga kelganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjuddir¹. Yigirma yillar avval professor H.Sobirov ham o'zining tadqiqotlarida ushbu soliqqa tortish tamoyillarini klassik tamoyil deb tan olgan va A.Smit nomi bilan atalib kelinayotgan tamoyillar bundan bir necha yuz yil ilgari A.Temurning «tuzuklari»da aks etganligini isbotlab bergan edi. Bugungi kunda soliq nazariyasiga yondashuvlar kengroq, ya'ni unga ijtimoiy nuqtai nazardan qarash lozimligini ham taqozo qilinmoqda. Bunda esa soliqlarning asosiy xususiyatlari bo'lgan soliqlarning elementlari,

¹ Qarang: Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2001.

soliqqa tortish tamoyillari, soliq siyosati, soliq tizimi kabi muhim jarayonlarning nazariy asoslarini teranroq tushunib etish talab etiladi.

Shu boisdan ham ushbu darslikda qayd etilgan jarayonlarni alohida mavzu doirasida ko'rib chiqishga harakat qilindi. Ushbu darslikda keltirilgan materiallar soliq ilmiga qiziquvchi o'quvchi hamda bo'lajak soliqchi mutaxassislarining bu boradagi nazariy qarashlarini boyitishga xizmat qiladi deb umid qilamiz va darslikdagi ayrim yondashuvlar yoki keltirilgan manbaalar xususidagi tanqidiy fikrlarni samimiy qabul qilamiz.

1-BOB. «SOLIQ NAZARIYASI» FANINING PREDMETI, MAQSADI, VAZIFALARI VA O'RGANISH USULLARI

1.1-§. «Soliq nazariyasi» fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Tabiatda insonning paydo bo'lishi va uning ongini tabiat qonunlariga muvofiq ravishda rivojlanib borishi olamni bilishga bo'lgan ishtiyoqini ham kuchaytirib borgan. Insoniyatning tabiatdagi hodisa, jarayon va qonuniyatlarning mohiyatini o'rganish, olamning sirli xususiyatlarini bilishga bo'lgan intilishi uning turmush tarzidan kelib chiqadi. Ibtidoiy davrdan keyinchalik ongning rivojlanib, yashash tarzining o'zgarishi, mehnat qurollarining asta-sekin takomillashib borishi, turmush tarzining takomillashuvi olamni bilish jarayoniga bo'lgan qiziqishni ham kuchayishiga sabab bo'lgan. Kishilikssivilizatsiyasining bunday rivojlanishi va uning murakkablashuvi olamni bilish shakllarining takomillashuviga ham olib kelgan. Tabiat va jamiyatning o'ziga xos qonuniyatlari qanchalik murakkab ekanligini anglagan insoniyat uni o'rganishni ta'minlashning muhim vositalaridan biri bo'lgan fanlarni o'z maqsadi yo'lida kashf eta boshlagan. Demak, fanlarning yuzaga kelishi, avvalo, insoniyatning olamni bilishga bo'lgan qiziqishi va majburiyigidan kelib chiqqan. Masalan, quyoshning ertalab chiqishi va kechqurun botishi, fasllarning almasishi, hayvonlarning xonaki va yirtqichlarga ajralishi, dehqonchilikning iqlim sharoitiga bog'liqligi, yer relefining turlichaligi kabi bir qancha muhim jarayonlarning mohiyatini bilmasdan turib kishilikssivilizatsiyasi taraqqiy etishi mumkin emas. Insoniyat fanlarni yuzaga keltirmasdan tabiatda jon saqlashi amrimahol ekanligini anglagan holda

insonlar orasida alohida fikrlaydigan, tajriba o'tkaza oladigan, tabiat va jamiyat qonuniyatlarini qanday bo'lsa, shundayligicha tushuna oladiganlarning bunday faoliyatini umumlashtirish u yoki bu fanlarni yuzaga keltirdi.

Jamiyatni tabiat va inson faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. U inson va tabiatning o'zaro munosabatlaridan tashkil topadi. Jamiyatni yaxshiroq anglash maqsadida uni siyosiy, iqtisodiy, sotsial, ijtimoiy va shu kabi munosabatlar (bo'g'inlar)ga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlanganidek, tabiat va jamiyat hodisalarining o'ziga xos qonuniyatlari o'rganilib, uning mohiyatini ommaga tushuntirish orqali fanlar yuzaga kela boshladi. Ularning taraqqiyoti esa uning diversifikatsiyalashuviga olib keldi. Jumladan, jamiyatning iqtisodiy jabhasini o'rganish bilan shug'ullanuvchi fanlar asta-sekin ko'payib bordi. Iqtisodiy fanlarga bo'lgan ehtiyoj esa insoniyat turmush tarzining murakkablashuviga qarab oshib bordi. Dastlabki iqtisodiy fanlar asosan jamiyatdagi iqtisodiy hodisalarning umumiy jihatlarini tushuntirib berish bilan cheklangan bo'lsa, tovar-pul munosabatlarining rivojlanib borishi esa bu yo'nalishda bir qator fanlar – buxgalteriya hisobi, makroiqtisodiyot, mikroiqtisodiyot, pul nazariyasi, bank ishi, moliya, statistika kabi ko'plab fanlarni yuzaga keltirdi. Keyinchalik esa ekonometrika, matematik dasturlash, iqtisodiyotda axborot texnologiyalari fanlariga ehtiyoj tug'ila boshladi. Aytish kerakki, fanlarning yuzaga kelishi ikkita omilga bog'liq bo'ladi. Birinchisi, bu ob'ektiv iqtisodiy jarayon sifatida jamiyatning iqtisodiy sohasida yuz beradigan hodisa va voqeyliklarning mavjudligi bo'lsa, ikkinchisi, iqtisodiy munosabatlarning yanada murakkablashuvidir. Masalan, iqtisodiyotda axborot texnologiyalari, matematik dasturlash, ekonometrika kabi fanlar shular jumlasidandir. Demak, hech bir fan o'z o'zidan paydo bo'lmaydi. Uning

paydo bo'lishi uning o'rganish ob'ektini mavjudligi va uni o'rganishga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Jumladan, iqtisodiy fanlarning har biri iqtisodiyotda yuz beradigan jarayon, hodisa va voqeliklarning u yoki bu qismini o'rganib tadqiq etish asosida uning o'ziga xos jihatlarini jamiyatning boshqa a'zolariga o'rgatish (ma'lumot berish, taqdim qilish)ga xizmat qiladi va o'zining o'rganish predmetiga ega bo'ladi.

Jamiyatda davlatning sinfiy siyosiy kuch sifatida paydo bo'lishi davlat xo'jaligini yuritish, iqtisodiyotni boshqarishga bo'lgan ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Bunday munosabatlarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj esa moliyaviy fanlar (moliya, soliq, qimmatli qog'ozlar, iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish, sug'urta, statistika va shu kabi)ni rivojlanishiga turtki bo'ldi. Davlatning jamiyatda siyosiy kuch sifatida paydo bo'lishining asosiy sababi taqsimot munosabatlarini tartibga solinishi bilan bog'liq (davlatning paydo bo'lishining ijtimoiy-siyosiy omillari ham mavjud bo'lib, bunday yondashuv tarixchilar tomonidan tavsiflangan). Yaratilgan mahsulotlarni ularni ishlab chiqaruvchilar va jamiyatga xizmat ko'rsatadigan (ishlab chiqarish bilan shug'ullanmaydigan) sohalarda o'rtasida taqsimlashning zarurligi soliqlarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi (ushbu jarayonning mohiyati keyingi bandlarda kengroq yoritiladi). Davlat o'zining vazifalarini bajarish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojni ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish (jamiyat a'zolari) sohasidan majburiy to'lovlar (soliqlar)ni turli xil shakllarda undiradi. Bu esa har doim davom etadigan jarayon hisoblanib, davlatning funksiyasiga aylanadi. Demak, bunday majburiy to'lovlar ham davlatni ham uning to'lovchilari (aholi va korxonalari) uchun muhimdir. Bir tomon (davlat) qancha? qanday qilib? kabi savollarga

qiziqsa, boshqa tomon (solliq to'lovchilar) nima uchun? degan savollarga javob topishga intiladi. Boshqa tomondan esa majburiy to'lovlarni joriy qilish va undirish jarayonlari ob'ektiv-sub'ektiv iqtisodiy munosabatlarga amal qiladiki, uning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishga butun jamiyat miqyosida ehtiyoj mavjud bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, ana shu omillar sabab solliqlarni o'rganishga oid tadqiqot ob'ekti yuzaga keladi.

Ilmiy bilish nazariyasiga ko'ra, o'rganilayotgan ob'ektni chuqur tadqiq etish va uni to'la kashf etish uchun dastlab uning umumiy xususiyatlarini aniqlab olib, keyingi bosqichda xususiylik tamoyili asosida o'rganish samaralidir. Shunga asoslangan holda solliqqa oid munosabatlarni o'rganishda dastlab uning umumiy xususiyatlarini alohida fan sifatida o'rganish solliqqa oid munosabatlarning keyingi bosqichlarini tavsiflovchi boshqa fanlarni oson o'rganishga imkon yaratadi. Ya'ni «Solliq nazariyasi» fanining o'rganish predmetiga ehtiyoj mavjud. Ta'kidlanganlardan xulosa chiqarish mumkinki, jamiyatda solliqlar nomi bilan mavjud bo'ladigan va davlat tomonidan undiriladigan majburiy to'lovlarning mohiyati, ularni joriy qilishning zarurligi, ahamiyati va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy jarayon (munosabat) larga ta'sirining umumiy jihatlarini o'rganish «Solliq nazariyasi» fanining tadqiqot chegarasini aniqlab beradi. Har qanday moliyaviy fan iqtisodiyotning xususiyatlarini o'rganishda o'zining o'rganish tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega bo'lgandagina, u fan sifatida e'tirof etiladi. Albatta, har bir fanning tadqiqot ob'ektini aniqlashda boshqa fanlarning tadqiqot ob'ektlari bilan qiyoslanadi, bog'liq tomonlari aniqlanadi. Chunki tabiat va jamiyatda dialektik qonuniyat mavjudki, har qanday jarayon va hodisalar o'zaro bog'liqlikka amal qiladi.

Xuddi shunday, solliqqa oid munosabatlarning

debochasida soliqlarni joriy etish masalasi turadi. Keyingi bosqichlarda esa uni undirish mexanizmlarini yaratish, uning tamoyillari, kategoriyasi va funksiyalari kabi jihatlarga oydinlik kiritish kerak bo'ladi. Soliqlarni davlat joriy qilar ekan, bu borada davlatning siyosati qanday bo'ladi, soliqqa tortishda qanaqa tartiblar va usullardan foydalaniladi, soliqqa tortish jarayonida qanaqa elementlar xizmat qiladi?

Shu kabi muhim savollarga javob topishni «Soliq nazariyasi» fani doirasida o'rganiladi. Qayd etilganlardan kelib chiqib, «Soliq nazariyasi» fanining predmetiga: «Soliqlarni joriy etish, uni undirish hamda yanada takomillashtirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning qonuniyatlari va umumiy xususiyatlarini o'rganishdir» deb ta'rif berish mumkin.

Har bir fanning maqsad va vazifalari uning tadqiqot predmetidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, «Soliq nazariyasi» fanining maqsadi – talabalar (o'quvchilar)ga soliqlarning iqtisodiy kategoriya va munosabatlar sifatidagi mazmun-mohiyatini ochib berish, soliqlarni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlari va uning omillarini ko'rsatib berish, majburiy xarakterdagi to'lovlarning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatni yoritib berish, soliqlarni joriy etish, uni undirish mexanizmlari va bu boradagi davlat siyosatining asosiy xususiyatlarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Ushbulardan kelib chiqqan holda «Soliq nazariyasi» fanining bir qator vazifalari yuzaga keladi. «Soliq nazariyasi» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ davlatning yuzaga kelishi va soliqlarning ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy zarurligini tushuntirib berish;
- ✓ soliqlarning majburiy to'lovlar sifatidagi mohiyatini boshqa iqtisodiy kategoriyalar bilan taqqoslagan holda ochib berish;

- ✓ jamiyatda soliqlarni joriy etishning umumiy tamoyillarini ko'rsatib berish;
- ✓ soliqlarni undirish mexanizmlarining tarkibi, uni shakllantirishning yo'llari va amal qilish jarayonlarini tavsiflab berish;
- ✓ soliqlarni joriy etish va uni undirish mexanizmi bilan bog'liq davlat siyosatining mohiyatini tushuntirib berish;
- ✓ soliqlarni joriy etish va undirish borasidagi tamoyillar va ularning xususiyatlarini ochib berish;
- ✓ ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar doirasida soliqlarning funktsiya va vazifalarini aniqlab berish, ularning o'zaro farqlarini ko'rsatib berish;
- ✓ soliqqa tortish tartiblari va usullarining mohiyati va qo'llanish xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- ✓ soliqqa tortishda qo'llaniladigan elementlarning tarkibi va ularning mohiyatini aniqlab berish;
- ✓ soliqlarning turli xil darajalarda guruhlanishining mazmunini tushuntirib berish va shu kabilar.

1.2-§. «Soliq nazariyasi» fanining tadqiqot predmetini o'rganish metodlari

Har bir fan o'z tadqiqot predmetini ma'lum bir metodlar¹ bilan o'rganadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida keltirilishicha, metod (yun. *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli. Metodlar haqidagi ta'limot fanda «metodologiya»

¹ Ko'pgina iqtisodiy va ilmiy adabiyotlarda metod va usullar mohiyati jihatidan sinonim tarzida tavsiflanadi. Biroq ilmiy nuqtai nazaridan metod kengroq tushuncha hisoblanadi.

deb ataladi. Bilish metodlari voqelikni qamrab olishi jihatidan 3 turga bo'linadi: yalpi umumiy bilish metodlari – hamma fanlarda va bilishning barcha bosqichlarida ham qo'llaniladigan umumiy hamda universal metodlari – metodologiyasi; umumiy bilish metodlari – bir qancha yoki barcha fanlarda qo'llaniladigan va bilishning muayyan bosqichi (empirik, nazariy yoki empirik bosqichdan nazariy bosqichga o'tish chegarasi)da qo'llaniladigan bilish metodlari; xususiy yoki metodlari – ayrim fan doirasida qo'llaniladigan bilish metodlaridir. Metodologiya (metod va ...logiya so'zlaridan) – tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limot. Metodologiya metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi, deb ham ta'riflanadi¹. Metodlarning muhim xususiyati o'rganish jarayonini soddalashtirish va samaraga erishishda asosiy vosita hisoblanadi. Shu jihatdan olganda, fanning o'rganish metodlari umumiy va xususiy xarakterda bo'ladi. Umumiy bilishning falsafiy metodlar barcha fanlar, jumladan, «Soliq nazariyasi» fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi vaqtda «Soliq nazariyasi» fanining tadqiqot metodlari jumlasiga quyidagilar kiritiladi:

Dialektik metod. Dialektika [yun. dialektike (techne) – suhbat olib borish, bahslashish san'ati] – borliqning vujudga kelishi, uning taraqqiyoti haqidagi falsafiy ta'limot hamda voqelikni bilish va unga asoslangan tafakkur uslubidi². Dialektik metod fan tadqiqot markazida turgan masala yoki muammoni boshqa elementlarning mavjudligi

¹ Qarang: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi «M» harfi. – Toshkent, 460-461 betlar.

² Qarang: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi «D» harfi. – Toshkent, 242-463 betlar.

bilan birga qarash, o'rganish va ular o'zaro ta'sirida kechadigan degan jarayon sifatida qarashni ifodalaydi. Soliq kategoriyasi mazmunan majburiy to'lovlarni ifodalasa-da, ammo uning mavjud bo'lishi boshqa iqtisodiy kategoriya va munosabatlarning mavjudligi va amal qilishi bilan xarakterlanadi. Ya'ni, soliqlarning paydo bo'lishi, ularni joriy etish va undirish jarayonlarini keltirib chiqaruvchi boshqa omillar (masalan, taqsimot omillari)ning mavjudligi va ularning xarakteri bilan bog'liqlikda qarash lozim bo'ladi. Soliqlar boshqa iqtisodiy munosabatlar bilan bog'liqlikda o'zining ichki elementlari bilan o'zaro bir-biriga bog'liklikda amal qiladi. Masalan, soliq stavkasi soliq bazasi va soliq tushumlarining ajralmas qismi hisoblanadi. Soliq tushumlari o'rganilganda uni soliq stavkasi va soliq bazasisiz o'rganish soliq tushumlarini to'liq o'rganishga imkon bermaydi. Demak, dialektik metod orqali fan ob'ektini o'rganishda har bir iqtisodiy jarayonni boshqa omillar keltirib chiqarganligi va ularning ta'sirida mavjud bo'lishligini hamda o'zining ajralmas ichki elementlariga egaligi aniqlanadi va shu tartibda ob'ekt kashf etiladi, uning xususiyatlari aniqlanadi.

Abstraksiya metodi. Abstraksiya lotin tilidan olingan bo'lib, «*abstractio*» – «diqqatni chetga tortish», «chalg'itish» degan ma'noni anglatadi. Tadqiqotning umumiy mantiqiy metodi sifatida o'rganilayotgan hodisaning bir qancha xossalari va nisbatlaridan fikran uzoqlashish, ayni paytda tadqiqot jarayonida qiziqtirgan xossalarni (eng avvalo, muhim, umumiy xossalarni) ajratish jarayoni. Mazkur jarayon natijasida har xil «mavhum predmetlar» olinadi. Bunda «mavhum predmetlar» deganda alohida tushunchalar va kategoriyalar («rivojlanish», «qarama-qarshilik», «fikrlash» va b.) hamda ularning tizimlari tushuniladi.

«Soliq nazariyasi» fani mazkur metod orqali soliqdarning xossalari o'rganayotganda bevosita soliq kategoriyasi



va munosabatiga xos bo'lmagan jarayonlardan vaqtincha uzoqlashish orqali diqqat markazda turgan jarayonga e'tibor berishni taqozo etadi. Ikkinchi darajali deb qaraladigan (aynan shu vaqtda muhim bo'lmagan, ammo keyingi bosqichlarda muhim bo'lishi ham mumkin) jarayonlarda uzoqlashish fikrlarni, xulosalarni umumlashtirishga imkon beradi. Masalan, soliq siyosati tushunchasi o'rganilayotganda, uning mohiyati nazariy jihatdan talqin qilinganda soliq siyosatini amalga oshirishda turli xil vakolatli organlar faoliyatining samaradorligini talqin qilishdan vaqtincha uzoqlashish, soliq siyosatining o'zini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ammo ikkinchi darajali deb qaralgan soliq siyosatini amalga oshirishda turli xil vakolatli organlar faoliyatining samaradorlik masalasi keyingi bosqichlarda dialektik metod orqali soliq siyosatining o'zi bilan bog'liq holda tushuntiriladi. Tadqiqotning abstraksiya metodi fan o'z tadqiqot predmetini, tushunchalar va jarayonlarni o'rganayotganda (tushuntirayotganda) asosiy diqqatni jamlash, ortiqcha narsalar (hodisalar)ga aralashib qolmaslik, haddan tashqari maydalashib ketmaslikni ta'minlaydi va bu maqsadga erishishga yordam beradi.

Induksiya va deduksiya metodlari. Fanning tadqiqot metodlari sifatida induksiya va deduksiya tushunchalari ham lug'aviy ma'noda lotin tilidan olingan bo'lib, «Inductio» – bilib olmoq, tagiga etmoq, deductio – xabar olish, qaytib ko'rish» degan ma'nolarni anglatib, o'rganish jarayonida tadqiqot ob'ektining qaysi qismlari bo'yicha yo'nalish lozimligini ko'rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, soliq tushunchalari va jarayonlarini tushuntirish va o'rganishda uning ayrim qismlarini alohida o'rganib, shu asosda umumiy xulosalar chiqarish, ushbu umumiy xulosalar (tushunchalar) dan quyi tomonga qarab yo'nalishga asoslanish maqsadga muvofiqlikni bildiradi. Induksiya va deduksiya bir-biriga

bogʻliq boʻladi va ular oʻrganilayotgan tadqiqot obʻektini yagona tizim asosida tadqiq qilishga yordam beradi.

«Soliq nazariyasi» fanida mazkur metodlardan foydalan-ganda soliq tushunchalari va jarayonlarini umumiy yaxlit tizim deb qarash va ularning quyidan yuqoriga va aksincha bir tartibda yondashishni bildiradi. Masalan, soliq yuki tushunchasi umumiy tushuncha sifatida soliq toʻlovchilar zimmasidagi soliq majburiyatlarning qiymatini ifodalaydi, ammo uni tushuntirishda uning tarmoqlar, hududlar, korxonalar, aholi darajasiga qarab, quyi darajadagi soliq yukini-xususiyatlarini bilishga intilish orqali umumiy soliq yukining mazmunini yanada chuqurroq anglanash va shu tartibda quyi darajadagi soliqqa oid jarayonlardan uning umumiy xulosalar chiqarishga intilish masalasini yanada oydinlashtiradi.

Sintez va tahlil metodlari. Oʻrganishning sintez metodi grekcha soʻz boʻlib, «synthesis – birlashtirish, bogʻlash, joylashtirish, toʻldirish» degan maʼnolarni anglatib, soliqqa oid tushunchalar va munosabatlar oʻrganilayotganda ularning chala, etishmayotgan qismlarini toʻldirgan holda, ularni bir butunlikda tushuntirish lozimligini bildiradi.

«Soliq nazariyasi» fanida soliq elementlarini tushun-tirishda, masalan, soliq bazasini soliq obʻektisiz tushuntirib boʻlmaydi, agar soliq bazasi tushunchasi soliq obʻektisiz qaraladigan boʻlsa, uning mohiyati anglashilmay qoladi, shuningdek, soliq stavkalarini foiz, qatʻiy birlik (masalan, soʻm, ot kuchi)larsiz tushunish qiyinroq kechadi va mavhum boʻlib qoladi. Tahlil jarayonida fikr murakkablikdan od-diylikka, tasodifdan zaruratga, xilma-xillikdan ayniyatga va birlikka qarab harakat qiladi. Tahlil qilishning maqsadi qismlarni murakkab butunning unsurlari sifatida bilish va ular oʻrtasidagi aloqa va qonuniyatlarni aniqlashdan ibo-ratdir. Biroq tahlil mohiyatni ajratib qarashga olib keladiki,

mavhum holda qolayotgan birlik, xilma-xillikdagi birlik sifatida hali ochilmagan bo'ladi. Sintez, aksincha, tahlil vositasi bilan ajratilgan qismlar, xossalar munosabatlarni yagona bir butunga birlashtirish jarayonidan iborat. Sintez birlikdan tafovutga va xilma-xillikka qarab yo'naltirilgan bo'lib, umumiylik va ayrimlikni, birlik va xilma-xillikni muayyan jonli butunga birlashtiradi. Tahlil va sintez chambarchas bir biriga bog'liq.

Analogiya metodi. (moslik, o'xshashlik) – o'xshash bo'lmagan ob'ektlarning ayrim jihatlari, xossalari va munosabatlaridagi o'xshashliklarni aniqlash. Aniqlangan o'xshashlik asosida tegishli analogiya bo'yicha xulosa chiqariladi. Uning umumiy sxemasi: B ob'ekt a, b, c, d belgilarga ega; C ob'ekt b, c, d belgilarga ega; binobarin, C ob'ekt a belgiga ega bo'lishi mumkin. Analogiya haqiqiy emas, balki ehtimoliy bilim beradi. Analogiya bo'yicha xulosa chiqarishda muayyan ob'ekt («model»)ni ko'rib chiqish natijasida olingan bilim boshqa, nisbatan kam o'rganilgan ob'ektga ko'chiriladi¹. Ya'ni, iqtisodiy fanlar, jumladan, «Soliq nazariyasi» fanini o'rganishda ayrim olingan tushunchalar va munosabatlarga xos belgilar, uning elementi yoki unga yaqin bo'lgan tushunchalarda takrorlanishi, uchrashi mumkinligi e'tiborga olinadi. Masalan, soliq ob'ektidagi elementlar soliq bazasida albatta uchraydi, chunki soliq bazasi soliq ob'ektidan kelib chiqib aniqlanadi, soliq turlari bo'yicha qarzdorlik tushunchasi o'rganilayotganda soliq qarzdorligining yuzaga kelishiga sababchi omillar bir necha soliq turlarida aynan takrorlanadi (masalan kreditorlik qarzlari, shunga o'xshash). Demak, analogiya metodi orqali soliqqa oid tushunchalar va munosabatlarni o'rganishda ularning ichki mexanizmlarida

¹ www.faylasuf.uz/.../256-fan-metodologiyasi.

uchraydigan aynan va yaqin o'xshashliklarni aniqlash orqali ularning mohiyati tushuniladi hamda ularning o'zaro yaqin kategoriyalar ekanligi aniqlanadi. Bu esa o'rganishning keyingi bosqichlarida qo'l keladi.

Mantiqiy metod. Har qaysi darajadagi o'rganish mantiqqa asoslanadi. Bilishga intilish ham mantiqiy harakat bo'lib, mazkur metod barcha fanlar uchun umumiy metodologik ahamiyat kasb etadi. «Soliq nazariyasi» fani ham boshqa fanlar singari o'zining tadqiqot predmetini o'rganishda mantiqiy yondashuvlarga tayanadi. Masalan, birinchi soliq turi va shakli qaysi yilda joriy qilingani haqida tarixiy ma'lumotlar mavjud emas, ammo mantiqiy yondashuvga ko'ra ma'lumki, soliqlar davlatning paydo bo'lishi va uning amal qilishi bilan bog'liq. Demak, soliqlarning vujudga kelishida mantiqiy metodga asoslanadi. Shuningdek, soliq tushumlarining dinamik va statistik holatda bo'lishiga iqtisodiy ko'rsatkichlardan tashqari soliq to'lovchilarning soliq madaniyati darajasi ham ta'sir qiladi. Buni esa mantiqiylikka asoslangan holda tushuntiriladi va xulosalar olinadi. Budjetga soliq tushumlarining kelib tushish jarayonini prognozlashda ham mantiqiy metod katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ilmiy bilishning mantiqiylik metodi iqtisodiy ko'rsatkichlar etarli samara bermaganda yoki ularni qo'llash imkoni bo'lmaganda, jarayonlarning harakatida haddan tashqari stixiyalilik ko'p kuzatilganda, iqtisodiy qonuniyatlar kechishi turlicha kasb etgan va shu kabi holatlarda o'rganishning va xulosa qilishning samarali metodi sifatida namoyon bo'ladi.

Modellashtirish metodi. Globallashtirish davrida iqtisodiy, jumladan, soliqqa oid fanlarni o'rganishda modellashtirish metodlari katta ahamiyat kasb etib bormoqda. Modellashtirish asosan qator modellarga asoslanadi. Ya'ni o'rganilayotgan jarayonning modeli ishlab chiqilib, u model-

lashtiriladi. Mazkur metod «Soliq nazariyasi» fanida juda ko'p qo'llanilmasa-da, ammo soliq tizimiga kiruvchi soliqlar va soliqsiz to'lovlarni bir tizim sifatida o'rganishda uning modelini ishlab chiqish katta samara berishi mumkin. Ammo soliq nazariyasida soliq yuki, soliq stavkalari, soliqqa tortish tizimlari shakllarining samaradorligini tushuntirishda modellashtirishdan foydalanish qo'l keladi. Soliqqa oid fanlarning keyingi bosqichlari, jumladan, «Soliq statistikasi va prognozi», «Yuridik shaxslarni soliqqa tortish», «Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish», «Soliq yuki tahlili», «Soliq tizimini optimallashtirish» kabi fanlarni o'qitishda esa modellashtirishning matematik, ekonometrik va boshqa shakllari keng foydalaniladi.

Tarixiylik metodi. Bu metod o'z-o'zidan ko'rinadiki, hodisa, jarayon va voqealarning mohiyatini o'rganishda ularning tarixiy amal qilish holatlariga asoslanadi. Soliq turlarning joriy etilishi, ularni davlatchilikning turli shakllari va davrlarida qanday amal qilganligi hamda iqtisodiy tizimlarda qanday qo'llanilganligi, soliqlarning bekor qilinishi, yangilarining joriy etilishi, ularning unifikatsiya qilinishi (birlashtirilishi va shu kabi) holatlarni tarixiy jihatdan o'rganish soliqqa oid tushunchalarning mohiyatini anglashda qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'linadi va ular to'ldiriladi. Tarixiylik yondashuv asosida esa soliqqa oid kategoriya va munosabatlarning o'zgarish tendensiyalari aniqlanadi, ulardan qaysi vaqtlarda qanday foydalanilganligi va ular qanday samara berganligini tahlil qilish imkoniyati tug'iladi, qolaversa, soliq kategoriyalarining «yashovchanlik» xususiyatlarini aniqlash orqali ularning iqtisodiy va soliq tizimidagi o'rni va ahamiyatiga to'g'ri baho berishga asos bo'ladi. Yuqorida qayd etib o'tilganlardan tashqari yana ilmiy bilishning boshqa metodlari ham mavjudki, «Soliq nazariyasi»

fanining predmetini o'rganishda ularning u yoki bu turidan foydalaniladi.

1.3-§. «Soliq nazariyasi» fanining boshqa fanlar bilan aloqasi

«Soliq nazariyasi» o'z o'rganish predmetini boshqa bir qator aniq, ijtimoiy va iqtisodiy fanlar bilan birgalikda o'rganadi. Soliqlarga oid ilmiy nazariy qarashlar ularning shakllanish jarayonlarini «Iqtisodiyot nazariyasi», «Iqtisodiy ta'limotlar tarixi», «Iqtisodiy tarix» kabi fanlar bilan birgalikda o'rgansa, soliq tizimida soliqning makroiqtisodiy jihatlarini «Makroiqtisodiyot», «Milliy hisoblar tizimi» kabi fanlar bilan, soliq tushumlari, soliq to'lovchilarning dinamik holatda o'zgarishlarini «Statistika», «Miqdoriy usullar», «Axborot texnologiyalari» kabi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganadi. Soliqlar bevosita markazlashtirilgan pul fondlari, jumladan, davlat budjeti bilan bog'liq bo'lib, bu jarayonlarni o'rganishda, albatta, «Moliya», «Davlat budjeti», «Davlat moliyasini boshqarish» fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lsa, soliqning mohiyatini o'rganish, soliq elementlarining amal qilish holatlarini «Buxgalteriya hisobi», «Iqtisodiy tahlil» fanlarining metodlaridan foydalangan hamda ular bilan bog'liq holda o'rganadi.

Albatta, soliq bevosita korxonalarda pul oqimlari va fondlarining harakati bilan bog'liq bo'lib, bunda u «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyasi», «Mikroiqtisodiyot» fani bilan bog'liqlikda bo'lsa, soliqning tarixiy rivojlanish aspektlari va unga oid dastlabki ilmiy nazariy qarashlarni ijtimoiy fanlar, jumladan, «Tarix», «Arxeologiya», «Falsafa» kabi fanlar bilan o'zaro bog'lanadi. Shuningdek, soliq tizimida soliq to'lovchilarning soliq madaniyati,

soliqdan qochish, soliq to'lashdan bo'yin tovlash, soliq hujjatlarini qalbakilashtirish, soliqlarni to'lamaganlik uchun javobgarlik masalalari kabilarni o'rganishda esa «Psixologiya», «Huquq» kabi fanlarga tayaniladi. Demak, «Soliq nazariyasi» fani o'zining tadqiqot predmetini yakka holda emas, boshqa ijtimoiy iqtisodiy fanlar bilan bog'liq holda, ularning tadqiqot metodlari va xususiyatlaridan foydalangan holda o'rganadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Fan, predmet, ob'ekt, ilmiy bilish, tadqiqot metodlari, dialektik metod, abstraksiya metodi, induksiya metodi, deduksiya metodi, mantiqiylik metodi, tarixiylik metodi, fanning vazifalari, taqsimot, fanlar bilan aloqa, modellar, metodlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Fan predmeti deganda nimani tushunasiz?
2. Fan sifatida yuzaga kelishining asosiy sharti nimada?
3. Fanlar o'z o'rganish sohalarini nima uchun metodlar orqali o'rganadi?
4. «Soliq nazariyasi» fani qanaqa fan?
5. «Soliq nazariyasi» fani o'z predmetida ilmiy bilish va fanni o'rganishning qanday metodlaridan foydalanadi?
6. «Soliq nazariyasi» fani boshqa fanlar bilan bog'liqligini izohlang.
7. «Soliq nazariyasi» fanining mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati nimalarda deb hisoblaysiz?
8. «Soliq nazariyasi» fanining predmeti nima?

2-BOB. SOLIQLARNING IQTISODIY MOHIYATI VA TARIXIY SHAKLLANISHI

2.1-§. Soliqlarning iqtisodiy mohiyati va belgilari

Ta'kidlash kerakki, soliq tushunchasi, avvalo, iqtisodiy kategoriya hisoblanadi. Soliqlarning kategoriya sifatidagi mazmuni uning jamiyatda davlat tomonidan jamiyat a'zolariga nisbatan qo'llaydigan moliyaviy dastak – majburiy to'lovlarni o'zida ifoda etadi. Yuqorida ta'kilab o'tilganidek, soliqlarning paydo bo'lishi va uning amal qilishi davlatning paydo bo'lishi va amal qilishi bilan bog'liq. Jamiyatda yuz beradigan har qanday jarayon va hodisalar, albatta, u yoki bu omillarning ta'sirida yuzaga keladi va rivojlanadi. Soliq kategoriyasi ham xuddi shunday xususiyatga ega. Soliq kategoriyasining mazmun mohiyatini to'liq anglash uchun uning ildizini topish zarur bo'ladi, ya'ni soliqning amal qilishining asosiy omillarini aniqlash uning mohiyatini kashf qilishda muhim qadam bo'ladi.


Yuqorida qayd etilganidek, soliq kategoriyasi jamiyatdagi taqsimot munosabatlariga borib taqaladi. Soliqlar ham xuddi moliya kategoriyasi singari taqsimot munosabatlarining murakkablashuvi va uni tartibga solishning samarali metodlariga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqadi. Agar fanni o'rganishning tarixiylik va mantiqiylik metodlariga asoslanadigan bo'lsak, kishilik jamiyatining taraqqiyotini tavsiflovchi formatsiyali yondashuvga ko'ra hali davlat mavjud bo'lmagan sharoitda ham, qadimgi odamlar o'rtasida ham taqsimot munosabatlari mavjud bo'lgan. Ushbu taqsimot munosabatlari dastlab stixiyali kasb etgan bo'lsa, keyinchalik oila, guruh, qabila boshliqlari tomonidan amalga oshirilgan. Bunda taqsimotda qanday ta-

moyillarga asoslanilganligi tarixiy manbaalarda mavjud. Bunday taqsimot munosabatlari kishilik jamiyatining rivojlanib, takomillashib va murakkablashib borishi, iqtisodiy munosabatlar va unga monand ravishda ijtimoiy munosabatlar ham murakkablashib borganligi va taqsimot mexanizmlarining an'anaviy usullari ish bermay qolishi oqibatida yangi kuchga ehtiyoj sezadi. Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishida aynan taqsimot munosabatlariga o'zgartirishga ehtiyoj ham asos bo'lganligi ajab emas.

Jamiyatda munosabatlarning rivojlanishi oqibatida ikki xil sohaga, ya'ni ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasiga ajralishi esa ular o'rtasida o'zaro nisbat (proporsiya) munosabatlarini o'rnatishni talab etadi. Bu esa o'z-o'zidan ko'rinadiki, davlatning jamiyatda sinfiy siyosiy kuch sifatida yuzaga kelishining iqtisodiy asoslariga sabab bo'lgan. Demak, davlatning yuzaga kelishiga sabab, birinchidan ikkiga bo'lingan sohalar o'rtasida nisbatni ta'minlash bo'lsa, boshqa tomondan taqsimot munosabatlarini tartibga solish orqali jamiyatda muvozanatni ta'minlashning zarurligidir.

Davlat ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasi o'rtasidagi nisbat munosabatlarni tartibga solishda bir tomondan uning samarali usullarini shakllantirsa, boshqa tomondan noishlab chiqarish sohasini kengaytirishga harakat qiladi, ya'ni uning o'ziga xizmat qiluvchi zvenolarni kuchaytiradi. Davlatning oldida yagona yo'llardan biri ishlab chiqarishda yaratilgan mahsulot(qiymat)ning bir qismini majburiy tartibda undirish va uni noishlab chiqarish (o'zining zvenolari) o'rtasida qayta taqsimlash orqali muvozanatni ta'minlashdek tadbirdir. Bu tadbir esa qandaydir markazlashgan (pul) fondlarni shakllantirishni taqozo etadi. Ishlab chiqarish sohasidan qayta taqsimlangan boyliklarni esa ushbu markazlashgan fondlarga jalb qi-

lishning birdan-bir usullaridan biri sifatida majburiy to'lovlar, ya'ni soliqlarni joriy etishni taqozo etadi. Buni yaxshiroq tushunish maqsadida quyidagi rasmdan foydalanamiz (1-rasm).



1-rasm. Soliqlarning yuzaga kelishining ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari

Bu yerda: **1** → Ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulot (milliy daromad)ni soliqlar vositasida qayta taqsimlanishi.

2 → Markazlashgan pul fondlari (budjet) mablag'larining noishlab chiqarish sohasi o'rtasida qayta taqsimlanishi.

3 → Noishlab chiqarish sohasidagi xizmat (ish)larning ishlab chiqarish sohasiga o'tkazilishi.

Bu keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, agar davlat ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalarida nisbatni ta'minlamasa, disproporsiya kelib chiqadi va uning oqibatida esa jamiyat parokandalashadi, provardida esa davlatga ehtiyoj qolmaydi. Bundan yana shu narsa ma'lum bo'ladiki, davlatning ichki sohadagi bosh funksiyasi taqsimot munosabatlarini tartiblash orqali sohalar o'rtasidagi nisbatni hamda jamiyatning bir maromda rivojlanishini ta'minlash hisoblanadi. Bunga erishishning muhim vositalaridan biri sifatida esa soliqlarga ehtiyoj kelib chiqadi. Bundan soliqlarning paydo bo'lishining ikki jihati yuzaga keladi. Bir tomondan ijtimoiy-iqtisodiy ob'ekt sifatida yuzaga chiqsa, boshqa tomondan sub'ekt tarzda mavjud bo'ladi. Bu nima degani? Soliqlarning sub'ektiv tarzda mavjud bo'lishligi soliqlar davlat tomonidan o'ylab topilgan muhim moliyaviy dastak bo'lib, u davlat tomonidan ishga solinishidir. Ob'ektiv zarurligi esa soliqlarsiz taqsimot munosabatlarini jamiyat miqyosida tartibga solib bo'lmaydi, jamiyatning amal qilishi va rivojlanishi esa taqsimot munosabatlarini makro darajada tartiblashga bog'liq bo'ladi, demak, soliqlar ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy jarayonga aylanadi. Soliqlarning mohiyatini to'g'ri anglash uni yuzaga kelishining ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog'liq holda talqin qilishni taqozo etadi.

Agar tarixiy manbaalarga qaraydigan bo'lsak, soliqlarning dastlabki ko'rinishlari er va hayvonlar bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni davlat o'z maqsadlarida soliq undirishda er hamda va hayvonlardan soliq olgan. Bu esa kishilik jamiyatining turmush tarzidan kelib chiqqan. Davlatchilikning dastlabki davrlarida asosiy kun

kechirish vositalaridan biri bu – er va hayvonlar bo‘lgan¹. Soliqlarning yuzaga kelish jarayoni iqtisodiy nuqtai nazardan yuqorida keltirilgan chizmadagi jarayonga asoslansa (hozirgi davrda ham), uning dastlabki yuzaga kelish sharoitlari turlicha bo‘lgan, ya’ni stixiyali tarzda bo‘lgan. Ba’zi hollarda mahalliy martabali va kuch-qudratga ega bo‘lgan hukmdorlar qulay tabiiy jug‘rofiy joylarni egallab undan boshqalar foydalanganlik uchun majburiy to‘lovlar undirgan bo‘lsa², ba’zi hollarda hukmdorlarga tekinga ishlab berish tarzda joriy qilingan, dastlabki vaqtlarda soliqlar ko‘proq qurbonlik qilinish tarzida amal qilgan³. Soliqlarning dastlabki yuzaga kelish shart-sharoitlari sifatida diniy aqidalar ham katta rol o‘ynagan. Din vakillari tomonidan kishilarning xudolarga ixtiyoriy-majburiy tartibda qurbonliklar qilinishi uqtirilgan va turli xil ko‘rinishlarda to‘lovlar ham undirilgan.

Albatta, soliqlar xo‘jalik yuritishning shakliga ham mos bo‘lgan. Tovar-pul munosabatlari yuzaga kelgunga qadar esa u ko‘proq tabiiy shaklda undirilgan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, soliqlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi, avvalo, davlatning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa, uning joriy qilinish va undirilish shakllari esa odamlarning turmush tarzi, davlatchilikning qurilishi, dastlabki hukmdorlarning mavqei, shuningdek, davlatning siyosiy qudratiga bog‘liq bo‘lgan (soliqlarning rivojlanishining tarixiy jihatlari keyingi bandlarda alohida keltirilgan).

¹ Qarang: Егер О. Древний мир // Всемирная история. Т. I. СПб.: Спец. лит., 1997. – С. 32.

² Qarang: Паркинсон С. Закон и доходы. – М.: ПКК «Интерконтакт», 1992. – С. 14-15.

³ Кучеров И.И. Налоговое право зарубежных стран. Курс лекций. М: АО «Центр ЮрИнфоР», 2003.–С.78-91.

Soliqlarning tarixiy shakllanishi va uning tabiati bilan shug'ullanuvchi olimlarning fikricha, soliqlar turlicha ko'rinishlarda rivojlangan va nomlangan. Soliqlarning «o'lpon» – yengilganga soliq, «kontributsiya» (urushda engilgan tomondan to'langan to'lov) deb nomlanib kelishi, davlatlar o'rtasidagi o'zaro bosqinchilik harakatlari doimiylikdan to'xtab, davlatlar o'zlarining harbiy salohiyatini ta'minlashga o'tishigacha davom etib, bu vaqtlarda soliqlar ichki manbaalar hisobiga qoplana boshlangan.

Davlatchilikning dastlabki vaqtlarida davlat boshlig'ining shaxsiy mablag'lari va davlat manfaatlarini uchun undirilgan majburiy to'lovlar hali to'liq ajralmagan sharoitlarda soliqlar «yordam» ko'rinishida bo'lgan. Davlat turli bosqinlardan o'zini himoya qilish maqsadida fuqarolar tomonidan in'om etilgan moddiy boyliklarni yordam shaklida qabul qilishgan. Bunday to'lovlar grekcha «auxilia», lotincha «donum», inlizcha «benevolence» – «xayrixohlik, ixtiyoriy in'om»; lotincha «adiutorium», fransuzcha «aide», inglizcha «aid» – «yordam»; «precarium» (lotincha), «Bede» (nemischa) – «so'rov» nomlari bilan atalib kelingan. Rivojlanishning keyingi bosqichlarida esa u «qurbonlik» (o'z mulkini davlatga qurbonlik sifatida taqdim qilish) deb nomlanib, u «gabelle» (fransuzcha), «Abgabe» (nemischa) va «dazio» (lotincha) nomida ham yuritilgan.

Davlatchilik tizimining keyingi bosqichlarining rivojlantirish xususiyatlariga qarab soliqlar inglizcha «duty» – majburiyat deb nomlangan bo'lsa, soliqlar mol-mulkning egasiga nisbatan begonalashuvini ifodalab «impost, imposition» (inglizcha), «impot» (fransuzcha) va «imposta» (italyancha) – «soliq», «to'lov» degan ma'nolarda ishlatilib kelingan. Shu bilan birgalikda soliqlar davlatning faoliyati bilan bog'liq jihatlarini ifodalovchi «Regaliya» tushunchasi ham paydo bo'ldi. Regaliyalar davlat

moliya xo‘jaligining ajralmas qismiga aylanib bordi. Qadimgi Gretsiya, Rim, Yevropa va Osiyo davlatlarida shakllangan qadimgi davlatchilik shakllarida davlatning asosiy faoliyatining yo‘nalishlari sifatida turli xil binolar, inshootlarning qurilishi, umumiy manfaatlarga xizmat qiluvchi sohalarni (sud, huquq-tartibot, pochta, pulni zarb qilish va almashinuvlar, umumiy foydalanishga xizmat qiluvchi transport tizimi va sh.k.) shakllantirish, aholining ayrim guruhlari tomonidan amalga oshirish imkoniyati cheklangan tarmoqlarni rivojlantirish (masalan, rudalarni qayta ishlash)ga e‘tibor berib kelingan va ular davlatning daromad olish manbaalari sifatida katta rol o‘ynab kelgan. Regaliya lotincha so‘z bo‘lib, «regalis – shohga tegishli, shohniki» degan ma‘noni anglatib, keyingi vaqtlarda undan shaxslarga tegishli maxsus va noyob narsalarga (masalan, turli xil yorliqlar, medallar, sovrinlar, kasbiy buyumlar) nisbatan qo‘llanilib kelinadi.

Dastlabki vaqtlarda shoh (hukumat boshlig‘i)ga tegishli barcha mol-mulk va buyumlarga nisbatan qo‘llanilgan holda, davlatchilikning ilk ko‘rinishlarida ba‘zi davlatlarda shoh va davlatga tegishli bo‘lgan mol-mulk o‘rtasida to‘liq ajralishlar bo‘lmagan sharoitda davlatga tegishli binolar va boshqa daromad keltiruvchi mol-mulk va huquqlar ham regaliyalar tarkibiga kiritilgan. Keyinchalik davlat mulki va daromadlarining ajralishi sabab regaliyalarga davlat mulki va unga daromad keltiruvchi daromad sifatida izohlanib kelingan. Nemis olimi German Sh trauxning tadqiqotlariga ko‘ra regaliya tushunchasi XII asrda Italiya qonunchiligida keltirilgan bo‘lib, unda imperatorga tegishli barcha huquqlar, sud va boshqaruvga nisbatan ishlatilgan. Bu tushuncha XIII asrda Germaniyada keng qo‘llanila boshlandi. Bu davrda oltinni qazish ishlari rivojlanish tusiga kirishi regaliyalar noyob metallarga nisbatan huquq sifatida qo‘llanilgan. O‘rta

asrlarda esa regaliyalar farqlanib boshlandi. Hukumatga tegishli barcha huquqlar, sud va boshqaruv, davlat ramzlari (toj, podshoh hassasi) «regalia majora» deb nomlangan bo'lsa, «regalia minora» yoki «regalia utilia fiscali» nomli regaliyalar orqali davlatga tegishli boshqa barcha narsa (mulk, boylik)lar tushunilgan. Iqtisodiy adabiyotlarda davlat monopoliyasini regaliyalardan farqli ekanligi izohlanadi. Masalan, tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish jamiyat manfaatlariga xizmat qilmaganligi uchun tamaki sanoati emas, undan olingan soliqlar, shuningdek, qimor o'yinlari, lotareya o'yinlariga tegishli huquqlar emas, balki ushbu faoliyatdan olingan daromadlar regaliyalar hisoblanishi belgilangan. Davlatlarning taraqqiy etib borishi va ularda pul dastaklari, pochta aloqalari va telefon tarmoqlarining rivojlanishi hamda ulardan olingan daromadlar asosan regaliyalar sifatida izohlandi. Davlat regaliyalarining orasida pul regaliyalari eng qadimiy hisoblanadi. Pul regaliyalarini davlat o'z qo'liga olib, uni chop etish orqali daromadga ega bo'lgan, ya'ni uni chop etish nominal xarajatlari va uning haqiqiy bahosi o'rtasidagi farq davlat daromadlari sifatida baholangan.

Keyinchalik uning turlarini kengayishi, masalan, chek, veksels, muomala vositalari, bank biletlarini muomalaga kiritish davlatga ma'lum daromadlar olib kelgan. Ayrim davlatlarda pul regaliyalarning daromadlilik darajasi uning boshqa pullarga almashinish darajasi(kursi)ning oshishi sabab bunday regaliyalarni rivojlantirishga katta e'tibor berila boshlandi. Pochta, temir yo'l, telegraf, telefon xizmatlari, mulklarni rasmiylashtirib berish, shaxslarga oid hujjatlarni rasmiylashtirish va shu kabilardan olingan daromadlar soliq tizimi davlatning asosiy iqtisodiy richagiga aylangunga qadar davlat daromadlarining (budjetining) asosiy daromad manbai sifatida ahamiyat kasb etib kelgan.

Demak, jamiyatning taraqqiylashuvi va davlatlar soliq tizimining rivojlanashi orqali regaliyalarning o'рни va ularning davlat hamda jamiyat hayotidagi moliyaviy roli o'zgarib borgan. Hozirgi vaqtda davlat regaliyalarning quyidagi shakllari keltirilib o'tiladi: Sanoat (monopoliya tarmoqlaridan olinadigan daromad, ruxsatnomalar va litsenziyalar berishdan olingan daromad, ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'imlardan olingan daromad); sud ishlari (sud bojlari, sud qarori ijro etilganlik uchun yig'im, jarimalar va mulkni davlat foydasiga o'tkazish); pul (pul va boshqa qimmatli qog'ozlarni chop etishdan daromadlar); bojxona (boj to'lovlari va noqonuniy mollarini davlat foydasiga o'tkazish) regaliyalar keltirib o'tiladi¹.

Soliqlarning yuzaga kelishi va uning tabiatini izohlashda diniy tushunchalar orqali izohlashlar ham yo'q emas. Masalan, «Bibliya»da kishi topgan foydasining o'ndan bir qismini jamiyat manfaati uchun to'lashi lozimligi haqida ta'kidlangan bo'lsa, «Qur'on»da insoniyat uchun mol-mulk va daromadining o'zining ehtiyojlaridan ortgan (albatta, ma'lum bir muddatda ishlatilmay turgan holatda) bir qismini boshqalar (nochor, kambag'al, faqirlar)ga ajratib berilishi haqida oyatlar nozil qilingan. Zakot va soliqlarning iqtisodiy tabiatida o'xshashliklar mavjud bo'lsa-da, ularning ichki mazmunida katta farqlar mavjudligi va ularni tenglashtirmaslik haqida islom dinining fiqhshunos olimlari tomonidan juda ko'plab fikrlar bildirilgan. Masalan, Sh ayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning «Zakot» nomli kitobida Muhammad Siddiq Rushdiy va uning «Tazkirat ul-avliyoi turkiy» asarida hamda islom fiqhshunos olimlari va ulamolari Ibn Hajar al-Haysamiy, Alloma Ibn Obidin al-Hanafiy, Sh ayx Aliysh, Sayyid Rashid Rizo, Shayx

¹ Qarang: <https://ru.wikipedia.org>.

Mahmud Sh altut, Sh ayx Muhammad Abu Zahralar tomonidan ham soliqlar va zakot bir xil narsa emasligi ta'kidlab o'tganligini e'tirof etadi. Darhaqiqat, soliqlarning umumiy jihati shundaki, ularning majburiyligidir. Ammo uni undirish, sarflash va qanday yo'naltirilishi hamda iqtisodiy ma'nolari jihatidan ular katta farqqa ega.

Soliq kategoriyasi ta'kidlanganidek, davlat va soliq to'lovchilar o'rtasidagi turli xil iqtisodiy va sotsial munosabatlarni qamrab oladi. Ilmiy metodologik nuqtai nazardan har qaysi kategoriyaning mohiyatini o'rganish, uning boshqa kategoriyalar va munosabatlardan farqli jihatlarini aniqlab olish katta ahamiyatga egadir. Masalan, kredit muassasalari tomonidan bo'sh turgan mablag'larni jalb qilgan holda ma'lum bir muddatga, maqsadli sarflash va foizlar bilan qaytarib berish jarayonini ifodalash bu kredit degan tushuncha bila izohlanadi. Bundan ko'rinadiki, kreditning o'ziga xos belgilarini aniqlash bilan uni izohlovchi kategoriyani darhol anglashga imkon tug'iladi. Shu jihatdan soliqlarning belgilarini aniqlab olish uni yaxshi tushunish jarayoniga xizmat qiladi. Shunga asoslangan holda, soliqlarning mohiyatini to'laroq anglash uchun uning dunyo iqtisodchi olimlari tomonidan tan olingan bir qator belgilari bilan tanishamiz.

Soliqlarning birinchi va bosh belgisi **majburiylik** belgisidir. Soliqlar, albatta, majburiylik xarakteriga ega bo'lib, iqtisodiy munosabatlar jarayonida majburiy to'lovlar bir qancha bo'lishi mumkin. Masalan, iste'mol qilingan gaz, elektr energiyasi, issiq va sovuq suvlar uchun to'lanadigan to'lovlar ham majburiy xarakterga ega. Soliqlarning majburiyligi shundaki, uning darajasiga qarab davlat o'zining iqtisodiy funksiyalarini bajaradi va uni rejalashtiradi. Boshqacha qilib aytganda, jamiyatga ko'rsatadigan ijtimoiy xizmatlarning miqdoriy va sifatiy

hajmlarini aniqlaydi. Agar soliqlarga ixtiyoriylik belgisi jihatdan yondashadigan bo'lsak, davlatga minimal zarur bo'ladigan moliyaviy mablag'larni shakllantirish imkoni juda katta tavakkalchilikka asoslanib qoladi, qolaversa, har bir individga egoizm xos xususiyat bo'lib, ixtiyoriy ravishda soliqlarni etarli darajadagi to'lashiga salbiy ta'sir etib turadi. Demak, soliqlar majburiy tartibda joriy qilinishi ijtimoiy-iqtisodiy ob'ektiv zarurat bo'lib, bu uning muhim belgisi sifatida yuzaga chiqadi.

Soliqlarning keyingi belgisi faqat **qonun tartibida joriy qilinishi** belgisidir. Avvalgi paragraflarda ko'rib o'tdikki, soliqlarning yuzaga kelishida davlatchilikning shakllari va boshqaruv tizimining rivojlanib borishi bilan ularni joriy qilish tartiblari ham rivojlanib bordi. Ijtimoiy-ob'ektiv vaziyat shuni taqozo qildiki, soliqlarni joriy etish parlamentarizm tamoyillariga asosan qonunlar orqali joriy qilinishi zarur. Soliqlar boshqa kategoriyalardan shunisi bilan farq qiladiki, u davlat va jamiyat a'zolarining umumiy manfaatlarini uyg'unlashtiradi. Bunday manfaatlarga asoslangan munosabatlarda esa sub'ektlarning ta'siri bo'lmasligi lozim. Boshqa tomondan soliqlarni aslida xalqning o'zi belgilaydi degan tushunchalar ham mavjud bo'lib, unga ko'ra, xalq saylab qo'ygan noiblarga soliqlarni joriy qilish masalalari vakolatini berishi lozim. Soliqlarni qonun asosida joriy qilishdan yana bir maqsad, ijro etuvchi organlar tomonidan soliqlarni joriy etilishi uning adolatlilik tamoyillarini o'rnatish imkonini qiyinlashtiradi, sub'ektivlikka yo'l qo'yilish holatlari ham kuzatiladi.

Soliqlarga xos yana muhim belgilardan biri, **to'lovchisining aniq ekanligidir**. Soliqlarni joriy etish soliq tizimini shakllantirishning bir tomoni, ammo uni kimlar to'lashi, ya'ni sub'ektini aniqlamaslik oqibatida joriy etilgan soliqlar muallaq bo'lib qolaveradi. Boshqa maj-

buriy to'lovlarda uning to'lovchisi keyin aniqlanadi, masalan, agar elektr energiyasini iste'mol etilmasa, uning to'lovchisini aniqlab bo'lmaydi, faqatgina uni iste'mol etgandan keyingina to'lovchisini aniqlash mumkin. Soliqlarda bunday shaklda to'lovchisini aniqlab bo'lmaydi. Uning to'lovchilari avvaldan umumiy tartibda aniqlashtirilib qo'yiladi va tegishli soliq ob'ekti va faoliyat turiga qarab ular oydinlashtiriladi.

Keyingi belgisi **aniq stavka va muddatlarga ega bo'lishligidir**. Soliqlar boshqa kategoriyalardan farqli jihati shundaki, uning stavkalari va to'lash muddatlari aniq bo'ladi. Agar uning bu belgilari bo'lmasa soliqlar o'z mohiyatini yo'qotadi, joriy qilingan soliqlarning qanchasi va qachon undirilishini aniqlab bo'lmaydi. Shuningdek, uning undirilish jarayoni mavhumlikka asoslanib qoladi va asosiy mazmuni davlat budjetining daromadlarini shakllantirish xususiyati yo'qoladi. Demak, aniq stavka va muddatlarda undirilish soliqlarning muhim belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Soliqlar **ekvivalentsizlik** xarakterda bo'ladi, bu esa uning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Soliqlarning bu belgisi soliqlarning ichki mohiyati va uning ijtimoiy va sotsial xususiyatlarini aks ettirishi bilan birgalikda, jamiyat boshqaruvining adolatlilik tamoyilini ham ifodalab beradi. Qolaversa, soliqlarning bu belgisi shu narsani ifodalaydiki, kim qancha soliq to'lagan bo'lsa, davlatdan shuncha miqdorga teng ravishda ijtimoiy xizmatlar olmasligi, undan ko'p yoki kam olishi, umuman soliq to'lamasdan soliq to'lovchilarga nisbatan ko'proq ijtimoiy xizmatlar iste'mol qilishi mumkinligini izohlaydi.

Jamiyatni bir maromda saqlash esa ana shuni taqozo qiladi. Olaylik yangi tug'ilgan chaqaloq, nafaqadagi shaxslar, tug'ma va kasbiy nogironlar, voyaga etmagan shaxslar va shu kabilar soliq to'lamasa-da, ammo soliq to'lovchilarga

nisbatan ko'proq ijtimoiy xizmatlarga ega bo'lishi mumkin. Chaqaloqlarning soliq to'lamaganligi uchun unga tibbiy emlashni o'tkazmaslik yoki nafaqadagi aholiga tibbiy yordam va boshqa ijtimoiy xizmatlar ko'rsatmaslik oqibatida jamiyat boshqaruvida sotsial munosabatlarning izdan chiqib, jamiyatni parokanadaga olib kelishini ifodalaydi. Soliqlarning ekvivalentsizlik xususiyatga ega bo'lishi bilan buning oldi olinadi. Demak, soliqlar ekvivalentsizlik xarakterda bo'lib, uni ijtimoiy xizmatlarning tabaqalashgan holda iste'mol etilishini ta'minlaydi va u shu orqali jamiyatni boshqarishning muhim tamoyillaridan biri bo'lib ham xizmat qiladi.

Soliqlarga yana bir xos belgilardan biri bu – uning **universal** xarakterga ega bo'lishidir. Soliqlar dogmatik holatda bo'lishi uning mohiyatini yo'qotadi, boshqa tomondan esa soliqlar davlat iqtisodiyotini tartiblashdagi eng asosiy vositalaridan biri sifatida iqtisodiyotning rivojlanish jarayoniga ta'sir qiladi. Shuningdek, soliqlar ba'zi holatlarda tartiblovchilik, rag'batlantiruvchilik xususiyatiga ega bo'lishi mumkin, u ishlab chiqarishning holatini e'tiborga olgan holda o'zgarib turishi lozim bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, soliqlar o'zgaruvchanlik belgisiga ega bo'ladi, bu esa uning jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini muvofiqlashtirish orqali yuzaga chiqadi. Yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladigan soliqlar faqat davlat budjetiga yo'naltiriladiki, bu uning navbatdagi belgilaridan biri sanaladi. Albatta, bu davlatning moliyaviy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Davlat ba'zi hollarda soliqlarning ma'lum turlaridan tushumlarni boshqa davlat tomonidan markazlashtirilgan fondlariga ham yo'naltirishi mumkin (Masalan, Respublikamizda qishloq xo'jalik korxonalaridan olinadigan yagona er solig'i bo'yicha tushumlarni Moliya vazirligi huzuridagi Sug'oriladigan elarning meliorativ

holatini yaxshilash fondiga jalb qilish tajribasi ham mavjud). Qayd etilganlardan ko‘rinadiki, soliqlar bu faqat davlatning g‘aznasini mablag‘lar bilan to‘ldirishga qaratilmasdan, u boshqa maqsadlarga ham yo‘naltirilishi mumkin. Uning bu xususiyatlari soliq kategoriyasi (tushunchasi) o‘zi nima ekanligini ochib beradi va uni boshqa iqtisodiy kategoriyalardan farqlaydi.

Soliqlarning qayd qilingan belgilari uning iqtisodiy munosabatlarda keng o‘rin egallashi bilan birgalikda, ular ijtimoiy munosabatlarning barcha jihatlarini bilan ham qamrab olinadi. Buni biz soliqlarning mohiyatini alohida o‘rgangan va soliq nazariyasining rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlarning soliqdarga bergan ta‘riflari (yondashuvlari)da ham ko‘rishimiz mumkin. Quyida ana shunday fikrlardan keltirib o‘tamiz:

Soliqlar bu – bir tomondan taqsimot elementi sifatida narxning bir qismi bo‘lsa, boshqa tomondan davlatni joriy etish, taqsimlash, undirish va iste‘mol etishga qaratilgan funksiyasidir¹.

Soliqlar bu – bir vaqtning o‘zidagi iqtisodiy, xo‘jalik va siyosiy jarayondir².

Soliqlar deganda ijtimoiy tartibdagi himoyamizni ta‘minlash uchun oldindan to‘lov tushunmog‘imiz lozim³.

Soliq bu – qurbonlikdir, shu bilan birgalikda manfaat hamdir⁴.

¹ Алексеенко М. М. Взгляд на развитие учения о налоге. Харьков, 1870. – С. 25.

² Буковецкий А.И. Введение в финансовую науку. – С. 26.

³ Мирабо Оноре-Габриел Рикетти // Энциклопедический словарь Брокгауза и Ефрона: В 86 томах (82 т. и 4 доп.). — СПб., 1890—1907.

⁴ Ж. Симонд де Сисмонди. Новые начала политэкономии” 1819, – С.75.

Soliqlar deganda umumiy davlat yotoqxonasida joylashish uchun oliy huquqni olish maqsadida daromad va mulkdan majburiy tartibda to'lanadigan yig'imlar (hadya) tushuniladi¹.

Soliq bu – jamoa iste'molini qondirish maqsadida fuqarolar tomonidan davlatga va mahalliy hukumatga beradigan boyligining bir qismidir².

Soliq bu – davlat va parlamentning daromadlari sifatida o'rnatilgan majburiy to'lovlar bo'lib, bu to'lovlar ularning faoliyatini taqdirlash uchun emas, balki xizmati qilishligi uchun to'lanadi³.

Soliqlar bu – davlatning ijtimoiy xarakterdagi xarajatlarini qoplash uchun alohida turdagi shaxslardan majburiy tartibda undiriladigan yig'imlardir⁴.

Soliq bu – uy xo'jaliklari va firmalar tomondan hukumatga to'lanadigan (yoki tovar va xizmatlar), almashinuvda davlatdan to'g'ridan-to'g'ri tovarlar va xizmatlar olinmaydigan, shu bilan birgalikda noqonuniy tartibda sud tomonidan solingan jarima bo'lmagan majburiy to'lovlardir⁵. Bunday ta'riflarni yana ko'plab keltirish mumkin.

Bundan ko'rinadiki, soliqlarga bunday rang-barang ta'rif berilishi (soliqlarni hatto diniy tushuncha ham deb qaralishi) uning tabiatni turlichaligi va boshqa jarayonlar bilan chambarchas bog'lanib ketishini ko'rsatadi. Ammo mazkur keltirib o'tilgan ta'riflar soliqlarning tabiatini ochishga

¹ Витте С.Ю. Конспект лекций о Государственном хозяйстве. СПб., 1914, с. 35.

² Нитти Ф. Основные начала финансовой науки. –С. 241.

³ Лориа А. Финансовая политика как резул тат и орудие интересов владел ческих классов. – М. – С. 70-71.

⁴ Селигман Э. и Стурм Р. Этюды по теории обложения, СПб., 1908. –С. 89.

⁵ К.Р. Макконнелла, С.Л. Брю). “Экономикс”: 1997 ,с. 323.

xizmat qilsa-da, ularga ta'rif berishda uning iqtisodiy kategoriya sifatidagi xususiyatlaridan kelib chiqish lozim bo'ladi. Chunki, avvalo, soliqning o'zi iqtisodiyotning bir bo'lagi sifatida uning qonuniyatlarini ifodalashga xizmat qiladi.

Har bir iqtisodiy kategoriyaning mohiyati uning lug'aviy va iqtisodiy ma'nosi hamda uning huquqiy hujjatlardagi ma'nosi jihatdan aniqlanadi. Biz soliqlarning lug'aviy ma'nolarining shakllanishi va nomlanishi jihatdan turli-tuman shaklda bo'lib kelganligini yuqorida keltirib o'tdik. O'zbek tili lug'atlarida davlat budjetiga majburiy tartibda undiriladigan to'lovlarni «soliq» termini orqali ifodalanadi. Soliq so'zini eshitish zahotiy oq inson miyasida davlat ixtiyoriga to'lanadigan majburiy to'lovlar xususidagi fikrning in'ikosi paydo bo'ladi. Bu hali faqat terminning o'zini anglab etish hisoblanadi, ammo ushbu terminning mohiyati esa kengroqdir. Soliqlarga boshqa davlatlar singari Respublikamiz qonunchiligida ham aniq ta'rif keltirilgan bo'lib, u Soliq kodeksining 16-moddasida (Soliqlar va yig'imlar) «Soliq deganda ushbu Kodeksda belgilangan, O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga yoki davlat maqsadli jamg'armasiga (bundan buyon matnda budjet tizimi deb yuritiladi) to'lanadigan majburiy beg'araz to'lov tushuniladi » – deb keltirilgan. Bu ta'rifning zamirida iqtisodiy jihatlar bilan birga, huquqiy munosabatlar ham qamrab olingan. Chunki soliqlarni undirish keng qamrovli huquqiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Soliqlarning iqtisodiy ma'nosi esa kengroq yondashuvni taqozo etadi.

Ilmiy-uslubiy metodologik jihatdan biror narsaning mohiyatini ochib berishga xizmat qiladigan ta'riflarni shakllantirishdagi muhim shartlardan biri bu – ana shu kategoriyaning o'ziga xos belgilarini aks ettirishidir. Shundan kelib chiqqan holda, soliqlar deganda quyidagi ta'rifni

berish orqali uning mohiyatini to'laroq ochib berish mumkin: *Soliqlar bu – majburiylik, o'zgaruvchanlik va ekvivalentsizlik xarakteriga ega bo'lgan, faqat qonun yo'li bilan joriy etiladigan, yuridik va jismoniy shaxslardan aniq stavka va muddatlarda undiriladigan va faqat davlat budjetiga yo'naltiriladigan to'lovlardir.*

2.2-§. Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari

Iqtisodiy adabiyotlarda, qonun hujjatlarida soliqlar bilan bir qatorda majburiy to'lovlar, yig'implar, to'lovlar, davlat yig'implari, davlat boji, bojxona to'lovi, boj to'lovi kabi tushunchalar uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, ularni guruhlashtirgan holda soliqlar va soliqsiz to'lovlarga ajratiladi. Albatta, bu tushunchalarning umumlashtiradigan termin (kategoriya) bu – majburiy to'lovlardir. Majburiy to'lovlar ichki mohiyati jihatdan soliqlar va soliqsiz to'lovlarga ajratiladi. Yig'implar, to'lovlar, davlat yig'implari, davlat boji, bojxona to'lovi, boj to'lovi ular soliqsiz to'lovlar deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda davlat o'zining budjet-soliq siyosatini aniqlayotganda va yuritayotganda ularning ba'zilarini soliqlarga tenglashtirish holatlari ham uchraydiki (bu tajriba Respublikamiz budjet-soliq siyosatida ham mavjud), bunda tegishli soliqsiz to'lovning moliyaviy jihatdan va uni undirish tartiblarining muhimligidan kelib chiqiladi. Shu ma'noda soliqlar va soliqsiz to'lovlarning o'zaro farqlarini aniqlash ularning mohiyatini ochishga yordam beradi. Buning uchun esa, avvalo, soliqsiz to'lovlarning mazmuni va ularning joriy etilish maqsadi, moliyaviy munosabatlardagi o'rnini nuqtai nazardan aniqlab olish talab etiladi. Shuningdek, O'zbekiston soliq va boshqa moliyaviy qonunchiliklarda esa soliqsiz to'lovlar odatda

«majburiy to'lovlar» kategoriyasida ifodalanadi.

Bu yig'imning to'lanishi uni to'lovchi shaxsga nisbatan vakolatli organ yoki uning mansabdor shaxsi tomonidan yuridik ahamiyatga ega harakatlarni amalga oshirish, shu jumladan, unga muayyan huquqlarni yoxud ruxsat etuvchi hujjatlarni berish shartlaridan biri bo'ladi.

Endi ularning mohiyati nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, soliqsiz to'lovlar o'z tarkibiga tarkibiga majburiy to'lovlar, yig'imlar, boj to'lovlari, bojxona to'lovlari, davlat boji, badal va xayriya (chunki Budjet kodeksining 50-moddasida meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari davlat budjeti daromadlari sifatida e'tirof etilgan)larni oladi. O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 50-moddasida Davlat budjeti daromadlarini shakllantirish moddasida esa davlat budjetining daromadlari sifatida» soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar» degan tushuncha ifodalangan. Ammo soliq va boshqa qonunlarda ushbu majburiy to'lovlarga kiruvchi yig'imlar, to'lovlar va davlat bojlarining o'zaro farqlari va izohlari keltirilmagan. Shu maqsadda ularning ichki mohiyatiga to'xtalamiz.

Majburiy to'lovlar davlat tomonidan ikki xil maqsadda undiriladi. Birinchisi, bu davlatning turli darajadagi fondlarining moliyaviy resurslarini shakllantirish asosida aniq maqsadli ijtimoiy tadbirlarni amalga oshirish maqsadida bo'lsa, ikkinchisi, davlatning vakolatli organlari tomonidan yuridik hamda jismoniy shaxslarga turli xil huquqiy va boshqa tartibdagi xizmatlarni ko'rsatganlik, ularning faoliyatiga ruxsat berganlik hamda davlat ro'yxatiga olganlik uchun undiriladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, garchi qonunlarda davlat boji alohida ko'rsatilgan bo'lsa-da, mohiyati jihatdan yig'imlar tarkibiga kiradi. Yig'imlar, o'z navbatida, undirilishi jihatdan umumdavlat miqyosida va mahalliy miqyosdagi yig'imlarga bo'linib, ularning joriy

qilinish darajasi jihatdan farqlanishi ham umumdavlat va mahalliy miqyosda amalga oshiriladi. Ularning bunday belgilanishi esa yig'implarning hududlar bo'yicha ham farqlanishiga olib keladi. Chunki aksariyat davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda mahalliy hokimliklarning moliyaviy huquqlari sifatida o'zlarining hududida mahalliy yig'implarni joriy etish huquqi belgilangan. Bir hududda joriy qilingan yig'im boshqa hududda undirilmaligi mumkin.

Shuningdek, yig'implar bir martalik hamda doimiy xarakterga ham ega bo'lib, bu yig'implarning joriy etilishi va maqsadidan kelib chiqadi. To'lovlar va badallar esa ular ko'pincha umumdavlat miqyosida amal qilib, ularning xarakteri ma'lum bir sotsial-iqtisodiy masalalarni markazlashtirilgan tartibda amalga oshirilishni bildiradi. Yig'implar esa ko'pincha individual xarakterda bo'ladi. Majburiy to'lovlarning ichki mazmunini bilish bizga ularning, ya'ni soliqsiz to'lovlarning soliqlardan farqli jihatlarini aniqlash imkonini beradi. Buni to'g'ri aniqlab olish uchun yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va bojxona bojining o'zaro o'xshash hamda farqli jihatlariga oydinlik kiritishimizga katta yordam beradi. Bunda quyidagi jadvaldan foydalanimiz:

1-jadval.

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i va bojxona bojining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini

№	Soliqlarga xos umumiy belgilar	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	Bojxona boji
1.	Majburiylik	Mavjud	Mavjud
2.	Faqat qonun tartibida joriy qilishlik	Mavjud	Mavjud
3.	To'lovchisining aniqliligi	Mavjud	Mavjud
4.	Aniq stavkaga ega bo'lishligi	Mavjud	Mavjud
5.	Aniq muddatlarga ega bo'lishligi	Mavjud	Mavjud emas
6.	Ekvivalentsizlik	Mavjud	Mavjud
7.	Universallik	Mavjud	Mavjud
8.	Faqat budjetga yo'naltirilishi	Mavjud	Mavjud

Jadvaldan ko‘rinadiki, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i va bojxona bojining o‘zaro o‘xshash hamda farqli jihatlarida o‘xshash jihatlari ko‘proq bo‘lib, ammo bitta farqli xususiyat ularning aniq tafovutini ifodalab turadi. Chunki bojxona bojinining aniq muddatini o‘rnatish imkoni mumkin emas, uning muddati esa korxonalariga bog‘liq. Ya‘ni, korxonalar qachon import yoki eksport operatsiyalarini amalga oshirilishini oldindan aniqlab bo‘lmaydi. Demak, bu belgi bojxona bojida mavjud emas va uni soliqlar qatoriga kiritib bo‘lmaydi. Shu bilan birgalikda budjet daromadlarini shakllantirishdagi roli nuqtai nazardan soliqlarga tenglashadi. Bu shuni anglatadiki, soliqlar va soliqsiz to‘lovlar o‘rtasidagi yaqqol farqni o‘rnatish qiyin masala hisoblanadi. Chunki ularga xos bo‘lgan umumiy belgilar ko‘p uchraydi, ammo ularning o‘ziga xos jihatlari nuqtai nazaridan aniqlash mumkin. Masalan, soliqsiz to‘lovlar faqat qonun yo‘li bilan belgilanadiganlari (bojxona boji, yagona ijtimoiy to‘lov, pensiya jamg‘armasiga ajratmalar, yo‘l jamg‘armasiga ajratmalar sh.k.), ijroiya hokimiyat (Vazirlar Mahkamasi, hokimliklar) tomonidan belgilanadiganlari ham mavjud. Shuningdek, soliqlar doimiy xarakterga ega bo‘lsa, soliqsiz to‘lovlar ba‘zi hollarda vaqtinchalik tusda bo‘lishi mumkin. Soliqlar maqsadsiz fondga (budjetning) jalb qilinib, umumiy tartibda taqsimlansa, soliqsiz to‘lovlar ham soliqlar bilan birga maqsadsiz fondga (budjetga) ham maqsadli fondlarga jalb qilinadi va ular ko‘proq maqsadli tadbirlarni moliyalashtirishga sarflanishi sotsial xarakterga ega bo‘ladi. Shu jihatdan soliqsiz to‘lovlarga qisman ekvivalentli belgini ham xos deb hisoblash mumkin. Masalan, Yo‘l jamg‘armasi va Pensiya jamg‘armasining mablag‘lari to‘liq miqdorda aniq maqsadlarga yo‘naladi, ammo bu yerda undan foydalanish tabaqalashgan bo‘ladi. Demak,

solliqlar va solliqsiz to'lovlar maqsadga yo'naltirilganligi, joriy qilinishi, undirilishi, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni o'zida aks ettirishi va ulardan tushgan mablag'larning taqsimlanish xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zaro o'xshash va farqli jihatlarga ega bo'ladi.

2.3-§. Solliqlarning funksiyalari va vazifalari

Odatda aniq fanlarda funksiya tushunchasidan bir biriga bog'liq bo'lgan bir necha variatsiyalar (qatorlar, miqdorlar) ning bir-biriga ta'sir jarayonlarini o'rganishda keng qo'llansa-da, iqtisodiy munosabatlarda bu tushunchadan ikki xil tartibda, ya'ni **matematik va falsafiy** ma'noda foydalaniladi. Matematik ma'noda qo'llanishning ko'rinishlari sifatida iqtisodiy jarayonlar, masalan, solliqlarning budjetga tushishiga ta'sir etuvchi omillarning funksional bog'liqligi turli xil darajadagi matematik funksiyalardan foydalangan holda aniqlansa, iqtisodiy jarayonlar va hodisalarning doimiy faoliyatda bo'lishi va boshqa sub'ektlarning ta'siriga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladigan jarayonlar sifatida falsafiy ma'noda izohlanadi. Aynan ikkalasi ham solliqlarga ham tegishli bo'lib, solliqlarning iqtisodiy munosabatlar tizimida qanday harakatda va holatda bo'lishligini ko'rsatib beradi, bu boradagi funksiyaning asosiy belgisi sifatida barqarorlik va doimiylik nazarda tutiladi. Demak, shundan kelib chiqib solliqlarning funksiyalari deganda solliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida doimiy va barqaror tarzda amal qilish jarayoni, holati va harakati tushuniladi. Solliqqa oid nazariyalar bilan shug'ullangan aksariyat olimlar ilmiy va o'quv adabiyotlarida solliqlarning bajaradigan funksiyalari haqida ko'plab fikrlarni keltirib o'tishgan. Biz ularning eng ko'p e'tirof etilganlarini keltirib o'tamiz.

Soliqlarning eng muhim vazifasi bu – **fiskal funksiyasi** hisoblanadi. Soliqlarning bu funksiyasi uning iqtisodiy mohiyati bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘rib o‘tganimizdek, soliqlarning yuzaga kelishining bosh sabablaridan biri ham uning davlatga zarur bo‘ladigan moliyaviy mablag‘larni ta‘minlash maqsadidir. Soliqlar birinchi navbatda davlatning budjeti (ayrim hollarda instisno holatlarda boshqa maqsadli fondlarini)ni moliyaviy resurslar bilan ta‘minlab turadi va bu doim mavjud bo‘ladi. Soliqlarning bu funksiyasi davlatning moliyaviy siyosatini o‘zida ifoda etadi. Davlat moliyaviy siyosatini amalga oshirib, o‘zining funksiyasini bajarish uchun zarur bo‘ladigan moliyaviy resurslarni jalb etishda soliqlarning ushbu funksiyadan foydalanadi. Soliqlarning fiskal funksiyasining darajasi davlatning budjet-soliq siyosatiga bog‘liq bo‘ladi, ya‘ni davlat qanchalik progressiv soliq siyosatini amalga oshirsa, soliqlarning ushbu fiskal funksiyasining ham darajasi ortadi, ammo buning mavjud bo‘lish/bo‘lmasligi davlat siyosatiga bog‘liq bo‘lmaydi. Soliqlarning keyingi funksiyasi uning **milliy daromadni qayta taqsimlash funksiyasidir**. Yuqoridagi paragrflarda ko‘rib o‘tganimizdek, jamiyatning ishlab chiqarish sohasida yaratilgan moddiy boyliklar (yalpi ichki mahsulot) uning yaratuvchilari o‘rtasida bir-lamchi taqsimlanadi. Ya‘ni, ishlab chiqarish sohasidagilar uni turli xil ko‘rinishlarda: daromad, foyda, foiz, mulk qiymati, renta, dividend, ish haqi va shu kabi tarzda taqsimlab olgan bo‘ladi. Biz buni odatda milliy daromadning dastlabki taqsimoti deb ataymiz. Ammo noishlab chiqarish sohasini moliyalashtirish va uning xizmatlarini ishlab chiqarish sohasiga o‘tkazish (busiz ikkala soha ham rivojlana olmaydi) hamda davlatning boshqa muhim funksiya va vaziflarini bajarish uchun esa milliy daromadlar qayta taqsimlanishni taqozo etadi. Jamiyatdagi ijtimoiy-

sotsial va iqtisodiy muvozanatni ta'minlashning yagona yo'li shundan iborat bo'lib, bunda davlat soliqlardan foydalanadi. Bu erda ko'rinadiki, soliqlar doim milliy daromadni uning egalari (ishlab chiqarish sohasi sohiblari) va davlat o'rtasida qayta taqsimlab turadi.

Soliqlar **iqtisodiyotni tartiblash funksiyasini** ham bajaradi. Davlat o'zining muhim funksiyalari qatori iqtisodiyotni tartiblash funksiyasini ham amalga oshiradi. Bunda narxga ta'sir etish, foiz stavkasi (qayta moliyalash stavkasi)ga ta'sir etish, sanatsiyalash, korxonalariga subsidiyalar ajratish hamda soliq vositasida tartiblashga asoslanadi. Bozor munosabatlari sharoitida bu sanab o'tilgan vositalarning orasida soliqlar asosiy rol o'ynaydi va samarali ham hisoblanadi. Davlat soliqlar orqali iqtisodiyotga ta'sir qilishda ham turli xil usullardan foydalanib, iqtisodiyotda «barometr» sifatida iqtisodiyotni tartiblab turadi. Soliqlarning iqtisodiyotni tartiblash funksiyasi ikki xil tartibda, ya'ni davlatning soliq siyosati orqali tartiblashi hamda soliqlarning o'zi bozor mexanizmlari orqali ishlab chiqarish, narx va iste'molga ta'sir etib ularni me'yorlaydi. Soliqlarning mahsulotlar narxiga, ishlab chiqarishning darajasiga, iste'molga, tashqi iqtisodiy faoliyatga, kapitallarning harakatlanishi, daromadlarning tabaqalashuvi va shu kabilarga ta'siri, davlatning soliqlar orqali tartiblanishi soliqlarning elementlari soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, shuningdek, soliqqa tortish tartiblari (umumbelgilangan, soddalashtirilgan, xalqaro, markazlashtirilgan)ni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Bozor mexanizmlari orqali soliqlarning iqtisodiyotni tartiblash jarayoni esa soliqlar bozor munosabatlarining bir elementi sifatida bozor qonunlarining amal qilish jarayonida ular bilan birga ta'sir qiladi. Masalan, bozor qonunlari bo'lgan talab va taklif qonuni mahsulotning bozorda tan olinishini ko'rsatib berishi bilan

birgalikda mahsulot tannarxiga qo'shiladigan soliqlar esa bu jarayonda narxga ta'sir qilib, narxni bozor mezonlaridan oshirgan ishlab chiqaruvchilarni «jazolaydi» va shu orqali ularning ishlab chiqarish hajmlariga ham ta'sir qiladi.

Davlatning iste'molni tartiblashda soliqlardan foydalanishi esa sub'ektiv xarakterda bo'lib, davlat ayrim turdagi (masalan, tamaki, alkogolli) mahsulotlarga yuqori soliq stavkalarini belgilash orqali ta'sir qiladi yoki bunday turdagi faoliyat (mahsulot)ga soliq imtiyozlarini qo'llamaydi yoki bekor qiladi (bu borada keynschilar va monetaristlarning nazariy qarashlarini eslang) Soliqlarning iqtisodiyotni tartiblash funksiyasi davlatning boshqa funksiyalari bilan chambarchas qo'shib ketadi. Davlatning milliy bozorni himoya qilish (proteksionizm siyosati) funksiyasi, mehnat bozorini tartiblash funksiyasi, kapitallarni boshqarish funksiyasi va shu kabilar bilan birgalikda olib boradi. Bundan ko'rinadiki, soliqlarning ushbu funksiyasi soliq munosabatlarining keng qamrovli mavjud bo'lishini taqozo etadi.

Soliqlar **rag'batlantirish funksiyasini** ham bajaradi. Ularning bu funksiyasi uning avvalgi tartiblash vazifasi bilan bog'liq holda amal qilsa-da, rag'batlantirish funksiyasining elementlari tartiblashga qaraganda kengroq bo'ladi. Ya'ni, rag'batlantirish soliq stavkalarini tabaqalashtirish, soliqqa tortishning imtiyozli tartiblarini qo'llash, ularning turlarini kengaytirish, soliq kanikullarini joriy qilish, soliq kreditlarini berish (jahon amaliyotida mavjud), soliq qarzlarini kechiktirish yoki soliq to'lovchining foydasiga voz kechish, soliq to'lash va soliq hisobotlarini topshirish tartiblarini soddalashtirish va shu kabi elementlar orqali amalga oshiriladi. Ammo bu davlatning soliq siyosatiga bog'liq bo'ladi. Vaholanki, soliqlarning funksiyalari ob'ektiv iqtisodiy jarayondir. Soliqlarning ushbu funksiyasini

shunday tushunish kerakki, hech qachon sof fiskallikka asoslangan soliqlar bo'lmaydi, bo'lganda ham ular jamiyat tarafidan tan olinmaydi. Sof fiskal soliqlar deganda jamiyatda yaratilgan mahsulotning deyarli barchasini davlat foydasiga soliqlar orqali olib qo'yish tushuniladi. Bunday holatda esa jamiyatning o'zini yo'qolib ketish xavfi paydo bo'ladi.

Demak, soliqlar mavjud ekan, ular, albatta, qandaydir darajada bo'lsa ham rag'batlantirish funksiyasini bajarishi ob'ektiv sotsial-iqtisodiy jarayondir. Shu bilan birgalikda yuqorida qayd qilinganidek, davlatning iqtisodiyotga aralashuvi uni iqtisodiy munosabatlar va iqtisodiyot sub'ektlarining faoliyatini bir tomondan tartiblash, boshqa tomondan esa rag'batlantirishni birgalikda olib borishni taqozo etadi. Bu zarurat esa soliqlarni rag'batlantirish funksiyasining yuzaga chiqishini ham ta'minlaydi. Olaylik, A va B korxonalar bir vaqtda faoliyat ko'rsatishni boshladi. Ikkala korxonalar ham belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan va uning faoliyati qonuniy hisoblanadi. Ammo davlatning qonunlari A korxonaga imtiyoz beradi, B korxonaga esa imtiyoz bermaydi yoki unga progressiv soliq solinadi. Bu erda haqli savol tug'iladi, nima uchun ikkala korxonalar ham huquqiy jihatdan bir xil maqomga ega bo'lsa-da, ularning biriga imtiyoz berildi boshqasiga esa yo'q, bu soliqlarning adolatlilik tamoyiliga zid kelmaydimi?

Yo'q, bu ob'ektiv iqtisodiy jarayon. Chunki A korxonaning faoliyati yoki u ishlab chiqarayotgan mahsulot (xizmati) jamiyat uchun muhim yoki bunday mahsulot bozor bilan to'yinmagan, shu tufayli monopol narxlar yuzaga kelib qolmoqda. Demak, buni tartibga solish davlatning vazifasi hisoblanadi, shu sababli ham davlat bunday turdagi faoliyatni yoki mahsulot ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida o'z qonunlarida imtiyozlarni aks ettirib qo'yadi.

A va B korxonalar esa faoliyat boshlashidan oldin bunday tartib amalda mavjud bo'ldi. Demak, B korxonada faoliyatni tanlashda soliq imtiyozlari berilmaydigan faoliyatni tanlagan va unga soliqlarning sub'ektiv ta'siri yo'q.

Iqtisodiyot murakkab munosabatlar, tavakkalchiliklarga va bozor qonunlariga asoslanishi, bozorning to'yinishi ham bir maromda bo'lmaydi, bu esa doim davlat qaysidir sohalar va faoliyatni rag'batlantirib turishini, ba'zilarini esa tartiblab turishini taqozo etadi. Provardida soliqlarning doim rag'batlantirish funksiyasi mavjud bo'ldi.

Bulardan tashqari, ba'zi adabiyotlarda soliqlarning sotsial himoyalash, axborotlar bilan ta'minlash, nazorat va daromadlarni muvofiqlashtirish funksiyasi kabilar ham keltirib o'tiladi. Ammo bu kabi funksiyalar biroz bahsli bo'lib, uni ta'kidlovchi olimlar tomonidan ularning turlicha izohlari keltiriladi. Masalan, soliqlarning sotsial funksiyasi mavjud deb hisoblovchilar uni bir tomondan budjetga jalb qilgan daromadlari jamiyatdagi sotsial qatlamlarga sarflanadi, ular davlat tinchligini ta'minlashga, tibbiy xizmatlarni ko'rsatishga, kam ta'minlanganlarga moddiy yordam berishga va yosh go'daklarning sog'ligini asrashga, jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi, qolaversa, soliq imtiyozlari orqali nogironlar, mehnat qobiliyatini yo'qotganlar, kam daromad oluvchilar, sotsial ahamiyati yuqori bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar va shu kabilar ijtimoiy himoya qilinadi. Bular esa soliqlarning ijtimoiy himoyalash funksiyasidan darak beradi. Soliqlar nazorat funksiyani bajaradi deb hisoblovchilar soliqlarning amal qilishi va ularni undirish jarayonining soliq nazorati orqali ta'minlanishi va bu soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilishini ta'kidlashadilar. Ammo bu biroz bahsli bo'lib, soliq nazorati jarayoni soliqlarning ichki tabiati bilan bog'liqligi kamroq bo'lib,

aslida soliq nazorati bu soliq xizmati va boshqa bunday vakolatlar yuklatilgan organlarning tashkiliy faoliyatiga kiradi. Vakolatli organlarning vazifalari bilan soliqlarning funksiyalari esa farqlanadi.

Soliqlarning daromadlarni muvofiqlashtirish funksiyasini esa uni ta'kidlovchilar (masalan fransuz olimi E.Jirarden) soliqlar yuqori daromadga ega bo'lganlarning daromadlaridan ko'proq soliq olib, uni kamroq daromad oluvchilar o'rtasida taqsimlashda asosiy rol o'ynaydi. Davlatda nufuzli tovarlarga katta soliqlarni solishi, ish haqiga yuqori soliq stavkalarini belgilashi, jamg'armalarga soliq solishi, kam daromadga ega bo'lganlardan kamroq soliq olinishi va bunday daromadlarni ularni budjetga jalb qilib uni kam daromad oluvchilarga ko'proq sarflash jarayoni mavjud bo'ladi. Bu holat soliqlarning daromadlarni muvofiqlashtirish funksiyasini bajarishidan darakdir degan g'oyani ilgari surishga imkon beradi.

Tayanch so'z va iboralar:

Soliq, soliqsiz to'lov, soliq funksiyalari, soliqlarning vazifalari, soliqlarning belgilari, o'lpon, kontiributsiya, domen, regaliya, yig'imlar, majburiylik, ekvivalentsizlik, soliqlarning universalligi, proporsiya.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq kategoriyasining iqtisodiy mohiyati nimada?
2. Soliq kategoriyasining tarixiy va sotsial mazmuni nimalarda aks etadi?
3. Soliqlarni yuzaga kelishining ijtimoiy va iqtisodiy asoslari nimalar?
4. Soliqlarga ta'rif bering.
5. Soliqlar va soliqsiz to'lovlarning qanaqa o'xshash va farqli jihatlari mavjud?

6. Soliqlar qanaqa funksiyalarni bajaradi?
7. Soliqlarning funksiyalari va vazifalari o'rtasida farq bormi?
8. Soliqlarga qanaqa belgilar xos?
9. Soliqlarning turlicha nomda atalishining sabablari nimada? Regaliyalar nima?
10. Domenlar deganda nima tushuniladi?
11. Soliqlarning sotsial jihatlari nimalarda ko'rinadi?

3-BOB. SOLIQLARNING YUZAGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

3.1-§. Qadimgi davlatlarda soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlari¹

Tarixiy manbaalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, davlatchilikning dastlabki bosqichlarida soliqlarni undirish bo'rasidagi yondashuvlar turlicha bo'lgan. Bunday yondashuvlar soliqlarning turlari, hajmi, soliq ob'ekti (nimalardan soliq olinganligi), uni to'lovchilarning turli tumanligida ko'rinadi. Eramizdan avvalgi IV ming yillikda yuzaga dastlab quldorlik jamiyati bo'lgan Mesopotamiya va Misrda qo'shimcha mahsulot olishning asosiy usuli jamoaga birlashgan dehqonlarni ekspluatatsiya qilish yo'li bilan renta undirilgan bo'lsa, Yevropa davlatlarida qullarni beayov ishlatish – ulardan olinadigan soliqlar deb hisoblangan. Eramizdan avvalgi XVI–XII asrlarda qadimgi Misrdagi davlatchilik hukmronlik qilgan vaqtlarda soliqlarni undirish Nil daryosi bo'yida sug'orish inshootlarini qurish maqsadida undirilgan. Chunki, bu davrda dehqonchilik va chorvachilik asosiy turmush manbai bo'lib, dehqonchilikni rivojlantirish uchun sun'iy sug'orish qurilmalarini qurishga kirishilgan, bu maqsadda undiriladigan soliqlar manbai esa aholi va zodogonlarning ixtiyoridagi chorva mollari hisoblangan. Soliqlarni to'g'ri undirish maqsadida barcha

¹ Mazkur paragrafnı yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar va materiallarga asoslandi: Учебник финансового права. Иловайский С.И. – Одесса, 1904. // Allpravo.Ru -2005, Поляк Г.Б., Маркова А.Н. Всемирная история. Учебник. – М.: ЮНИТИ.2000. – 496 с.; Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложение. –М.: 2004. – 226 с; http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp va boshqa ma'lumotlar.

chorva mollari ro'yxatdan o'tkazilgan bo'lib, soliqlarni undirish vazifalari esa cherkov ruhoniylariga topshirilgan.

Soliqlarning paydo bo'lishi va rivojlanishida Qadimgi Rim ham katta ahamiyat kasb etadi. Qadimgi Rimda ham Gretsiya singari soliqlarning rivoj topishi ko'pincha ularning harbiy siyosatiga ham bog'liq bo'lgan. Qadimgi Rimda soliqlarning rivojlanishi ikki davrni o'z ichiga oladi. Birinchisi bu eramizdan avvalgi 167 yilgacha bo'lgan (Isoning tug'ilishi) davrlar bo'lib, bunda aholidan deyari soliqlar olinmagan. Shaharlarni boshqarish xarajatlari unchalik katta bo'lmasdan uning xarajatlari magistrlar (shahar hokimlarining nomlanishi)ining shaxsiy mablag'lari hisobiga amalga oshirilgan¹. Davlatning asosiy xarajatlari esa binolarni qurishga sarflangan bo'lib, ularni moliyalashtirish davlatga qarashli bo'lgan erlardan olinadigan ijara to'lovlari hisobiga qoplanib kelingan. Rimni qudratining oshishi va harbiy yurishlarni boshlashi soliqlar borasidagi davlat siyosatiga ta'sir qilgan. Dastlab aholining shaxsiy majburiyatlari sifatida yig'imlar olingan bo'lsa, keyinchalik urush xarajatlarini qoplash maqsadida favqulotda soliqlar (tributum civium) joriy qilingan. Bu soliqning xususiyati shundan iboratki, u qaytarib berish sharti bilan olingan, urushda qo'lga kiritilgan mablag'lar hisobi ular qaytarilgan bo'lsa, keyinchalik u davlat qarzi sifatida ham atalib kelindi². Rimning chetdagi olib borgan kurashlari va qo'lga kiritgan o'ljalarining oshib borishi bilan «tributum civium» deb ataluvchi yig'imlar bekor qilinib, soliqlar umumiy tartibda mutanosib shaklda joriy etila boshlandi, ya'ni uni to'lovchilarining geografiyasi

¹ http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp

² Учебник финансового права. Иловайский С.И. – Одесса, 1904. // Allpravo.Ru -2005. – С. 96

kengaydi. Soliqlarning hajmi har besh yilda saylab qo'yiladigan amaldorlar-senzorlar tomonidan aniqlanib, Rim fuqarolarissenzorlarga, o'z navbatida, o'zlarining mol-mulki va moliyaviy ahvoli haqida axborot berib turgan va keyinchalik esa deklaratsiya shakliga o'tdi.

Rim bosib olgan mustamlaka joylarda kommunal (mahalliy) soliqlar va majburiyatlar joriy qilindi. Rimdan tashqari yashovchi va rimliklar esa ham davlat ham mahalliy soliqlarni to'lash tizimiga o'tkazildi. Rim imperiyaga aylangandan so'ng uning bosib olgan joylardagi fuqarolari Rimning fuqarosi sifatida huquqqa ega bo'lmagan va ular kommunal (mahalliy) soliqlarni doim to'lab borgan. Qadimgi Rimda soliqlarning keng rivojlanishida imperator Avgust Oktavian (eramizdan avvalgi 63-14 yillar) davrida ro'y berdi. A.Oktavian «victsimani hereditatum» deb nomlangan meros solig'ini joriy qildi, bu soliq faqat Rim fuqarolari uchun joriy qilingan bo'lib, «tributum civium» yig'imi bekor qilingandan so'ng Rim aholisi deyarli soliqlar to'lamay kelayotgan edi. Rimning imperiya qudrati oshib borishi va uning hududi kengayib borishi soliqlarni undirishda ma'lum bir shaxslarga soliqlarni undirish huquqi berilgan bo'lib, bunda soliqlarni undirish huquqini kiritish uchun davlatga ma'lum miqdorda haq to'langan va u haqning o'rnini undirilgan soliqlar hisobiga qoplangan. Ammo soliqlarni undiruvchilar tomonidan adolatsizliklarga ko'p yo'l qo'yilishi imperator A.Oktavian tomonidan bunday tartibni keskin qisqartirishi va joylarda davlatning moliyasi shug'ullanuvchi davlat idoralarini tashkil qilishga olib keldi. Har bir erlarning kadastrlarini aniqlash, har bir mol-mulk va er egalarining deklaratsiyalar topshirish majburiyatlari joriy qilindi. Rimning soliq tizimi qaytadan isloh qilindi soliqlar va yig'implarning soni ortib bordi. Masalan, Rimning keyingi davrlarida sotuvdan soliq,

meros solig'i, qul saqlaganligi uchun soliq, poytaxtning mahsulot fondiga soliq, yer solig'i, bodring uchun soliq, jon boshiga soliq, uy qurganlik uchun soliq, sovun solig'i hamda bozorlarda nazoratni ta'minlash uchun yig'im, portda mahsulotni ortganligi va tushurganligi uchun yig'im, yo'l to'lovi, pulni almashtirganligi va maydalaganlik uchun yig'im, eshaklarni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun yig'im, chorva mollari uchun yig'im, uy-joylar uchun yig'im, qul sotganlik uchun yig'im, izvoshchilardan olinadigan yig'im, hammomchilardan olinadigan yig'im, ma'naviy axloqsizlik faoliyati uchun yig'im, soliq undiruvchilarni saqlash yig'imi, manzara yig'imi, muhtojlarga yordam yig'imi, qarzdorlarni qamoqxonada saqlash yig'imi, tuman boshlig'i uchun yig'im, mamlakatga tovar olib kirganligi va olib chiqqanligi uchun yig'im, darvozlardan kirganligi uchun to'lov, davlat idoralarning ish yuritish qurollari uchun yig'im va kabi ko'plab yig'implar undirildi, ahvol shu darajaga bordiki, Rimda undiriladigan soliqlar va yig'implar soni 46 taga etib qolgan. Rim imperiyasining qudrati susayib borishi va uning hududida yuzaga kelgan feodalizmga asoslangan davlatlarning tashkil topishi sabab Rimda amal qilgan soliqlarning aksariyati bekor qilindi va ularni undirish tartiblari ham o'zgarib bordi.

3.2-§. Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishi va shakllanishi

Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishida diniy tushunchalarning o'rni katta bo'lgan. Ayniqsa, bu Islom dinining tarqalishi va uning shariat tartiblari asosida turmush tarzi kechirish g'oyalarining yoyilishi vaqtida va undan keyingi davlat faoliyatini boshqarish tizimida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Muhammad (s.a.v.)

payg‘ambar yirik Islom davlatini yuzaga keltirib, Madina shahrida davlat iqtisodiy tizimini shakllantirish harakatini boshlab berdi. Ilk davr soliq tizimida Madina hukmiga bo‘ysindirilgan qabilalarning mol-mulklari asosiy o‘rin tutdi. Lekin Payg‘ambar davrida (622-632) chorva-moldan davlat foydasiga olinadigan soliq mavhum – goho «sadaqa» (فقص), goho «zakot» (الكر) deb atalib, bu termin – atamalar ilk davrda sinonim so‘zlar sifatida qo‘llanildi. Qur‘onning tarixiy oyatlaridan qadimda yahudiy va nasroniy jamoalar uchun ham diniy soliqlar qo‘llanilganligini ko‘rish mumkin. Demak, Arabiston yarim oroli, Vizantiya va Sosoniylar davlatlaridagi xristianlik va yahudiylik dinlariga e‘tiqod qiluvchi aholi uchun Islom dini paydo bo‘lishidan oldin bunday soliq turi ma‘lum bo‘lgan. Qadimda xristianlar o‘rtasidagi tabaqaviy tenglikni saqlash maqsadida boy va o‘rtahol xristianlik diniga e‘tiqod qiluvchi aholi oylik daromadining o‘ndan birini (desyatina) soliq sifatida cherkovga olingan. Yahudiylarda esa diniy majburiyat sifatidagi soliq «solihlik» (sedaka) deb atalgan. Yahudiylar chorva-mollari, hosil, urushda orttirilgan o‘ljalar va mol-mulklarning o‘ndan birini har oy dassedaka solig‘i sifatida ibodatxonani ta‘mirlashga ishlatganlar, ruhoniylar, kambag‘allar, beva va etimlar orasida tarqatganlar.

Demak, bu soliqlar xristian va yahudiy dinlaridagi dindorlarning majburiyatlari sanalib, davlat ahamiyatiga molik bo‘lmagan. Islom dinida ham zakot solig‘i musulmonlarning boy tabaqalari uchun diniy farz sifatida joriy etildi. Xristianlik va yahudiylikdan farqli o‘laroq zakot solig‘i musulmonlardan yiliga bir marta yig‘ib olinadigan bo‘ldi. Avvaliga Muhammad (s.a.v) payg‘ambar va xalifa Abu Bakr davrida (632-634) zakot solig‘i Qur‘onda buyurilganidek, faqat faqirlar, miskinlar, sadaqa [zakot] yig‘uvchilar, ko‘ngillarni islomga oshna qilinuvchi kishilar,

qullarni ozod qilish uchun, qarzdorlar va musofirlarga tarqatildi. Muhammad (s.a.v) payg‘ambar zakot solig‘idan tushgan mablag‘ning ma’lum qismini musulmon bo‘lmagan arab qabilalarining shayxlari, e’tiborli kishilarga nafaqa sifatida berib turgan. Bundan asosiy maqsad ularning qabiladoshlari orasida islom diniga nisbatan hurmat hissini uyg‘otish edi. Qur‘onda zikr etilgan mazkur yetti toifaning ichidagi ko‘ngillari islomga oshna qilinuvchi kishilar (مُهْبُولٌ وَمُهْبُولَاتٌ – mu‘allafatu liqulubihim)ga berish nafaqa Umar ibn al-Xattob davrida bekor qilindi. Yangi tashkil topayotgan davlatda soliq masalasida ilk davrga nisbatan tub o‘zgarishlar Umar ibn al-Xattob davriga kelib yuz bera boshladi. Islomdan avvalgi arablar amaliyotida biror hududni kuch bilan (قَوْنَعٌ – ‘anwatan) bosib olish davomida aholi punktlaridagi ekinzorlarni o‘zaro mulk qilib, bo‘lib olish odat tusiga kirgan edi. Muhammad (s.a.v) payg‘ambar ham shu odatga ergashgan holda Xaybarni zabt etish (628 yil) davomida egalari urushda halok bo‘lgan ekinzorlarni istiloda qatnashgan askarlarga bo‘lib bergan edi.

Davlat mustahkamlana borgach, bu amaliyotdan voz kechila boshlandi. Masalan, Umar ibn al-Xattob Sosoniylar va Vizantiya imperiyalari hududlaridagi podshohlar, ularning oilalari, amaldorlar hamda urushda o‘lganlar, qochib ketgan er egalarining ekinzorlarini davlat mulki hisobiga o‘tkazdi. Bu yangi erlar musodara qilinmaydigan as-savofiy (يِفاوِصِلَا) erlar deb nom oldi. Ayniqsa as-Savod, Sh om viloyatlari arab davlati tasarrufiga kiritilgach, as-savofiy ekinzorlar hajmi ortib ketdi. Ular davlat tasarrufiga kiritilib, ijaraga berila boshlandi. Umar davrida davlatda eski amaliyotni ya’ni, bosib olingan erlarni al-fay’ (ءِيفِلَا – o‘lja) sifatida askarlarga bo‘lib berishini davom ettirmoqchi bo‘lgan qo‘mondonlarning xatti-harakatlari keskin to‘xtatildi. Bu bilan Umar ibn al-Xattob Muhammad

(s.a.v) payg'ambar tomonidan ta'sis etilgan askarlarning al-fay ulushini bekor qilib, uning o'rniga yangi institut xirojni joriy etdi. Markazlashib kelayotgan davlatning iqtisodiy rivojlanishida xiroj (yerdan olinadigan mahsulot solig'i) instituti muhim o'rin tutadi.

Muhammad (s.a.v) payg'ambar va Abu Bakr davrida Arabiston yarim orolidagi dehqonchilik rivojlangan biror hudud (احلص – sulhan) istilo etilganda, undagi dehqonlarning ekinzorlari o'z egalarida qoldirilib, ularga juz ya solig'i o'rniga xiroj solig'i tayin etilgan. Bu holatni Muhammad (s.a.v) payg'ambarning Haybar aholisi bilan sulh tuzib, ularga xiroj tayin etishi misolida ko'rish mumkin. Demak, xiroj solig'ini birinchi bo'lib arab davlatchiligi tarixida Muhammad (s.a.v) payg'ambar tatbiq etgan. Ammo Umar ibn al-Xattob davriga kelib, davlatchilikning tezlik bilan rivojlanib borishi sharoitida anwatan yoki sulhan istilo etilgan erlarning har ikkisiga ham ekinzorlar hosillaridan olinadigan xiroj solig'i tayin etila boshlandi. Asta-sekin Arab xalifaligi amaliyotida xirojning uch turi shakllana boshladi: **misoha**, **muqotama**, **muqosama**. Birinchi turdagi soliq (عاسم – misoha) olish tartibi quyidagicha bo'lgan: ishlov berilgan yer bir necha qismga bo'linib, uning ma'lum bir qismida etishtirilgan hosil davlatga to'lig'icha natural holda soliq sifatida olingan. Ikkinchi turdagi soliq (عطاقم – muqotama) esa katta erdan foydalanish uchun bir necha yil oldin, belgilangan pul miqdori bilan olingan. Uchinchi turdagi soliq (عمساقم – muqosama) erda etishtirilgan umumiy hosilning bir qismi holda davlat foydasiga olingan. Arab-musulmon davlati budjetining yuksalishidagi asosiy manba rolini ushr (رع – arab tilidan so'zma-so'z: o'ndan bir) solig'i o'ynadi. Ushr solig'i yig'ilgan hosilning (1/10) qismiga teng. Aksariyat manbaalarda bu soliq alohida, ba'zan xiroj solig'ining

tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ushr solig'i xalifa Umar ibn al- Xattob davrida o'zining aniq ko'rinishiga ega bo'ldi. Bu davrga kelib, markazlashgan Islom davlatining soliq siyosatida boj va savdo ushri solig'i paydo bo'ldi. Bu soliq urush olib borilayotgan davlat (balad al-harb) dan Madina davlati tasurrufidagi hududlarga tijorat uchun qatnaydigan kemalar va yakka savdogarlarning tovarlari hisobidan olingan. Shuningdek, boj ushrining foiz qiymati ham savdogarning diniy e'tiqodiga qarab belgilangan: musulmonlardan ushrning choragi (1/4), ya'ni 2,5 % yoki 5 dirham yoki yarim misqol oltin, zimmiylardan ushrning yarimi (1 /2), ya'ni 5 % yoki 10 dirham yoki bir misqol oltin, musulmonlar urush e'lon qilgan hududdan kelganlar (ahl balad al-harb yoki harbiy) uchun esa to'liq, ya'ni 20 dirham yoki ikki misqol ushr olingan. Shuningdek, ushr solig'ining nisobi 20 misqol tilla yoki 200 dirham etib belgilangan.

Bundan bu soliqqa ham zakotning nisobi asosiy mezon qilib belgilanganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, islom davlati hududiga kirib kelayotgan bug'doy va yog' mahsulotlariga musulmonlarda ehtiyojning kattaligi uchun yarim, mosh, no'xot, yasmiq, loviyalarga esa – to'liq ushr tayin etilgan. Zabt etilgan hududlarning yangi dinni qabul qilgan dehqonlari o'z ekinzorlaridan xiroj solig'i o'rniga ushr solig'i to'laganlar. Lalmikor va ariqlardan sug'oriladigan erlardan to'liq ushr, quduq, hovuz, meshlarda sug'oriladigan erlardan esa yarim ushr olingan. Bu misollardan Umar ibn al-Xattobning davlat hukmi doirasini yangi hududlarga kengaytirishda soliqlar siyosatidan unumli foydalana olganligini ko'rish mumkin. Yangi shakllanayotgan soliq tizimida musulmon bo'lmagan aholidan jon boshi hisobida olinadigan juz ya solig'i muhim o'rin tutdi. Al-Jizya (عزج) instituti Arab xalifaligi o'tmishdoshlari

– Sosoniylar (224-651) va Vizantiya imperiyalari davlat tizimida ham mavjud boʻlgan. Bu imperiyalar hududida yashagan johiliya davri arablari mazkur jon soligʻini «joliya» deb ataganlar. Manbalarda keltirilishicha, davlat namoyondalari bu soliqni yiliga uch marta yigʻib olishgan. Sh ohan-shoh Xusrav Anushirvon (531-579) xristianlar, yahudiylarning baʼzi toifalariga bu soliqni joriy qilgan.

Ammo boshqa dinlarga eʼtiqod qiluvchilar orasidan zodagon xonadonlar vakillari, voliyalar, otliq askarlar, haram (ibodatxona) xizmatchilari, sud yalar, dehqonlarning raislari va devon kotiblari bu soliqdan ozod etilganlar. Muhammad (s.a.v) paygʻambar va Abu Bakr davrida soliqlar miqdori muayyan tarzda belgilanmagan edi. Bosib olingan hududlardan olinadigan soliqlarning miqdori Umar ibn al-Xattob hukumati tomonidan ishlab chiqila boshladi. Birinchi navbatda juz ya soligʻi toʻlovchilar uch toifaga boʻlindilar: 1) boylar – 48 dirham; 2) oʻrtahollar – 24 dirham; 3) kambagʻallar – 12 dirham. Birinchi toifani yuqori tushumga ega boʻlgan sarroflar, gazlama sotuvchilar, yirik savdogarlar, katta er egalari, tabiblar, ikkinchi toifani esa hunarmandlar, tikuvchilar, boʻyoqchilar va kosiblar tashkil qildilar. Uchinchi toifani kam daromadli aholi tashkil etdi. Juz ya soligʻi ishga yaroqsizlar, qariyalar, nogironlar, koʻrlar, aqli ojizlar, rohiblar, ayollar va bolalardan olinmagan. U aholidan har yilda bir marta yoki har oyda qisman toʻlab borish orqali yigʻib olingan. Juz ya institutini shakllantirishda Umar ibn al-Xattob istilo etilgan hududlardagi iqtisodiy ahvolni hisobga olgan. Shimoliy Arabiston aholisining Yaman aholisiga nisbatan iqtisodiy qudrati yuqoriligi bois Iroq va Suriyaning boy tabaqalari 48 dirham oʻrniga 50 dirhamdan juz ya toʻlaganlar. Yangi rivojlanib kelayotgan davlatning iqtisodiy tizimi shakllanishida «Bayt al-mol» (بيت المال) – davlat gʻaznasi, pul va boshqa qimmatbaho

buyumlarni saqlash uchun ombor)ning tashkil topishi asosiy rol o'ynadi. Bu muassasada daromad manbaalari va ularni qaerlarga sarf etish borasidagi ma'lumotlar saqlangan. Bayt al-molga keladigan soliqlarning hammasi ham faqat pul shaklida bo'lmay, balki natural soliqlar – don, qoramollar, matolar va qurol-aslaha turlari ham mavjud edi. Abu Bakr davrida Madina davlati tasarrufining kengaya boshlashi va ar-Ridda harakati orqali boshlangan arab yurishlari natijasida davlat g'aznasiga kelib tushadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Avvaliga Abu Bakr davlat g'aznasini o'z uyida, keyinchalik Payg'ambar masjidida saqladi. Markazlashgan Madina davlati boshqaruvi Umar ibn al-Xattob qo'liga o'tgach, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy shakli avvalgi holatini tubdan o'zgartirdi. U zabt etilgan hududlarning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy tizimlarni islom davlati amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, Umar ibn al-Xattob devonlar tizimini eroniylerden o'zlashtirgach, bu devonlarni bir yerga birlashtirish maqsadida Bayt al-mol muassasasini tashkil etdi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatdagi qurilishlar, davlatning harbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy ta'minot, iqtisodiy islohotlarni davlat o'z tasarrufi doirasida ushlab turishi uchun qoplanadigan mablag'lar va hukumatning boshqa sarflari uchun ketadigan xarajatlar Bayt al-moldan olinib boshlandi. Bularning hammasi Bayt al-molga Umar ibn al-Xattob davrida asos solinganligini ko'rsatadi. Davlatdagi tushumlarning oshishi bilan bir qatorda uning xarajatlari ham oshib bordi. Buni xalifa Umar ibn al-Xattobning arab davlatchiligiga umuman yot bo'lgan hukumat ishchi-xodimlari, davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami va diniy arboblarga muayyan tarzda moashlar berish misolida ko'rish mumkin.

Xalifa Umar ibn al-Xattob aholiga moash va nafaqa tayinlashda aholining Muhammad (s.a.v) payg'ambarga

(qarindosh) yaqinligi va davlat oldidagi xizmatiga muhim ahamiyat berdi. Makka va Arabiston yarim orolida pul ishlab chiqarilmaganligi uchun arablar VII asrning 60-yillariga qadar asosan Vizantiya imperiyasining tilla va Sosoniylar davlati va Yamanning kumush tangalaridan, ba'zi hollarda esa Afrika va Yamandan keladigan oltin qumlaridan ham foydalanganlar. Ularni tortib olishda dinordan vazn birligi sifatida foydalanganlar. Islomdan oldingi davr arablari Tabariston, Xorazm va Bag'lon davlatlarida zarb etilgan dirham tangalarni ishlatganlar. Vizantiyada ishlab chiqariladigan tilla (nomisma) tanganing og'irligi yaxlit 4,45 gramni tashkil etib, old qismida imperatorning surati zarb etilgan edi. Kumush tangalar pul muomalasida katta ahamiyatga ega emas edi. Bozorlarda kundalik savdoda asosan mis tangalar (fils) ishlatilardi. Arabiston yarim orolining katta qismi «dirham zonasi»da bo'lib, Yarim orolning shimoli-g'arbi esa «tilla zonasi» hududiga kirar edi. Shu ikki zonaning kesishgan joyi Makka shahri edi. Makka bozorlarida dinor (nomisim) va dirham ishlatilardi. Vizantiyada zarb etilgan dirhamlarning juda yupqaligi va ishlatish jarayonida eyilishning osonligi savdogarlarni dirhamlarni tortib olishga majbur etardi. Shuning uchun savdogarlar dona-dona ishlatiladigan paytlarda to'liq dirhamlardan foydalanar edilar. Makkada dinor bilan dirham o'rtasidagi farq 1 dinorga 10 dirhamni tashkil etgan. Xalifa Umar davriga kelib dinorning kursi 12 dirhamga ko'tarilgan.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan hududlardagi soliqlarni tayin etishda maydon o'lchov birligi, vazn va sig'im o'lchov birliklaridan foydalanilar edi. Bosib olingan hududlardagi o'lchov birliklari davlatning asosiy etalonini tashkil etdi. Masalan, Misr aholisi ishlatadigan irdob, qist, jarib va boshqa o'lchov birliklari davlat miqyosida ishlatila boshlandi.

Shuningdek, arablarda qadimdan boshqoli o‘simliklar va sochiluvchan jismlarni o‘lchash uchun mudd, maxtum, qafiz vazn o‘lchov birliklari vasq, dirham, misqol, ratl, uqqa, uqiya, xoshimiy rub, qintor, maydon-er o‘lchash uchun esa doniq, qiyrot, faddon, zirot kabi o‘lchov birliklari ma‘lum edi. Ilk arab-islom davlati rivojlanib borish jarayonida iqtisodiy masalalarda diniylik va dunyoviylik unsurlari bir-biridan asta-sekin ajralib chiqa boshladi. Xalifa Umar ibn al-Xattob Muhammad (s.a.v) payg‘ambar davridagi soliqlarning turlari va miqdoriga bir qator o‘zgartirishlar kiritdi. U ilk davrda musulmonlar uchun notanish bo‘lgan savdo va boj ushrini davlat soliq tizimida qo‘llay boshladi. Juz ya va xiroj institutlarining aniq ob‘ekti va hajmini muayyan darajaga keltirdi. Arabiston yarim oroli uchun noma‘lum bo‘lgan Bayt al-mol muassasasi tashkil etilib, askarlar, davlat apparati xodimlari, ishchi-xizmatchilarga moashlar tayin etildi. Yangi shakllanayotgan davlat aholisini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida qariyalar, etimlar va boshqa e‘tiborli shaxslarga nafaqalar belgilandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Umar ibn al-Xattob davrida olib borilgan soliq siyosatidagi islohotlar natijasida davlatning iqtisodiy ravnaqi Muhammad (s.a.v) payg‘ambar rahbarligi davri ko‘rinishidan tubdan farq qildi. Boshqaruv tizimining shakllanishida xalifa Umar ibn al-Xattob davrida devon (ن ا و د)larning joriy etilishi muhim rol o‘ynadi. Devon tizimi Sosoniylar davlati an‘analaridan o‘zlashtirildi. Devon – fors tilida «ro‘yxat», «qayd qilish» yoki «daftar» ma‘nolarini anglatadi. Unda bir necha bo‘limlar mavjud edi. Jumladan, Askarlar devoni (ن ا و د دن ج ل ا)da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilandi. Xaroj devoni (ن ا و د ج ا ر خ ل ا)da «Bayt al-mol»ga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda devonning doimiy tarkibini

o‘z ichiga oluvchi ro‘yxat tuzilgan bo‘lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo‘lgan kishilar ro‘yxati qayd etildi. Devon tizimi markaziy hokimiyat tarkibida joylashdi. Istilo qilingan erlardagi kirim-chiqimni nazorat qilish esa bevosita voliylar zimmasida edi. Bu tizim vositasida Umar davlat xizmatchilariga, avvalo, harbiy xizmatchilarga haq to‘lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo‘ldi. Soliq va xiroj devonlaridagi hisob-kitob ishlarni olib borish uchun tayinlangan xodimlar Iroq va Eronda fors tilida, Shomda Vizantiya (yunon) tilida, Misrda kopt (qibtiy) tilida olib borishgan. Askarlik va maoshlar devonida ish faqat arab tilida yuritilar edi. Voliylarning soliq va xaroj devonlari ishlaridan xabardor bo‘lib turishlari uchun arab va mahalliy tillarni biladigan tarjimonlar kerak bo‘lgan¹.

3.3-§. Yevropa va Osiyo davlatlari va Rossiyada soliqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlari²

Formatsiyalashuvning feodalizm shaklini paydo bo‘lishi va uning rivojlanib borishi yer egaligining feodal shakliga o‘tishi, moliya, sud, boshqaruv masalalari ham

¹ «Islom dini tarixi va falsafasi» fani bo‘yicha ma‘ruzalar matni. –T., 2010. Tuzuvchi: S.Oqilov. <http://library.ziyonet.uz/uploads/books/47828/53be79941f061.pdf>.

² Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma‘lumotlar va materiallarga asoslandi: История средних веков под ред. Колесницкого Н. 1974; Учебник финансового права. Иловайский С.И. – Одесса, - 1904. // Allpravo.Ru -2005; Поляк Г.Б, Маркова А.Н. Всемирная история. Учебник. –М.: ЮНИТИ, 2000. – 496 с; Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложение. М.: 2004,-226 с, http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp va boshqa ma‘lumotlar. http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp

yer egalariga tegishli bo'lib qoldi, umumdavlat xarajatlari ancha qisqardi, davlatning asosiy daromad manbaalari uning mulkidan, regaliyalar (mulkdan foydalanish va boshqa huquqlarni berganlik uchun yig'imglar) ham bojlardan tashkil topib bordi. Feodal tarqoqlikning kuchayib borishi esa davlatlarning uyushmalarini va unga muvofiq soliqlarning ham takomillashib borishiga asos bo'ldi. Bu holat, ayniqsa, yer va savdo munosabatlari, keyinchalik esa manifaktura rivojlangan Yevropa davlatlarida, jumladan, Fransiya, Angliya va Germaniyada ancha shakllanib bordi. Fransiyada XV asrlarga kelib qirollik va feodal katta er egalarining o'rtasidagi qattiq ziddiyatlar oqibatida Fransiyada yirik markazlashgan davlat va uning o'ziga xos moliyaviy tizimi shakllandi. Bu vaqtlarda Fransiyada xashslardan olinadigan to'g'ri soliq («*taille personelle*») va mol-mulkdan olinadigan («*taille reille*») to'lovlar asosiy soliq sifatida yuzaga keldi. XVII asrlarda soliqlar yanada keng rivoj oldi va uning soni ham ko'payib bordi.

To'g'ri va egri soliqlar mamlakatning turli joylarida turlicha undirila boshlandi. Soliqlarning noto'g'ri taqismlanishi, aristokratlarning soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashi, aholining zimmasiga soliq og'irligini oshib borishi, soliqlarni davlatdan undirish huquqini qo'lga kiritgan soliq undiruvchilarning soliq undirishdagi adolatsizligi, bir xil joylardan egri soliqlar undirilsa boshqa joylardan undirilmasligi Fransiyada yirik to'ntarilishga sabab bo'ldi. Revolyusion hukumat esa avvalgi barcha soliqlarni bekor qilib, keyinchalik soliqlar davlat faoliyatining asosiy manbai ekanligidan kelib chiqib turli xil (asosan er solig'i, daromad solig'i, mol-mulkdan soliq, jon boshiga soliq, yig'imglar va sh.k.) soliqlarni yanada ko'payirishga majbur bo'ldi.

Yevropada soliqlarning rivojlanishi Angliyada ham o'ziga xos ko'rinishda rivoj topdi. Mamlakatda boshqa davlatlar

singari Rim imperiyasi davridagi boshqaruv tizimiga barham berilishi bilan birgalikda soliqlarni undirishda ham asosan qirollikka tegishli bo'lgan erlardan keladigan daromadlarga qaratildi. Dastlabki vaqtlarda soliqlar favqulotda holatlarda, ya'ni tashqi dushmanlarning hamlasiga uchrash xavfi yuzaga kelganda undirila boshlandi, tinchlik vaqtlarda esa alohida soliqlar undirilmadi. Bu vaqtlarda Angliya qirolligi asosiy xavf solib turgan Normaniya va Daniya qirolligi bo'lib, favqulotda yig'ilgan soliqlar shu tufayli ham «Daniya pullari» degan nom oldi. Angliyada bu davrlarda soliqlarni joriy qilishda qirol va parlament o'rtasidagi keli-shuvga ko'ra amalga oshirila boshlandi. Soliqlarni joriy etish va uni undirishdagi qirol va parlament o'rtasidagi ziddiyatning kuchayib borishi, keyinchalik Angliyada respublika shaklidagi davlat shaklining asos solinishi oqibatida soliq tizimining ham xususiyatlarini o'zgartirdi. Angliyada respublika shaklidagi davlatning yuzaga kelishi bir qator og'ir bo'lgan soliqlar, jumladan, aksiz solig'i ham joriy etildi. XVIII asrdan boshlab Angliya tomonidan juda ko'plab urush harakatlarining olib borilishi davlat xarajatlarini, o'z navbatida, soliqlarning ham ko'payishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu davrlarda egri soliqlar savdo (oborot) solig'i, aksiz solig'i va bojlarning oshishi ro'y berib, to'g'ri soliqlar bu davrlarda davlat xarajatlarini qoplashda unchalik ahamiyatli emas edi. Ayniqsa, Fransiya imperatori Napoleon bilan urushlar vaqtida soliq turlari, jumladan, daromaddan olinadigan soliqlar ham oshirildi. 1815 yildan boshlab esa Angliyada soliqlarning kamaytirilishi, soliqqa tortish tizimida esa soddalashtirilgan soliqqa tortish tartiblari kengaytirila boshlandi. 1840-1850 yillar oralig'ida juda ko'plab bojxona bojlari bekor qilindi. Keyinchalik aksizlarning soni, jumladan, birinchi navbatda, zarur bo'ladigan mahsulotlardan undiriladigan aksiz soliqlari

ham qisqarib boshladi. Angliyada soliqlarning shakllanish jarayonida harbiy harakatlarning ta'siri juda kattaligi bilan xarakterlanadi. Bu holat birinchi va ikkinchi jahon urushlari vaqtida ham shunday ahamiyat kasb etdi.

Germaniyada ham feodalizm kurtaklari yoyilib, er egalarning davlat turmush tarzidagi o'rnini oshib borgandan so'ng bu erda ham umumdavlat miqyosidagi soliqlarni joriy etish masalalari ancha kech amalga oshdi. Germaniyada ham imperator va uning fuqarolari (er egalari) o'rtasida tabaqalashuv ancha davom etdi. Bu esa soliqlarni undirish jarayoniga ham ta'sir qildi. Soliqlar ko'pincha imperatorga yordam, imperatorning so'rovi, sifatida precaria, Bidden (bitten) nomi bilan atalib kelindi. Ba'zi hollarda esa subsidiyalar deyarli majburiy xarakterga ega bo'ldi. Masalan, davlatdan asirni sotib olish, ritsarlik maqomini uning o'g'liga berish yoki ritsarning qizini turmushga berish kabi jarayonlardan majburiy to'lovlar undirilgan. Germaniyada umumdavlat miqyosida soliqlarni joriy etish masalalari uzoq vaqt qiyinchiliklar bilan davom etdi. Shu bilan birgalikda bojxona to'lovlarni undirishni yagona davlat tizimiga o'tkazish ham ancha qiyin kechib bordi. Boj to'lovlarini joriy etish masalalari imperatoridan mahalliy hukmdorlarning vakolatiga o'tib bordi. Imperator tomonidan tayinlangan «kurfyurstlar» (Kurfürst – nemischa so'z bo'lib, Kür – «tanlash, saylash», Fürst – «knyaz» so'zlaridan olingan va imperator tayinlagan vakil degan ma'noni beradi) tomonidan mahalliy zodagonlardan boj to'lovlari yig'ib kelingan, ba'zi hollarda esa mahalliy zodagonlar esa bunday huquqni to'liq o'zlarida saqlab qolib, ma'lum bir qismini umumdavlat maqsadlariga yuborib turgan.

Germaniyada ritsarlarning vahshiylik harakatlari kuchaygandan so'ng aksariyat aholi va zodagonlar imperatorga murojaat qilib, himoya qilishi va uning o'rniga

soliqlar to'lab turishga majbur bo'lganlar va shu tariqa umumdavlat miqyosida soliqlarni joriy etish jarayonlari kuchayib bordi, shaharlarda davlatga soliqlarni undirish bilan shug'ullanadigan davlat idoralari tashkil etildi. Germaniyada ham asosiy davlat xarajatlarini harbiy xarajatlar tashkil qilgan. Urush bo'lmagan vaqtlarda esa ichki tartib qo'shinlari saqlanib, soliqlar kamaytirilgan. Ammo doimiy armiyani saqlash esa katta xarajatlarni talab qilgan va uni amalga oshirishga majburlikdan esa soliqlarning ham doimiy undirilishiga olib keldi. XVII va XVIII asrlarda Germaniyada asosiy soliqlar sifatida aksizlar, domenlar (domen fransuzcha so'z bo'lib, «domaine» – viloyat, birlik, tarkib degan ma'nolarni anglatadi) davlatning moliya xo'jaligida asosiy rol o'ynay boshladi. Sanoat va savdo sotiq ishlarining rivojlanishi esa egri soliqlar bilan birgalikda to'g'ri soliqlarning ham rivojlanib borishiga olib keldi.

Ma'lumki, Rossiyada umumlashgan davlat shakli X asrning oxirlarida shakllangan bo'lib, unga qadar turli xil darajadagi knyazliklar mavjud bo'lgan va ular o'zlarining xarajatlarini turlicha uslubda qoplab kelgan. Umumlashgan davlatni shakllanishida uning soliq tizimi asosan o'zaro urushlar davrida qo'lgan kiritilgan o'lponlar (dan) tashkil etgan. Knyazliklarning davlatga birlashishi soliqlarning ham shakli va undirish uslublarini o'zgartirishga olib keldi va ular aholidan olinadigan majburiy to'lovlarga aylandi. Soliqlarni undirish bilan maxsus bog'liq bo'linmalar va ruhoniylar shug'ullanishgan. Mo'g'ullar bosqini davrida qolgan «chiqish» boji keyinchalik boj to'lovlariga aylantirildi. Egri soliqlar sifatida savdo va sud poshlinalari yuzaga keldi. Sud bojlari keyinchalik domenlar sifatida e'tirof etilgan. Davlat savdo qilganlik uchun to'lovlar undirish bilan birga bunday huquqni berganlik uchun ham

ayrim vaziyatlarda to'lov joriy qilgan Sud bojlari esa turli xil nizolarni ko'rishda davlatga to'langan to'lovlar bo'lib, bular juda muhim sanalgan. Mo'g'ullardan meros bo'lib qolgan «chiqish» solig'i aholidan boshqacharoq tartibda, ya'ni har bir jon boshi va chorva mollaridan undirilgan. Keyinchalik «yam» degan to'lovlar ham joriy qilinib, uning mohiyati pochta stansiyalarida aravaga qo'shilgan otlarni almashtirganlik uchun undirilgan. Mo'g'ullar Rossiya yerlarni bosib olgan vaqtlarda Rossiya hududidan soliqlarni undirish huquqlarini Bog'doddan keluvchi arab savdogarlariga bergan va ular knyazlar tomonidan yig'ilgan soliqlarni olib ketish bilan shug'ullangan. Bu juda ko'plab noroziliklarga sabab bo'lganligi sababli soliq undirishning boshqa ko'rinishlari ham shakllantirilgan.

Oltin O'rda davrida soliqlar «Buyuk Baskak»lar deb ataluvchi maxsus kishilarga berilgan (Baskak mo'g'ullar davridan qolgan bo'lib, soliq undirish huquqi berilgan noibga nisbatan «baskak» so'zi ishlatilgan). Oltin O'rda vaqtida barcha erlar, aholi va chorva mollari ro'yxati tuzib chiqilgan va erlarning kadastri ham alohida ishlab chiqilgan. Soliqlarni undirishda ikki xil boshqaruvlik, bir tomondan baskaklar tomonidan soliqlar undirilgan bo'lsa, mahalliy knyazlar tomonidan ham soliqlar undirib borilgan. Keyinchalik baskaklar tomonidan asosiy soliqlar – savdo solig'i, er solig'i, jon boshidan olinadigan soliq, ishlov berilmagan yerlardan olinadigan soliqlar, boj to'lovlari hamda harbiy majburiyatdan ozod qilinganlik uchun soliqlar undirib borilgan. Rossiyada Pyotr I hukmronlik qilgan vaqtlarda harbiy harakatlar ko'payishi ortiqcha mablag'larni talab qilar va qo'shimcha soliqlarni joriy etishga sabab bo'ldi va davlat yig'implari, kirakashlik qiluvchilardan yig'implar, karvonsaroylardan olinadigan yig'im, pechlar uchun soliq va dala sudlari

uchun maxsus soliqlar joriy qilindi. Shu bilan birgalikda «foyda keltiruvchilar» degan maxsus lavozim ham joriy qilindiki, ushbu lavozimdagilar davlat g'aznasiga yangi daromad manbaalarini izlash va shakllantirish bilan shug'ullanishgan. Ekaterina II vaqtida esa soliq tizimi ancha rivojlantirildi. Bu davrda davlat moliyasi bilan doimiy shug'ullanuvchi maxsus ekspeditsiyalar shakllantirilib, ular 4 guruhga ajratilgan. 1-guruhdagilar davlat daromadlari bilan shug'ullanishgan bo'lsa, 2-guruh davlat xarajatlari bilan, keyingi guruh taftish va soliqlar bo'yicha qarzdorlik masalalari bilan shug'ullanishgan. XVIII asrning oxirlariga kelib davlat budjetida to'g'ri va egri soliqlarning ulushi ortib bordi. Bu davrda hovlilardan va hunarmandchilik faoliyati uchun olinadigan soliqlar katta o'rin egalladi. Shuningdek, ko'pgina tovarlar (masalan, kerosin, tuz, tamaki, shakar, gururt va shu kabilar)ga aksizlar joriy qilindi. Jon boshiga soliq 1863 yilda shaharlarni qurish solig'i bilan almashtirildi, mahalliy soliqlar sifatida zavod, fabrika va savdo inshootlari joylashgan erlardan yig'imlar joriy qilindi. XIX asrning 80-yillarida jon boshidan olinadigan soliqlar bekor qilinib, daromaddan olinadigan soliq, qimmatbaho qog'ozlar hamda davlat uylari uchun soliqlar joriy qilindi. Bu davrga kelib Rossiyada asosiy hunarmandchilik solig'ining roli ortib bordi va u takomillashtirilib, yangi shakllari joriy etilib borildi. XIX asrning oxirlariga kelib korxonalarining, ayniqsa, aksionerlik shaklidagilarining foydasidan 3 foizlik yig'im, keyinchalik ularga kapital solig'i ham joriy qilindi. 1916 yilda daromadga ega bo'lgan barcha (yuridik va jismoniy shaxslar)ga daromad solig'i joriy qilindi.

O'rta asrlarda soliqlarning rivojlanishi janubiy va sharqiy Osiyo davlatlarida ham o'ziga xos tarzda rivojlanish tarixiga ega. XIII–XV asrlarda Hindistonda Dehli sultonligi davrida

solliqlar boshqa davlatlar singari erlar, sug'orish inshootlari, o'rmonlar, maysazorlar davlat mulki hisoblanib, undan solliqlar davlat manfaatlariga undirilish joriy etildi. Bu davrda sul-tonlarga yerlar «iqta» (iqta arabacha so'z bo'lib, إقطاع – ulush, chek yer degan ma'noni anglatadi, Rossiyada ham 18-19 asrlarda ushbu shaklida er berish amal qilgan bo'lib, u «nadel» deb nomlangan) shaklida taqdim etilib, ushbu yerlardan solliqlar olish sul-tonlarning vakolatiga kirgan. Keyinchalik iqta egalari faqat solliqlardan ozod qilindi va undirilgan solliqlar esa davlat ixtiyoriga olib qo'yildi. Shuningdek, Hindistonda yer berilishining boshqa shakli ham mavjud bo'lib, u «in'om» – hadya degan ma'noni anglatgan. In'omlar erdan tashqari pul, mahsulot, kiyim yoki qullar bilan mukofotlash tarzida ham berilgan. Ko'pgina solliqlarning sul-tonlik tomonidan joriy qilinishi ham fuqarolarining buyuk sultonga taqdim qilingan in'omi tarzda ham atalib kelingan.

Solliqlarning Osiyodagi xususiyati o'rta asrlarda Xitoyda ham ancha rivoj topdi. X–XII asrlarda Xitoyda hukmronlik qilgan Sun sulolasi davrida solliqlarni undirish tartiblari ancha takomillashtirildi. Erlar imperator, katta amaldorlar va harbiylar o'rtasida taqsimlanib, erdan foydalanuvchi dehqonlar esa davlatga va yer egasiga renta to'lab kelgan. Asosiy solliq turi «ikki martalik yig'im» deb nomlangan bo'lib, ushbu yig'im doimiy oshib borgan. Solliqlar bo'yicha qarzdorligi oshib borgan dehqonlarning davlatga tobeligi ta'minlangan va shu orqali solliqlardan siyosiy maqsadda ham foydalanilgan. 1070–1076 yillarda Xitoyda o'sha vaqtda davlat boshlig'i bo'lgan Van An shi tomonidan mamlakatda katta islohotlar o'tkazilib, unda erlarni o'lchash va solliqlarni undirish tizimiga ham katta o'zgartirishlar kiritildi. Bu Van tomonidan joriy qilingan «Yangi qonunlar» deb ataluvchi konsepsiyasidan o'rin

oladi. Shuningdek, avvalgi jismoniy mehnat bilan ishlab berish shaklidagi soliq undirish tartibi pul shaklida undirish shakliga almashtirildi. «Yangi qonunlar»da soliqlardan tashqari davlatning savdo, narx va pulni tartiblash hamda davlat tomonidan kreditlash mexanizmlari ham o‘rin olgan edi.

1200 yillarning boshlarida Xitoyning mo‘g‘ullar tomonidan bosib olindi. Unga qarshi kurash olib borgan Chju Yuan chjana hukmdorligi vaqtida ham soliq tizimi ancha rivojlantirilgan. Bu davrlarda bo‘z yerlarga ishlov bergan dehqonlarga soliq imtiyozlari joriy qilindi, ularga davlat tomonidan kreditlar ajratish tartiblari joriy qilindi yoki avvalgi soliqlarning qarzlaridan voz kechildi. Bu vaqtlarda yer va jon boshiga soliqlar katta rol o‘ynadi. Soliq undirishni adolatli amalga oshirish maqsadida 1370 yildan boshlab yerlarning ro‘yxati tuzildi va ularning kadastrlari ishlab chiqildi. Bu jarayon «Sariq reestr» deb nomlandi. 1387 yilda esa butun Xitoyda yagona yerlarning reestri yaratildi va u xitoy tilida «ribicheysho‘ycha-togo» deb nomlandi. Ushbu hujjatda har bir yerga birlashtirilgan dehqonlardan undiriladigan soliqlar aniq qilib belgilab qo‘yildi.

Feodal xo‘jalik davrida Osiyoda soliqlarning rivojlanishi Usmoniylar imperiyasida ham ancha shakllantirildi. XV asrning oxiriga qadar imperiyada yerlar davlatga qarashli bo‘lgan, ularni yagona taqsimlovchi shaxs sultonning o‘zi bo‘lgan. O‘sha vaqtlarda asosiy yerlardan undirilgan (ayniqsa, bosib olingan Yevropa davlatlaridagi erlardan) soliqlar shaxsan sultonning g‘aznasiga jalb qilingan. XV asrdan keyin esa yerlar sultonlik tomonidan ma‘lum bir soliqlarni to‘lab turish sharti bilan katta yer egalariга bo‘lib berildi. Ya‘ni, «tumor» solig‘i tufayli 3 ming aqchagacha (aqcha – bu pul birligi), «zaymat» solig‘i bo‘yicha esa 3

mingdan 10 minggacha sultonga soliq to'lab turish tartibi joriy qilindi va ushbu soliqlardan olingan daromadlar asosan harbiy ishlarga maqsadli sarflangan. Usmoniylar imperiyasi davrida soliq tizimining Yevropa davlatlaridagi tizimga o'xshash xususiyatlaridan biri bu – soliq undiruvchilarga ularni undirish huquqining ma'lum bir to'lovlar evaziga berilishi edi. Vaqt o'tishi bilan Usmoniylar imperiyasida ham soliq undirish tartiblari o'zgarib bordi.

Qishloq xo'jaligidan soliqlarni undirishda feodal rentani undirishning uchta shakli rivoj topdi. Bular ishlab berish, mahsulot hamda pul shaklida renta undirish edi. Ana shularning orasida mahsulot orqali renta solig'ini to'lash keng rivojlandi. Dehqonlar olingan hosilning o'ndan bir qismi miqdorida (bacha hosil va chorva mollarining ham, hatto em-xashaklardan) soliq to'lash lozim bo'lgan. Bundan tashqari, aholi yer egalariga harbiy maqsadlar uchun alohida «avoriz» deb nomlanuvchi soliqlarni ham to'lagan. Bundan tashqari, Usmoniylar imperiyasining boshqa davlatlar hududida urush olib borish siyosati avj olishi tufayli boshqa soliqlarni ham joriy qilinishiga olib keldi. Arablardan kirib kelgan «juz ya» solig'i imperiya davrida qayta joriy qilindi va har bir kishi boshiga 20-25 aqchagacha soliq undirilgan. Bu soliqning stavkasi XVII asrlar boshlariga kelib 140 aqcha miqdorigacha belgilandi.

3.4-§. Vatanimizda qadimda va o'rta asrlarda amal qilgan davlatchilik va chet el bosqinchiliklari davrida soliqlar¹

Vatanimiz tarixchilarining ta'kidlashicha, eramizdan avvalgi 1-ming yilliklar davrida yurtimizda temirga ishlov berish, tog' jinslariga ishlov berish, qurollarni yaratish, to'quvchilik, kulolsozlik, zargarlik va kemasozlik sohasi rivoj topgan. Bular yurtimizda shaharsozlikning rivojlanishi va davlatchilikning shakllanishiga muhim asos bo'lgan. Tarixchilarning ta'kidlashicha, eramizdan avvalgi 1-ming yillikning birinchi yarmida dastlabki davlatchilik shakllangan. Boshqa qadimgi davlatlar singari, sharqdagi davlatlarda ham davlat boshqaruvining asosiy manbaalari sifatida o'lponlar asosiy rol o'ynagan. Tarixchi Gerodotning ta'kidlashicha², VI asrlarda Parfiya, Xorazm, So'g'diyona va Ariya davlatlari Ahamoniylar davlatiga yiliga 300 talant (1 talant 30,2 kg kumush tangaga teng bo'lgan) soliq to'lab turgan. Ammo Xorazm bu davlatlar orasida iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan bo'lib, ularning orasida mavqeini saqlab qolish va ularning tobeligini oshirish maqsadida So'g'diyona, Ariya va Parfiya davlatlari to'laydigan

¹ Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar va materiallarga asoslandi: Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарқ, 2001. – 368 б.; История Узбекистана в источниках, Вайнбер Б.И. Монеты Древнего Хорезма. –С. 12; Толстов С.П. Древний Хорезм; Ўзбекистон янги тарихи. (Тузувчилар: Ҳ.Содиқов, Р.Шамситдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов). 1-қисм. –Т.: Шарқ, 2000. – 464 б.; Абдурахимов М.А. Бухоро хонлигида аграр муносабатлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан. I ва II жилдлар, 1966, 1970; Мирзо Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. – Т., 1995; Набиев Р.Н. Қўқон хонлиги тарихидан. –Т.: Фан, 1973.

² История Узбекистана в источниках. – С. 28.

solliqlarni ham o'zi to'lagan.

IV asrlarda Makedoniyaliklarning bosqinchiligi solliqlarni undirish tizimiga ham ta'sir qildi. Miloddan avvaligi 170 yillarida Xorazm davlatida iqtisodiy rivojlanish taraqqiyot topib, o'sha vaqtdayoq o'zining pul birligini joriy qilinganligi haqida ma'lumotlar bor¹. Shu bilan birgalikda esa katta miqdordagi (taxminan 120 ming) harbiy qo'shin shakllantirilgan bo'lib, albatta, ularni saqlash xarajatlari davlatga qo'shimcha mablag'larni talab qilgan. Bizning yurtimizda milodning boshlanish davrlarida Xorazm davlatidan tashqari Baqtriya, Parfiya, Farg'ona va Toxariston kabi qadimiy davlatlar bo'lganligi haqida ham tarixiy manbaalarda keltiriladi². Ahamoniylar hukmronligi davrida boshqa davlatlar singari Baqtriya davlatiga ham yiliga soliq to'lab turgan. Ayniqsa, Ahamoniylar davlatida Doro nomli shaxsning hukmronlik qilgan davrlarda unga tobe bo'lgan katta miqdordagi solliqlar – talant to'lab turish bilan birga katta sovg'a-salomlar ham yuborib turishga majbur bo'lgan. Tarixchi Gerodotning ta'kidlashicha, forsiylar Droni savdogar ham deb nomlagan bo'lib, buning asosiy sababi uning birinchilardan bo'lib o'z davlati va tobe davlatlar hududida solliq tizimini joriy etganligidir³. Qadimgi Parfiya davlatida ham Baqtriya davlati singari savdo-sotiq ishlari, qishloq xo'jaligi rivojlangan, qazilma boyliklarni ishlash (hatto manbaalarga qaraganda nikel moddasidan foydalanish) ishlari rivojlangan. Shuningdek, ular o'zlarining pul birliklarini ham joriy qilganlar.

¹ Вайнбер Б.И. Монеты Древнего Хорезма. с. 12. Толстов С.П. Древний Хорезм. – С. 173-195.

² Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2001. – Б. 34.

³ История Узбекистана в источниках. –С. 28.

Baqtriya davlatida Ahamoniylar hukmronligi davrida davlat xazinasiga turli xil mahsulotlardan soliqlar undirish joriy qilingan. Erlar bir necha tabaqalarga bo'lingan bo'lib, ulardan olinadigan soliqlar ham tabaqalashtirilgan holda undirilgan. Soliqlar asosan natura shaklida va qisman pul shaklida ham qabul qilingan. Mamlakat poytaxti bo'lgan Niso shahriga (Ashxobod yaqinida bo'lgan) dehqonlar tomonidan soliq to'lovlari sifatida yirik hajmda vinolar yuborib turilgan va ushbu vinolarga uning navi, qachon va qayerda, qanday uzum turidan olinganligi hatto uning tarkibi haqidagi ma'lumotlar umumlashtirib borilgan¹. Bundan ko'rinadiki, Parfiya davlati davrida hisob-kitob ishlari va soliqlarni to'lash ishlari ancha tartiblashgan holda amalga oshirilgan.

Miloddan avvalgi II–I asrlarda qadimgi Farg'ona davlati rivoj topdi. Bu yerda hunarmandchilik, kulolchilik, baliqchilik, temirga ishlov berish, dehqonchilik va to'qimachilik ishlari ham rivoj topib bordi. Miloddan avvalgi II–I asrlarda mintaqaning Baqtriya qismida Toxariston davlati yuzaga keladi. Tohariston davlatida haykaltaroshlik, quruvchilik, hunarmandchilik, kulolchilik, dehqonchilik va to'qimachilik ishlari ham jonlangan.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizning davlatchilik tarixi yangi milodiy ming yillikda Kushonlar davlati bilan bog'liq. Kushon davlati milodiy I–IV asrlarda Turkistonning katta qismida siyosiy hukmronlik qilgan yirik siyosiy davlat sifatida e'tirof etiladi. Bu davlatda ham pul islohotlari o'tkazilib, muomalaga oltin tangalarni kiritish orqali tashqi savdo aloqalar rivojlantirilgan. Shunga asoslangan holda aholidan va tashqi savdoni amalga oshirishdan olinadigan soliqlar ham, natura ham pul shakllarda undirib

¹ Де яконов М.М. История Древнего Ирана. 1961. – С. 194.

kelingan. Kushon davlatida haykaltaroshlik, quruvchilik, hunarmandchilik, kulolchilik, dehqonchilik va to'qimachilik sohalari bilan bir qatorda shishasozlik, konchilik, su'niy sug'orish, zargarlik sohalari ham taraqqiy etgan. Rimliklar va Xitoyliklar bilan savdo aloqalari rivojlangan. Davlat xazinasi daromadlarida esa aholidan olinadigan soliqlar bilan birgalikda boj undiruvlari ham katta rol o'ynagan. Kushonlar davlatidan so'ng ularning o'rniga kelgan Eftalitlar davlati asosan V–VI asrlarda amal qilib, bu davlatchilik davrida ham yuqorida keltirib o'tilgan sohalar rivojlangan, shuningdek, tashqi savdo ishlari ham ancha kengaygan. Avvallari, asosan Xitoy, Eron va Rimliklar bilan savdo ishlari amalga oshirilgan bo'lsa, VI asrning oxirlarida paydo bo'lgan Ashinaliyalar davlatida esa, Kaspiy dengizi orqali Shimoliy Kavkaz davlatlari, Hindiston va Vizantiya bilan ham savdo-sotiq ishlari yo'lga qo'yildi. Demakki, savdo ishlari uchun boj to'lovlarining ham roli oshib borgan. Yuqorida keltirib o'tilgan davlatchilik shakllarida soliqlar tizimida o'zaro o'xshashliklar mavjud bo'lib, ular o'zlarining tobeligida saqlagan kichik o'lkalar (boshqa davlatlar)dan katta hajmda o'lponlar undirib turgan.

Har bir davlatda soliqlarni undirish tartiblari ham o'ziga xos bo'lgan. Masalan, Baqtriya va Parfiyada soliqlarni undirishda mahalliy boshliqlarga yuklatilgan bo'lsa, Tohariston, Eftalitlar davrida mahalliy hukmdorlar bilan birgalikda soliq undirish bo'yicha maxsus noiblar birlashtirilgan. Qadimgi Farg'ona davlatida esa soliqlarni joriy qilish, ularni undirish, soliq imtiyozlari berish masalalari bilan shug'ullanishda davlat boshlig'i bilan birgalikda Oqsoqollar kengashining ham roli katta bo'lgan. Bu esa hozirgi ssivilazatsiya sharoitidagi soliqlarni joriy qilishning parlament shakli bundan bir necha ming yillar oldin bizning davlatchilik tajribasida foydalanganligini bildiradi.

Vatanimizda amal qilgan davlatchilik shakllarida soliqlarning rivojlanish xususiyatlari VII asrning oxirlari va VIII asrning boshlarida arablar istilosi va islom dinining kirib kelishi bilan ancha o'zgardi. Davlatchilikning keyingi davrlarida Farg'ona, Isfijob, Shosh, Samarqand, Buxoro, Xorazm, Chog'aniyon, Xuttalon, Kesh, Xuroson va Seyiston kabi o'lkalarni birlashtirgan yirik Somoniylar davlati yuzaga keldi. Bu davlatning shakllanishi miloddan keyingi 800–900 yillarga to'g'ri kelib, unda soliqlarni undirish tizimi ancha takomillashtirildi.

Davlat boshqaruvida 10 ga yaqin devonlar (vazirliklar) tashkil etilib, ularning orasida davlatning moliyaviy masalalari bilan shug'ullanadigan Moliya ishlar devonligi tuzilib, unda davlat g'aznasiga tushadigan barcha daromadlar, jumladan, soliqlarning kelib tushishi va undan davlat manfaatlari yo'lida sarflanish masalalari nazorat qilingan. Viloyat va tumanlar (shaharlar)dan soliq yig'uvchilar tomonidan undiriladigan soliqlarning hisob-kitob ishlari ushbu devonning zimmasiga yuklatilgan. Shuningdek, davlatda bosh vazirga bo'ysinuvchi Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni ham bo'lib, ushbu devonda davlatning qator faoliyatiga tegishli boshqa hujjatlar singari soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog'liq hujjatlar ham tayyorlangan.

Vaqflar devonida esa diniy muassasalarga tegishli mol-mulk, yer, suv va ulardan olinadigan soliqlarni hisoblash ishlari amalga oshirilgan. Viloyat hokimlari va raislar (shahar boshliqlari rais deb atalgan) soliqlarni undirishda soliq yig'uvchilarga yordam bergan. Harbiy to'qnashuvlar va davlat boshqaruvini kuchaytirish ehtiyojlari tufayli g'aznaga tushgan har yilgi 45 mln. dinorlik soliq tushumlaridan kamida 20 mln. miqdori harbiy va davlat boshqaruvi maqsadlariga ishlatilgan. Bu davlatning moliyaviy ishlarining doim takomillashtirilib borishi natijasida xalqaro

savdo sotiq ishlarini soddalashtirish maqsadida chek (chak deb atalgan)dan foydalanish yo'lg'a qo'yildi. Bu esa pul maydalash va almashtirish bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'linmalar (sarroflar) tomonidan amalga oshirilgan. Davlatning tashqi savdolarini kengayishi, mollarning (asosan zargarlik, kulolchilik, shisha buyumlar, turli xil tog' jinslari va qazilma boyliklardan tayyorlangan nodir mahsulotlar va shu kabilar) chetga eksport qilinishi hamda xalqaro sovdagarlarni ko'proq jalb qilish maqsadida chekdan samarali foydalangan. Cheklar vazifasini ba'zi vaqtlarda ip gazlama mahsulotlari ham o'tagan. Somoniylar davlatidan keyin amal qilgan Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Saljuqiylar, Anushteginiylar davlatchiligida ham soliqlarning turlari, iqtisodiy holat (asosiy sohalar) va soliqlarni undirish tartiblari va ularni boshqarish jarayonlari deyarli bir-biriga o'xshash bo'lgan. Biroq Saljuqiylar vaqtida soliq tizimi ancha rivojlantirildi. Mamlakatda Bosh vazir (Devoni a'lo)ga bo'ysinuvchi Istifo devonligi soliqlar va boshqa moliyaviy mablag'larning kirim-chiqimlarini olib borish bilan birga soliq yig'uvchilarning hisobotlarini qabul qilib, Bosh vazirga bu haqda axborot tayyorlash bilan ham shug'ullangan. Har bir soliq turlari bo'yicha soliq to'lovchilar va ularga tegishli bo'lgan mol-mulk, yerlar va boshqa soliq ob'ektlarining ro'yxatini tuzib chiqqan. Bundan tashqari, Ishrof devoni ham tuzilgan bo'lib, unda barcha nazorat ishlari, jumladan, soliqlarni undirishning holati, moliyaviy mablag'larning maqsadli sarflanganligini, soliq yig'uvchilarning bergan hisobotlarida ko'rsatilgan va undirilgan soliq tushumlari bilan haqiqiy holatlar tahlil qilib borilgan. Bu esa Devonning viloyatlardagi bo'linmalari tomonidan doimiy olib borilgan.

Ushbu davlatlarning barchasida davlat g'aznasining asosiy daromad manbaini yerlardan undiriladigan soliqlar,

hunarmandlardan olinadigan soliqlar, boj va savdo yigʻimlari tashkil etgan. Shuningdek, favqulotda holatlarda aholidan harbiy xarajatlar uchun alohida soliqlar ham undirilgan. Yurtimizda XIII asarning 20 yillaridan tortib to 1370 yillargacha oʻz hukmronligini oʻrnatgan Chingizxon istilosi davrida moʻgʻullar tomonidan soliq tizimiga ancha oʻzgartirishlar kiritildi. Bular soliqlar sonining ortishi va uning hajmini yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu davrda dehqonlardan undiriladigan «Kalon» soligʻi hosilning 1/10 qismi sifatida, chorvadorlardan undiriladigan «Koʻpchir» soligʻi esa har 100 bosh qoramoldan bittasi undiriladigan boʻldi. Shuningdek, aholidan «Shulsi» degan soliq undirilib, bunda har bir otar qoʻydan bitta va har 1000 otdan bitta miqdorda soliq joriy qilindi. Soliqlarning haddan ziyod oshib borishi oddiy aholi orasida tez-tez boʻlib turadigan qoʻzgʻolonlarga sabab boʻldi. Bu qoʻzgʻolonlar Chingizxon tomonidan bostirib borilgan boʻlsa-da, keyinchalik soliqlarni maʼlum darajada yengillashtirishga majbur qildi.

Soliqlarni undirish tizimi Amir Temur va Temuriylar davrida oʻziga xos tartibda rivojlanish xususiyatiga ega boʻldi. A.Temurga qadar oʻzbek davlatchiligi 2100 yildan ziyod davrni oʻz ichiga olib, bu davrlarda amal qilgan davlatchilik shakllarining soliq tizimi borasidagi siyosatlar oʻziga xos boʻlganligini koʻrish mumkin. A.Temur hukmronligi davrida davlatning boshqaruv tizimi ikki boʻgʻinga, yaʼni Dargoh va Devonlarga boʻlingan. Davlatning moliyaviy va soliqlarni undirish bilan bogʻliq ishlarni Mulkchilik va soliq ishlari vaziri hamda Moliya vaziri tomonidan tashkil etilgan. Mulkchilik va soliq ishlari vazirligi turli sabablarga koʻra egasiz qolgan mol-mulklarni roʻyxatga olish, ularni taqsimlash, savdogarlardan zakot va boj toʻlovlarini olish, joriy qilingan soliqlarning hisobini yuritish va uni undirish ishlarini tashkil etish, mamlakat

chorvalari uchun yaylov va mayzazor yerlarni boshqarish, ulardan tushadigan daromadlarni hisobga olish, mulkchilik bo'yicha merosxo'rlik maqomlarini belgilash ishlari bilan shug'ullanishgan.

Moliya ishlari vazirligi esa davlat g'aznasiga kelib tushgan daromadlarni sarflash hamda uni nazorat qilish, daromadlarni ko'paytirish yo'llarini aniqlash ishlarini hal qilishgan. Shuningdek, mamlakatga tegishli boshqa hududlarda moliyaviy ishlarni yo'lga qo'yish, mahalliy hokimlik va bekliklar tomonidan soliq undirish va berilgan mablag'lardan qanday foydalanayotganliklarini nazorat qilish ishlari bilan boshqa vazirlik darajasidagi bo'linmalar ham shug'ullanishgan. A.Temur davlatchiligi davrida mamlakat hayotiga katta hissa qo'shgan va yirik olimu fuzolalarga ma'lum bir yerlar suyurg'il (tortiq) qilinib, bu yerlardan undirilgan soliqlarning bir qismi suyurg'ilga ega bo'lganlarning ixtiyoriga qoldirilgan. Har bir suyurg'il qilingan yerlarga ikkitadan vazir alohida biriktirib qo'yilgan. Bu vazirlar ushbu erlarda soliqlarni undirish va uni taqsimlash ishlarini nazorat qilib borgan. Temur davlati davrida soliqlarni undirish tartiblari uning «Temur tuzuklari»da ham keltirib o'tilgan.

Ta'kidlash joizki, A.Temur davlat boshqaruvi davrida soliqlarni undirish masalasini doim o'zining nazoratida olib borgan. Buning sababi esa soliqlarning oshishi raiyatning noroziligi va uning zaiflashuviga olib keladi va o'z navbatida, davlatning kuch-qudratiga salbiy ta'sir etadi deb hisoblagan. Bu davrda hududda xiroj, molu-jihod, sovurin, qo'nalg'a, boj, shilon puli singari soliqlar amal qilgan, turli jarimalar olingan. O'sha vaqtda soliq va jarimani yig'ish va xarj (sarf) qilishga alohida e'tibor berilgan. A.Temur o'zining «Tuzuklari»da quyidagilarni keltirib o'tgan: «Har o'lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Biri

raiyat uchun bo‘lib, undan yig‘iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to‘lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig‘ilgan mablag‘ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqarsin. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo‘lgan mablag‘ hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo‘qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar (sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo‘l bilan yig‘ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulkini, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin. ... sarmoyasi qo‘lidan ketib qolgan savdogarga o‘z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan etarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan birining dehqonchilik qilishiga qurbi etmay qolgan bo‘lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug‘ va asbob tayyorlab berilsin». Yer solig‘ini undirishda esa tabaqalashtirilgan yondashuv amal qilgan.

Agar soliq to‘lovchi – yer egasi biron sahroni obod qilsa yoki koriz (er osti inshooti) qursa, biror bir bog‘ ko‘kartirsa, yoxud bironta xarob bo‘lib yotgan joyni obod qilsa, birinchi yili undan hech qanday o‘lpon olinmagan. Ikkinchi yili raiyat o‘z roziligi bilan bergan mablag‘lar soliq sifatida hisobga o‘tavergan. Faqat faoliyatning uchinchi yilidan soliq qonun-qoidasiga muvofiq ulardan xiroj yig‘ilgan. Xiroj soliqlari ekindan olingan hosil va yerlarning unumdorligidan kelib chiqqan holda olingan. Agar yerlar lalmikor yerlar toifasiga kirgan bo‘lsa, unda hosilning 1/4 qismi miqdorda soliq undirilgan. Soliqlar pishib etilmaguncha soliq olish taqiqlangan, agar soliq to‘lovchi o‘zi soliqlarni hisoblab g‘aznaga to‘lasa, u holda soliq to‘lovchilar yuborilmagan. Soliqlar bo‘yicha imtiyozlarning qat’iy amal qilishi esa bozorlarda mahsulotlar narxining kamayishiga va pul qadrining oshishiga olib kelgan.

Shuningdek, madrasadagi talabalarni moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida madrasalarga ajratilgan vaqf yerlardan soliq undirishini A.Temurning o'zi qat'iy man qilgan va bir chaqa ham soliq davlat g'aznasiga kelib tushmasin degan buyruq bergan. Bulardan ko'rinadiki, A.Temur soliq siyosatining adolatli undirilishi tarafdori bo'lgan va uning amal qilinishini qat'iy nazorat qilib borgan. Soliq siyosatining bunday o'rnatilishi esa soliqlar davlatning muhim moliyaviy tayanchi sifatidagi rolini oshirgan.

3.5-§. Amirlik va xonliklar davridagi soliqlar¹

Tarixiy manbaalarga ko'ra ilgari A.Temur saltanati va temuriylar davlat hukmronligining yemirilib borishi, oxir-oqibatda uchta xonlik Buxoro (keyinchalik Amirlik deb nom olgan), Qo'qon va Xiva xonliklarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi². Buxoro xonligi tasarrufiga XIX asrning birinchi yarmida Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, shuningdek, hozirgi Tojikiston davlatining bir qancha hududlari kirgan. Buxoro amirligi davrida

¹ Mazkur paragrafni yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar va materiallarga asoslandi: Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. – Т.: Шарқ, 2001. – 368 б; История Узбекистана в источниках, Вайнбер Б.И. Монеты Древнего Хорезма. с. 12. Толстов С.П. Древний Хорезм, Ўзбекистон янги тарихи. (Тузувчилар: Х.Содиқов, Р.Шамситдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов). 1-қисм. Т.: «Шарқ», 2000, 464 б; Абдурахимов М.А. Бухоро хонлигида аграр муносабатлар тарихидан лавҳалар. – Т.: Фан. I ва II жилдлар, 1966, 1970; Мирзо Олим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. –Т., 1995; Набиев Р.Н. Қўқон хонлиги тарихидан. – Т.: Фан, 1973.

² Ўзбекистон янги тарихи. (Тузувчилар: Х.Содиқов, Р.Шамситдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов). 1-қисм. – Т.: Шарқ, 2000. – Б. 27.

esa hudud 40 viloyat va tumanliklarga (bekliklarga) bo'lingan, ularni amir tayinlaydigan hokimlar boshqargan. Amirlikning davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan. Ijro etuvchi hokimiyatni bosh vazir – *qushbegi* (vaziri buzruk) boshqargan. U xon bilan bamaslahat ish yuritgan, oliy hukmdor Arkida yashagan.

Amirlikda davlatning moliya-xazina ishlarini, shuningdek, soliqlar undirilishi ustidan nazoratni devonbegilar olib borgan. Amirga tegishli mol-mulk va kelib tushgan soliq tushumlarining hisobini «Mushrif» lavozimidagi shaxslar tomonidan amalga oshirilgan. Mamlakatdagi barcha erlar xon (amir)ga tegishli bo'lgan. Buxoroda yersuv mulkchiligining uch shakli mavjud bo'lgan, ya'ni davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); mulk yerlari (xususiy); va vaqf yerlari. Davlat yerlarining bir qismi dehqonlarga foydalanish uchun berilgan, bir qismi yirik yer egalarga, hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga suyurg'il sifatida berilgan. Mulk yerlarining bir qismi davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan shaxslarga, ikkinchi qismi davlat xizmati bilan bog'liq (masalan, jasorat ko'rsatganlarga) shaxslarga tegishli bo'lgan.

Amirlikda soliqlarning manbaalari asosan yerlardan olinadigan soliqlar, hunarmadlardan olinadigan soliqlar, savdo sotiq ishlaridan hamda turli xil bojlar va maxsus yig'img'lar tashkil etgan. Soliqlar tez-tez oshirib turilgan va ular g'alayonlarga ham sabab bo'lgan. Masalan, Shayboniylar davridagi soliqlarning soni 20 turdan ortiq bo'lgan. Soliqlar ichida eng katta ulushni xiroj solig'i (yerlardan undiriladigan) tashkil etgan. Xiroj solig'i olingan hosilning 30-40 foizini amirlik xazinasiga olgan.

Davlatda harbiy maqsadlari uchun maxsus ixrojot solig'i joriy qilingan. Yasoq solig'i esa aholiga solingan bo'lib, uning mazmunini aholining suv inshootlari, yo'l-ko'priklar qurish, yem-hashak yig'ishda majburiy ravishda ishlab berish tashkil etgan. Buxoroda Ashtarxoniyalar va mang'itlar hukmronlik qilgan davrlarda aholidan foydalangan har bir tanob eridan bir tillodan hisoblanadigan **tanobona** solig'i, uni to'lashni istamaganlardan hosilning uchdan bir qismini topshirilishini talab qiluvchi **xiroj** soliqlarni to'lash, ayniqsa, og'ir bo'lgan, hashar ishlarida qatnashishdan iborat **begar** majburiyati, **zakot to'lash** solig'i ham amal qilgan. Hokim va uning xizmatidagilarga maosh davlat xazinasidan berilmagan va ular o'zlarining kunlik xarajatlarini mahalliy aholidan turli xil yig'imlarni olish hisobiga qoplagan.

Xiva xonligi hududiga XIX asrning birinchi yarmida hozirgi Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston hamda Turkmaniston davlatining shimoliy yerlari kirgan. Xiva xonligining ma'muriy boshqaruvi ko'p jihatdan Buxoro amirligidagi tizimga o'xshash bo'lgan. Xon hokimiyati cheksiz bo'lib, u eng yirik mulk egasi hisoblangan. Davlatda harbiy ishlarni yuritish, xonning barcha farmonlarining bajarilishini ta'minlash bilan birga soliqlarni undirilish jarayonlarini nazorat qilish ishlari Vaziri a'zam (qushbegi) tomonidan amalga oshirilgan. Xiva xonligida ham ish yuritish tartiblari, boshqaruv mexanizmlari va yerlarga egalik turlari ham Buxoro amirligidagi jarayonlarga o'xshash bo'lgan, shu bilan birgalikda ayrim o'ziga xos xususiyatlarga ham ega edi. Xiva xonligida ham yer asosiy boylik hisoblangan. Buxoro amirligidagi kabi ular egalik shakliga ko'ra uch guruhga bo'lingan: davlat yerlari (amlok), shaxsiy mulk (xususiy yerlar), vaqf yerlari. Biroq yer egaligi Buxoro xonligidagidan bir qadar farq qilardi: xon va uning qarindoshlari barcha yerlarning deyarli

yarmiga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat va xususiy yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan.

Dehqonlar olgan hosilning yarmini ijaraga to'laganlar va shu sababdan ularni «**yarimchilar**» deb ham atashgan. Mayda yer egalari xonavayron bo'lib borganlar va oxir-oqibatda yerlaridan mahrum bo'lganlar. Xiva xonligida amal qilgan soliq turlari Buxoro amirligidagi mavjud soliqlardan ancha ko'proq bo'lgan. Bu davrlarda Xiva xonligida yerlardan **salg'ut** solig'i, bir yo'la undiriladigan **alg'ut** solig'i, qurol-aslaha uchun maxsus «**miliq puli**» yig'imi, aholi aravalarini davlat ishlari uchun safarbar etishni nazarda tutuvchi «**arava oluv**» deb nomlangan soliq, uloq tutuv – aholining tuya va otlarini safarbar qilishga qaratilgan **uloq tutuv** solig'i kabi soliqlar mavjud bo'lgan. Shu bilan birga soliqlarga o'xshagan majburiyatlar, masalan, «**qo'nalg'a**» deb ataluvchi elchi va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish majburiyati, mahalliy hukmdorga haq to'lash hamda **begar, qazu, ichki va obxo'ra qazu, hachi, otlanuv** deb nomlangan bir qator moddiy majburiyatlar ham joriy qilingan. Xiva xonligidagi soliqlar va boshqa majburiyat xarakterdagi to'lovlar soni 20 xil atrofida bo'lgan. Xiva xoni Muhammad Rahim I davrida xonlikda o'zaro urushlar biroz pasayib, xonlikning iqtisodiyotida, jumladan, soliq tizimida islohotlar o'tkazildi. Bojxona tizimi shakllantirildi, oltin pullar joriy qilina boshlandi. Qo'qon xonligi tarixida Xudoyorxon hukmronligi vaqtida soliqlarning haddan ziyod ko'payib ketganligi, soliq undiriladigan ob'ektlarning soni ham shiddat bilan oshib borgan va iqtisodiyotga salbiy ta'sir qilgan.

Qo'qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida hozirgi Namangan, Qo'qon, Andijon, Marg'ilon hududlari, Toshkent, Xo'jand hududlari, Qirg'iziston va Janubiy

Qozog'iston hududlarini o'z ichiga olgan. Qo'qon xonligidagi hokimiyatni boshqaruv tartiblari Buxoro va Xiva xonliklaridan deyarli farq qilmagan. Qo'qon xonligida ham yerga egalik shakli uch turda: amlok, xususiy, vaqf yerlari shaklida bo'lgan. Yerlarning asosiy qismi davlatga qarashli bo'lgan – amlok yerlarni xonning shaxsan o'zi tasarruf etgan. Amlok yerlar dehqonlarga ijaraga berilgan. Yerning bir qismiga esa xususiy kishilar egalik qilgan. Mulklarning ko'pchiligi 30-60 sotixgacha bo'lgan. Xususiy yer egalarining olgan hosilining beshdan bir qismini soliq sifatida undirilgan. Bu yerda ham hunarmandlardan savdo-sotiq ishlari, mamlakatga mol olib kirganlik uchun yig'imlar bilan birgalikda Xonning farmoniga ko'ra davlat maqsadlari uchun favqulotdagi yig'imlar ham undirib turilgan. Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklaridagi soliq tizimining umumiy xususiyatlari shundan iboratki, ularda iqtisodiy rivojlanish jarayonlari kamayib, o'zaro harbiy harakatlarni avj oldirish, tashqi iqtisodiy aloqalar kamayib borish hisobiga davlatning xarajatlari asosan aholiga zimmasiga ko'proq yuklanganligidadir.

3.6-§. Chor Rossiyasi va Sobiq ittifoq davrida soliq tizimi¹

¹ Mazkur paragrafnı yozishda quyidagi adabiyotlardagi ma'lumotlar va materiallarga asoslandi: Ўзбекистон янги тарихи. (Тузувчилар: Ҳ.Содиқов, Р.Шамситдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов). 1-қисм. –Т.: Шарқ, 2000., Учебник финансового права. Иловайский С.И. - Одесса, - 1904г. // Allpravo.Ru -2005., Поляк Г.Б, Маркова А.Н. Всемирная история. Учебник. М.: ЮНИТИ. 2000.-496 с, Пинская М.Р. Основы теории налогов и налогообложение. М.: 2004,-226 с, http://abc.vvsu.ru/Books/Teor_nal/page0002.asp va boshqa ma'lumotlar

XIX asrning 50 yillaridan keyin O'rta Osiyoga Chor Rossiyasining bosqinchilik harakatlari kuchayib bordi va 70 yillardan boshlab ularning to'la hukmronligining boshlanishi boshqa sohalar singari Amirlik va Xonliklar davrida amalda bo'lib kelgan soliqlar tizimini tubdan o'zgartirdi. Bu soliqlar sonining ortishi, ayrimlarining bekor qilinishi bilan birga, soliq stavkalarining miqdori ham ortib borishi hisobiga ro'y berdi. 1986 yilda Turkiston o'lkasini boshqarishning tartiblarini o'z ichiga olgan va qonun kuchiga ega bo'lgan «Nizom»ni joriy etib, unda barcha iqtisodiy tartiblar ko'zda tutilgan edi. Unga ko'ra, barcha yerlar davlatniki deb e'lon qilindi. Mahalliy xalqning g'azabini jilovlash maqsadida ularga yerlar meros tartibida berish amaliyotlari joriy qilindi, ammo buning zamirida yerlardan katta soliqlar olish hisobiga mahalliy xalqni tutqunlikda ushlab turish siyosati turgan edi. Yerga egalik qiluvchilar sonini oshirishni amalga oshirgandan so'ng Chor Rossiyasining dehqonlarga yer ajratishining asl mohiyati, o'troq mahalliy aholiga ajratib berilgan yerlarni jamoa va qishloqlarga birlashtirish orqali soliq to'lashning «**doiraviy shakli**» degan tartib joriy qilindiki, unga ko'ra soliq birligi qilib ilgariidek, alohida olingan xo'jalik, hovli emas, balki jamoa va qishloq belgilash orqali yerlardan undiriladigan soliqlarga javobgarlikni jamoalashtirish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan edi. Yer solig'i bo'yicha qarzdorlarning mas'uliyatini boshqa boy kishilarga o'tkazilish amalga oshirildi. Tartib belgilab qo'yildiki, soliq undiruvchilar tomonidan soliq qarzini o'zlari to'lashga ruxsat qilindi, bu orqali bir tomondan keyingi holatlarda to'langan soliqlar hisobiga qo'shimcha ravishda mablag' undirish (sudxo'rlikka o'xshagan) hamda yer egalarining tobeligi oshirib borildi.

Yer solig'ini undirishda asta-sekin uning stavkasini

oshirish siyosati amalga oshirildi. 1870-1890 yillarda yer solig'i ikki martaga oshirilgan bo'lsa, 1890 yillarning oxirida yer solig'idan tushgan tushum 4 mln. so'm bo'lgan holda, u 1916 yilga kelib qariyb 40 mln. so'mni tashkil etgan, ya'ni soliq yuki deyarli 10 martaga oshirilgan. 1869-1896 yillar davomida Chor Rossiyasi xazinasini uchun o'lkadan olingan umumiy daromadlar 160 mln. so'mdan oshgan. 1905-1910 yillar oralig'ida xo'jalik va oilalarni ro'yxatga olish natijasida soliq stavkasi 70 foizdan 6 marta darajagacha oshirildi. Soliq tushumlarining hajmini oshirish maqsadida Turkiston Hisob palatasi tomonidan soliq to'lovchilar soni va ularning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash maqsadida aholining mol-mulki, yer uchastkalari ham aholi soni ro'yxatdan o'tkazilib, ular bo'yicha kadastr ishlab chiqilgan. Chunki Chor hukumati Turkiston gubernatorligi oldiga boshqa masalalar qatori yillik soliq tushumlarini ko'paytirish va olingan daromadlarni Chor hukumati ixtiyoriga yuborib turish vazifasini ham qo'ygan edi. Bunday vazifani amalga oshirishda ma'muriy usullarni oshirib, Turkiston gubernatorligi tomonidan soliqlarni oshirish va uning turlari, soliqlar nimalarga va kimlarga qanday tartibda solinishi mumkinligi haqida Chor hukumatiga tez-tez takliflar kiritib turgan. Mustamlakachilik davrida yangi soliqlarni joriy qilish odat tusiga kirib bordi. 1915 yilda maxsus harbiy soliq joriy etildi. Ushbu soliq paxtakorlarning gardaniga tushib, ular har bir topshirgan 1 pud paxtadan 2 rubl 50 tiyindan soliq to'lashga to'g'ri kelgan.

Rossiyada oktyabr revolyusiyasidan keyin «harbiy kommunizm» davri deb atalgan 1917-1922 yillarda ilgari amal qilib kelingan soliq tizimi tubdan o'zgartirildi. Avvalgi soliqlarning o'rniga mol-mulk solig'i, kapitalning o'sish solig'i, nufuzli tovarlarga iste'mol solig'i joriy

qilindi. 1917 yil 24 dekabrda «To‘g‘ri soliqlarni undirish to‘g‘risida» dekret qabul qilindi. Xususiy mulkning bekor qilishini bilan uy-joylardan olinadigan soliqlar, er solig‘i, mol-mulk solig‘i bekor qilindi va ayrim kichik shaharlarda saqlab qolindi. Asosiy soliqlar sifatida daromad solig‘i va hunarmandchilik solig‘i amal qiladigan bo‘ldi. Shu bilan birgalikda ayrim mahalliy soliqlar, masalan, qunduz mo‘ynasidan tayyorlangan ko‘ylak va bosh kiyimlar, grammofonlar, otlar va bo‘ydoqlik uchun maxsus soliqlar ham kiritildi. 1918 yilda savdo faoliyati bilan shug‘ullanadigan korxonalar uchun aylanmadan 5 foizlik yig‘im, xususiy korxonalar uchun esa harbiy salohiyat uchun yig‘im va bolalar ta‘minoti fondi uchun yig‘imlari joriy qilindi. Avval mavjud bo‘lgan ko‘pgina aksizlar bekor qilindi. Fuqarolik urushi vaqtida davlatning xarajatlari oshishi sababli qishloq joylardan natural soliqlar undirila boshladi va unda mahsulotlar turlari bo‘yicha soliq to‘lash belgilab qo‘yildi. «Yangi iqtisodiy siyosat» davrini qamrab olgan 1922-1929 yillarda ham soliq tizimiga bir qancha o‘zgartirishlar kiritib borildi. Ayniqsa, bu vaqtda qishloq xo‘jaligidan undiriladigan soliqlar qayta takomillashtirildi. 1921 yilda natural soliqlar bo‘yicha 2 ta yirik dekret qabul qilindi va qishloq xo‘jaligi uchun kartoshka, non va yog‘ mahsulotlariga alohida natura solig‘i kiritildi. Shu bilan birgalikda ham natura, ham rul shaklida undiriladigan yagona er solig‘i ham joriy qilindi. 1923 yilda hunarmandchilik solig‘ini takomillashtirish bilan bog‘liq yangi dekret qabul qilinib, hunarmandchilik solig‘i mulkchilik shaklidan qat’iy nazar barcha turdagi sanoat va savdo korxonalari uchun joriy qilindi, faqatgina faoliyati foyda olishga qaratilmagan davlat korxonalari bu soliqdan ozod qilindi. Bu davrda yangidan tashkil etiladigan korxonalarga «tenglashtirish» deb nomlanadigan alohida yig‘im joriy qilindi. Ushbu

yig'im korxonalar tomonidan har bir faoliyati uchun alohida to'lanar edi. Korxonalar har olti oyda o'zlarining faoliyati bo'yicha hisobotlar taqdim qilganda ular aylanma hajmidan kelib chiqib, 6 foiz miqdorda to'lovni amalga oshirar edi. Daromattan olinadigan soliqni undirish mexanizmi takomillashtirildi va shedulyar shaklda tabaqalashtirilgan holda undiriladigan bo'ldi. U ikki qismga: asosiy va qo'shimcha daromadlarga ajratildi. Birinchi bosqichda asosiy daromad (ish haqi) manbai soliqqa tortilsa, keyingi qismida boshqa faoliyatdan olingan qo'shimcha daromadlar soliq bazasiga kiritiladigan bo'ldi.

Boshqa soliqlar singari egri soliqlarni joriy etish ham kuchaytirib borildi. Masalan, 1921 yilda aksiz solig'i joriy qilinib, spirtli mahsulotlar, choy, kerosin, kofe, shakar, yorituvchi moslamalar, tuz va boshqa bir qator ximiyaviy mahsulotlarga aksizlar belgilandi. Sobiq ittifoq davrida soliqlar va yig'imlar soni yildan yilga oshib bordi va 1930 yillarning boshlariga kelib, barcha soliqlar va yig'imlarning umumiy soni 60 taga yaqinlashib qoldi va ular korxonalarining rivojlanishiga to'siq bo'la boshladi. Shundan kelib chiqib ayrim soliqlar va yig'imlar unifikatsiyalashtirildi. Davlat korxonalari oborot solig'i va foydadan budjetga ajratmalar kabi to'lovlarni amalga oshirish belgilangan bo'lsa, kooperativ shaklidagi korxonalar esa oborot solig'i va daromad solig'ini to'laydigan bo'ldi. Oborot solig'i ilgari belgilangan aksizlarni ham o'z ichiga olgan bo'lib, mahsulot realizatsiya qilingan vaqtda to'lash mexanizmlari joriy qilinib, mahsulot iste'moli davridagi oraliq iste'mol, ya'ni qayta ishlashga mo'ljallangan mahsulotlar soliqqa tortilmaydigan bo'ldi.

Davlat korxonalari olingan foydaning deyarli barcha qismini budjetga o'tkazilishi, yana soliqlarning ishlab chiqarishga to'sqinlik qilishini kuchaytirdi, korxonalarda

mehnat unumdorligi pasaya bordi, shundan kelib chiqib, agar korxonalar belgilangan rejani oshirish bilan bajargan holdagina olingan foydaning 50 foizi maqsadli sarflash sharti bilan qoldirila boshlandi. Ammo kooperativ shaklidagi korxonalardan har kvartalda olingan balans daromadning 17 foizini budjetga o'tkazish mexanizmi o'zgarishsiz qoldi. 1941-yilda ikkinchi jahon urushining boshlanishi va harbiy mudofaa uchun qo'shimcha mablag'larning talab etilishi soliqlarning yanada oshirilishiga olib keldi. Bu davrda davlat budjeti mablag'larining 75 foizi korxonalar tomonidan to'lanadigan soliqlar, qolgan 25 foizi esa aholi to'laydigan soliqlar hisobiga shakllanar edi. Soliq tizimidagi o'zgarishlar oborot solig'i stavkalari kamaytirilib, foydadan budjetga ajratmalar miqdori oshirildi, shuningdek, kooperativ va qishloq xo'jalik korxonalarini to'laydigan daromad solig'ining ham miqdorlari oshirib borildi. Bir qator, birinchi navbatda, iste'mol qilinadigan mahsulotlarning narxi sun'iy ravishda oshirildi. 1942-yilda harbiy xarajatlarni qo'shimcha qoplash maqsadida maxsus **harbiy soliq** joriy etildi, shuningdek, chin yetim qolgan bolalarni himoya qilish maxsus fondi tuzilib, buydoqlik va kam bolali (bolasiz) oilalar uchun maxsus soliqlar joriy etilib, ushbu fondga yo'naltirildi. Shuningdek, mahalliy soliqlar tizimi ham takomillashtirildi, ularning aniq ro'yxati tuzilib, oshirilgan stavkalarda qat'iy undirilish mexanizmlari amalga oshirildi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin mamlakat iqtisodiyotni tiklash davlat budjetiga qo'shimcha mablag'larni talab qilganda, korxonalardan moliyaviy natijalardan manfaatdorlik mexanizmlarining yo'qligi moliyaviy munosabatlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etdi. 1979-yilda esa korxonalarda foydani aniqlash, soliqlarni to'lash ham qolgan foyda hajmini taqsimlash mexanizmlari qayta ko'rib chiqilib, unga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. 1987-yildan boshlab

korxonalarda moliyaviy natijalarni shakllantirish va mabalag'larni taqsimlash hamda o'z-o'zini moliyalashtirish mexanizmlarining kuchaytirilishi foydani taqsimlash tartiblarini ham o'zgartirishga olib keldi.

Korxonalar olgan foydasidan budjetga ajratmalar qilish, fondlar uchun to'lovlar hamda yuqori turuvchi organlarni saqlash to'lovlarini amalga oshirish boshlandi. Korxonalar ixtiyorida qoladigan foyda esa moddiy rag'batlantirish fondi, sotsial rivojlantirish fondi, ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga normativlar asosida taqsimlanadigan bo'ldi. 1990 yilda soliq tizimining og'irlashib qolganligini anglagan hukumat soliq tizimini isloh qilish borasida bir qator qonunlarni qabul qildi va mavjudlari takomillashtirdi. «Korxonalardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi, «Fuqarolardan olinadigan daromad solig'i» kabi qonunlar qabul qilindi. Ilgari foydadan budjetga ajratmalar sifatida undirib kelingan to'lovlar o'rniga korxonalardan olinadigan foyda solig'i joriy qilindi. 1991-yilda korxonalaridagi ish haqi fondidan qilinadigan xarajatlarni tartiblash maqsadida maxsus iste'mol solig'i kiritildi. Bunda korxonalar o'tgan yilgi ish haqi fondiga nisbatan 4 foizlik farqqa ega bo'lsa, qo'shimcha hisoblangan har bir rubl ish haqi uchun alohida to'lovlar amalga oshiriladigan bo'ldi. Shuningdek, shu yili sotuvdan soliq ham joriy qilindi. Ammo soliq tizimi qonunchiligidagi bu o'zgarishlar soliq yukining kamayishiga emas, balki uning og'irlashuviga olib keldi. Masalan, korxonalarining foydasini soliqqa tortishda (budjetga ajratmalarni amalga oshirishda) tarmoq bo'yicha o'rtacha belgilangan rentabellik darajasidan yuqori ko'rsatkich darajasidan 10 punktga oshgan hajmdagi foydaning 80 foizigacha, 10 punktdan oshgan foyda hajmining esa 90 foizini budjetga o'tkazish tartibi joriy qilindi. Korxonalar foyda hajmini oshirishga manfaatdor bo'lmasdan, monopol

mavqeiga ega bo'lgan korxonalar esa natural shaklda ayirboshlash tizimini rivojlantirib yubordi va bu to'lov tizimiga ham salbiy ta'sir qildi. Chet el ishtirokidagi korxonalar nisbatan alohida, kooperativ shakldagi korxonalar alohida (35-45 foizlik) foyda solig'i stavkalari belgilandi. Tovar (xizmat, ish)larni realizatsiya qiluvchi korxonalar aylanma hajmidan kelib chiqib tovarlarga belgilangan foizlar va aniq qat'iy summada oborot solig'ini to'lay boshladi. Import va eksport operatsiyalarni amalga oshiruvchi korxonalar uchun import-eksport solig'ini to'lash belgilab qo'yildi.

1991 yilda kiritilgan sotuvdan soliq barcha turdagi korxonalarining aylanmalaridan 5 foizlik miqdorda undirish belgilangan edi, ammo sal o'tib, u qo'shilgan qiymat solig'iga almashtirildi. 1991 yildan boshlab korxonalarining foydasiga solinadigan soliqlarning maksimal chegarasi 35 foiz qilib belgilangan bo'lib, ushbu soliqdan tushadigan soliq tushumlarining 17 foizlik stavka hajmida ittifoq budjetiga va 18 foizlik stavkadagisi esa respublikalarning budjetiga qoldiriladigan bo'ldi. Shuningdek, korxonalar tomonidan ish haqi fondi hajmidan kelib chiqib 26 foizlik miqdorda Pensiya fondiga, Bandlik fondiga 1 foiz miqdorda sotsial to'lovlarni amalga oshirish belgilandi. Bundan tashqari, ish haqiga ega bo'lgan aholining maoshidan 5,4 foiz miqdorda sotsial sug'urta fondiga, 1 foiz Pensiya fondiga va 1 foiz Bandlik fondiga ajratmalar belgilab qo'yildi. Ammo o'tgan asrning 90 yillarida soliq tizimidagi amalga oshirilgan islohotlar amalda deyarli o'z ifodasini topmadi, sobiq ittifoqning parchalanib ketishi oqibatida uning tarkibidagi respublikalarning mustaqillikka erishishi ularning har birining o'ziga xos mustaqil soliq tizimini shakllantirishga zamin yaratdi. 70 yil davomida hukmronlik qilgan sovet tuzumining asoschilari o'z asarlarida soliqlar eksplatuatsiya

quroli sifatida ta'riflab, soliqlar kapitalizm tuzumga xos jarayon va munosabatlar degan qarashlarni ilgari surgan bo'lsa-da, ammo unda soliq tizimi o'zining progressiv xususiyatiga ega bo'lgan holda amal qildi. Soliqlarning rag'batlantiruvchilik funksiyasidan amalda foydalanilmadi.

O'tgan asrning 90 yillarida soliqlarni o'zgartirish va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan soliq tizimi ham totalitar – rejali tizimga asoslangan sovetlarning iqtisodiy tizimini saqlab qola olmadi. Aslida bu tuzumning ijtimoiy va iqtisodiy tuzilishining zamiri puch edi.

Tayanch so'z va iboralar:

Xiroj, molu-jihot, sovurin, qo'nalg'a, boj, shilon puli, qushbegi, ixrojot solig'i, alg'ut solig'i, qurol-aslaha uchun maxsus «miliq puli» yig'imi, as-savofiy erlar, «joliya», talant puli, «yarimchilar», natura solig'i, kurfyurstlar, baskaklar, devon, vaqflar, sarroflar, ishrof, kalon, ko'pchir, juz'ya, amlok, yarimchilar, qo'nalg'a, begar, qazu, hachi, yangi iqtisodiy siyosat.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Soliqlarning paydo bo'lishi va uning amal qilishi davlatning paydo bo'lishiga bog'liqligi asoslarini izohlab bering.

2. Soliqlarning Qadimgi Rimdagi nomlanishi va ularning joriy qilinish tartibini izohlang.

3. Dastlabki soliqlarning qanaqa turlari bo'lgan? Ularni sanab bering.

4. Feodal tarqoqlik davrida soliqlarning rivojlanish jarayonini tushuntirib bering.

5. Arab davlatlarida soliqlarning yuzaga kelishi va ularni undirilish xususiyatlarini yoritib bering.

6. A.Temurni soliq siyosatining mazmuni nimadan iborat?

7. Qadimgi davlatlarda soliqlarning yuzaga kelishining shart-sharoitlarini izohlab bering.

8. Yevropa va Osiyo davlatlari hamda Rossiyada soliqlarning tarixiy rivojlanish jarayonlari qanaqa xususiyatlarga ega?

9. Vatanimizda qadimda va o'rta asrlarda amal qilgan davlatchilik va chet davlatlar bosqinchiliklari davrida qanaqa soliqlar amal qilgan?

10. Chor Rossiyasi bosqinchiligi davrida Respublikamizda qanaqa soliqlar amal qilgan?

11. Sobiq ittifoq davrida soliq tizimining xususiyatlari nimalardan iborat edi?

12. Qadimgi Xitoy, Hindiston, Gretsiya davlatlarida soliqlar qanday joriy qilingan va undirilgan?

13. Soliqlarning o'lpon va kontributsiya shakllarining farqi nimada?

14. Soliqlarning o'rta asrlardagi xususiyatlari nimalarda edi?

15. Nima uchun sobiq sovetlar soliqlarni eksplatuatsiya sifatida talqin qilsa-da, totalitar iqtisodiy tizimida soliqlardan keng foydalandi?

4-BOB. SOLIQLARGA OID NAZARIYALAR

4.1-§. Soliqlarga oid qadimgi nazariy qarashlar

Hindistondagi iqtisodiy g'oyalarni aks ettiruvchi qadimgi yodgorlik «Artxashastra» (m.a. IV–III asrlar oraliq'ida yuzaga kelgan) asarida davlatni boshqarish bo'yicha takliflar keltirilgan bo'lib, unda mahsulotning bozor bahosi bilan uning tabiiy qiymati o'rtasidagi farq to'g'risida, savdo bilan shug'ullanuvchilarga alohida urg'u berilishi xususida, foyda olish masalasi (foydaning miqdori tovar bahosiga qo'shilib, mahalliy mahsulot uchun 5 foiz, chetdan kelgan tovarlar uchun 10 foiz qilib belgilangan), davlatning iqtisodiy ishlarga aralashuvi, qishloq xo'jaligi, bo'sh yerlar xalqqa bo'lib berilishi va soliq to'lash zarurligi, sug'orish inshootlarini qurishga e'tibor haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, mazkur asarda daromad solig'iga ham katta e'tibor berilgan.

Eramizdan avvalgi ming yillikning ikkinchi yarmida qadimgi Hindiston davlatida soliqlarni undirish borasidagi davlat ishlari maxsus «Manu qonunlari»da aks ettirib qo'yilgan. Unda belgilab qo'yiladiki, podshoh o'z saltanati uchun soliqlarning juda kam qismini oladi. Soliqlarning miqdori esa oltin va chorva mollarining 2 foizi, yog', bug'doy va asalning 12,5 foizi hajmida belgilangan. Yerlarning oliy tabaqali kohinlarga, oddiy dehqonlarga tegishliligi va joylashgan joyiga qarab soliqlar tabaqalashtirilgan tartibda undirilgan¹. Miloddan avvalgi VI–III asrlarda shakllangan Qadimgi Xitoydagi iqtisodiy g'oyalarda ham soliqlar masalasiga urg'u berilgan. Bu mamlakatdagi dastlabki

¹ Qarang: Тарасов П. И. Очерк науки финансового права. Введение. Общая часть . Особенная часть . Ярославл , 1883. С. 34.

quldorlik davlatlari e.a. II ming yillikda paydo bo'lgan bo'lib, unda Konfutsiylik g'oyasi katta rol o'ynagan. Bu ta'limotning asoschisi Konfutsiy (Kun-Szi) «Suhbatlar va mulohazalar» to'plamida o'zining boshqa sohalarga oid g'oyalari bilan bir qatorda soliqlarni undirish borasidagi mulohazalarini ham keltirgan, ya'ni uning fikricha davlat xalqdan soliq undirishda ma'lum bir me'yorlarga asoslanishi haqida ta'kidlanadi.

Miloddan avvalgi VI–III asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan «Legist» oqimi namoyandasi bo'lgan Sh an Yanning fikricha, davlat ravnaqi uchun ikki masalani hal etish zarur: don va urush (atrofdagi erlarni bosib olish), dehqonlar ro'yxatini o'tkazish, qonun yo'li bilan yig'ilgan don miqdoriga bog'liq yagona soliq tizimini kiritishni taklif etadi. Aholini dehqonchilik bilan shug'ullanishga, mehnat qilishga majbur etishda soliqlardan unumli (ya'ni, vosita sifatida) foydalanish zarurligi aytiladi. Xitoylik olim «Guan-Szi» (m.a. IV a.) o'z asarida ham xo'jalikni davlat tomonidan tartibga solish va usullari haqida fikr bildirib, legistlardan farqli ravishda davlat tovar-pul munosabatlarini cheklamasligi, davlat xo'jaligini barqaror saqlash uchun tovarlar baholarini ushlab turish lozimligi, «Yerni boshqarish» uchun davlat yerning tabiiy xususiyatlarini yaxshi bilishi kerakligi, yer maydonlari nisbatan tekis taqsimlanishi zarurligi, dehqonlarni ish qizigan davrda boshqa yumushlarga jalb etmaslik, soliq tizimi sharoitiga qarab (yer unumiga bog'liq ravishda) bo'lishi taklif etilgan. Uning fikricha davlat dehqonlardan soliq undirishda, avvalo, yerning *kadastrini* tuzish lozim, ana shundagina adolatli soliq undiriladi degan g'oyalarni ilgari suradi. Soliqlarni undirishda aniq hisob-kitoblarga asoslanish lozimligi ta'kidlanadi. Asarda yer va suv (tog' va dengiz)larni davlat ixtiyoriga o'tkazish va ulardan daromad yo'lida foydalanish, baholarni tartibga

solish yo'li va boshqa ko'pgina iqtisodiy g'oyalar ilgari suriladi.

Eramizdan avvaligi 2280-2270 yillarda Xitoyda knyazlik qilgan Yuyning soliq islohotlari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Ya'ni yerlar ming birlik (balki gektar bo'lgan) o'lchov asosida 9 ta ma'muriy hududlarga bo'lingan holda har bir 100 birlik yerlardan olingan hosillarga soliqlar tabaqalashtirilgan holda belgilangan. Masalan, dastlabki 100 birlik mahsulotlari to'laligicha davlat ixtiyoriga olingan bo'lsa, keyingi 100 birliklar bo'yicha ma'lum bir qismlari soliqqa tortilgan¹. Eramizdan avvaligi IV asrda Xitoy markazlashgan imperiyasida esa yer solig'ini undirish bilan dastlabki yozuv shaklidagi rasmiy qonun chiqarilib, butun mamlakatga tarqatiladi va yer solig'ini undirishda ana shu qonunga asoslangan. Bu qonunga ko'ra, yerlarning unumdorligi va soliq to'lovchining maqomiga ko'ra 2/3 qismgacha hosildan soliq undirilgan. Ularni undirish huquqlari esa ko'pincha oqsoqollar kengashiga berilgan bo'lib, bu kengash soliqlarni undirish bilan birgalikda ayrim hollarda botqoqlik va tog'li yerlardan soliq undirishda ma'lum darajada soliq imtiyozlarini qo'llash huquqiga ham ega bo'lgan².

Soliqqa oid ilmiy nazariy qarashlarda XII–XIV asrlarda Rossiyada yashagan rohib – olim Ermolay Erazmning iqtisodiy qarashlari ham munosib ahamiyatga ega. Bu davrlarda Rossiyada feodal tarqoqlik ro'y berib, cherkov yer

¹ Qarang: Бичурин Н. Я. Статистическое описание Китайской империи (в двух частях). М.: Восточный дом, 2002. С. 145.

² Qarang: Зинов ева Е. М. «Центр» и «места» в политической кул туре традиционного Китая // Традиции в общественно-политической жизни и политической кул туре КНР / Отв. ред. М. Л. Титаренко, Л. С. Переломов. М.: Наука, 1994. С. 203.

egaligi atrofida diniy shaklda kurash bordi. Ermolay Erazm dehqon mehnati boylik manbai deb hisoblaydi va davlatning soliq tizimida dehqonlarga nisbatan qo'llaniladigan renta to'ovi pul shaklda emas, balki natura shaklda, ya'ni hosilning beshdan bir qismi sifatida olinish va davlatning pochta xizmatlarini esa savdogarlar zimmasiga yuklash lozim deb hisoblaydi.

4.2-§. Sharq olimlari va Vatanimiz mutafakkirlarining soliqlarga oid nazariy qarashlari

Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida katta o'rin tutgan arab mutafakkiri Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zaydning (1332-1406) iqtisodiy qarashlarida soliqlar xususidagi muhim fikrlari alohida ahamiyatga ega. Ibn Xaldun davlatning kuchi va qudrati, aholining soni boylik va farovonlikka bog'liqligi, soliqlar davlat uchun ham uning fuqoralari uchun ham zarurligi, soliqlar yana aholining o'ziga qaytib kelishligi, soliqlarni faqat davlat, ayrim xukmdorlar foydasiga yig'ish jamiyat tanazzuliga olib kelishi xususida aytiladi. Olimning fikricha, davlat soliq tizimini tartibga solish kerak, soliqlarning pasayishi esa xalq farovonligi ta'minlaydi.

Sharq mutafakkirlarining soliqqa oid ilmiy qarashlarida atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis Yusuf Xos Xojib qarashlari ham katta ahamiyatga ega bo'ladi. Yusuf Xos Xojib o'zining 1069-1070 yillar orasida yozgan «Qutadg'u bilig» (qutga, ya'ni baxt-saodatga eltuvchi bilim) asarida markazlashgan davlat tuzish, uni mustahkamlash, nizo va adolatga barham berish kabi ma'muriy-xo'jalik hamda ma'rifat, obodonchilik, moddiy-ma'naviy va boshqa adolatli hukmron, davlatni tadbir bilan boshqarish ishini o'rganish, kasb-hunar egallash, xalq g'amini eyish haqidagi

fikrlar bilan birgalikda soliqlarni qanday undirish lozimligi haqida ham mulohazalar bildiriladi. Uning fikricha, tinchlik-osoysishtalik, me'yoridagi soliqlar va iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkonini ta'minlash davlatning asosiy vazifasi bo'lish kerak dedi. Shunisi qiziqki, ushbu fikrlar XVIII asrda taniqli iqtisodchi olim Adam Smitning iqtisodiy qarashlarida ham takrorlanadi. Yusuf Xos Xojibning fikricha, xalq davlatga soliq to'lovchi sifatida davlatdan (hukmdordan) uch narsani: pulning qadrini ko'tarishni; xalqqa xususiy mulk huquqini ta'minlovchi qonunlarni joriy etishni; yo'llarni o'g'ri-qaroqchilardan muhofaza qilishni kutadi. O'z navbatida, deb hisoblaydi olim, davlat (hukmdor) esa fuqarolardan soliqni vaqtda to'lashni, chiqargan farmon qonunlarini bajarishni hamda do'stiga do'st, dushmanga dushman bo'lishni talab qilishi kerak.

Soliqlarni joriy etish va uni undirish borasidagi ulug' bobomiz Amir Temurning qarashlari va bu boradagi amaliy siyosati ham jahon soliq tizimining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Sohibqiron davlatida devoni buzurg (bosh vazir)dan tashqari har bir viloyatda Devon nomi bilan ataluvchi bo'linmalar tashkil qilingan. Bunday bo'linmalar davlatning asosiy ishlari bilan bir qatorda soliqlarni undirish ishlari bilan ham shug'ullangan. Amir Temur saltanatida vazirlardan biriga er soliqlari, boj, o'lpon-soliq undirish hamda mirshablik yumushlarini boshqarish yuklatilgan. Bu vazir mamlakatdagi muhim ishlarni, kundalik muammolarni hal qilish bilan birgalikda, raiyat ahvolini kuzatgan, viloyatlardan olingan hosil, soliq, o'lponlarni taqsimlash ishlarini ham boshqargan.

A.Temurning nabirasi, buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek ham davlatni boshqarish jarayonida turli xil iqtisodiy qarashlarni ilgari surgan va ularni amalga oshirgan. Shulardan muhimlari sifatida mamlakatda pul

islohotlarining o'tkazilishi, hunarmandlarni iqtisodiy (soliqlar vositasida) qo'llab-quvvatlash va himoyalash maqsadida tashqi savdodan keladigan «tamg'a» (asli mohiyati boj to'lovi) to'lovlarini oshirgan.

Temur davlatchiligi davrida mamlakat hayotida katta hissa qo'shgan va yirik olim-u fuzalolarga ma'lum bir yerlar suyurg'il (tortiq) qilinib, bu yerlardan undirilgan soliqlarning bir qismi suyurg'ilga ega bo'lganlarning ixtiyoriga qoldirilgan. Har bir suyurg'il qilingan yerlarga ikkitadan vazir alohida biriktirib qo'yilgan. Bu vazirlar bu yerlarda soliqlarni undirish va uni taqsimlash ishlarini nazorat qilib borgan. A.Temur davlatni boshqarish davrida soliqlarni undirish tartiblari va unga oid o'zining nazariy-amaliy qarashlarini «Tuzuklari»da ham keltirib o'tadi. Unda A.Temur davlat boshqaruvi davrida soliqlarni undirish masalasini doim o'zining nazoratida olib borganligi, soliqlarning oshishi raiyatning noroziligi va uning zaiflashuviga olib kelishi mumkinligi va, o'z navbatida, davlatning kuch-qudratiga salbiy ta'sir etishligini ta'kidlaydi. A.Temur o'zining «Tuzuklari»da soliqlarga oid qarashlarini quyidagicha keltirib o'tadi: «Har o'lkaga uch vazir tayinlashlarini buyurdim. Biri raiyat uchun (bo'lib) bo'lib, undan yig'iladigan oliq-soliqlarning undirilishini kuzatib, hisobotini olib borsin. Oliq-soliq miqdori, soliq to'lovchilarning nomlarini yozib borsin va raiyatdan yig'ilgan mablag'ni saqlasin. Ikkinchi vazir sipoh ishlarini boshqarsin. Sipohga berilgan va berilishi lozim bo'lgan mablag' hisobini olib borsin. Uchinchi vazir esa daraksiz yo'qolgan kishilar, kelib-ketib yuruvchilar(sayohatchilar va savdogarlar), har xil yo'l bilan yig'ilib qolgan hosil, aqldan ozganlarning mol-mulkini, qozilar va shayxulislomlarning hukmi bilan olingan jarimalarni tartibga keltirsin. ... sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini

qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan etarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan birining dehqonchilik qilishiga qurbi etmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin»¹. (Shu joyi teppada ham bor edi).

Shuningdek, A.Temur yerlardan soliq undirishda tabaqalashtirilgan holda yondashuvni ilgari surib uni amalga oshirgan. Soliqlarni undirish jarayonida uning adolatlilik tamoyiliga asoslanishini ham nazariy, ham amaliy jihatdan isbotlab bergan.

Bu borada davlat arbobi va qomusiy olim Zaxiriddin Muhammad Boburning iqtisodiy qarashlari katta amaliy ahamiyatga ega bo'lgan. Z.Boburning soliqlarga oid iqtisodiy qarashlari uning «Boburnoma» asarida, «Mubayyin» kabi to'plamlarida alohida keltirib o'tilgan. Z.Bobur «Zakot to'g'risidagi katta kitob» asarida esa o'sha davrdagi soliqlarning turlari, ularni undirish shakllari, bu boradagi siyosatining mazmuni xususida batafsil to'xtalib o'tadi. Shuningdek, Z.Bobur o'zining 1601 yilda chop etilgan «Akbnoma» kitobida ham soliqlarni joriy etish va undirish tartiblari hamda saltanatni boshqarishda murakkab iqtisodiy muammolarni qanday qilib yechish kerakligi xususidagi o'zining qarashlarini ham keltirib o'tgan.

Atoqli shoir va davlat arbobi Alisher Navoiyning iqtisodiy qarashlarida ham soliqlar masalasi katta o'rin tutadi. Navoiy o'zining dastlabki iqtisodiy qarashlarini 1469 yilda yozgan «Hiloliya» (1469) asarida, keyinchalik esa 1482 yilda yozgan «Vaqfiya» asarida keltirib o'tadi. A.Navoiy bu asarlarida davlat boyligining manbai bo'lgan soliqlarni qanday undirish, uni qanaqa qilib to'plash hamda adolatli taqsimlanishning yo'nalishlari xususida to'xtalib, davlatning

¹ Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 й. 78-98 бетлар.

boshqa sohalari kabi iqtisodiy siyosat yuritish borasida adolatlilik va haqgo'ylik tamoyiliga tayanish jamiyatning farovonligini ta'minlaydi degan g'oyalarni ilgari suradi. Davlat faoliyatining ajralmas qismi bo'lgan va davlatning hamda uning fuqarolarining hayotiga bevosita daxldor bo'lgan soliqlarni joriy etish va undirish borasida davlat qanday yo'l tutish kerak degan masalalar vatandoshlarimiz Burxoniddin al-Marg'inoniyning «Hidoya» asarida ham alohida to'xtalib o'tgan. Allomaning fikricha, soliqlarni to'lash fuqarolar uchun qanday farz bo'lsa, davlat uchun ham uning fuqarolarining ahvolini yaxshilash ham shunchalik muhimdir. Aynan shunga o'xshash g'oyalar Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniyning iqtisodiy qarashlarida uchraydi.

4.3-§. Yevropa davlatlari va Rossiyadagi soliqlarga oid nazariyalar va ularning talqini

Kishilik jamiyatining rivojlanib borishi, davlat tuzilishlarining turli tumanlashib borishi, xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanib va taqsimot munosabatlarining chuqurlashib borishi bunday jarayonlarni iqtisodiy jihatdan tadqiq etuvchi nazariyalarning ham rivojlanib borishiga va, aksincha, ushbu nazariyalarning hayotga tadbiq qilinishining kuchayib borishiga sababchi bo'ldi. Shu narsa ma'lumki, bu davrdagi iqtisodiy ta'limotlar, nazariya va g'oyalar asosan davlat hukmdorlariga bag'ishlangan hamda davlatning asosiy faoliyat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan. Shulardan biri «Merkantilizm» iqtisodiy ta'limoti bo'lib, ushbu ta'limotning asosida (merkantilizmning lug'aviy ma'nosi ital yancha so'zdan olingan bo'lib savdogar degan ma'noni beradi) asosan savdo kapitali, davlatni rivojlanishining asosiy manbai bu – savdoni rivojlantirish va uni tartibga solish masalasi bilan teng. Merkantalizmga

qadar boylikning, xalq moddiy farovonligining asosi mehnat, er, dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik deb hisoblab kelingan. Feodal tuzumning emirilishi, tovar-pul munosabatlarining o'sishi, fan va madaniyatning rivoji, ayniqsa, yangi erlarning ochilishi, buyuk geografik kashfiyotlar, mustamlakachilik tizimining paydo bo'lishi, savdo-sotiqning rivojlanishiga zamin yaratdi. Shunga ko'ra, davlatning soliqlar borasidagi hukmronlik qilib kelgan erlardan soliq olish g'oyalari o'rnini savdo sohasidan, ya'ni daromadidan, import, eksportdan soliq olishga asoslangan g'oyalari kuchayib bordi. Merkantalizm vakillari davlatning iqtisodiy siyosatida soliqlardan foydalanishda erlardan olinadigan soliqlarni inkor etmagan holda soliq siyosatning asosiy yo'nalishi mamlakatga import qilinadigan tayyor holdagi sanoat mahsulotlarining kirib kelishini tartiblab, yuqori soliq stavkalarini belgilash, o'z navbatida, esa arzon xomashyoning kirib kelishini hamda chetga tayyor mahsulotni eksport qilinish jarayonni soliqlar orqali rag'batlantirish lozim degan g'oyani ilgari suradi. Soliqlar shunday undirilish kerakki, deydi merkantalistlar soliq tizimi mamlakatning aktiv tashqi savdo balansini ta'minlashga xizmat qilsin. Merkantalizm g'oyalari Yevropaning turli davlatlarida turlicha namoyon etib bordi. Masalan, Germaniyada bu ta'limot kameralistika (xazina) nomini olib unda davlat moliyasini boshqarish masalalariga katta e'tibor berilsa, Fransiyada kol bertizm (hukumat a'zosi, moliya nazoratchisi va dengiz ishlari vaziri Jan Batist Kol ber nomi bilan bog'liq) shaklida asosan sanoatni rivojlantirish va uni soliqlar vositasida tartiblash, chetdan qishloq xo'jaligi mahsulotlari keltirishni soliqlar orqali rag'batlantirish masalalari katta o'rin tutgan.

Merkantilizmdan keyin shakllangan (aniqrog'i uning o'rniga kelgan) klassik iqtisodiy maktab vakillari merkanti-

listlardan farqli ravishda ishlab chiqarish sohasini o'zlarining tadqiqot markazida tutdi hamda soliqlarga oid qarashlari ham shunga monand holda shakllandi. Klassik iqtisodiyot deb nomlanadigan bu ta'limot vakillaridan V.Petti, P.Buagil Ber, F.Kene, A.Tyurgo, A.Smit, D.Rikardolar tomonidan soliqlarga oid yirik ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirildi. Vil yam Petti (1623-1687) Angliya klassik iqtisodiy maktabining asoschisi bo'lib, u 1662 yilda soliqlarga oid «Soliqlar va yig'imlar to'g'risida risola» nomli asarini yozadi. V.Pettining mazkur asari 15 bobdan iborat bo'lib unda davlatning (Irlandiya davlati misolida) xarajatlarini olti guruhga bo'lib, bunday xarajatlarni qoplashning va uning darajasiga ta'sir qiluvchi umumiy va boshqa omillarni tahlil qilib beradi. Shuningdek, soliq to'lovchilarning noroziliklarining sabablari va uni kamaytirish yo'llari, davlatda soliqlarni undirish tartiblari, boj to'lovlari, aksizlar, foiz, jon boshidan olinadigan soliqlar xususida tahliliy ma'lumotlar keltirishi bilan birgalikda davlat soliq siyosatining nimalarga qaratilishi haqida mulohazalar keltirilgan. Shu bilan birgalikda birinchi marta boshqa evropa davlatlarining soliq tizimi tahlil qilib beriladi, ularning zaif va ijobiy tomonlarini keltirib o'tadi. V.Petti kapitalga soliq solishga qarshi bo'lib, chunki bu ishlab chiqarishni cheklaydi deb hisoblaydi.

Shu bilan birga, u aholidan daromad soliqlarini undirishni qo'llab-quvvatlaydi. U.Pettining soliq nazariyasini rivojlantirishdagi katta hissalaridan biri shundaki, u iste'molni soliqqa tortish eng samarali usul deb hisoblaydi va uning afzalliklarini isbotlab beradi. Olim o'zining fikrlari quyidagicha izohlaydi. Ya'ni, jamiyatda yashaydigan har bir shaxs o'zining moliyaviy imkoniyatga qarab tovarlarni iste'mol qiladi, boy odamlar nufuzli tovarlarni tez-tez va kundalik mahsulotlarni har doim iste'mol qiladi, demak,

aksizlarni kiritish va shu orqali iste'molni soliqqa tortish soliqlar o'z egasini topishiga olib keladi. Agar soliqlar moliyaviy imkoniyatga mos kelsa, uning jamiyatga zarari kam bo'ladi. Eng yaxshi soliqqa tortish iste'molni soliqqa tortish degan aqidani ilgari suradi. Soliqlarni to'lash esa ovqatlanishga ehtiyoj kabi yuzaga chiqadi va uni inkor etib bo'lmaydigan holat deb baholaydi.

Klassik iqtisodiyot nazariyasining yirik vakillaridan bo'lgan D.Rikardo 1817 yilda «Siyosiy iqtisod va soliq solishning boshlanishi» nomli asarida soliq'larga oid nazariyalarni yanada boyitdi. Olimning mazkur kitobi uch bo'limdan iborat bo'lib, uning dastlabki qismida iqtisodiyotning nazariy muammolari yoritilgan bo'lsa, keyingi asosiy qismi bevosita soliq'larga bag'ishlanadigan hamda asarning uchinchi qismida esa o'z davrining yirik olimlari bo'lgan A.Smit, G.Mal tus va J.Seylarning ilmiy nazariy qarashlarini iqtisodiy tahlil qiladi. D.Rikardo soliq'larga oid muammolarni tadqiq qilishda iqtisodiy yer solig'i, foyda solig'i, uy solig'i, renta solig'i, ish haqidan olinadigan soliq, oltindan olinadigan soliq va shu kabi majburiy to'lovlarni narx, foyda agrar sohada qiymatning yaratilish kabi jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganadi. Olim soliq'larni iqtisodiy taraqqiyotga ta'sirini baholab, bironta ham soliq yo'qki ishlab chiqarishga to'sqinlik qilmagan, jamg'arishni to'xtatmagan, erlarning unumdorligiga ta'sir qilmagan deb soliq'larning salbiy ta'siri bilan birgalikda davlatning asosiy daromad manbaidan biri bo'lishi lozimligini uqtiradi. Soliqlarning mohiyatini tushuntirib, soliqlar bu mahsulot yoki yer uchastkasining bir qismi hisoblanadi va shu tartibda ular davlat ixtiyoriga tushadi, ammo uning to'lanishi kapitaldan yoki davlat daromadidan undiriladi deb tushuntiradi.

D.Rikardoning fikriga ko'ra, agar davlat o'zining

xarajatlarini qoplash uchun qo‘shimcha soliq turlarini joriy qilish yo‘lidan boradigan bo‘lsa, u holda ishlab chiqarish va kapital kamayib ketadi, soliqlar esa daromadning oxiri qismi (iste‘mol)ga tushadiki, milliy kapital o‘smay qoladi. Kapitalning keskin kamayib ketishi esa ishlab chiqarishni qisqartiradi. Shu jihatdan ham olim kapitalni o‘shida soliqlar katta rol o‘ynashi lozim deb hisoblaydi. D.Rikardo shu bilan birgalikda nufuzli tovarlarga soliq solishda davlat qo‘rqmasdan siyosat yuritish lozim, chunki nufuzli tovarlarni iste‘molchi daromadi hisobidan oladi va kapitalga va ishlab chiqarishga ta‘sir qilmaydi, ammo jamg‘arilishni kamaytiradi, ortiqcha jamg‘arilishni tartiblaydi degan progressiv soliq nazariyasini ham ilgari suradi. D.Rikardo birinchilardan bo‘lib, soliqlarning aylanish (boshqacha tarzga ko‘chishi) jarayonini ham tadqiq etib, bunda to‘g‘ri va egri soliqlar masalasiga to‘xtaladi. Soliqlarning mahsulot narxida aks etib, uni ishlab chiqaruvchidan iste‘molchining zimmasiga o‘tish jarayonini tahlil qilib berib, soliqning umumiy yuki borasida soliq to‘lovchiga nisbatan befarqlik saqlanib qolinish jarayonini ham ko‘rsatib beradi. Boshqacha qilib aytganda, soliq narx orqali iste‘molchining zimmasiga o‘tgan bilan soliq to‘lovchining soliq yukini kamaytirmaydi.

Klassik iqtisodiyot vakillaridan hisoblangan Fransiyalik olim P er Buagil ber (1646-1714)ning soliq borasidagi ilmiy tadqiqotlari ham bu maktabning iqtisodiy qarashlariga katta ta‘sir ko‘rsatdi. P er Buagil ber yashagan davrlarda Fransiyada er masalasi to‘la hal yetilmagan mayda er egaligi, dehqonlarning turli soliq va yig‘imlarga mahkum etilganligi ularni bu tizimda yerni yaxshilash va ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag‘batlantirmas edi, vaholanki aholining 3/4 qismi dehqonlar bo‘lib, ular bu borada tushkunlikda edi. Shu sababli ushbu sohada islohotlar

o'tkazish zarur bo'lgan, ammo unga shu davrdagi tizim xalaqit berardi. Ichki bozor tor bo'lib, kapitalistik tadbirkorlikning o'sishiga yo'l bermasdi. Bu sinf asosiy soliq to'lovchi sinf edi, dvoryanlar va dindorlar umuman soliq to'lamagan, shahar burjuaziyasi hali nisbatan kam sonli, soliqlardan ustalik bilan qochar edi. P er Buagil ber Fransiyada iqtisodiy tushkunlikdan qutulishning yo'llaridan biri sifatida soliq tizimi sohasida islohotlar qilinish zarur deb hisoblaydi va soliq tizimi manfaatdorlikni ta'minlashi va soliqlar mutanosib xarakterga ega bo'lib, barchadan undirilish tarafdori bo'ladi. Uning fikricha, soliq tizimi tabiat qonunlarini buzmasligi kerak, tabiiy jarayonlarning buzilishida soliqlar tartiblovchilik rol o'ynashi lozim deb hisoblaydi.

Fiziokratlar oqimining asosiy vakillaridan bo'lgan Fransua Kenening (1694-1774) soliqlar xususidagi nazariy talqinlari ham alohida o'ringa ega. F.Kene o'zining «Soliqlar», «Fermerlar», «Aholi», «Iqtisodiy jadval» asarlarida fiziokratlar oqimining asosiy tadqiqot markazi bo'lgan qishloq xo'jalik va uning sanoat bilan o'zaro bog'liqlik jarayonlarini har tomonlama tahlil qilib berdi. F.Kene feodalizmni qattiq tanqidchisi sifatida o'sha paytda Fransiyadagi iqtisodiy tanglikning asosiy sabablarini feodal karakteridagi ish yuritish va soliqqa tortish tizimida deb biladi. Chunki bu vaqtlarda Fransiyada sanoatning rivojlanishi va iqtisodiy holat Angliyadan ancha orqada qolib ketgan, aholining asosiy qismi qishloq aholisi tashkil qilgan, mamlakat milliy boyligining asosiy qismi(2/3 qismi) agrar sohada yuzaga kelayotgan, amaldagi soliq tizimi esa mamlakat dehqonlarining ahvolini qiyin ahvolga solib qo'ygan hamda qishloq xo'jaligidagi tushkunlik eng yuqori darajaga etib borgan bir sharoitda edi.

Bularning barchasi pirovardida mamlakatning moliya-

viy ahvolini yomonlashtirgan edi. Kenening muhim tadqiqotlaridan biri bu birinchilardan bo'lib milliy daromadni tahlil qilib, uning soliqlar bilan bog'liqligini ochib beradi. Boshqa fiziokratlar singari F.Kene ham ekspluatatsiyaning asosiy shakli obrok deb hisoblagan. «Obrok» bu o'sha vaqtda u pul va natural mahsulot shaklida olingan asosiy soliq turlaridan bo'lib, qishloq xo'jaligidagi ahvolga salbiy ta'sir etib boshlagan edi. Mamlakatda aksariyat barcha haydaladigan yer, yaylov va o'rmonlarning 80 foizi dvoryanlarga tegishli edi. Obrok shampar don sifatida to'langan va hosilning 25 foizini tashkil etgan. Ijaraga olingan yerning yarim hosili yer egalariga (pomeshchikka) to'langan. 1789 yildagi inqilob boshlangan vaqtda bu soliq turining oshib borishi qariyb 2 mlnga yaqin dehqonni xonavayron qilgan edi va mamlakatdagi siyosiy tanglikni keltirib chiqarishda asosiy omillaridan biri sifatida og'ir soliqlar ham rol o'ynagan edi.

Uning fikricha, agar fermerlar milliy daromadni yaratib uni iste'mol qilmas ekan, u holda soliq ham to'lamasligi kerak, milliy daromadning tabiati uni kim yaratsa, asosiy qismini u realizatsiya qilish degan g'oyani ilgari suradi. Fransiyaning yer bilan bog'liq muammolari va qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning pasayishi sabablari sifatida soliqqa tortishning nomaqbul usullarining qo'llanilishi, ortiqcha soliq yukining mavjudligi, nufuzli tovarlarning ortiqchaligi, sud xarajatlarining ortiqchaliligi, qishloqda yashaydiganlarning iqtisodiy erkinsizligi, erkin savdo bozorining yo'qligi, tashqi savdoning rivojlanmaganligi hamda eng muhimlaridan milliy daromadning yaratuvchilariga uning bir qismini qaytib kelmasligidaligi kabi omillarni ko'rsatib tahlil qilib beradi. F.Kene yalpi talab, yalpi taklif, milliy daromad, soliqlar kabi tushunchalarni o'zaro bog'liq deb qaradi va soliq yukining taqsimlanishi

milliy daromadning qaysi sohada yaratilganligiga qarab amalga oshirilishi lozim degan g'oyani ilgari surdi. Uning fikricha, sanoat deyarli milliy daromadni yaratishda qatnashmayapti, demak, soliq yuki ularga ko'proq tushishi kerak.

Fiziokratlarning qarashlari bo'yicha Fransiyadagi feodalizm qoldiqlari tugatilib, fiskal (soliq) tizimni ratsionalizatsiya rentadan yagona soliq olinishini joriy qilish, mayda yer uchastkalarini birlashtirib, don savdosidagi barcha proteksionistik to'siqlar bartaraf etilishi kerak deb hisoblaganlar. F.Kenening izdoshlaridan bo'lgan fiziokratlar oqimining vakili O.Mirabo ham F.Kene singari fiziokratlarning soliqlar borasidagi qarashlarini shakllantirgan olimlar sanaladi. O.Miraboga ko'ra, soliqlarni undirish quyidagi uchta shart asosida:

birinchidan, soliqlar aynan shu daromaddan olinish kerak, ya'ni soliqlarning ob'ekti aniq bo'lishi lozim;

ikkinchidan, bunday daromadlarning oshgan yoki oshmaganligi ham soliq to'lovchiga ham undiruvchiga ma'lum bo'lishi kerak;

uchinchidan, soliqlar haddan tashqari daromadlarni kamaytirishga olib kelmasligi lozim.

O.Mirabo o'z davrida soliqlarni undirish huquqini qo'lga kiritgan (chunki bu davrlarda davlatdan soliqlarni undirish huquqi ma'lum bir to'lovlar hisobiga ayrim ishbiarmonlar tomonidan qo'lga kiritilar va soliqlarni undirish bilan shug'ullanar edi. Ular bu orqali katta daromadga ega bo'lib, soliqlarni undirishda juda ko'plab adolatsizliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lar edi) shaxslarning faoliyatini qattiq tanqid qilish va soliqlarni bunday tartibda undirish mamlakat uchun katta falokat deb hisoblagan. O.Mirabo garchi soliqlar majburiy xarakterga ega bo'lsa-da, soliqlarni undirishda, albatta, soliq to'lovchining roziligiga asoslanish

kerak, ya'ni soliq undiruvchi ham soliq to'lovchi ham o'zaro kelishgan holdagi tamoyilga amal qilishi kerak deb hisoblagan. Bu fikri bilan u soliqqa tortishning tamoyillarini rivojlanishiga ham hissa qo'shgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmida soliqlarga oid ilmiy nazariyalar klassik iqtisodiy maktabning zabardast vakillaridan bo'lgan britaniyalik olimlardan biri Adam Smitning ishlarida ancha rivoj topdi. A.Smit asli Shotlandiyalik bo'lib, u o'z faoliyati va ilmiy ishlarini Angliyada amalga oshirgan. Shu tufayli ham uning iqtisodiy qarashlari va soliqlarni undirish borasidagi nazariyalari Angliyaning iqtisodiy tizimi xususiyatiga asoslanadi. Uning 1766-yilda o'z yurtiga qaytib yozgan va Angliyada chop ettirgan – «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risidagi tadqiqot» asarida shu vaqtga qadar iqtisodiyotga tegishli barcha nazariyalar, jumladan, soliqqa tortish nazariyalarini yagona tizimga birlashtirdi va ularni tartiblashtirdi. A.Smitning bu asari besh kitobdan iborat bo'lib, birinchi kitobda qiymat va qo'shimcha daromad masalalari, ikkinchi kitobda esa kapital jamg'arilishining shakllanishi davrida Yevropaning iqtisodiy rivojlanishining tendensiyalari, uchinchisida turli xalqlarda farovonlik, kapitalizm taraqqiyotining tarixiy shart-sharoitlari, to'rtinchisida – merkantilizm va fiziokratlarning ta'limotiga nisbatan o'z qarashlari va oxirgi kitobida esa davlat moliya tizimi hamda soliqlarga oid muaommolar tadqiq etilgan.

A.Smitning soliqlarga oid ilmiy ishlaridagi yutug'i shundaki, u davlatning moliya va soliq siyosatining o'zaro bog'liqlikda tadqiq etib, bu boradagi zamonaviy konsepsiyalarini yaratdi. A.Smit davlatning iqtisodiy funksiyalarini tahlil qilib, unga zarur bo'ladigan xarajatlarning optimal miqdorlarini aniqlash va uni qarz siyosatining asosiy yo'nalishlari bilan bog'liqligini ko'rsatib berdi. A.Smitning

fikricha, davlatning xarajatlari jamiyat manfaatlariga mos kelishi zarur, o'z navbatida, ana shu manfaatlariga teng ravishda soliqlar undirilish kerak, davlat xarajatlarining jamiyat manfaatlariga mos kelishi soliq to'lovchilarning to'lagan soliqlaridan nafligi ta'minlanadi va soliqqa tortishda adolatlilik tamoyil yuzaga keladi, bu barcha davlatlarning soliq tizimida asosiy masala bo'lish lozimligini ilgari suradi. U «arzon davlat» degan o'zining tezislarini ana shunday izohlaydi. Soliqlarning undirilishi uni to'lovchilarining imkoniyatlariga mos kelishi, u ishga yaroqli kishilardangina olinishi lozimligini ta'kidlaydi. U sanoatchilar manfaatlarini himoya qilib, yirik yer egalari nisbatan beriladigan soliq imtiyozlarini belgilash daromadni ko'kka sovurish bilan teng tezislarni ilgari surdi. Uning fikricha, davlat foydadan oladigan soliqdan faqatgina o'zi manfaat ko'radi, korxonaga egalari esa soliqni mahsulotning narxiga qo'shish orqali iste'molchining zimmasiga yuklaydi va mahsulotlar narxining oshishiga olib keladi, bu yerda soliqlar faqat fiskal ahamiyatga ega bo'lib qoladi deb hisoblaydi.

A.Smit merkantalizm oqimi tarafdorlarining tashqi savdoni soliqlar vositasida cheklashlar mamlakat iqtisodiyotiga katta zarar keltirishini isbotlab, soliqlarning me'yorida undirilishini mamlakat iqtisodiyoti va moliya tizimini barqarorlashtirishning muhim omili sifatida izohlaydi. Shuningdek, A.Smitning soliq nazariyasidagi eng katta xizmati shundaki, u o'zidan oldingi olimlarning ishlarida soliqqa tortish tamoyillari xususidagi yondashuvlarni umumlashtirib, uni yagona tizimda birlashtirdi. (Bu masalaga esa soliqqa tortish tamoyillari mavzusida to'xtalib o'tiladi).

Soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishida nemis iqtisodchisi Adol f Vagnerning (1835-1917) hissasi yuqori hisoblanadi. A.Vagner soliqqa tortish tizimida muammolarni

bir biriga o‘zaro bog‘liq holda qaraydi. A. Vagner progressiv soliqqa tortishni afzal deb bilgan va soliqlarning eng muhim manbai xalq xo‘jaligining sof daromadi bilan birgalikda kapitalni soliqqa tortish asosiy masalalardan biri bo‘lishi lozim degan g‘oyaga asoslanadi. Uning fikriga ko‘ra, sof daromadni soliqqa tortish uning egasining minimal turmush tarziga ta‘sir qilmaydi va soliq to‘lovchi minimum tarzda bo‘lsa ham daromadga ega bo‘ladi. Shu bilan birgalikda A. Vagner soliqlarning almashinuvi (ko‘chishi)ni ham tahlil qilib beradi. Tamakiga qo‘yiladigan soliq oxir oqibatda uni chekuvchi – iste‘molchiga borib tushsa-da, aslida soliq ishlab chiqarishdan iste‘molga, talabdan taklifga o‘tadi. Shu tufayli ham soliqlarning bunday harakatlanishi talab va taklifdagi muvozanatga ham ta‘sir qiladi va uning birligini ko‘rsatib turadi deb isbotlaydi. A. Vagner, o‘z navbatida, sotib olish solig‘i, egalik qilish (mulk, er-suvga) solig‘i hamda iste‘mol solig‘ini joriy qilishni ilgari surgan. A. Vagnerning soliqqa tortish borasidagi eng katta xizmatlaridan biri bu – A. Smit singari soliqqa tortishning tamoyillarini aniqlash borasidagi ishlari bo‘ldi (bu haqda soliqqa tortish tamoyillari mavzusida to‘xtalib o‘tiladi). Ingliz iqtisodchisi Jon Styuart Mill (1806-1873) klassik maktabning so‘nggi nomoyondalaridan biri sifatida soliqlarga oid o‘zining qarashlarini yer solig‘i yordamida yerdan olinadigan renta to‘lovlarini ijtimoiylashtirish lozim degan g‘oyasida aks ettiradi. Olim o‘zining bu g‘oyasida qishloq xo‘jaligi taraqqiyotning hozirgi va keyingi bosqichlarida ham soliqlarning asosiy ob‘ekti bo‘lib qoladi, er solig‘ini yanada takomillashtirish va uning chegarasini aniq belgilash uni ijtimoiylashtiradi deb hisoblaydi. Chunki yer solig‘idan olinadigan solikli daromadlar davlat faoliyatining asosiy foyda manbai hisoblanar ekan, unga jamiyatning asosiy daromad manbai sifatida qarash va yondashish, kooperativ

ishlab chiqarish uyushmalarini tuzish orqali yollanma mehnatni bartaraf etish, merosxo'rluk qonunini cheklash orqali boylikning tengsizligiga barham berish lozim degan tezislariga asoslanadi.

Kommunistik mafkura va sotsializm iqtisodiy tizim asoschilari hisoblangan K.Marks, F.Engel s va V.Lenining asarlarida soliqqa tortish masalalari ham o'rin olgan bo'lib, ular soliq'larga sotsial jihatdan yondashgan. Ya'ni, soliq'larni kapitalistik tuzumning muhim ko'rinishlari va mehnatkashlarni eksplatuatsiya qilishning asosiy unsuri deb hisoblagan. Ayniqsa, ushbu ta'limotda egri soliq'lar qattiq tanqid qilingan, egri soliq'lar asosan eksplatuatsiya qilishning asosiy vositasi sifatida qaralgan. Ammo ular soliq davlatning yuzaga kelishi va rivojlanishida muhim manba ekanligini inkor etmagan holda, soliq'lardan tashqari davlat faoliyatini moliyalashtirishning boshqa muqobil manbaalarini ko'rsatib bera olmaganlar. Shu sababli ham sotsializm tizimi sharoitida ham, garchi ular sotsializmga yot narsa deb qaralgan bo'lsa-da, amalda mavjud bo'lib kelgan. Qolaversa, soliqqa tortishning tamoyillari, jumladan, adolatlilik tamoyiligiga amal qilinmagan. Sobiq ittifoq davrida ham soliq'lar mavjud bo'lgan. Uning asosiy ko'rinishi normativ usullarga asoslangan «budjetga ajratmalar» tarzida namoyon bo'lib, «foydaning ozod qoldig'i», «oborot solig'i», «buydoqlik solig'i» va shu kabi nomlarda ham amal qilgan (bu haqda keyingi paragraflarda batafsil ma'lumot beriladi).

Jahon iqtisodiy ta'limotlar tizimida «Marjinalizm» oqimi sifatida e'tirof etiladigan iqtisodiy ta'limoti namoyon-daalari hisoblangan A.Kurno (Fransiya), I.Tyunon, G.Gossen (Germaniya), K.Menger, F.Vizer, E. Byom-Baverk (Avstriya) va shu kabilar tomonidan ham soliq muammolari o'rganib kelindi. Asosan XIX asrning

oʻrtalari va undan keyingi davrlarda rivojlangan bu taʼlimot vakillari qiymat, narx masalalarini tadqiq etib, ularni soliqlar bilan birga qarash lozim degan gʻoyani asoslaydi. Ular marjinal nafilik va tenglikni taʼminlashda soliqlarni asosiy instrument sifatida baholaydi. Ularning fikricha, soliq toʻlovchilarning daromaddan maksimal nafilik olishi, ularning manfaatlarini davlat manfaatlariga yaqinlashtiradi, ammo bu manfaatlarni yaqinlashtirishda esa progressiv soliqqa tortishdan foydalanish lozimligini ilgari suradi.

Progressiv soliqqa tortish bir tomondan davlat manfaatlariga xizmat qilsa-da, soliq toʻlovchilarning manfaatlarini himoya qilishning vositasi va ularning olgan daromadlaridan minimal nafilikning chegarasini oʻrnatish maqsadida soliqqa tortilmaydigan minimum gʻoyasini ilgari suradi hamda uni jamiyatda nafilik tengliklarini taʼminlashdagi rolga yuqori baho beradi. Marjinalizm iqtisodiy oqim tarafdorlaridan biri Shvetsiyalik iqtisodchi olim Knut Viksell (1851-1926) soliq muaommolarini narx nazariyasiga bogʻliq holda tadqiq etib, soliqlar farovonlik manbai sifatida xizmat qilishini davlat xarajatlarining yoʻnalishlariga bogʻliqligini isbotlab berdi. U oʻzining «Soliqqa tortishning oddiy tamoyillari» kitobida soliq toʻlovchilarning soliqlardan nafiligini taʼminlashda, avvalo, soliq maʼmurchiligini takomillashtirish, uning qonuniy amal qilishini taʼminlash, soliqlarni joriy etishda parlamentning rolini oshirish soliqlarni adolatlilik tamoyilining asosiy omillari sifatida baholaydi. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini taʼminlashda nafilikning tengligini taʼminlash yotadi deb hisoblaydi. Agar qachonki, soliq toʻlovchilar davlat xarajatlaridan nafiligi ohsa, oʻshanda soliqlar adolatli hisoblanib, isteʼmolni qisqartirishga olib keluvchi har qanday shakldagi xarajatlarga solinadigan soliqlarni qattiq tanqid qildi. Kimda yuqori daromad mavjud boʻlsa,

o‘shanga yuqori soliq solish degan g‘oyani ilgari suradi. Soliqlar esa qanday ko‘rinishda va qanday darajada bo‘lishidan qat’iy nazar ular aholining sotsial guruhlarining turmush tarziga salbiy ta’sir etmasligi kerak deb hisoblagan.

Knut Viksellning soliqqa oid nazariyalari uning vatandoshi Erik Lindalya (1891-1960) tomonidan yanada rivojlantirildi. E.Lindalya o‘zining 1960 yilda yozgan «Soliq tamoyillari va soliq siyosati (Tax Principles and Tax Policy) asarida manfaat – teng qurbonlik (soliq to‘lash ma’nosida) – daromadlilik darajasi kabi uch omil soliqqa tortishning asosida turishi kerak degan tezisni ilgari suradi. Soliqlarni esa davlat tomonidan taklif etilayotgan (ko‘rsatilayotgan) xizmatlarning narxi sifatida ta’riflaydi. Yakka tartibdagi soliq to‘lovchilar turli xil turmush tarziga ega bo‘lib, turli darajadagi soliqlarni joriy etish esa jamiyatda mutanosiblikni ta’minlashi tahlil qilib beriladi. Shu bilan birgalikda, E.Lindalya soliqqa tortishda progressiv soliqqa tortishni himoya qiladi.

Iqtisodiy nazariyalar olamida daromadlar va aholining tabaqalashuvini muhim omillari sifatida qaragan marjinalizm tarafdori hisoblangan Angliyalik iqtisodchi A.Pigu (1877-1959) davlatning iqtisodiyotga aralashuvi jamiyatda muvozanatni va farovonlikni ta’minlash konsepsiyasini ilgari surib, bunda soliqlar asosiy omil bo‘lish lozimligini nazariy talqin qilib beradi. A.Pigu aholining va korxonalarining daromadlari bo‘yicha tabaqalashuvining omillari va uning darajasini tahlil qilishda daromadlarni soliqqa tortishning asosiy yo‘llarini ko‘rsatib berdi. Uning fikriga ko‘ra, daromadlarni soliqqa tortish bir tomondan jamg‘arilishga nisbatan haddan tashqari kamsitilish bo‘lsa, boshqa tomondan jamg‘arilish kelgusidagi farovonlikni ta’minlashning muhim manbai va uni soliqlar vositada rag‘batlantirish muhim. Shuningdek, ushbu olim xarajatlarga nisbatan

umumiy soliqni joriy qilish tarafdori bo'lib, xarjatlarni soliqqa tortish davlat manfaatlariga, jamg'armani soliqlar orqali rag'batlantirish esa jamiyat a'zolariga xizmat qiladi deb hisoblaydi. A.Piguning soliqlar borasidagi nazariy qarashlarining muhim ahamiyati shundaki, u birinchilardan bo'lib, daromadlarni soliqqa tortishda soliq imtiyozlaridan foydalanish zarurligi va uning ahamiyatni ko'rsatib berdi. U daromadlarni soliqqa tortishda faqat sof daromad soliqqa tortilishi va daromadni soliqqa tortish jarayoni mehnatning faollashuvini ta'minlash kerakligini ilgari suradi.

Soliqqa tortish nazariyalari ichida «Keynsyalilik ta'limoti» sifatida nom qozongan Amerikalik iqtisodchi olim Jon Meynard Keynsning (1884-1946) nazariy qarashlari juda katta ahamiyatga ega. J.Keyns «Pul muomalasi va Hindiston moliyasi», «Ish bilan bandlik, foiz va pulning umumiy nazariyasi» asarlarida iqtisodiy jarayonlarni tahlil etishda, davlatning iqtisodiyotga aralashuvida hamda iqtisodiy muvozanatni ta'minlashda soliqlarning roli, undan foydalanish masalalari xususida yirik tadqiqotlarni amalga oshirgan. J.Keyns iqtisodiyotda bandlik, investitsiya, inflyasiya, davlat xarajatlari va soliqlar masalalarini o'zaro bog'liqlikda tahlil qilib, iqtisodiyotda to'la bandlikni ta'minlash uchun faqat investitsiyalarnigina emas, balki milliy daromadni ham tartibga solish lozim va bunda soliqlar asosiy rol o'ynaydi deb hisoblaydi.

Keyns ishsizlikni bartaraf etish uchun taklifni ko'paytirish kerak, taklif ko'paysa, ish o'rinlari ham ko'payadi, bunda inflyasiya, budget taqchilligidan qo'rqmasdan xarajatlarni ko'paytirish kerak degan g'oyani ilgari suradi. U o'zining g'oyasini to'g'ri ekanligini AQSh iqtisodiyoti uning g'oyalari asosida tanazzuldan olib chiqilganligi bilan isbotlaydi. Uning fikriga ko'ra, aholining qo'lida katta jamg'armalar doim mavjud bo'ladi, sababi daromadlarning tengsizligi

va iste'molning bir xil emasligi bunday jamg'armalarni doim rag'batlantirib keladi, bunday jamg'armalardan samarali foydalanishning yagona usullaridan biri sifatida soliqlardan foydalanish lozimligini ilgari suradi. Buning uchun u progressiv soliqqa tortishni taklif qilib, soliqlar va aholi jamg'armalarini davlat investitsiyasining muhim manbai sifatida baholaydi. J.Keyns aholining boy qatlamlariga nisbatan soliqlarni oshirishni qo'llamasada, mehnatkashlarning solig'ini oshirish tarafdori bo'ladi. Soliqlarni oshirish iste'molni rag'batlantiradi va jamg'armalarni kamaytiradi, inflyasiya orqali narx-navoni oshirish esa real ish haqini kamaytirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, real ish haqini pasaytirmasdan turib ishsizlikni kamaytirish va bandlikni ta'minlab bo'lmaydi degan o'zining asosiy qarashlarini himoya qiladi.

J.Keynsning soliqqa oid nazariyalari uning keyingi safdoshlarining bu boradagi nazariyalarini rivojlantirdi. Bu jarayon keyinchalik **keynschilik** nomi bilan ataldi. Jumladan, AQSh ning Garvard universiteti professorlari E.Xansen (1887-1975), S.Harris, J.M.Klarklarning asarlarida Keynes nazariyalari to'ldirildi. E.Xansen davlat xarajatlarini o'stirish uchun soliqlarni oshirish zarur degan g'oyalarni ilgari surdi, uning fikricha, ish haqqini soliqqa tortishda kamida 60 foizini soliqqa tortish lozim (Keynsda bu daraja 25-30 foiz deyilgan) deb hisoblagan. Keynes izdoshlari uning investitsiya, jamg'arish va iste'molga oid multiplikator tushunchasini soliqlarda qo'lladi. (Multiplikator tushunchasi lotin tilidan olingan bo'lib, multiplicare – ko'paytirish, oshirish degan ma'noni anglatadi).

Soliq multiplikatorining mohiyati shundan iboratki, soliqlarning o'zgarishi hisobiga yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, investitsiya, iste'mol, xarajat, daromad

va shu kabilar qanchaga o'zgarganligini ifodalaydi. Yangi keynschilik vakillari o'zlarining nazariyalarida soliq multiplikatorini quyidagicha tushuntiradi:

Davlat xarajatlari oshsa, soliqlar ham oshadi, soliqlarning oshishi esa, o'z navbatida, aholining real pul daromadlari hamda yalpi talabni kamaytiradi, bu talabning kamayishi esa yalpi ichki mahsulotni ham kamayishiga olib keladi. Aholi daromadlari iste'molga va jamg'arishga yo'naltiriladiki, soliqlarning oshishi iste'molga va jamg'arishga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Bunday bog'liqlik esa soliq multiplikatori orqali izohlanadi va ular soliq multiplikatorining umumiy ko'rinishini ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarishini, soliqlarning real o'zgarishiga nisbati sifatida izohlaydi. Shuningdek, Keynsning izdoshlari soliqlar iqtisodiyot o'sganda oshishi, inqirozlar davrida esa kamayish tendensiyasiga ega bo'lishligini, davlat to'lovlari esa, aksincha, inqiroz davrida oshishi va iqtisodiy o'sish davrida kamayishligini isbotlaydi. E.Xansening fikricha, bunday tartib samarali talab hajmini me'yorlashtiradi va soliqlarning iqtisodiyotni tartiblashdagi ahamiyatini ko'rsatib beradi.

O'tgan asrning o'rtalarida soliq nazariyalarini rivojlantirishda Nobel mukofoti sohibi, keyinchalik oqimning so'ngi vakillaridan biri Pol Samuel sonning ishlarida ancha rivoj topdi. Uning mashhur «Iqtisodiyot» va boshqa asarlarida soliqlarning makroqtisodiy tahliliga katta urg'u berdi. Bunda soliqlar va soliq siyosatini iqtisodiyotni tartiblashda eng muhim instrumentlardan biri sifatidagi o'rni ko'rsatib berildi. U soliqlar vositasida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va o'stirish, ishsizlikni kamaytirish va inflyasiyani jilovlashning asosiy yo'llarini ko'rsatib berdi. Pol Samuel sonning soliq nazariyasidagi katta xizmatlaridan yana biri shundaki, u soliqlarning tashkiliy tamoyillarini ishlab chiqdi va uni qo'llashning xususiyatlarini ochib berdi. U soliq

tizimini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga asoslanish kerakligi ta'kidlaydi:

Manfaatdorlik tamoyili orqali soliq to'lovchilar davlatning bir xil tartibda manfaat ko'rishi va soliqlarni turli xil tartibda to'lashga asoslanishi zarurligini izohlaydi. Soliq to'lovchilar bir xil bo'lishi mumkin emas, ammo ijtimoiy manfaatdorlikni uyg'unlashtirishi mumkin degan g'oyaga asoslanadi.

Soliq to'lovchilar tomonidan to'langan soliqlar ularning o'zlari yoki jamoa manfaatlariga muvofiq kelishi lozimligi tamoyilini ilgari suradi. Soliq to'lovchi u yoki bu jamoa a'zosi sifatida o'zi va jamoasining to'lagan soliqlaridan ham yakka tartibda, ham jamoatchilik tartibda manfaatga ega bo'lishi kerakligi nazarda tutiladi. Soliq to'lovchilarning to'lovga qobiliyatlilik tamoyilida esa soliq to'lovchilarning to'lagan soliqlari ularning daromad olish va iqtisodiy ahvoli darajasiga bog'liq bo'lish lozim degan mazmunga asoslanadi. Pol Samuel son soliqqa tortishning adolatlilik va tenglik tamoyillari o'zaro bog'langan holda qo'llanilish lozimligini e'tirof etib, tenglik tamoyili ham gorizontaal ham vertikal holda qo'llangandagina mohiyatga ega bo'ladi deb hisoblaydi. Vertikal tenglikda soliqlar tabaqalashgan holda turli darajadagi daromadlarni qamrab olsa, gorizontaal tenglikda esa soliq to'lovchilar bir xil tartibda soliq to'lashlari ta'minlanishi kerakligi isbotlanadi. Soliqlar teng o'rnatilgan sharoitda ularning daromadlarining farqlanishi soliqlarning adolatlilik tamoyili saqlangan holda soliq turli xil darajada undiriladi, kim ko'proq manfaat ko'rayotgan bo'lsa, demak, u shuncha ko'p daromadga ega bo'layapti, ammo faoliyatning turli-tumanligida soliq imtiyozlarining to'g'ri qo'llanilishi bunday notengsizliklarni bartaraf etishligi tushuntirilib beriladi.

Pol Samuel son o'zining soliqqa oid nazariyalarini

solliqlarning narx va mahsulotlarning miqdoriga ta'sirini baholab berish bilan davom ettiradi. Bunda soliqlar narxga ta'sir qilish orqali yalpi talab va taklifga ham ta'sir qiladi. Yalpi talab darajasi esa ishlab chiqaruvchi qancha mahsulot ishlab chiqarishi lozimligini ko'rsatib beradi, demak, soliqlar bilvosita shaklda mahsulotning miqdorini tartiblashga xizmat qilib, ortiqcha mahsulotdan, kapitalning muzlanishidan xalos etish kuchiga ega ekanligi tavsiflanadi. Shu bilan birgalikda Pol Samuel son soliq-budjet siyosatining iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini tahlil qilib berib, o'zidan oldingi nazariyalarda ilgari surilgan soliqlar talabni boshqarishning muhim omili sifatida baholangan bo'lsa, bunday yondashuv vaqtinchalik xarakterga ega bo'lishi lozimligi, aks holda zarur hollarda soliqlarni oshirish va davlat budjeti taqchilligini boshqarishda katta muammolar kelib chiqishi ko'rsatib beradi.

Soliqqa oid nazariyalarning o'tgan asrning ikkinchi yarmidagi rivojlanish tendensiyalari avvalgilaridan farqli ravishda taklifni tartiblash va rag'batlantirishga yo'naltirildi hamda ushbu nazariyalar «Taklif nazariyasi» nomi bilan ataldi. Ayniqsa, bu nazariya o'tgan asrning 80-yillaridan keyin AQSh da keng rivoj topdi. Chunki bu davrlarda AQSh iqtisodiyotida soliqlar asosan talabni tartiblash, ishsizlik, monetar tizim, investitsiyalar bilan ko'proq bog'langan va ularni boshqarishga yo'naltirilgan bo'lib, iqtisodiyotda yalpi taklifni boshqarishda uning ta'siri ancha kamayib ketgan edi. Bu hol, albatta, AQSh iqtisodiyotida 80-yillarning boshida kuzatilgan iqtisodiy inqiroz sharoitida ancha sezilib qoldi.


«Taklif nazariyasi»sining asosini iqtisodiyotda solliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish masalasi tashkil etadi. Ular iqtisodiyotda o'sishni ta'minlash asosida investitsiya, mehnat va jamg'arilish jarayonlarini

rag'batlantirishdan izlaydi va bunda soliqlar asosiy rol o'ynashi lozim degan g'oyaga asoslanadi. Ularning fikricha, talabni boshqarishdan ko'ra taklifni boshqarish qiyinroq, chunki davlatning taklifni boshqarishdagi imkoniyati cheklangan bo'ladi, iqtisodiyotdagi yalpi talabni esa real sektor ta'minlaydi. Agar davlat o'zining doirasidagi taklifni boshqarish bilan cheklanadigan bo'lsa, iqtisodiy muvozanatda uzilishlar paydo bo'ladi, bu esa soliqlardan taklifni boshqarishda samaraliroq foydalanish lozimligini ko'rsatadi degan g'oya diqqat markazga olib chiqiladi.

«Taklif nazariyasi»sining vakillaridan biri Amerikalik iqtisodchi Artur Lafferning soliqlar borasidagi ilmiy qarashlari va takliflari jahon soliqqa tortish nazariyasini rivojlantirishda katta hissasi bor. A.Laffer AQSh iqtisodiyotni tahlil etib, unda soliq siyosatida davlatning asosiy mezonini nima bo'lish lozimligini ko'rsatib berdi. A.Laffer AQSh iqtisodiyoti asosida soliq stavkasi, soliq bazasi va budjet daromadlari o'rtasidagi bog'liqlik jarayonlarini empirik tadqiqotlarga asoslangan holda aniqlab berdi va bu borada davlatning soliq siyosatining o'rnini ham ko'rsatib berdi. U Shunday xulosaga keladiki, soliqlar o'zining iqtisodiyot ko'tara olishi mumkin bo'lgan darajaga etganda soliqlarning iqtisodiyotga va davlat budjetiga ta'siri teskari proporsionnalikda rivojlanadi. A.Laffer 1973-1983 yillar oralig'ida AQSh federal budjetida budjet taqchilligi 200 mlrd.dollardan kamayganligini tahlil qilish asosida, buning sabablarini o'zining quyidagi egri chiziq grafigi orqali tushuntirib beradi (2-rasm).

A.Lafferning egri chizig'i shuni ifodalaydiki, (bu narsa o'zining ham ta'kidlashicha, o'rta asrlarda yashab ijod etgan arab iqtisodchisi I.Xaldun va J.Keyns ta'limotida ham uchraydi) davlatning soliq to'lovchilardan daromadlarining 40-50 foizigacha budjetga olib qo'yishi ularda ishlab

chiqarishni rivojlantirish va investitsiya jarayonini amalga oshirishga imkoniyat qoldirmaydi. A.Lafferning hisob-kitobiga ko'ra, oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini minimal ta'minlash (o'sha vaqtdagi AQSh iqtisodiyoti holatiga ko'ra) daromadning 50-60 foizini talab qiladi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchi davlatning soliq siyosatini ruhan qo'llagan taqdirda ham ishlab chiqarishida tushkunlik paydo bo'ladi va bu tushkunlik uni soliqni kamroq to'lashga undovchi vaziyatga majburlaydi. Oqibatda esa ham iqtisodiyotda, ham soliq to'lovchilarning ruhiyatida, qolaversa, davlat xarajatlarini amalga oshirishda ham tushkunlik paydo bo'ladi.



2-rasm. Laffer egri chizig'i.

Bu yerda:

Gov.Revenue (R) – Davlatga soliq tushumlari.

Tax rate (t) – Soliq stavkasi.

A.Lafferning egri chizig'i shuni ifodalaydiki, (bu narsa o'zining ham ta'kidlashicha, o'rta asrlarda yashab ijod etgan arab iqtisodchisi I.Xaldun va J.Keyns ta'limotida ham uchraydi) davlatning soliq to'lovchilardan daromadlarining 40-50 foizigacha byudjetga olib qo'yishi ularda ishlab chiqarishni rivojlantirish va investitsiya jarayonini amalga oshirishga imkoniyat qoldirmaydi. A.Lafferning hisob-kitobiga ko'ra, oddiy takror ishlab chiqarish jarayonini minimal ta'minlash (o'sha vaqtdagi AQSh iqtisodiyoti holatiga ko'ra) daromadning 50-60 foizini talab qiladi. Bunday sharoitda ishlab chiqaruvchi davlatning soliq siyosatini ruhan qo'llagan taqdirda ham ishlab chiqarishida tushkunlik paydo bo'ladi va bu tushkunlik uni soliqni kamroq to'lashga undovchi vaziyatga majburlaydi. Oqibatda esa ham iqtisodiyotda, ham soliq to'lovchilarning ruhiyatida, qolaversa, davlat xarajatlarini amalga oshirishda ham tushkunlik paydo bo'ladi.

Demak, davlatning maksimal chegaradan o'tadigan progressiv soliq siyosati juda zarur hollarda (masalan, inqiroz davrida) oraliq jarayonda qo'llanish kerak degan g'oyani ilgari suradi. Tahlillarga asoslanib A.Laffer ta'kidlaydiki, ishlab chiqaruvchidan unda shakllangan qo'shilgan qiymatning 35-40 foizini turli xil ko'rinishlarda davlat ixtiyoriga olib qo'yish uning investitsion siyosatini bug'adi va u doiraviy aylanish ko'rinishida butun iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiladi. Shunga asoslangan holda bugungi kunda o'rtacha soliq yukining maksimal chegarasining mezoni sifatida 30-35 foiz daraja qilib belgilanishi hayotda o'z isbotini topgan ushbu Laffer ta'limotiga asoslanadi. Ta'kidlash mumkinki, AQSh da o'tgan asrning 80-yillarida o'tkazilgan soliq siyosati islohotlari ham aynan A.Lafferning g'oyalariga asoslangan bo'lib, uning g'oyalarining mazmuni hozirgi vaqtda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Keynschilik oqimi nazariyalariga qarshi ravishda paydo bo'lgan «Monetarizm» iqtisodiy oqimi esa Keyns va izdoshlarining iqtisodiyotni boshqarishda davlatning roliga bo'lgan munosabatda boshqacha yondashadi. Ya'ni, Milton Fridmen (1912) kabi uning asosiy namoyandalari makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat asosan pul miqdorini boshqarish bilan cheklanish lozim degan nazariyaga asoslanadi. Ular bu jarayonda soliqlarning roli xususidagi o'zlarining qarashlarini ifoda etib, ular fiskal siyosatni qattik tanqid qiladi, soliqlarni kamaytirish lozimligini ta'kidlaydi. Soliqlarni kamaytirish orqali soliq yukini tadbirkorlar zimmasidan pasaytirish ishbilarmonlikni faollashtiradi, ularda investitsiya muhiti yaxshilanadi, o'z-o'zidan inflyasiya ham jilovlanadi degan takliflarni ilgari suradi. Ular keyschilardan farqli ravishda davlat xarajatlarini oshirishga qarshi bo'lib, bunda progressiv soliqqa tortish iqtisodiyotning mavjud sharoitida o'zini oqlamasligini ko'rsatib berdi.

Hozirgi zamon soliqqa tortish nazariyalarida Nobel mukofoti sovrindori AQSh lik olim S.Djozef Stiglitsning tadqiqotlari alohida o'ringa ega. D.Stiglits o'zining 1995 yilda yozgan «Ijtimoiy sektor iqtisodiyoti», 1997 yilda yozgan «Davlat sektori iqtisodiyoti nazariya bo'yicha ma'ruzalar» nomli asarlarida davlat xo'jaligi iqtisodiyotini har tomonlama tahlil qilib, soliq tizimini ham tadqiq etadi. U soliqlarga oid nazariyalari soliq og'irligi (korxonalar doirasida), soliqqa tortishning optimalligi, kapitalni soliqqa tortish, yakka tartibda olingan daromadlarni soliqqa tortish, soliqlardan qochishga sabab bo'luvchi omillar hamda soliq islohotlari qanday tartibda o'tkazilishi kerak degan muhim muammolarni qamrab oladi.

D.Stiglits soliqqa tortishning muhim zamonaviy 5 ta tamoyilini ishlab chiqadi. Unga ko'ra soliqqa tortish

resurslarning samarali taqsimlanishiga qarshi turmaslik, soliqlarni undirish ma'muriy va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishi, soliqlar iqtisodiyotning holatiga tez moslashuvchan bo'lishi, soliq to'lovchilar soliq to'layotganda u siyosiy jihatdan ta'minlanganligini anglashi, soliqqa tortish tizimi har bir individga nisbatan adolatli tarzda mavjud bo'lishi kerak. Olim o'zining asosiy g'oyalarini umumlashtirish orqali soliqqa tortish qanday shaklda optimalga ega bo'ladi degan masalaning echimlarini beradi. Uning bu g'oyasida esa soliqlarning tarkibini optimal belgilash jamiyatni farovonlashtirishning muhim qadami hisoblanib, qat'iy belgilangan stavkalaridagi soliqlar, iste'mol solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (garchi AQSh da qo'shilgan qiymat solig'i mavjud bo'lmasa-da) va daromaddan olinadigan soliqlar doim takomillashtirilib turilishi masalasi turadi. Shuningdek, D.Stiglits soliqqa oid islohotlar doimiy xarakterga ega bo'lishi lozim deb hisoblaydi. U o'zining bu fikrlarini AQSh da o'tkazilgan soliq islohotlari turlicha samara berganligi, islohotlar orasidagi davriylikning kattaligi soliqlardan samarali foydalanishga salbiy ta'sir qilganligi, soliqlarning moslashuvchanligini e'tiborga olgan holda soliq islohotlari doimiy xarakterga ega bo'lishligini ta'kidlaydi.

Soliqqa oid nazariyalarni rivojlantirishda Rossiyalik nazariyachi olimlarining ham katta hissasi mavjud. XIX–XX asrlar soliq nazariyasining rivojlanishida rus olimi Nikolay Ivanovich Turgenovning tadqiqotlari Rossiyada soliqlarni tadqiq qilishda katta turtki bo'ldi. N.Turgenov o'zining «Soliq nazariyalaridan tajriba» nomli asarida Rossiyada soliq tizimining xususiyatlari bilan birgalikda soliqlarning tabiatini ochib berishga qaratilgan ko'plab ilmiy qarashlarni ilgari suradi. N.Turgenovning ushbu asari etti bobdan iborat bo'lib, soliqlarning kelib chiqish, soliqlarni undirishning

bosh qoidalari, soliqlarning si, soliqlarni yig'ish, soliqlarni tenglashtirish hamda soliqlar ta'sirining umumiy jarayonlari kabi yirik masalalarni qamrab oladi. N.Turgenov o'zidan oldin o'tgan soliq nazariyasi bilan shug'ullangan olimlarning qarashlarini ilmiy tahlil qilib, soliqlarni joriy etish va undirishga qaratiladigan bosh masalalardan biri bu – har qaysi soliqning o'ziga xos noqulayliklarini e'tiborga olish masalasini qo'yadi. N.Turgenov A.Smitning ilmiy nazariyalarini tanqidiy o'rganib, soliqqa tortishning umumiy tamoyillari barcha davlatlarda qo'llash uchun davlatning moliya xo'jalik faoliyatini chuqur tahlil etish zarurligini ilgari suradi.

N.Turgenovning soliqqa oid nazariyasining asosiy mazmunini soliqlarning sotsiallasuvi, soliq tizimining samaradorligini ta'minlashda davlatning tashqi va ichki siyosatining ta'siri, soliqlarni tekis taqsimlash muammolari, daromad va kapitalni soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish, soliqlarning guruhlanish asoslari, yerlar va qazilma joylarning kadastrini tuzish masalalari, fiziokratlar taklif etgan yagona yer solig'ining salbiy jihatlari, soliqlarni undirish usullari, soliq to'lovchilarning mas'uliyati, soliqlarni undirishda soliq undiruvchilarning salbiy alomatlari va ularning soliqlarni adolatlilik tamoyilining buzilishiga olib kelish sabablari hamda Yevropa davlatlarida soliqlarni undirish borasidagi yutuq va kamchiliklardan Rossiya soliq tizimini rivojlantirishda qo'llashning asosiy masalalari va shu kabilar tashkil etadi. Rossiyalik olimlardan soliq nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan yana bir olim Yanjul Ivan Ivanovich (1846-1914) hisoblanadi. I.Yanjul g'oyaviy jihatdan davlat iqtisodiyotni tartiblashda soliq va bojlardan samarali foydalanishning nazariy jihatlarini ko'rsatib berish bilan birga, o'zi soliqlarning rivojlanish tendensiyalarini ham

nazariy jihatdan tahlil qilib berdi. Uning 1890 yilda chop etgan «Moliya fanlarining asosiy debochalari» nomli asarida soliq nazariyalarini tahlil qildi va Rossiya soliq tizimining rivojlanish xususiyatlarini ko'rsatib beradi. U, shuningdek, boshqalardan farqli ravishda soliqlarning nafaqat iqtisodiy ahamiyati, shu bilan birgalikda davlat qurilishi va boshqaruvidagi siyosiy ahamiyatini ham asoslab beradi. Yanjul 1789 yilda Fransiya amalga oshirilgan revolyusiyaning asosiy sabablari sifatida davlatning soliq siyosati rol o'ynaganligini ko'rsatib beradi.

I.Yanjulning soliqqa oid nazariyalarining yana bir muhim jihati shundaki, u soliqlarning maksimal chegarasi qanday bo'lish kerakligiga oydinlik kiritadi. Uning fikricha soliqlarning chegarasi davlat ehtiyojlarining miqdori va soliq to'lovchilarning mulkiy va moliyaviy imkoniyatlarining kesishuvida deb biladi va davlatning soliq siyosatida soliqlarning maksimal hajmini belgilashning vositalarini asoslab beradi. U, o'z navbatida, progressiv soliqqa tortishning ahamiyati va uning davlat siyosati samaradorligini oshirishdagi rolga baho beradi. I.Yanjulning ilmiy ishlari qatoriga soliqlarning almashinuv xususiyatlarining yuzaga kelishi va uning o'ziga xos qonuniyatlarini izohlab berish hamda qanaqa soliqlar amal qilishi mumkinligini ko'rsatib berish ham kiradi. Shunga muvofiq, uning fikricha, davlatda er solig'i, uy solig'i, hunarmandchilik solig'i, pul kapitaliga soliq, shaxsiy soliq, daromad solig'i hamda nufuzli tovarlarga soliqlar joriy qilinishi lozim. Qayd etilganlar bilan birgalikda I.Yanjul egri soliqlar va bojlarni alohida tadqiq qiladi. Bu borada u egri soliqlar asosan iste'molda ikkinchi darajali (o'rtacha iste'moldagi) tovarlarga solinishi va egri soliqlarning sonini cheklash lozimligini ilgari suradi.

Soliq nazariyasining Rossiyada rivojlanishiga Aleksandr

Aleksandrovich Sokolovning ham hissasi mavjud. A.Sokolov o'zining «Soliq nazariyasi», «Germaniya imperiyasi qonunchiligi», «Rossiyada moliyaviy islohotlar» kabi asarlarida davlatning moliya xo'jaligi va unda soliqlarning tutgan o'rni masalalarini tadqiq qiladi. U o'zining ilmiy nazariyalar orqali soliqlar va narxlar o'rtasida mavjud bo'ladigan to'g'ridan to'g'ri va teskari bog'liqliklarni tahlil qilib beradi. A.Sokolov ham I.Yanjul singari egri soliqlar masalasiga katta e'tibor berib ularning iste'moli orqali ishlab chiqarish sohasiga ta'sirini tahlil qilib berish bilan birgalikda, mahalliy budjetlarni shakllantirishning solikli manbaalarini ham asoslab beradi. Shu bilan birgalikda, aksionerlik tipidagi korxonalarni soliqqa tortish tamoyillari, progressiv soliqqa tortishda soliqqa tortilmaydigan minimumlarning o'zaro nisbatlarini ham chuqur tadqiq etadi.

Shuningdek, Rossiyada soliq nazariyasini rivojlantirishda V.A.Alt shularning «Soliqlar (hunarmandchilik, daromad, aksizlar va davlat yig'implari)» nomli 1926 yildagi chop etgan asari, 1928 yilda A.A.Trivusning «Soliqlar iqtisodiy siyosatning muhim omili» deb nomlangan asarida, S.Yu. Vittening «davlat va xalq xo'jaligi haqida ma'ruzalar» kabi asarlarida soliqlarning mohiyati, uning undirilish sabablari va davlat xo'jaligini boshqarishdagi ahamiyati kabi masalalar tadqiq qilingan. Rossiyalik iqtisodchi olimlarning soliqqa oid nazariyalari ularning keyingi avlodi Andrey Alekseevich Isaev (1851-1924) tomonidan keng rivojlantirildi. A.Isaev soliq nazariyalarini tadqiq qilib, ularni o'zining «Siyosiy iqtisodning boshlanishi» (1908 yil), «Soliq nazariyasi va siyosatidan ocherklar»(1887 yil) kabi asarlarida aks ettirdi.

A.Isaev o'zining tadqiqoti markazida soliqlarning adolatlilik tamoyilini qo'llash muammolari, soliqlar va takror ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqliklar, soliqlarning

boshqaruv tizimidagi roli, soliqlarning tarkibini optimal-
lashtirish kabi masalalarni qamrab oldi. Olim o'zining ilmiy
qarashlarida soliqlarni kim to'lashi kerak degan savolga
javob izlab, barcha jismoniy va yuridik shaxslar soliqning
to'lovchilari bo'lishi va bunda kichik daromadlarni soliqqa
tortmaslik kerakligi xususida fikr bildiradi. Bu bilan
u soliqlarning sotsial ahamiyatiga e'tibor bermasdan,
progressiv soliqqa tortishni afzalliklarga ega deb hisoblaydi.
A.Isaev ham o'zining safdoshlari singari soliqlarning
almashinuvi jarayoniga katta e'tibor beradi.

Olim soliqlarning almashinuv (o'tkazilish) jarayonini-
ning bir necha omillarini ko'rsatib beradi. Unga ko'ra
mamlakatdagi moliyaviy va soliq qonunchiligining hola-
ti, jamiyatning ijtimoiy qurilishi, iste'molning shakli,
tovarlarning nafliligi va soliq stavkalarining darajalari,
raqobat muhiti, monopol narxlar, soliqlarning ishlab chiqa-
ruvchidan is'temolchiliga yoki bir soliq to'lovchilar ikkinchi
bir soliq to'lovchiga o'tkazilishi kabi o'tish jarayonlari
ro'y beradi. Bunda davlatning moliyaviy qonunlari belgi-
laydigan soliq stavkalarini tartibga solish jarayonini
amalga oshirish holatini asoslab beradi. A.Isaevning soliq
nazariyasi yana shuni bilan ahamiyatliki, u boshqalardan
farqli ravishda soliq to'lovchi zimmasidagi soliq og'irligi
jarayonlarini ham chuqur tadqiq qiladi. U soliq to'lovchilar
zimmasidagi soliq og'irliginining mutonosib va notekis
holatda rivojlanishning asosiy tendensiyalarini ko'rsatib
berdi.

Soliq og'irligi nafaqat davlat siyosatiga, shuningdek,
bozor munosabatlari, ishlab chiqaruvchilarning ishlab
chiqarish faoliyatini tanlash va shug'ullanish, kimga va
nimaga mahsulot ishlab chiqarilish yo'nalishi kabi omil-
lardan kelib chiqib, dinamik holatda bo'lishligi asoslab
beriladi. A.Isayev o'z navbatida, progressiv soliqqa tor-

tishni yoqlab, egri soliqlarning soliq tizimidagi o'rnini pasaytirish tarafdori bo'lgan. Shu bilan birga qayd etish joizki, Rossiyada soliq (nalog) tushunchasi XVII-asrning o'rtalarigacha qo'llanilmagan, davlat tomonidan undiriladigan majburiy to'lovlar asosan «o'lpon» (podat) tushunchasi bilan izohlanib kelingan. Faqat 1765 yilda rus iqtisodchisi va tarixchisi A.Ya.Polenovning «Rossiya dehqonlarining krepostlilik holati» asarida birinchi marta soliq (nalog) termini ishlatilgan.

Bugungi kunda soliq nazariyasining rivojlanishida Vatanimiz olimlari tomonidan ham munosib hissa qo'shib kelinmoqda. Sobiq ittifoqqa barham berilib, bozor munosabatlarining rivojlanib borishi bilan soliqlarning iqtisodiyotdagi roliga ham nazariy yondashuvlar o'zgardi. Soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiyotga aralashuvida asosiy vosita bo'lib xizmat qilishi sababli uning tabiatini o'rganishga bo'lgan ehtiyojlarni yanada kuchaytirdi. Respublikamizda soliq nazariyalarining rivojlanishi A.O'lmasov, M.Sh arifxo'jaev, A.Vahobov, T, Malikov, E.Gadoev, N.Haydarov, Q.Yahyoev, O.Olimjonov, M. Alimardanov, A.Jo'raev, Sh .Toshmatov, B.Toshmurodova, N.Qo'zieva hamda shu kabi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida ancha rivoj topdi.

Ma'lumki, soliqqa oid g'oyalar, ilmiy qarashlar va nazariyalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri jarayoni ularning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liqdir. Shu o'rinda bizga soliqqa oid g'oyalar, ilmiy qarashlar va soliq borasidagi yaratilgan nazariyalarning mohiyati, ahamiyati va boshqa o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni shartli ravishda umumiy va xususiy soliq nazariyalariga ajratamiz.

Umuman olganda, soliq nazariyasi har qanday umumiy ilmiy tadqiqotlarni o'rganish bilan birga (umumiy soliq

nazariyasi) soliqqa tortishning alohida muammolarini ham o'rganadi (xususiy soliq nazariyasi). Xususiy soliq nazariyalari turli xil soliqlarning o'zaro nisbatlarini, soliqlarning tarkibini, soliq stavkalarini va boshqalarni o'rganadi.

Umumiy soliq nazariyalarining ilk kurinishlaridan biri soliqqa tortishning almashinuv nazariyasi hisoblanadi. Bu nazariyaning mohiyati shundan iboratki, fuqarolar tashqi kuchlar hujumidan himoyalaniшни, davlatda tartib saqlashni va boshqalarni davlatdan to'lagan soliqlari hisobiga sotib olishadi. Ushbu nazariya faqatgina o'rta asrlar sharoitiga mos bo'lib, o'sha davrda boj va yig'implarga harbiy va huquqiy himoya sotib olinishi sifatida qaralib, go'yo qirol va fuqarolar o'rtasida tuzilgan shartnoma sifatida qaralgan. Bu sharoitda almashinuv nazariyasi mavjud munosabatlarning rasmiy aksi edi.

Xususiy soliq nazariyalarining muhim yo'nalishlaridan biri to'g'ri va egri soliqlar nisbati nazariyasi hisoblanadi. Yevropa sivilizatsiyasi rivojlanishining boshlang'ich davrida to'g'ri va egri soliqlarning joriy qilinishi jamiyatning siyosiy rivojlanishiga bog'liq bo'lgan. Mulk ancha tekis taqsimlanganligi oqibatida hali demokratik tartiblar saqlanib qolgan o'rta asr shaharlarida soliq tizimlari asosan to'g'ri soliqlarga asoslanib tuzilgan. Egri soliqlar ancha og'ir va xalq ahvoriga salbiy ta'sir qiladi deb hisoblangan, chunki ular tovar qiymatini oshiradi.

O'rta asrlar oxirlarida paydo bo'lgan ushbu nazariyaga ikkinchi yondashuv esa, aksincha, egri soliqlarni joriy qilinishi zarurligini asoslab bergan. Egri soliqlar yordamida soliqqa tortishning teng sharoitlarini ta'minlash taklif etilgan. Boy tabaqa vakillari soliqlar bo'yicha turli xil imtiyozlarga ega bo'lganligi sababli ular oladigan daromadlar soliqqa tortilmay qoladi. Shuning uchun egri soliqqa tortish tarafdorlari soliqlarni tovar narxiga ustama shaklida

belgilanishini yoqlab chiqadilar.

Xususiy soliq nazariyalari ichida muhim ahamiyat kasb etgan nazariyalardan biri yagona soliq nazariyasidir. Yagona soliq nazariyasidan qurol sifatida ijtimoiy-siyosiy islohotchilar bir necha bor foydalanishgan. Shuni ta'kidlash lozimki, bu nazariya soliq muammolaridan ko'ra ko'proq ijtimoiy-siyosiy muammolarni ko'rib chiqqan. Yagona soliqni joriy qilish g'oyasi barcha davrlarda mashhur hisoblangan.

Tayanch so'z va iboralar:

«Artxashastra», «Manu qonunlari», Konfutsiylik ta'limoti, «tamg'a», oliq-soliq miqdori, raiyat, «Merkantilizm» iqtisodiy ta'limoti, kameralistlar, «Obrok», «Marjinalizm», soliq multiplikatori, Laffer egri chizig'i, yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, investitsiya, iste'mol, xarajat, daromad, jamg'arish, manfaatdorlik tamoyili, vertikal tenglik, «Taklif nazariyasi», «Monetarizm».

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Klassik iqtisodiyot deb nomlanadigan bu ta'limot vakillaridan V.Petti, P.Buagil ber, F.Kene, A.Tyurgo, A.Smit, D.Rikardolarning soliq nazariyalarining mazmuni qisqacha izohlab bering.

2. Fiziokratlar oqimining asosiy vakillaridan bo'lgan Fransua Kenening soliq nazariyasiga qo'shgan hissasi nimalarda aks etgan?

3. F.Kenening izdoshlaridan bo'lgan fiziokratlar oqimi vakili O.Miraboning soliqlarga oid nazariy qarashlarini aytib bering.

4. Adam Smitning soliq nazariyasiga qo'shgan hissasi nimada?

5. Soliqqa tortish nazariyasining rivojlanishida nemis iqtisodchisi Adol f Vagnerning o'rnini qanaqa?

6. Ingliz iqtisodchisi Jon Styuart Millning soliq nazariyalarining mazmunini aytib bering.

7. Amerikalik iqtisodchi olim Jon Meynard Keynsning soliq multiplikatorining mohiyatini tushuntirib bering.

8. Amerikalik iqtisodchi Artur Lafferning soliqlar borasidagi ilmiy qarashlari va takliflari jahon soliqqa tortish nazariyasini rivojlantirishdagi roli qanaqa?

9. Rus olimi N.Turgenovning soliqqa oid nazariyasining asosiy mazmunini aytib bering.

10. O'zbek mutafakkirlari Yu.Hojib, A.Navoiy, Z.Bobur, A.Farobiy, A.Temurning soliqlarga oid qarashlarining mohiyatini so'zlab bering.

11. Nemis «kameralistlar»ining soliqlarga oid yondashuvlarini nima edi?

12. «Marjinalizm» iqtisodiy ta'limot namoyondalarining soliqlarga oid qarashlarining mazmunini izohlab bering.

13. «Monetarist»larning soliq nazariyalarini asosiy mazmuni nima edi?

14. «Artxashastra», «Manu qonunlari», Konfutsiylik ta'limotida soliqlarga oid bildirilgan g'oyalar nimalardan iborat?

15. «Taklif nazariyasi»ning mazmuni nimada?

16. Soliqlarning umumiy va xususiy soliq nazariyalarga bo'linishining sabablari nimada?

17. Xususiy soliq nazariyalari tarfadorlarining iqtisodiy qarashlari nimalarda ko'rinadi?

5-BOB. SOLIQQA TORTISH TAMOYILLARI

5.1-§. Soliq va soliqqa tortish tamoyillarining mohiyati

Soliqlarni joriy etish va uni undirish jarayonidagi eng muhim masalar bu – uning tamoyillari¹ hisoblanadi. Tamoyil esa jarayonni tashkil etish, uni amalga oshirish va uning kelgusidagi rivojlanish jarayonlarining umumiy yo‘llari va yo‘riqlarini o‘zida ifoda etuvchi ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha va jarayondir. Tamoyillar har qaysi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va voqeliklarni tashkil etish va uning yo‘nalishlarini «Yo‘lchi yulduz»i hisoblanadi. Nima uchun «Yo‘lchi yulduz» deb nomlangan? Galaktikadagi yo‘lchi yulduzlarning atrofida juda ko‘plab boshqa yulduzlar mavjud bo‘lib, ular o‘zining harakatlanuvchi yo‘nalishlarini yo‘lchi yulduzning oqimiga moslashtirish orqali amalga oshiradi va undan uzoqlashib ketmaydi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ham aynan ushbu jarayon xos xususiyat bo‘lib, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, jarayon va voqeliklar ma‘lum bir tamoyillar asosiga qurilgan bo‘lib, uning yo‘nalishida davom etadi. Albatta, tabiiy hodisalarning rivojlanish tamoyillari bilan insoniyatning o‘zi tomonidan yaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillar o‘rtasida bir qator farqlar mavjud bo‘lib, jamiyatdagi munosabatlarda ularning ba‘zilari ob‘ektiv xarakterga ega bo‘lsa, ba‘zilari sub‘ektiv, ya‘ni insoniyat o‘zi yaratgan bo‘ladi. Iqtisodiy munosabatlardagi tamoyillar esa ob‘ektiv va sub‘ektiv tamoyillar asosida rivojlanadi. Albatta, ularning ob‘ektiv

¹ Ilmiy va iqtisodiy adabiyotlarda tamoyil va printsip tushunchalari sinonim sifatida qaralganligini sababli tamoyil terminidan ko‘proq foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblandi.

va sub'ektiv ekanligini anglash qiyin bo'lmasa-da, ayrim vaqtlarda iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va uning oqibatlari ba'zi bir sub'ektiv tamoyillarning qanchalik samaradorligini ham ko'rsatib beradi. Masalan, iqtisodiy tizimlarni qo'llash tamoyillari, moliyaviy bozorlarni boshqarish tamoyillarida ob'ektiv tamoyillar o'z hukmronligini, ya'ni sub'ektiv tamoyillarning qanchalik asosli ekanligini ko'rsatib berdi (eslang: totalitar iqtisodiy tizim tamoyillari, moliyaviy inqiroz oqibatlari va sh.k). Har bir ijtimoiy-iqtisodiy jarayonda tamoyil bo'lishi shartligini ham nazariya, ham amaliyot isbotlab bergan, bu o'ziga xos aksiomadir. Masalan, davlat qurilishi, jamiyatdagi ustuvor jarayonlar, davlat va uning fuqarolari va insonlarning o'rtasidagi o'zaro huquqiy munosabatlar kabi masalalarning umumiy tamoyillari davlatning Konstitutsiyasida ifoda etadi. Demak, Konstitutsiya bu – jamiyat qurilishi va munosabatlar tamoyili bo'lib, u jamiyatning qurilishi va rivojlanishining umumiy yo'llarini ko'rsatib beradi. Shu jihatdan Konstitutsiya boshqa qonunlar va qonunosti hujjatlarining asosiy tamoyili ham bo'lib xizmat qiladi. Boshqa qonun va qonun osti hujjatlarining mazmuni hamda yo'nalishlari Konstitutsiyaga moslanadi. Aynan ushbu jarayon soliqqa oid qonunchilikka ham tegishlidir. Xo'sh, soliqqa tortish tamoyillari qanday rivojlandi?

Avvalgi boblarda soliqlarning yuzaga kelishini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlari va tarixiy shakllanish jarayonlarida ko'rib o'tganimizdek, soliqqa tortish tamoyillarining ildizini davlat yuzaga kelishi bilan majburiy to'lovlar (soliqlar)ni joriy etish bilan yuzaga kelganligida ko'rish mumkin. Davlatning faoliyatini qanday qilib moliyaviy ta'minlash mumkin? – degan savolning qo'yilishi va unga javob topilishi soliqlar tamoyilining yuzaga kelishiga asos bo'lgan. Keyinchalik

davlat boshliqlari (masalan, Xammurapi qonunlari)ning davlatni qanday boshqarish borasidagi nazariy qarashlari va ularni hayotda tadbiq etish borasidagi jarayonda soliqlarga tegishli qismida soliqqa tortish jihatlariga amal qilgan. Davlatning siyosiy jihatdan yuksalishi davlatning soliqlarga oid siyosati, qolaversa, soliq tamoyillarining qay darajada belgilanishiga bog'liq bo'lgan. Chunki dastlabki davrlarda aksariyat davlatlar o'zlari va fuqarolarini boshqalarning bosqinidan asrash va minimal bo'lsa-da, turmush tarzini ta'minlashga erishishga harakat qilgan bo'lsa, boshqalari o'zga davlatlarni bosib olish va ulardan o'lponlar undirish evaziga davlatning siyosiy va moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga harakat qilgan.

Bunga misol qilib, Rim, Qadimgi Gretsiya, Messo-patamiya kabi davlatlarni olaylik. Bu davlatlarda davlatning moliyaviy qudrati boshqa davlatlarni bosib olish hisobiga amalga oshirilgan bo'lsa, (eslang Qadimgi Rimda dastlabki vaqtlarda fuqarolardan soliq olinmagan) bosqinchilik xurujiga uchragan va qaram bo'lib qolgan davlatlar esa g'olib davlatga soliqlar to'lab turgan. Bunday vaziyatlarda g'olib va engilib o'lpon to'lash majburiyatini olgan davlatda soliqlarni undirish tamoyillari ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan. Biri o'zining fuqarolaridan kamroq soliq undirgan bo'lsa, boshqasi esa (engilgan davlat) ham davlatni boqish, ham boshqa davlat oldidagi o'lpon to'lash majburiyatini bajarish uchun soliqlarni ko'proq joriy etish va undirish tamoyillariga asoslangan. Demak, fan predmetini o'rganishning mantiqiylik metodiga asoslanib xulosa qilish mumkinki, soliqqa torishning dastlabki tamoyillari davlat siyosatidan kelib chiqqan.

Soliq tamoyillari bilan soliqqa torish tamoyillari biroz farqlanadi. Soliq tamoyillari deganda soliqlarni joriy etish, uni undirish jarayonlari nazarda tutiladi. Soliqqa

tortish tamoyillari esa joriy qilingan soliqlarni qanday qilib soliqqa tortishning umumiy yoʻnalishlarini qamrab oladi? Davlatchilikning rivojlanish bosqichlarida soliq tamoyillarini belgilash shart-sharoitlari va usullari ham turlicha boʻlgan. Baʼzi hollarda davlat boshligʻi (imperator, shoh, qirol) davlatda qanday soliqlarni kimlarga joriy qilish masalasini hal qilish bilan cheklangan boʻlsa, uni undirish, yaʼni soliqqa tortish tamoyillarini esa soliq undirish vakolati (majburiyati) yuklatilgan shaxslar yoki boʻlinmalar (vazir, devonbegi, senator, monax, episkop, maslahatchi va shu kabilar) tomonidan ishlab chiqilgan. Masalan, Qadimgi Rimda (A.Oktavian hukmdorligi vaqtida), Bobil podsholigida, Muhammad (s.a.v) paygʻambar davrida, A.Temur hukmdorligi vaqtida soliqlarni joriy etishda ham, uni undirish tamoyillarini ishlab chiqishda ham davlat boshliqlari asosiy rol oʻynagan.

Baʼzi bir holatlarda soliqqa tortish tamoyillarini boshqalar belgilagan. Oʻrta asrlarda Angliyada soliqlarni joriy etish va undirish qirol hamda parlament oʻrtasidagi kelishuvga asoslangan. Baʼzi vaqtlarda parlament oʻrtasida bu boradagi kelishmovchiliklar kuchayishi soliqqa tortishning barcha masalalari parlamentning toʻliq huquqiga oʻtdi. Angliyada respublika shaklidagi davlat shaklining asos solinishi oqibatida soliq tizimining ham xususiyatlari oʻzgardi. Rossiyada esa Pyort I davrida oʻzining tashabbusi bilan «foyda keltiruvchilar» degan departament va maxsus lavozimlar joriy qilingan boʻlib, soliqlarni joriy etish hukmdor tomonidan amalga oshirilgan boʻlsa-da, soliqqa tortish tamoyillari «foyda keltiruvchilar» tomonidan ishlab chiqilgan. Shuningdek, Rossiyada Ekaterina II hukmronligi vaqtida esa soliq tizimi va uning tamoyillarini ishlab chiquvchi maxsus boʻlinmalar tashkil qilinib ularning huquqlari kengaytirilgan.

Yurtimizda amal qilgan Qadimgi Fargʻona davlatida soliqlarni joriy qilish, ularni undirish, soliq imtiyozlari masalalarini davlat boshligʻi bilan birgalikda Oqsoqollar kengashining roli katta boʻlgan. Bu esa hozirgissivilizatsiya sharoitida soliqlarni joriy qilishning parlament shakli Angliyada emas, balki bundan bir necha ming yillar oldin bizning davlatchilik tajribasida joriy qilinganligini bildiradi.

5.2-§. Soliqqa tortishning klassik tamoyillari

Yuqorida koʻrib oʻtilganidek, soliqlarga oid nazariyalarning koʻpchiligida soliqlar qanday tartibda belgilanish va undirilish kerak degan masalalar tadqiqot markazida boʻlgan. Bu oʻrinda taʼkidlash kerakki, soliq va soliqqa tortish tamoyillariining klassik deb ataladigan tamoyillari aksariyat xorijlik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan Sh otlandiyalik olim A.Smit nomi bilan bogʻlansa-da, ammo Respublikamizda mustaqillikdan soʻng tarix va ilmiy tadqiqotlar metodologiyasidagi yangicha yondashuvlar soliq va soliqqa tortish tamoyillarining ham nazariy ham amaliy asoslarini A.Temurga tegishli ekanligini isbotlab berildi. Bu borada Oʻzbekistonda moliya va soliqlar tarixi bilan shugʻullangan olim, professor H.Rahimov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda oʻz aksini topgan. Shu bilan birgalikda Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida katta oʻrin tutgan arab mutafakkiri Ibn Xaldun Abdurrahmon Abu Zayd, atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis Yusuf Xos Xojib oʻzining 1069-1070 yillar orasida yozgan «Qutadgʻu bilig» (qutga, yaʼni baxt – saodatga eltuvchi bilim) asarida, shuningdek, Z.Bobur oʻzining 1601 yilda chop etilgan «Akbarнома» kitobida soliqlarni joriy etish va undirish tartiblari hamda saltanatni boshqarishda murakkab iqtisodiy muammolarni qanday

qilib echish kerakligi xususidagi qarashlar aks etganligini ilg'ash mumkin.

Shunday bo'lsa-da, hozirgi soliqqa oid ilmiy nazariyalarda soliqqa tortish tamoyillarining A.Smit tomonidan keltirilgan tamoyillari klassik tamoyillar sifatida e'tirof etiladi. Qizig'i shundaki, A.Smitga qadar bir necha asrlar avval A.Temur aytgan soliqqa tortish tamoyillari A.Smit tomonidan iqtisodiy jihatdan asoslanib, u ma'lum bir tizginga solingan bo'lsa, Yusuf Xos Xojibning «tinchlik-osoyishtalik, me'yoridagi soliqlar va iqtisodiy erkin faoliyat yuritish imkonini ta'minlash davlatning asosiy vazifasi bo'lish kerak» – degan g'oyalari bir necha asr o'tib aynan A.Smit tomonidan takororlanganligi, jahon soliqqa tortishning klassik tamoyiliga bizning ulug' allomalarimizning nazariy qarashlari asos bo'lgan deb aytishga daliliy manba hisoblanadi. A.Smit o'zining mashhur «Xalqlar boyligining tabiati va uning kelib chiqish sabablari» nomli asarida soliqqa oid muammolar qatorida soliqqa tortish tamoyillarini ham alohida tadqiq qilib, uning asosiy shakllarini ishlab chiqdi. A.Smitning soliqqa tortish tamoyillari quyidagilardan iborat:

1. Mutanosiblik yoki adolatlilik tamoyili. A.Smit iqtisodchi olim sifatida soliqlarning joriy etilishi va undirilish jarayonlarini uning manbaalari va sub'ektlari bilan o'zaro bog'lagan holda tadqiq etadi. U tahlillarida Angliya soliq tizimi va boshqa davlatlarning soliq tizimini o'zaro taqqoslaydi, soliqlarni undirilishning turli tarixiy bosqichlarga qanday samara berganligi va jamiyat taraqqiyotiga qanday to'siq bo'lganlik sabablarini aniqlaydi. Tadqiqotlarida shuni aniqlaydiki, soliqlar bir xil joriy etilish va undirilish xususiyatiga ega emas. Shu bilan birgalikda davlatlardagi siyosiy vaziyatlarning jiddiylashuvida soliqlarning tekis taqsimlanmasligi sabab bo'lganligini ham

tahlil qiladi (Fransiyada XVIII asrning 80-yillarida revolyusiyani eslang). Germaniya, Angliya va Fransiyada soliqlar, asosan, oddiy dehqon, hunarmand va savdo bilan shug'ullanuvchi aholi gardaniga tushib, katta er egalari va yirik savdogarlarga nisbatan soliq yuki kam bo'lgan. Ushbu holatlarni o'zaro bog'liq holda tahlil qilib, A.Smit soliqlar mutanosib holda adolatli undirilish kerak. Davlatdan olgan manfaatdorliklari va to'lagan soliqlari o'rtasidagi bog'liqlik mutanosib holda bo'lishi, soliqlarni barcha to'lashi, ammo uning moliyaviy imkoniyatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi kerak degan g'oyalari uning soliqqa tortishning birinchi tamoyilida jamlanadi.

2. Aniqlilik tamoyili. Bu tamoyilning mazmunini soliq to'lovchiga soliq to'lashning mohiyati, soliqlarni qachon va qaysi vaqtlar amalga oshirilishi aniq belgilab qo'yilgani tashkil qiladi. Shuningdek, bu tamoyilning zamirida soliqlarni undirishning huquqiy asoslarini soliq to'lovchilarga etkazish, soliq to'lovchilar nima sababdan soliq to'lash lozimligi ham aniq bo'lishi, soliq to'lovchilarning to'lagan soliqlari evaziga davlatdan qanday naf ko'rish mumkinligi va ko'rayotganligi aniq ifoda etilishi lozim. Soliqqa tortishning bu tamoyili bir tomondan to'layotgan soliqlarining ijtimoiy nafilik darajasini soliq to'lovchilarga ayon bo'lishi soliqlarni undirishda qulaylik tug'dirsa, boshqa tomondan soliqlarni qachon va qancha to'lashligining (haqiqiyisini) aniqligi soliqlarni to'lash va uni undirish jarayonlarini oydinlashtiradi.

A.Smit bu tamoyilda soliqqa tortishning birinchi tamoyili bilan bog'liqligini tushuntirib, soliq undiruvchilar (davlatdan soliqni undirish huquqini ma'lum bir to'lovlar evaziga qo'lga kiritgan shaxslar) tomonidan o'z manfaatlariga ko'proq soliq undirishni nazarda tutib, soliq to'lovchilarning turli xil vaqtlarda soliqlarni to'lashni

talab qilishi, ularga to'laydigan soliqlarning haqiqiy miqdorini bo'rttirib ko'rsatishi (aksariyat soliq to'lovchilar savodi bo'lmaganligi soliq undiruvchining hisoblagan soliq miqdorini to'lashga majbur bo'lgan) ham soliq to'lovchiga ham davlat xazinasiga salbiy ta'sir qilib, soliqlarni undirishning adolatlilik tamoyili buzilgan. Shu boisdan ham A.Smit soliq undirish huquqini davlatdan sotib olish hisobiga soliqlarni undiruvchilar armiyasidan foydalanishga qat'iy qarshi chiqadi va uni soliq tizimining og'irlashuvining asosiy sababchilari sifatida baholaydi.

3. Qulaylilik tamoyili. Bu tamoyilda esa soliqlarni undirish jarayonida shunday yo'l tutilish kerakki, soliqlar soliq to'lovchiga qulay tartib joriy qilinishi kerakligi nazarda tutiladi. Ya'ni, qulaylilik deganda nafaqat to'lashi lozim bo'lgan soliq summasini davlat xazinasiga o'tkazish jarayoni, shu bilan birgalikda soliq to'lovchilarning daromad olishining davriylik jihatdan farqlanishi, ularga turli xil tabiiy ofat va iqlimning ta'siri, siyosiy vaziyatlarning ta'siri doirasida soliqlarni to'lash imkoniyatlarining cheklanish hollarida ularga soliq to'lashga imkoniyat beruvchi shart-sharoitlarni tug'dirib berish lozimligi ham nazarda tutiladi. Bu borada A.Temurning tuzuklarida keltirilgan «..... sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olishi uchun xazinadan etarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan birining dehqonchilik qilishiga qurbi etmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tekin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin,..... hosil pishib etilmasdan oldin raiyatdan molu-jihat olinmasin. Hosil etilgan hosilni uch bo'lib olsinlar. Agar raiyat soliq to'lovchi bormasdan soliqni o'zi keltirib bersa, u erga soliq undiruvchi yuborilmasin... Agar raiyat ro'yxatga olingan yerlardan beriladigan soliqlarni naqd aqcha bilan to'lashga rozi bo'lsa, naqd aqcha miqdorini sarkorning hissasi

hisoblangan g'allaning mazkur davrdagi narxiga muvofiq belgilasinlar.....» tartib va fikrlari aynan soliqlarning aniqlilik tamoyilini izohlaydi.

4. Kam xarajatlilik (samaradorlik) tamoyili. Soliqlarni undirish jarayonining o'zi ham ma'lum bir xarajatlarni talab qiladi. Avvalgi boblarda ko'rib o'tganimizdek, Yevropa va Osiyoning bir qator davlatlari bunday xarajatlarni kamaytirishni maqsad qilib, soliq undirish huquqini ma'lum bir toifadagilarga haq evaziga bergan. Albatta, bu ikki xil tartibda amalga oshirilgan. Birinchisi, bu soliq undirish huquqini berishda soliq tushumlariga teng ravishda soliq undiruvchidan yig'ib olingan va davlat bu yerda risq qilgan. Soliq undiruvchilar davlatga to'langan mablag'ni unga biriktirilgan hududlar va sohalardan undirilgan soliq to'lovlari bilan qoplagan.

Bu esa, o'z navbatida, soliqlarni undirishda kamsitilish holatlariga olib kelgan. Ikkinchi tartibda soliq undiruvchilarga huquq ularga maosh to'lash va ularni soliq to'lashdan ozod qilish hisobiga berilgan. Ba'zi hollarda undirilgan soliqlar ularni undirishga ketgan xarajatlardan ham ortiq bo'lgan. Soliqlarni undirish xarajatlarini qoplashda mahalliy aholining zimmasiga yuklashni bizning yurtimizda amal qilgan davlatchilik shakllarida ham ko'rish mumkin. Bu tartib asosan mug'ullardan meros bo'lib qolgan bo'lib, mug'ullar istilosidan keyingi vaqtlarda ham uzoq vaqt amal qilib keldi. Masalan, Buxoro amirligi davrida hokim va uning xizmatidagilariga maosh davlat xazinasidan berilmagan va ular o'zlarining kunlik xarajatlarini mahalliy aholidan turli xil yig'imlarni olish hisobiga qoplagan. Qayd qilib o'tilganidek, A.Smit boshqa davlatlarning soliqqa tortish tizimlarini ham o'rganib chiqib, bunday holatlar soliq tizimining samaradorligiga katta ta'sir qilishini anglab etgan holda soliqlarni undirishda iloji boricha kam

xarajatlarni amalga oshirish lozimligi ta'kidlanadi. Bu esa taraqqiyotning hozirgi bosqichida ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ta'kidlash kerakki, soliqqa tortish tamoyillari A.Smitidan avval yashagan V.Petti, D.Rikardolar tomonidan ham ko'rib chiqilgan bo'lib, ular ham soliqlarni undirish tamoyillari nimalarga asoslanishi lozimligi xususida tavsiyalarni ilgari surgan. A.Smit esa ularning bu g'oyalarini qaytadan ishlab, ularni rivojlantirdi. Soliqqa tortish tamoyillarini rivojlashtirishda nemis iqtisodchisi Vil gel m Rosher tomonidan ham bir qator tamoyillar ilgari surildi. Aniqrog'i V.Rosher, A.Vagnerlar kabi A.Smitning soliqqa tortish tamoyillarini tanqidiy tahlil qilib, soliqqa tortish quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim deb hisoblagan: 1) Soliqlar adolatli undirilish lozim; 2) Soliqlarni joriy etishda va undirishda tartibga amal qilinish kerak; 3) Soliq undirish siyosati iqtisodiy richaglarga asoslanish kerak. V.Rosherning soliqqa tortish tamoyillarida davlat soliqlarni joriy etish va undirishda asosan iqtisodiy richaglarga asoslanishi lozim degan mazmun yotadi.

Soliqqa tortish tamoyillarining rivojlanishida rus iqtisodchi olimi N.Turgenov tomonidan ham hissa qo'shildi. N.Turgenov 1818 yilda yozgan «Soliq nazariyalaridan tajribalar» nomli asarida soliqqa tortish tamoyillari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tadi:

Soliqqa tortishning teng taqsimlanish tamoyili. Bunga ko'ra soliqlar barchaga teng taqsimlanishi kerak. Har bir kishining umumiy manfaatlar yo'lida qurbonlik berishi (mol-mulkini va daromadini berishi) uning imkoniyatlari va daromadiga muvofiq kelishi lozim. Soliqlarning notekis taqsimlanishi fuqarolarda davlatga nisbatan nafrat tuyg'usini kuchaytiradi.

Soliqlarning aniqligi tamoyili. Joriy qilingan soliqlar,

ularning stavkalari, soliqdan imtiyozlari va soliq birliklari soliq to'lovchiga va soliq undiruvchilarga aniq bo'lishi kerak. N.Turgenovning fikricha, Soliqlarning noaniqligi soliq to'lovchi lozim bo'lgan soliqlarni to'lash jarayonida ham noroziliklarni keltirib chiqaradi, chunki to'lovchining egoistlik xarakterida soliqni ko'p to'layapman degan tushuncha doim saqlanadi, soliqlarning aniq qilib (hisoblanishi, nimadan soliq undirilishi, soliq birligi) berilishi bunday hissiyotlarni kamaytiradi.

Soliqlarni qulay vaqtda undirish tamoyili. Soliq to'lovchilarning eri, uylari, daromadi yoki mol-mulkidan olinadigan soliqlar, ularning vaqti qanday belgilanishida qat'iy nazar soliqlar ularning daromad olish vaqtlari bilan bog'liq bo'lishi lozim. Soliqlar shunday vaqtda undirilishi lozimki, fuqarolarda to'lash imkoniyati mavjud bo'lsin.

Soliqlarni undirishning arzonligi (kam xarajatliligi). Soliqlarni yig'ishda minimal darajadan ortiq sarflarga yo'l qo'yilmaslik kerak. Soliq undiruvchilarning daromadlari undiriladigan soliqlar hisobiga emas, davlat xarajatlari hisobidan amalga oshirilishi qat'iy belgilanishi kerak. N.Turgenov fikricha, soliq undiruvchilarning ish haqining soliqlar ichiga qo'shilishi aslida soliq stavkalariga katta ta'sir qilmasa-da, soliq to'lovchilarda nafratga sabab bo'ladi va soliqdan qochishga harakat qiladi. Buni aniqlash va soliqdan qochganligini isbotlab berishning o'zi esa yana qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi. N.Turgenov tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillari A.Smit tamoyillariga o'xshash bo'lsa-da, ushbu tamoyillarning qo'llanish xususiyatlarining o'ziga xos farqli va yondashuvli jihatlari ko'rsatib berilgan.

O'z navbatida, A.Smitning soliqqa tortish tamoyillari keyingi bosqichlarda nemis iqtisodchisi Adol f Vagner tomonidan ham rivojlantirildi. A.Vagner soliqqa tortish

tamoyillarini quyidagicha to'rt guruhga ajratadi:

1. *Soliqlarni tashkil etishning moliyaviy tamoyillar:*

- soliqqa tortirishning etarliligi;
- soliqqa tortirishning moslashuvchanligi.

2. *Xalq xo'jaligi tamoyillari:*

- soliqqa tortirish manbaalarini tanlash tamoyili (soliqlar alohida olingan aholining daromadlari va kapitaliga solinish kerakmi yoki barcha aholigami?);

- turli soliqlarning o'zaro almashinuvi tamoyili.

3. *Etika tamoyillari (adolatlilik tamoyillari):*

- soliqqa tortirishning umumiyiligi;
- soliqqa tortirishning tengligi.

4. *Ma'muriy-texnik qoidalar (soliqlarni boshqarish tamoyili):*

- soliqqa tortirishning aniqliligi;
- soliq to'lashning qulayligi;
- soliqlarni undirish xarajatlarini maksimal darajada kamaytirish.

A. Vagner tomonidan keltirilgan soliqqa tortirish tamoyillari A. Smit tamoyillariga o'xshash bo'lib, u Smitdan farqli ravishda soliqqa tortirish tamoyillarini davlatning xarajatlarini yo'nalishidan kelib chiqib belgilaydi. O'z navbatida, davlatning amalga oshirishi lozim bo'lgan xarajatlarni 6 guruhga bo'lib, ularning moliyaviy ta'minlanishi u taklif qilgan soliqqa tortirish tamoyillariga bog'liq bo'ladi degan g'oyani ilgari surgan.

Soliqqa tortirish tamoyillarini ishlab chiqish masalalari taraqqiyotning keyingi davrlarida ham iqtisodchi olimlarning tadqiqot ob'ektlaridan o'rin olib keldi. Bu borada amerikalik iqtisodchi olimlar Pol Entoni Samuel son Djozef Yudjin Stiglitslar tomonidan ham bir qator soliqqa tortirish tamoyillari ilgari surildi. Pol Entoni Samuel son soliq tizimini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga

asoslanish kerakligi ta'kidlaydi:

Manfaatdorlik tamoyili orqali soliq to'lovchilar davlatning bir xil tartibda manfaat ko'rishi va soliqlarni turli xil tartibda to'lashga asoslanish zarurligini izohlaydi. Soliq to'lovchilar bir xil bo'lishi mumkin emas, ammo ijtimoiy manfaatdorlikni uyg'unlashtirish mumkin degan g'oyaga asoslanadi.

Soliq to'lovchilarning tomonidan to'langan soliqlar ularning o'zlarining yoki jamoa manfaatlariga muvofiq kelishi lozimligi tamoyili. Soliq to'lovchi u yoki bu jamoa a'zosi sifatida o'zi va jamoasining to'langan soliqlaridan ham yakka tartibda, ham jamoatchilik tartibida manfaatga ega bo'lishi lozim.

Soliq to'lovchilarning to'lovga qobiliyatlilik tamoyili. Bunda esa soliq to'lovchilarning to'langan soliqlari ularning daromad olish va iqtisodiy ahvoli darajasiga muvofiq kelishi zarur. Pol Samuel son soliqqa tortishning adolatlilik va tenglik tamoyillari o'zaro bog'langan holda qo'llanilish lozimligini e'tirof etib, tenglik tamoyili ham gorizontaal, ham vertikal holda qo'llangandagina mohiyatga ega bo'ladi deb hisoblaydi. Vertikal tenglikda soliqlar tabaqalashgan holda turli darajadagi daromadlarni qamrab olsa, gorizontaal tenglikda esa soliq to'lovchilar bir xil tartibda soliq to'lashlari ta'minlanish kerakligi isbotlanadi. Soliqlar teng o'rnatilgan sharoitda ularning daromadlarining farqlanishi soliqlarning adolatlilik tamoyili saqlangan holda soliq turli xil darajada undiriladi.

D.Stiglits soliqqa tortishning muhim zamonaviy 5 ta tamoyilini ishlab chiqadi. Unga ko'ra soliqqa tortish resurslarining samarali taqsimlanishiga qarshi turmaslik, soliqlarni undirish ma'muriy va iqtisodiy jihatdan qulay bo'lishi, soliqlar iqtisodiyotning holatiga tez moslashuvchan bo'lishi, soliq to'lovchilar soliq to'layotganda siyosiy

jihatdan ta'minlanganligini anglashi, soliqqa tortish tizimi har bir individga nisbatan adolatli tarzda mavjud bo'lish kerak. Olim o'zining asosiy g'oyalarini umumlashtirish soliqqa tortish qanday shaklda optimalga ega bo'ladi degan masalaning echimlarini beradi.

Shvetsiyalik iqtisodchi olim Knut Viksell (1851-1926) soliq muammolarini narx nazariyasiga bog'liq holda tadqiq etib, soliqlar farovonlik manbai sifatida xizmat qilishi davlat xarajatlarining yo'nalishlariga bog'liqligini isbotlab berdi. U o'zining «Soliqqa tortishning oddiy tamoyillari» kitobida soliq to'lovchilarning soliqlardan nafiligini ta'minlashda, avvalo, soliq ma'murchiligini takomillashtirish, uning qonuniy amal qilishini ta'minlash, soliqlarni joriy etishda parlamentning rolini oshirish soliqlarning adolatlilik tamoyilining asosiy omillari sifatida baholaydi. Soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini ta'minlashda nafilikning tengligini ta'minlash yotadi deb hisoblaydi. Agar qachonki, soliq to'lovchilar davlat xarajatlaridan manfaatdorligi oshsa, o'shanda soliqlar adolatli hisoblanadi. U iste'molni qisqartirishga olib keluvchi har qanday shakldagi xarajatlarga solinadigan soliqlarni qattiq tanqid qildi. Kimda yuqori daromad mavjud bo'lsa, o'shanga yuqori soliq solish degan g'oyani ilgari suradi. Demak, soliqqa tortishning klassik (umumiy) tamoyillarining mohiyati, avvalo, turli xil davrlardagi soliqqa tortishning holatini anglatsa-da, ular taraqqiyotning hozirgi sharoitida ham o'z mohiyatini yo'qotmagan va jahon soliqqa tortish tizimining tashkiliy-uslubiy asoslari sifatida katta tavsiyaviy xarakterga ega. Shu jihatdan ham ular bugungi kunda klassik tamoyillar sifatida tavsiflanadi. Shu bilan birgalikda soliqqa tortish tamoyillari masalalari, soliq nazariyasi bilan shug'ullanishgan g'arb olimlaridan S.Gobbs, F.Kene, O. Mirabo, M.Fridman, F.Yusti, P.Verri, F.Nitti, A.Laffer, Rossiyalik olimlardan

I.Ozerov, I.Yanjul, M.Sobolev, G.Boldıyev, D.Bogolepov, A.Bukovetskiy va shu kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘rin olgan.

5.3-§. Soliqqa tortishning zamonaviy va xususiy tamoyillari

Ushbu bobning dastlabki qismida ta’kidlab o‘tanimizdek, soliqqa tortish tamoyillari qanday bo‘lishi lozim degan masala davlatchilik paydo bo‘lganidan beri nazariy tadqiqotlarning markazida bo‘lib kelmoqda. Soliqqa tortish tamoyillarining o‘rta asrlardan to o‘tgan asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davrlarda asosan har bir davlatning soliq tizimidagi xususiyatiga bog‘langanligini ko‘rish mumkin. Shu bilan birgalikda alohida olingan davlat doirasida soliqqa tortish xususiyatlari xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bilan parallel ravishda boshqa davlatlarning soliq tizimiga ham o‘tib bordi. Boshqacharoq qilib aytganda, xalqaro mehnat taqsimotlarini chuqurlashib, o‘zaro integratsion aloqalarning kengayib borishi, o‘z navbatida, xalqaro soliqqa tortish munosabatlarining ham rivojlanib borishiga olib kela boshladi.

Xalqaro kapitalning ortib borishi va geografiyasining kengayishi ularni soliqqa tortish borasida umumiy kelishuvlarni ham taqozo eta bordi. Natijada esa jahon xo‘jaligining asosiy qismlaridan biri sifatida xalqaro soliqqa tortish munosabatlari kengayib, ularning umumiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi tamoyillarga ham ehtiyoj tug‘ildi. Demak, soliqqa tortish tamoyillari ilgari bir yoki bir necha davlatlar doirasida bo‘lgan bo‘lsa, endi uning xalqarolashuvi oshib bordi. Bu esa, o‘z navbatida, turli xil zamonaviy soliqqa tortish tamoyillarini yuzaga keltira boshladi. Zamonaviy soliqqa tortish deganda bosh-

qa sohalardagi kabi sifat jihatdan yangi, avvalgi soliqqa tortish tamoyillarini inkor etgan holda ularning o'rniga kelgan tamoyillar tushunilmasligi kerak. Bunday tushuncha texnika, boshqaruv, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqa sohalarda shunday tushuniladi. Zamonaviy soliqqa tortish tamoyillari deganda ta'kidlanganidek, avvalgi soliqqa tortish tamoyillarini inkor etmagan holda uning davriylik nuqtai nazaridan shu davrning iqtisodiy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qo'shimcha soliqqa tortish tamoyillari tushuniladi.

Zamonaviy soliqqa tortish tamoyillari turlari bir qancha bo'lib, odatda ularning mohiyatini soddaroq anglash maqsadida ular uch guruhga: soliqqa tortishning iqtisodiy tamoyillari, soliqqa tortishning tashkiliy tamoyillari va soliqqa tortishning huquqiy tamoyillariga bo'linadi:

1. Soliqqa tortishning iqtisodiy tamoyillari asosan soliqlarning ichki mohiyati, soliq stavkalari, soliq bazalari, soliqlarning to'lovchilarga og'irligi va ularning moliyaviy holati jihatidan yondashiladi. Bular jumlasiga soliqqa tortishning tengligi va adolatliligi tamoyilining zamonaviy ko'rinishida barcha yuridik va jismoniy shaxslar davlatning xarajatlarini qoplashda va undan manfaat olishda o'zaro teng bo'lib, soliqlarni joriy qilishda ularning moliyaviy holatiga muvofiq kelishi lozim. Soliq to'lashda tenglik va adolatlilik, gorizontaal va vertikal sharoitda amal qilish kerak. Vertikal holatda daromadlar oshishi bilan soliq stavkalari ham oshib borishi, davlatdan ko'proq ijtimoiy manfaat oluvchilar ko'proq soliq to'lashligini bildirsa, gorizontaal tamoyilda esa bir xil miqdordagi soliq to'lovchilar bir xil miqdordagi soliq stavkalarida soliq to'lashi zarur.

Jahon amaliyotida soliqqa tortishning tenglik va adolatlilik tamoyili o'zaro bog'liq holda qo'llaniladi. Aks holda esa soliqlarning adolatlilik tamoyili yo'qoladi. Shu bilan

birgalikda soliqlarning adolatlilik tamoyilining gorizantal va vertikal qo'llanishda boshqacha yondashuvlar, masalan, vertikal soliqqa tortishda daromad oshib borishi bilan soliqlarning oshib borishiga mutanosib ravishda soliq to'lovchilarning sotsial toifalariga qarab soliq imtiyozlari gorizantaliga qarab qo'llanishi lozim degan yondashuvlar ham mavjud. Bu esa soliqlarning sotsiallashtirishini bildiradi.

Soliqlarning samaradorlik tamoyili. Ushbu tamoyilga ko'ra, soliqlar va ularni undirish jarayoni ishlab chiqarish jarayonini rag'batlantirishi va uning rivojlanishiga, aholining ishchanlik holati va tashkilotlar faoliyatining faollashuviga to'siq bo'lmasligi kerak. Bu esa soliqlarni qo'llashda juda ehtiyotkorlik bilan yondashishni, ya'ni soliqlarning qaysi darajasida ishlab chiqarish jarayoniga salbiy ta'sir etish holatini aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy soliqqa tortish tamoyillaridan yana biri soliqlarning **budjetga moslik** tamoyilidir. Bu tamoyilga ko'ra, soliq asosan budjetning daromadlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, soliqlarning darajasi va budjet daromadlarini bir maromda shakllanishini ta'minlashi va soliqlarning adolatlilik tamoyili buzilmagan holda ularni maksimal jalb qilishga muvofiq kelishi lozim.

Soliqqa tortishning **ko'p tomonlamalilik iqtisodiy** tamoyili esa davlatning soliq siyosatiga moslashuvchan holatda o'rnatilishi va amalga oshirilishini nazarda tutadi. Soliq siyosati shunday o'rnatilishi kerakki, soliqlarning rag'batlantiruvchilik va tartiblovchilik roli o'zaro mutanosib ravishda harakat qilishi lozim. Bu esa to'g'ri va egr soliqlarning o'zaro nisbatlarini muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi orqali ta'minlanadi. Boshqacha holatlarda esa soliqlarning progressiv va regressiv xususiyatlarining bog'lanishini ham ifodalaydi. Shuningdek, zamonaviy soliqqa tortishning iqtisodiy tamoyillari sifatida to'lovga

qobiliyatlik tamoyili, investitsiyalarni rag'batlantirish tamoyili kabilar ham keltirib o'tiladi. Ularga ko'ra soliqlar to'lovchining to'lovga qobilligini inobatga olishi, soliqlar doim ichki va tashqi investitsiyalarni rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lish lozimligi nazarda tutiladi.

2. Soliqqa tortishning tashkiliy tamoyillari iqtisodiy tamoyillardan farqli ravishda soliqlarni undirish va uni soliq to'lovchilar tomonidan to'lash jarayonlarining tashkiliy mexanizmlarini qamrab oladi. Ushbu tamoyillardan biri soliqqa tortishning yagonalik tamoyilidir. Buning mohiyati – bir soliq ob'ektiga qo'shimcha soliqlarning belgilanmasligi, bir xil sharoitda va bir xil daromadga tabaqalashtirilgan tartibda yondashmaslik, mulkchilik va faoliyat turidan qat'iy nazar bir xil soliq stavkalarida soliq undirishni ifodalaydi. Shuningdek, soliq manbai paydo bo'lishidan qat'iy nazar ularga soliq solish yagona tamoyilga asoslanish zarur.

Soliqqa tortishning **hokimiyat darajalari bo'yicha farqlanish** tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra, soliqlarni joriy etishda federal (umumdavlat) va mahalliy darajadagi yondashuv amalga oshirilish lozim. Soliqlarni bunday joriy etish soliqlarni undirish samaradorligini ta'minlanadi, soliqlarning manbaini aniqlash orqali soliqqa tortish osonlashadi va soliqlarni jalb qilishda hokimiyatlarning vakolatlari va majburiyatlari oydinlashib, ularning soliq siyosatidagi ishtiroki ortadi.

Soliqqa tortishning **moslashuvchanlik** tamoyili. Bu tamoyilga ko'ra soliqlarni undirish mexanizmlarini ishga solish soliq to'lovchilarning joylashgan joyi, ularning ishlab chiqarish xususiyatlari, iqlim sharoitlari va texnologik xususiyatlariga qarab soliqlar moslashuvchan bo'lishi lozim. Bu esa soliqqa tortishning markazlashgan tartibda amalga oshirilishi, soddalashtirilgan soliqqa tortishni qo'llash,

soliqqa tortishning alohida tartiblarini amalga oshirish kabilar orqali ifodalanadi. Soliqqa tortishning ochiqlik tamoyili ham tashkiliy tamoyillar jumlasiga kirib, u soliqqa oid qonunlar, qonunosti hujjatlari, soliq to'lovchilar va axborot oluvchilarga ochiq bo'lgan holda, ularning talqini sodda, ravon va bahsli jarayonlarga olib kelishga asos bo'luvchi tartibda shakllantirilmaslik lozimligini tavsiflaydi.

Ammo amaliyotda soliqqa oid qonunlardagi normalarning turlicha talqin qilinishi, ularda turli xil ma'nolarni anglatuvchi ibora va tushunchalarning qo'llanilishi oqibatida soliqlar bo'yicha qarzdorlikning undirilmasligiga, ishlarining sud arbitrajlarida qayta-qayta ko'rilishi oqibatida ortiqcha xarajatlarni amalga oshirilishiga, unumsiz mehnat sig'implarining oshishiga olib keladigan holatlar ko'p uchraydi. Aynan ushbu holat respublikamiz soliq tizimida ham soliqqa oid qonunchiliklarni turlicha talqin etilishi oqibatida soliq qarzdorligi summalarining oshishiga, soliq xizmati organlari xodimlari va soliq to'lovchilarning ortiqcha vaqtlarini olishga, unumsiz xarajatlarning yuzaga kelish holatlariga olib keladi. Soliqqa tortishning tashkiliy tamoyillari jumlasiga soliq to'lovchilarning ruhiy holatini e'tiborga olish tamoyili, soliqlarning sotsiallasuv tamoyili, soliq imtiyozlari va alohida tartiblarni qo'llashning tabaqalashuv tamoyillari ham mavjud bo'lib, ular soliq to'lovchilarning ruhiyatini hisobga olish, ya'ni soliq siyosati, soliqlarni undirish mexanizmlariga nisbatan ularning ruhiyatini e'tiborga olgan holda soliq tizimini moslashtirish, soliqlar joriy etishda va ularni undirishda soliq to'lovchilarning sotsial mavqei, ular faoliyatining darajalari (masalan, samarasiz soha, ammo jamiyat uchun muhim mahsulot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanish)dan kelib chiqqan holda yondashish, soliq imtiyozlari yoki soliqqa tortishning alohida (imtiyozli)

tartiblarini qo'llashda tabaqalashgan holda va adolatli ravishda imtiyozlarni belgilash lozimligiga asoslanadi.

3. Soliqqa tortishning zamonaviy tamoyillarining uchinchi-huquqiy guruhiga soliqqa tortishning qonun asosida o'rnatilish tamoyiliga soliq qonunchiligining ustuvorlik tamoyili, soliq tizimida ilmiy yondashish tamoyili kabilarni kiritish mumkin. Ushbu tamoyillarga ko'ra, har qanday tartibda soliqlarni joriy etish faqat qonunchilik tartibi asosida, ya'ni soliqlarni joriy etishning parlamentarizm metodiga asoslangan holda amalga oshirilishi, soliqlarni undirish tartiblarida qonunchilik ustuvorligining ta'minlanishi, soliqqa oid vakolatlar faqat qonunlarga muvofiq belgilanishi, soliqlarni joriy etish va undirish mexanizmlariga ilmiy yondashgan holda ularni jarayonlarni ilmiy tahlil etgan holda tegishli o'zgartirishlar kiritib borishga asoslanish masalalari ustuvorlik kasb etishi lozim.

Ushbu keltirib o'tilgan klassik va zamonaviy soliqqa tortish tamoyillari ilmiy mazmunga ega tavsiyaviy-uslubiy xarakterdagi tamoyillar bo'lib, ularga asoslangan holda har bir davlat o'zining soliq tizimi uchun qonuniy xarakterdagi soliqqa tortish tamoyillarini belgilab olishi mumkin. Davlatlarning o'z qonunchiligi asosida aniqlab qo'yiladigan soliqqa tortish tamoyillari odatda xususiy (alohida olingan) soliqqa tortish tamoyillari ham deb yuritilib, ular aniq xarakterga ega bo'ladi. Ular tegishli davlatda soliqlarni joriy etish va uni undirishning umumiy tamoyillari (yo'nalishlari)ni belgilab berib, keyingi soliqqa oid qonunchilikning mazmuniga mos bo'lishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, qonun asosida belgilab olingan soliqqa tortish tamoyillarining mazmuni soliqlarni undirishning huquqiy normalariga asos bo'lishi va huquqiy normalarning mazmuni esa soliqqa tortishning huquqiy

tamoyillariga zid bo'lmashligi kerak, aks holatda soliqqa tortish tamoyillarining mohiyati yo'qoladi. Masalan, Rossiya davlati Konstitutsiyasi va Soliq kodeksida soliqqa tortish bilan bog'liq 10 ta tamoyillar belgilab qo'yilgan bo'lsa, bu aksariyat davlatlar soliq va boshqa qonunchiliklarida ham uchraydi.

1993 yilda Dominikan Respublikasi uchun Birlashgan Millatlar tashkiloti loyihasi asosida ishlab chiqilgan keyinchalik esa (1996 yildan boshlab) tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan Jahon soliq kodeksi (Basic World Tax Code) sifatida e'lon qilingan kodeksda ham soliqqa tortish tamoyillari keltirib o'tilgan. Birinchi tamoyil bu – barcha davlatlar soliq qonunchiligini o'zida aks ettiruvchi yagona soliq qonunchiligiga ega bo'lishi tamoyili bo'lib, soliqqa oid munosabatlar yagona qonunchilik bazasida tartibga solinishini ifodalaydi. Ikkinchi tamoyil xalqaro integratsiyani rivojlantirishda soliqlar istisno tariqasida milliy ishlab chiqaruvchilarga nisbatan proteksion xarakterga ega bo'lib, xalqaro integratsiyani rivojlantirishi lozim. Bunda soliqlar xalqaro iqtisodiy integarsiyalarni rivojlanishiga to'siq bo'lmashligi, faqatgina ular ichki ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida proteksion siyosat sifatida foydalanish lozim. Uchinchi tamoyilga ko'ra, soliq imtiyozlari byujetdan beriladigan subsidiyalarga nisbatan samarali bo'lishi lozim.

Ushbu tamoyil soliq imtiyozlari berilayotganda ularning samarasi budjetdan berilgan subsidiyalar, shuningdek, soliq imtiyozlari berilishidan budjet yo'qotishlar miqdoridan ko'p bo'lishi kerak, aks holda soliqlar iqtisodiyotga salbiy ta'sir etib qoladi (ham budjetdan mablag' yo'qotiladi, ham soliq to'lovchi faoliyati samarasiz bo'ladi). Keyingi soliqqa tortish tamoyili iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarga tegishli bo'lib, ular soliqqa tortishda budjet daromadlarini shakl-

lantirishda egri soliqlar (qo‘shilgan qiymat, aksiz, bojxona boji)ning ulushining ustunligini ta‘minlashi, jismoniy va yuridik shaxslardan olinadigan daromad (foyda) solig‘i budjetni shakllantirishda katta rol o‘ynamasligi kerak. Bu tavsiyaviy tamoyil O‘zbekiston soliq tizimida ham o‘z aksini topgan bo‘lib, hozirgi vaqtda budjet daromadlarini shakllantirishda egri soliqlar hissasi (50 foizdan yuqori) yuqoridir.

Oxirgi tamoyil bu **barcha daromadlarni soliqqa tortish yagona daromad solig‘i** asosida soliqqa tortishni xarakterlovchi tamoyildir. Ushbu tamoyilga ko‘ra, soliq deklaratsiyasi ob‘ektiga tushadigan barcha daromadlarga yagona daromad solig‘ini joriy qilish soliq tizimi va soliq ma‘murchiligini soddalashtiradi. Albatta, ushbu tamoyillar asosan xalqaro soliqqa tortishni nazarda tutuvchi ham milliy soliq tizimlari uchun tavsiya xarakteriga ega bo‘lib, u o‘zida ham milliy, ham xalqaro soliqqa tortishning o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. O‘zbekistonda mustaqil soliq tizimini shakllantirishda soliqqa tortishning umumiy tamoyillari 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonun (hozir o‘z kuchini yo‘qotgan), 1997 yil 24 aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (hozir o‘z kuchini yo‘qotgan), 2008 yil 27 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi va 2019 yil 30 dekabrda yangi tahrirdagi va hozirgi amaldagi Soliq kodeksida o‘ziga xos tartibda aks ettirilgan bo‘lib, ularning mazmuni quyidagicha:

O'zbekiston soliq tizimida soliqqa tortish tamoyillari

№	«Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonunida (Umumiy qoidalarda)	1997 yil 24 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (4-moddada)	2008 yil 27 dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (6-11-moddalarda)	2019 yil 30 dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (7-13-moddalarda)
1.	Manbalardan qat'i nazar, barcha daromadlardan soliq to'lanishi majburiyligi.	Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lashi shart.	Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lashi shart. Hech kimning zimmasiga ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoki uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.	Soliq solish majburiylik, aniqlik va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatlik, soliq tizimining yagonaligi, oshkorlik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanadi.
2.	Barcha hududiy-ma'muriy pog'onalar uchun yagona bo'lgan umumdavlat soliq siyosatini mahalliy hokimiyat idoralarning umumdavlat soliq siyosati doirasida soliqchilarga oid qonun chiqarish faoliyatidagi mustaqilligi bilan uyg'un holda amalga oshirish.	Soliq solish–yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.	Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar aniq bo'lishi kerak. Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari har bir soliq to'lovchi qaysi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, qachon, qancha miqdorda hamda qay tartibda to'lashi kerakligini aniq bildiradigan tarzda ifodalangan bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilashda, agar soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilar, shuningdek, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining elementlari aniqlangan bo'lishi kerak.	Har bir shaxs ushbu Kodeksda belgilangan soliqlar va unda nazarda tutilgan yig'implarni to'lashi shart. Hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emas.

3.	<p>O'z faoliyati bilan eng muhim ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etishga ko'maklashayotgan samarali ishlovchi korxonalariga imtiyoz berish, shuningdek, xo'jalik yuritishning ilg'or shakllarini rag'batlantirish sistemasi orqali soliq mezonlarining rag'batlantiruvchi ahamiyatini ta'minlash.</p>	<p>Belgilanayotgan soliqlar va yig'imlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas.</p>	<p>Soliq solish umumiydir. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlarni belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha yakka tartibdagi xususiyatga ega bo'lgan imtiyozlar berilishiga yo'l qo'yilmaydi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi mumkin emas hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas.</p>	<p>Soliqlarni va yig'imlarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'imlarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan, ularni to'lash muddatlari va tartibi aniqlab berishi kerak. Soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarni to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qitilishi shart. Bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerak.</p>
4.	<p>Deklaratsiyalar hamda tanlab o'tkaziladigan tekshirish va tafsillar uyushtirish asosida barcha sub'ektlarning soliq to'lovlar yuzasidan olgan majburiyatlarini ustidan moliyaviy nazorat qilish, qonunlarni buzuvchilarga nisbatan iqtisodiy choralar ko'rish.</p>	<p>Olingan manbaalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart.</p>	<p>Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha soliq to'lovchilarga nisbatan yagonadir. O'zbekiston Respublikasining bo'xona hududi doirasida tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larning erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>	<p>Soliqlar va yig'imlar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy, milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo'llanilishi mumkin emas. Mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalining kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi. Fuqarolarning o'z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to'sinlik qiladigan soliqlarni belgilashga yo'l qo'yilmaydi.</p>

5.		<p>Soliq imtiyozlarini belgilash ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi kerak.</p>	<p>Soliq solish masalalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar rasmiy nashrlarda e'lon qilinishi shart. Barchaning e'tibori uchun rasmiy e'lon qilinmagan normativ-huquqiy hujjatlar kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi va soliq sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, ulardagi ko'rsatmalar bajarilmaganligi uchun biron bir sanksiyani qo'llashga asos bo'lib xizmat qilishi mumkin emas.</p>	<p>Soliq tizimi O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagonadir. O'zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O'zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag'larining erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yadigan soliqlar belgilanishiga yo'l qo'yilmaydi.</p>
6.		<p>Soliqlar yig'img'lar va boshqa majburiy to'lovlarga oid normativ-huquqiy hujjatlardagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha shubhali, ziddiyatli qoidalar va noaniqliklar soliq to'lovchi tadbirkorlik sub'ekti foydasiga talqin qilinadi. (O'zbekiston Respublikasining 2006 yil 10 oktyabrdagi O'zRQ-59-sonli Qonumi asosida qo'shilgan)</p>	<p>Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi bartaraf etib bo'lmaydigan barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin qilmadi.</p>	<p>Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini rasman e'lon qilinishi shart. Rasman e'lon qilinmagan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi.</p>
				<p>Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlaridagi barcha bartaraf etib bo'lmaydigan qarama-qarshiliklar va noaniqliklar soliq to'lovchining foydasiga talqin etiladi.</p>

O‘zbekiston Respublikasining soliq tizimi uchun qonuniy asosda belgilab olingan soliq va soliqqa tortish tamoyillari yuqorida keltirib o‘tilgan umumiy (klassik) va zamonaviy tamoyillarning mazmunida ilg‘or yo‘nalishlarini ham o‘zida aks ettirgan. Keltirilgan jadvaldan ko‘rish mumkinki, Respublikamiz soliq tizimida soliq va soliqqa tortish tamoyillari qonunchilikning takomillashuvi bilan ular mazmunan boyib, sodda va aniqlashib borgan. Dastlabki soliq qonunchiligi («Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi qonunida) soliqqa tortish tamoyillari «umumiy qoidalar» sifatida talqin qilingan bo‘lsa, soliq qonunchiligi (soliq kodekslari)da esa ular soliqqa tortish tamoyillari sifatida keltirib o‘tilgan.

Bu tamoyillar Respublikamizda soliq tizimining joriy etilishi va amal qilinishi natijasida orttirilgan tajribalarni e‘tiborga olgan holda takomillashtirilib borilmoqda. Albatta, soliqqa tortish tamoyillarida ma‘lum bir noaniqliklar ham mavjud bo‘ldi. Masalan, 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 4-moddasining 4-bandida «Olingan manbaalaridan qat’i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi shart» mazmunidagi tamoyil keltirilgan bo‘lsa-da, ammo Soliq kodeksida manбайдan qat’i nazar barcha daromadlar soliq ob’ekti sifatida belgilanmagan. Bu esa soliqqa tortish tamoyili bilan soliq qonunchiligining mazmuni o‘rtasidagi tafovutni bildiradi, vaholanki, soliq qonunchiligi soliqqa tortish tamoyiliga muvofiq kelishi shart. Bu holatlar oxirgi Soliq kodeksida o‘z yechimini topgan. Avvalgi bandlarda ta’kidlaganimizdek, Soliq qonunchiligida belgilangan soliq tamoyillari soliq qonunchiligi bilan bog‘liq keyingi jarayonlarni tartibga solishda va ularning mazmunini aniqlashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Masalan, 2008-yil 27-dekabrda qabul qilingan O‘zbe-

kiston Respublikasining Soliq kodeksining 11-moddasi (2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida (13-modda) da «Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi» keltirilgan bo'lib, uning amaliyotdagi aks etishi va boshqa qonunchiliklardagi mazmuni esa «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasida belgilangan qoidalar asosida bartaraf etib bo'lmaganda qo'llaniladi» degan mazmunda aniqlashtirilib moslashtirilgan.

2019-yil 30-dekabrda qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida Soliq solish majburiyligi, aniqligi va soliq organlarining soliq to'lovchilar bilan hamkorligi, adolatliliigi, soliq tizimining yagonaligi, oshkoralik va soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsiplariga asoslanishi; hech kimga soliqlar va yig'implarning barcha alomatlariga ega bo'lgan, biroq ushbu Kodeksda nazarda tutilmagan yoxud uning normalari buzilgan holda belgilangan soliqlar va yig'implarni to'lash majburiyati yuklatilishi mumkin emasligi; soliqlarni va yig'implarni belgilovchi soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari, agar soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, soliq to'lovchilarni hamda ushbu soliqlarning va yig'implarning boshqa barcha elementlarini, shu jumladan, ularni to'lash muddatlari va tartibini aniqlab berishi kerakligi; soliq organlari soliq munosabatlari doirasida soliq to'lovchilar bilan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini to'g'ri bajarish maqsadida hamkorlik qilishi shartligi, bunda soliq organlari soliq to'lovchilarning qonuniy faoliyatiga asossiz to'siqlar yaratishga haqli emas, soliq to'lovchilar esa soliq organlari o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoit yaratishi kerakligi; soliqlar va yig'implar kamsitish xususiyatiga ega bo'lishi hamda ijtimoiy, irqiy,

milliy, diniy va boshqa shu kabi mezonlardan kelib chiqqan holda qo‘llanilishi mumkin emasligi; mulkning shakliga, jismoniy shaxslarning fuqaroligiga yoki kapitalning kelib chiqish mamlakatiga qarab farqlangan soliq stavkalarini, soliq imtiyozlarini yoki boshqa afzalliklarni belgilashga, fuqarolarning o‘z konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirishiga to‘sqinlik qiladigan soliqlarni belgilashga; soliq tizimi O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yagonaligi; O‘zbekiston Respublikasining yagona iqtisodiy makonini buzuvchi, xususan, O‘zbekiston Respublikasining hududi doirasida tovarlarning (xizmatlarning) yoki moliyaviy mablag‘larning erkin muomalada bo‘lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo‘yadigan soliqlar belgilanishiga yo‘l qo‘yilmasligi; soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari rasman e‘lon qilinishi shartligi hamda rasman e‘lon qilinmagan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari kuchga kiritilmagan hujjat sifatida huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmasligi kabi yangi mazmundagi tamoyillar (prinsiplar) belgilandi.

Demak, umumiy xulosa qilib aytish mumkinki, har qaysi soliq tizimining eng muhim ajralmas qismini soliq va soliqqa tortish tamoyillari tashkil etib, ularni to‘g‘ri aniqlash har bir davlatning soliq tizimining to‘g‘ri tashkil etilganlik va samaradorlik darajasini belgilab berib, soliqqa oid munosabatlarni rivojlantirish va muvofiqlashtirishda «yo‘lchi yulduz» bo‘lib xizmat qiladi.

Tayanch so‘z va iboralar:

Soliqqa tortish tamoyillari, klassik soliqqa tortish tamoyillari, zamonaviy soliqqa tortish tamoyillari, xususiy soliqqa tortish tamoyillari, soliqqa tortishning adolatlilik tamoyili, vertikal soliqqa tortish tamoyili, tenglik soliqqa tortish tamoyilari, Soliq to‘lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq tamoyillari va soliqqa tortish tamoyillari nima? Ularning nima farqlari mavjud?
2. Klassik soliqqa tortish tamoyillariga qaysi tamoyillar kiradi? Nima uchun klassik tamoyillar deb ataladi?
3. Xususiy soliqqa tortish tamoyillari deganda qanaqa tamoyillar tushuniladi?
4. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida qo'llaniladigan va qonuniy tartibda o'rnatib qo'yilgan soliqqa tortish tamoyillarining mohiyatini izohlab bering.
5. A.Temur tomonidan qanaqa soliqqa tortish tamoyillari ilgari surilgan? Mantiqiy mushohada qiling.
6. Vertikal va gorizontal soliqqa tortish tamoyillari nima?
7. A.Smit, R.Rikardo, V.Petti, A.Vagnerlarning soliqqa tortish tamoyillari o'rtasidagi o'xshashliklar va o'ziga xosliklar nimalardan iborat?
8. Sizningcha, soliqqa tortish tamoyillari yana qanaqa bo'lishi kerak? Mushohada qilib ko'ring.
9. Pol Entoni Samuel son Djozef Yudjin Stiglitslar tomonidan ilgari surilgan soliqqa tortish tamoyillarining mohiyatini tushuntirib bering.
10. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksining 13-moddasida belgilab qo'yilgan «Soliq to'lovchining haqligi prezumpsiyasi prinsipi»ning mazmunini kengroq tartibda tushuntirib bering.

6-BOB. SOLIQ ELEMENTLARI

6.1-§. Soliq elementlari va uning tarkibi

Soliq tizimini to'laqonli amal qilishining birinchi bosqichi bu – soliqlarni joriy etish masalasi bo'lsa, keyingi bosqichi esa uni undirish tartiblarini ishlab chiqish hisoblanadi. Soliqlarni undirish tartiblarining o'zi ham soliqlarni undirishga xizmat qiluvchi qo'shimcha qonunosti hujjatlarini ishlab chiqish va soliqlarni undirish jarayoniga uslubiy asos bo'luvchi va amaliy undirish jarayonini ta'minlovchi ko'rsatkichlar (mezonlar) tizimini yaratish hisoblanadi. Bunday ko'rsatkichlar tizimi esa odatda *soliq elementlari* deb ataladi. Soliq elementlarining soliq tizimidagi ahamiyati shundaki, joriy qilingan soliqlarni qanday tartibda va qanday usullar yordamida undiriladi degan savollarning echimini ifodalaydi. Shu jihatdan olganda soliq elementlari metodologik qurilma hisoblanadi. Soliq elementlari nazariy ko'rsatkichlar tizimini aks ettirishi bilan bir qatorda, soliqlarning aniq chegarasini belgilab olish soliqlarni hisoblash, soliqdan ozod qilinganlarga yondashuvlar, aniqlab olingan soliqlarni jamiyatning sotsial adolat tamoyillarini qo'llagan holda uning qanchasini budjetga jalb qilish kabi amaliy jarayonlarni o'zida aks ettiradi. Soliqlarni hisoblashda qonuniy tartibda belgilangan soliq elementlarining ko'rsatkichlarini foydalanish zarurligi va uning haqqoniyligiga asoslanadi. Bu borada amaldagi soliq Kodeksida (24-moddasi) soliq elementlari sifatida soliq solish ob'ekti, soliq solinadigan baza, soliq stavkasi, soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish tartibi, soliqlarni to'lash tartibi kabi elementlar keltirilgan bo'lib, ushbu soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning elementlari har bir soliq

yoki boshqa majburiy to'lovga tatbiqan belgilanishligi ko'rsatib o'tilgan. O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq Kodeksida soliq elementlarining bunday belgilanishi soliqlarni soliq to'lovchidan hisoblab chiqarish va uni to'lovchiga qadar tushish jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi elementlarga asoslangan. Shu bilan birgalikda soliq to'lovchidan soliqlarni undirish jarayoniga xizmat qiluvchi qo'shimcha, qolaversa, muhim bo'lgan boshqa elementlar mavjud bo'ladiki, ularni ham e'tiborga olish talab etiladi. Bunday elementlar sirasiga soliq imtiyozlari, soliq yuki, soliq qarzdorligi, soliq madaniyati kabi elementlar kiradi. Bu elementlarning ahamiyati shundaki, soliqlarni undirish jarayonining samaradorlik ko'rsatkichlarini ifodalash bilan bir qatorda soliqlarni undirish jarayonida har bir elementning ta'siri jihatlarini ham baholab beradi. Shunday qilib, soliq elementlarini ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi bevosita soliq to'lovchidan soliqlarni hisoblash, uni budjetga undirish jarayonlariga xizmat qiluvchi; ikkinchisini esa soliqlarni undirish mexanizmlari va elementlarining samaradorlik va ularning ta'sirchanligini izohlovchi elementlar tashkil etadi.

6.2-§. Soliq sub'ektlari

Soliqlarni undirish jarayoni ko'plab munosabatlarni keltirib chiqaradi. Soliqlar iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, psixologik, huquqiy, tashqi iqtisodiy va hatto siyosiy munosabatlarni qamrab oladi. Soliqlar bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar, avvalo, soliq to'lovchilar va budjet tizimiga kiruvchi budjetlar o'rtasida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq o'zaro munosabatlarni qamrab oladi. Bu jarayonda esa ikki tomon yuzaga keladi. Biri budjet manfaatlarini ko'zlagan holda

uni undirish bilan bevosita shug'ullanuvchi hamda ushbu jarayonda xizmat qiluvchi davlatning vakolatli organlari, boshqasi esa soliq to'lovchilar sifatida ishtirok etadi. Yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiritilgan soliq to'lovchilar alohida bo'linmalarni hisobga olib markazlashgan holda soliq hisobotini taqdim etadi va soliqlarni (yig'implarni) to'laydi» deb qayd qilingan.

Soliq sub'ektlarida asosiy tomon soliq to'lovchilar hisoblanadi. Chunki soliq to'lovchilar soliqlarni joriy etish ob'ekti bo'lib, soliq to'lovchilar mavjud bo'lgan taqdirdagina soliq ob'ekti paydo bo'ladi va soliq elementlarini qo'llash imkoniyati tug'iladi. Soliq Kodeksining 23-moddasiga ko'ra soliq agentlari sifatida soliq Kodeksiga muvofiq zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish, soliq to'lovchidan ushlab qolish hamda budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga o'tkazish majburiyati yuklatilgan shaxslardir, ya'ni korxonalar, tashkilot, birlashma, uyushmalar va shu kabi huquqiy birliklar hisoblanadi.

Soliq to'lovchilar huquqiy maqomi jihatidan yuridik shaxslar, jismoniy shaxslar, notijorat tashkilotlari, doimiy muassasa, yakka tartibdagi tadbirkorlar, rezident va nerezidentlarga ajratiladi. Soliqqa tortish maqsadida yuridik shaxslar Soliq kodeksining 32-moddasi va fuqarolik Kodeksinin 39-moddasiga ko'ra o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi. Shuningdek, yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak. Shu bilan birgalikda yuridik shaxslarga jumlasiga

chet davlatning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan chet el tashkiloti va O'zbekiston Respublikasining, chet davlatning qonun hujjatlariga yoki xalqaro shartnomaga muvofiq tashkil etilgan xalqaro tashkilotlari ham kiritiladi. Notijorat tashkilotlari deganda foyda olishni faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan va olingan daromadlarni o'z qatnashchilari (a'zolari) o'rtasida taqsimlamaydigan yuridik shaxslar tushunilib, ularga budjet tashkilotlari, shu jumladan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa tashkilotlar kiradi.

Soliq qonunchiligiga ko'ra yuridik shaxslar sifatida: O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan yuridik shaxslar (O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari); chet davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan, fuqarolik huquqiy layoqatiga ega bo'lgan chet el yuridik shaxslari (shu jumladan, kompaniyalar va boshqa korporativ tuzilmalar); xalqaro tashkilotlar tan olinadi. Yuridik shaxsning hududiy jihatdan alohida bo'lgan, turgan eri bo'yicha doimiy ish joylari jihozlangan har qanday bo'linmasi O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsining alohida bo'linmasidir. Yuridik shaxsning alohida bo'linmasini e'tirof etish, unga qanday vakolatlar berilganligidan va uning tashkil etilishi bo'yicha yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida yoki boshqa tashkiliy-boshqaruv hujjatlarida aks ettirilganligi yoki aks ettirilmaganligidan qat'i nazar amalga oshiriladi. Agar ish joyi bir oydan ortiq muddatga yaratilgan bo'lsa, u doimiy hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi alohida bo'linmasining joylashgan eri ushbu yuridik shaxs mazkur alohida bo'linma orqali faoliyat olib boradigan

joydir.

Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deganda norezident O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, shu jumladan, faoliyatni vakolatli shaxs orqali amalga oshirayotgan har qanday joy e'tirof etiladi. Norezidentning O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi O'zbekiston Respublikasi hududida har qanday ketma-ketlikdagi o'n ikki oylik davr ichida bir yuz sakson uch kalendar kunidan ortiq davom etadigan tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishi ham e'tirof etiladi. «Doimiy muassasa» tushunchasi faqat soliq sohasidagi maqomni aniqlash uchun qo'llanilib, u huquqiy jihatdan tashkiliy-huquqiy ahamiyatga ega hisoblanmaydi. Ya'ni u soliq solish ob'ektlarini ham o'zida aks ettiradi.

Soliq solish maqsadlarida chet el yuridik shaxsi O'zbekiston Respublikasidagi tadbirkorlik faoliyatini to'liq yoki qisman qaysi doimiy faoliyat joyida amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha joy chet el yuridik shaxsining O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasasi deb e'tirof etiladi.

Doimiy muassasa deganda quyidagilar tushuniladi, chunonchi:

✓ har qanday boshqaruv joyi, filial, bo'linma, byuro, idora, ofis, xona, agentlik, fabrika, ustaxona, ssex, laboratoriya;

✓ tovarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, butlash, qadoqlash va o'rab-joylash amalga oshiriladigan joy;

✓ savdo shoxobchasi sifatida foydalaniladigan har qanday joy, shu jumladan, ombor;

✓ kon (shaxta), neft yoki gaz qudug'i yoki tabiiy resurslar qazib olinadigan boshqa har qanday joy;

✓ tabiiy resurslarni o'rganish (qidirish), ishlatish, qazib

olish va (yoki) ulardan foydalanish uchun qo'llaniladigan qurilma yoki inshoot (shu jumladan, uni montaj qilish), faqat qurilma yoki inshoot bir yuz sakson uch kundan ortiq muddat mobaynida foydalanilayotgan bo'lishi yoki foydalanish uchun tayyor bo'lishi shart;

✓ quvur, gaz quvuri bilan bog'liq faoliyat (shu jumladan, nazorat yoki kuzatuv) amalga oshiriladigan har qanday joy;

✓ o'yin avtomatlarini (shu jumladan, ularga qo'shimchalarni), komp yuter tarmoqlari va aloqa kanallarini, attraksionlarni o'rnatish, sozlash hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq faoliyat amalga oshiriladigan har qanday joy.

Soliq to'lovchilarning keyingi guruhi jismoniy shaxslar sifatida yuzaga chiqadi. Jismoniy shaxslar deganda esa O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar tushuniladi. Ushbu guruhga kiruvchi soliq to'lovchilar toifasiga yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kirib, ularga tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda, mustaqil ravishda, xodimlarni yollash huquqisiz, o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo'l qo'yadigan o'zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar kiradi.

Shu bilan birgalikda soliq to'lovchilar guruhlaganda ularning yuzaga kelishi, soliq to'lashni amalga oshirishi hamda soliq to'lovchilar bo'yicha soliq potensialni aniqlash maqsadida real va potensial soliq to'lovchilarga, soliq to'lovchilarning soliqlar to'lash holati yuzasidan ro'yxatdan o'tgan soliq to'lovchilar, faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchilar, faoliyatini to'xtatgan soliq to'lovchilar hamda soliq majburiyatlari tugagan(boshlangan) soliq to'lovchilarga ajratiladi. Real soliq to'lovchilar bu amalda

faoliyat ko'rsatib turgan va soliq to'lash majburiyatini amalda bajarayotgan soliq to'lovchilar tushunilsa, potensial soliq to'lovchilar esa yaqin kelajakda soliq to'lovchilar sifatida yuzaga kelishi kutilayotgan (soliq imtiyozi davri tugaydigan soliq to'lovchilar, layoqatli yoshga to'lib mehnat bozoriga kiradigan jismoniy shaxslar, yangidan tashkil etiladigan soliq to'lovchilar va sh.) soliq to'lovchilar nazarda tutiladi. Soliq to'lovchilarni bunday tartibda guruhlash esa soliq tizimida soliq tizimining samaradorligini tahlil qilishda katta ahamiyatga egadir.

Soliq munosabatlarning keyingi tomonida soliqlarni undirish vakolati (majburiyati) yuklatilgan hamda soliq undirishga xizmat qiluvchi davlatning vakolatli organlari turadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq (25-moddasida) soliq organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi, Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari, shuningdek, tumanlar (shaharlar) davlat soliq inspeksiyalari;

✓ bojxona organlari – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, «Toshkent – AERO» maxsus bojxona kompleksi va bojxona postlari;

✓ yig'implarni undirish funksiyasini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari vakolatli organlar sirasiga kiradi. Ushbu keltirilgan vakolatli organlarning soliq sub'ektlari sifatida ishtiroki turlichadir. Vakolatli(soliq undiruvchi) organlar orasida davlat soliq xizmati organlari asosiy zveno sifatida yuzaga chiqadi. Davlat soliq xizmati organlari soliq munosabatlari sub'ekti sifatida quyidagilarni amalga oshiradi:

✓ davlat soliq siyosatini amalga oshirish va soliq qonunchiligiga, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'g'ri hisoblanishiga, to'liq va o'z vaqtida to'lanishiga rioya qilinishi yuzasidan ta'sirchan nazoratni va soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi hamda boshqa qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'liq miqdorda tushishini, pul mablag'larining noqonuniy aylanishi manbaalariga barham berish, aholi bilan pulli hisob-kitoblarni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan naqd pul tushumlarining o'z vaqtida va to'liq topshirilishi yuzasidan tizimli nazoratni, soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ektlari hamda soliq solish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarning to'liq va o'z vaqtida hisobga olinishini, yuridik shaxs bo'lmasdan yakka tartibdagi tadbirkorlar sifatida tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni chetdan keltiruvchi jismoniy shaxslarni davlat soliq xizmati organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazishni ta'minlaydi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

✓ belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni,

solliq hisobotlari hamda solliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

✓ solliq to'lovchilar faoliyatini belgilangan tartibda solliq bo'yicha tekshiradi, shuningdek, jamg'arib boriladigan pensiya majburiy badallarining to'g'ri hisoblab chiqilishini, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan ularning fuqarolarning yakka tartibdagi jamg'arib boriladigan pensiya hisob raqamlariga to'liq va o'z vaqtida to'lanishini, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan pul mablag'lari va moddiy boyliklarning buxgalteriya hisobini yuritishning belgilangan tartibiga rioya qilinishini, korxonalar hududiga moddiy boyliklarni olib kirish va u erdan olib chiqishda korxonalarda ruxsat berish tizimi ishlarining tashkil etilishi holatini tekshiradi;

✓ solliq to'lovchilarning majburiyatlari paydo bo'lishi (to'xtatilishi) to'g'risida axborot taqdim etadigan organlar va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik qiladi;

✓ davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni sotishdan olingan pul mablag'larining davlat daromadiga to'liq va o'z vaqtida tushishini, shuningdek, davlat organlariga berilgan mol-mulk hisobini, yuridik shaxslar tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi uchun to'lov muddati o'tgan qarzlarni yig'adi va mablag'larning to'liq tushishini nazorat qiladi;

✓ yuridik va jismoniy shaxslarga ularni, identifikatsiyalash tartib raqamlari bergan holda, solliq to'lovchilar sifatida hisobga qo'yish to'g'risida hujjatlar berishni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, solliqqa doir qonun hujjatlarini nashr etish, ko'paytirish va davlat solliq xizmati hududiy organlariga yetkazish, maslahat xizmatlari ko'rsatish, solliq to'lovchilarni solliqlarni o'z vaqtida hi-

soblab chiqish, soliq hisobotlarini va soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish va to'lash bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlarni taqdim etishga o'qitish uchun servis-markazlar, soliq solish masalalari bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlarni soliq to'lovchilarga o'z vaqtida yetkazish ishlarini tashkil qiladi;

✓ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlar hisobini yuritadi;

✓ banklar tomonidan tegishli axborot taqdim etilishiga ko'ra bank schyotlari bo'yicha olti oy mobaynida (savdo va savdo-vositachilik faoliyati bo'yicha – uch oy mobaynida) pul operatsiyalarini amalga oshirgan holda moliya-xo'jalik faoliyatini yuritmayotgan korxonalarni, aniqlaydi;

✓ tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishdan bosh tortishi mexanizmlarini o'rganadi, aniqlaydi va bartaraf etadi va ularning vakolatiga hamda majburiyatiga kiradigan boshqa tadbirlarni amalga oshiradi.

Bojxona organlari ham soliq munosabatlari sub'ekti sifatida ishtirok etadi. Bojxona organlari o'z vakolatlaridan kelib chiqib import va eksport operatsiyalari, O'zbekistonga olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlar (xizmatlar) bo'yicha undiriladigan bojxona boji, boj to'lovlari, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'ini undiradi va belgilangan tartibda budjetga o'tkazadi. Moliya organlari ham soliq sub'ekti sifatida navbatdagi moliya yili uchun soliq xizmati va bojxona organlari hamda G'aznachilik bo'linmalari bilan birgalikda budjetning solikli daromadlarini rejalashtiradi (prognozlashtiradi), budjetga soliq tushumlarining kelib tushishining hisobini olib boradi, ayrim turdagi mahsulotlar bo'yicha aksiz solig'i stavkalarini belgilaydi, soliq to'lovchilar (korxonalar, vazirliklar, idoralar, banklar va davlat sug'urta tashkilotlari)da buxgalteriya hisobi

va hisobotini tashkil etish va takomillashtirish ishlarini muvofiqlashtiradi.

Bulardan tashqari, soliqlarni undirish jarayonida yordamchi soliq sub'ekti sifatida bank muassasalari ham ishtirok etadi. Soliq tushumlarini hisobga olish jarayoni, avvalo, ushbu tushumlarni hisobga oluvchi tegishli bank hisobvaraqlarini (soliq to'lovchilarning emas, balki, bankning o'zining hisobvaraqlari) ochish talab etiladi. Shu maqsadda esa davlat byudjetiga kelib tushgan mablag'larning to'g'ri va o'z vaqtida kirim qilinishini ta'minlash maqsadida moliya, soliq, bojxona va boshqa vakolatli organlarning xos raqamlari bilan balans hisobvaraqlari byudjet tasnifida keltirilgan daromadlar turiga asosan belgilangan shaxsiy hisob raqamlarga muvofiq banklarda ochiladi. Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Davlat byudjetiga o'tkaziladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar banklar tomonidan qabul qilinadi va belgilangan tartibda balans hisobvaraqlariga kirim qilinadi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan davlat bojlari, yig'imlar va soliq bo'lmagan to'lovlardan, ma'muriy va moliyaviy jazolardan ajratmalar banklar tomonidan ochilgan mos shaxsiy hisob raqamlarga kirim qilinadi. Davlat byudjetining balans hisobvaraqlarining shaxsiy hisob raqamlarga kirim qilingan mablag'lar dasturiy ravishda belgilangan miqdorlarda ajratma qilinadi va to'liq yagona g'azna hisob raqamiga o'tkaziladi. Bunda, ajratma qilingan mablag'larning tegishli respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, mahalliy byudjetlar va byudjetdan tashqari jamg'armalarning g'aznachilikda ochilgan shaxsiy hisob raqamlariga to'g'ri kirim qilinishini ta'minlash maqsadida dasturiy ravishda shakllantiriladigan to'lov hujjatlarining to'lov maqsadida ularning shaxsiy

g'azna hisob raqamlari alohida ko'rsatiladi.

Bundan tashqari, soliq sub'ektlariga soliq undirishda yordamchi sub'ektlar qatoriga o'z-o'zini boshqarish organlarining ham ishtiroki mavjud. Mahallalar va fuqarolar yig'inlari o'z hududida yashovchi aholiga tegishli soliq ob'ektlarini ro'yxatga olishda, hamda aholidan yer va mol-mulk soliqlarini undirishda o'z vakolatlari va majburiyatlari doirasida ishtirok etadi. Demak, soliq sub'ektlari tizimida soliq to'lovchilar va soliq undiruvchi vakolatli organlar bilan birgalikda ushbu jarayonga xizmat qiluvchi organlar ham mavjud bo'lib, ular soliq sub'ektlari sifatidagi soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashida, soliq undiruvchilarning esa soliqlarni undirishida amaliy yordam ko'rsatadi.

Soliq sub'ektlari sifatida soliq to'lovchining vakillari ham alohida o'rin tutadi. Soliq to'lovchi, soliq munosabatlarida qonuniy yoki vakolatli vakil orqali ishtirok etishga haqli. Soliq to'lovchining vakilini vakolatlari Soliq kodeksiga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb ushbu yuridik shaxsga qonun yoki uning ta'sis hujjatlari asosida vakillik qilishga vakolatli shaxslar e'tirof etiladi. Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining qonuniy vakili deb fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq uning vakillari sifatida faoliyat olib boradigan shaxslar e'tirof etiladi.

Yuridik shaxs qonuniy vakillarining mazkur yuridik shaxsning soliq munosabatlarida ishtirok etishi munosabati bilan sodir etilgan harakatlari (harakatsizligi) ushbu yuridik shaxsning harakati (harakatsizligi) hisoblanadi. Soliq to'lovchi tomonidan belgilangan tartibda soliq organlari, bojxona organlari va soliq munosabatlarining boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlarda o'z manfaatlarini ifodalash

vakolati berilgan soliq maslahatchilari tashkilotlari yoki boshqa shaxslar soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'lishi mumkin. Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili, o'z vakolatlarini tuzilgan shartnoma yoki fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladigan ishonchnoma asosida amalga oshiradi.

Jismoniy shaxs bo'lgan soliq to'lovchining vakolatli vakili o'z vakolatlarini fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq notarial tasdiqlangan ishonchnoma asosida amalga oshiradi. Soliq, moliya, bojxona va boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslari soliq to'lovchining vakolatli vakillari bo'la olmaydi. Soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhining mas'ul ishtirokchisi qonun asosida soliq to'lovchilar konsolidatsiyalashgan guruhi barcha ishtirokchilarining vakolatli vakili hisoblanadi.

6.3-§. Soliq ob'ektlari

Soliqlarning asosiy elementi bo'lgan soliq ob'ekti soliqlarni undirish jarayonidagi eng muhim masala hisoblanadi. Mazmunan olganda, soliq ob'ekti bu – soliq nima-dan undirilishini ifodalaydi, ya'ni iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarda qatnashadigan mol-mulk, daromad, jarayon, huquq (foydalanish huquqi) va fizik-texnivakiy ko'rsatkichlar birligining soliqqa tortish ob'ekti sifatida belgilab qo'yilishidir. Soliq ob'ektlarining mohiyatini to'laroq anglash maqsadida ularni miqdor va sifat soliq ob'ektlariga bo'lish mumkin. Miqdor soliq ob'ekti deganda soliq ob'ektlariga tortiladigan ob'ektlar nazarda tutiladi. Miqdor soliq ob'ektlari soliqlarning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qamrab olinishini va uning goegrafiyasini izohlaydi.

Soliq ob'ektining soni qanchalik ko'p bo'lsa, demak uning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab olish darajasi

ham shuncha yuqori bo'ladi. O'z navbatida, miqdor soliq ob'ektlari esa qonunchilik bilan belgilab qo'yiladi. Har bir soliq turining joriy etilishidan oldin, albatta, uning soliq ob'ekti aniqlanadi. Ammo miqdor soliq ob'ektlari soliq turlaridan ko'p ham bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda esa bir soliq turida bir necha soliq ob'ektlari soliqqa tortiladi, o'z navbatida, bir soliq ob'ekti bir necha soliq turining ob'ekti bo'lib ham xizmat qilishi mumkin. Masalan, ish haqi ko'rsatkichi esa, mahsulot tarkibidagi qo'shilgan qiymatning ichida mavjud bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'iga tortilsa, o'z navbatida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining ob'ekti ham hisoblanadi.

Bu esa soliq ob'ektining miqdor ko'rsatkichlari bilan birgalikda sifat ko'rsatkichlarini ham anglashni taqozo etadi. Buni esa sifat soliq ob'ektlari izohlab beradi. Sifat soliq ob'ektlari deganda esa soliq ob'ektlarining ichki tuzilishi, uning tarkibi, soliq ob'ektining gorizontal va vertikal harakatda bo'lishini bildiradi. Aytganimizdek, soliq ob'ekti gorizontal holatda bir necha soliqlar ob'ektlari sifatida namoyon bo'lishi bilan birga alohida olingan soliq turining o'zida soliq ob'ekti turlicha jarayonlar bilan bog'lanib ketadi. Soliq ob'ektining ichki tarkibiy tuzilishi soliq turi mexanizmining ham murakkabligidan dalolat beradi. Masalan, olaylik foyda solig'i mexanizmi juda murakkab hisoblanadi, sababi uning ob'ekti bo'lgan foydaning shakllanish jarayoni esa takror ishlab chiqarishning turli bosqichlari bilan bog'lanib ketadi.

O'zbekiston soliq tizimida belgilangan soliqqa tortiladigan ob'ektlar miqdor ob'ektlari bo'lib, har bir soliq turi bo'yicha soliq ob'ekti aniqlanish jarayoni sifat ob'ektlar ham aniqlanadi va soliq ob'ektlarining to'laroq mazmuni anglab olinish imkoniyati mavjud bo'ladi (bu jarayon esa yuridik shaxslarni soliqqa tortish, jismoniy shaxslarni

soliqqa tortish, kichik biznes sub'ektlarini soliqqa tortish fanlarida to'laroq yoritiladi). Shu bilan birgalikda soliqsiz to'lovlar bo'yicha ham soliq ob'ektlari belgilangan bo'lib, ular jumlasiga mahsulot realizatsiyasi, ma'lum bir huquqlarni olish, davlat ro'yxatidan o'tish jarayoni, ruxsatnomalar olish jarayoni (mahalliy yig'imlarda), ish haqi fondi (ijtimoiy soliqda) va shu kabilar kiradi.

6.4-§. Soliq bazasi

Ta'kidlanganidek, soliq ob'ekti bu mavjud mol-mulk, yer, jarayon, huquqlar (foydalanish huquqi), daromad va fizik-texnivakiy ko'rsatkichlar jami ob'ektlar (predmet va jarayonlar)dan qaysi birlari soliq munosabatlariga tortilganligini ihozlaydi. Ammo soliq tamoyillarini qo'llagan holda soliqqa tortilish jarayonlarini izohlab bera olmaydi. Soliqqa tortish jarayonida bu masalani yechishda soliq bazasi xizmat qiladi. Soliq bazasi soliq ob'ektining qismi bo'lib, u soliqning barcha tamoyillarini o'zida aks ettirib soliq ob'ektidan haqiqatda soliqqa tortiladigan qismini aniqlab beradi. Agar soliq bazasini formula tartibida izohlaydigan bo'lsak, u quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Soliq bazasi = (Soliq ob'ekti) - (Soliq ob'ektining soliqqa tortilmaydigan qismi) (1).

Bir qarashda soliq bazasini aniqlashning formulali tarkibi uning soddaligini ko'rsatsa-da, ammo soliq bazasi, umuman, soliq tizimida ham soliqni undirish jarayonidagi eng murakkab jarayon hisoblanadi. Har qaysi turdagi soliq bazasini to'g'ri aniqlash soliqni hisoblash majburiyati yuklatilgan shaxslar (soliq to'lovchilarning bosh hisobchilari) va soliqni undirish amalga oshiruvchi shaxslar (soliq xizmati organlari mutaxassislari)dan yuqori malaka va bilimni talab qiladi. Agar soliq bazasini

mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etadigan bo'lsak, soliq bazasi soliqlarning rag'batlantiruvchilik va tartiblovchilik xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Soliqlarning rag'batlantiruvchilik xususiyatini ifodalanganda u kamayish tendensiyasiga, soliqlarning tartiblovchilik xususiyatini ifodalaganda esa ko'payish ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu esa soliq bazasining soliq ob'ektiga nisbatan uch xil pozitsiyada mavjud bo'lishligini ifodalaydi.

Birinchi pozitsiya: Soliq ob'ekti $>$ Soliq bazasi $>$ 0. Misol uchun korxonada mol-mulk solig'i to'lovchisi bo'lib, uning jami mol-mulk (asosiy fondlar, tugallanmagan qurilish ob'ektlari, belgilangan muddatda ishga tushirilmagan asbob-uskunalar)ining yillik o'rtacha qiymati 100 mln. so'mni tashkil etadi. Shu bilan birgalikda ushbu jami asosiy fondlari tarkibida kommunal xo'jaligi ob'ektlari, madaniyat va san'at, ta'lim, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy sohaga xizmat qiluvchi asosiy fondlarining qiymati esa 35 mln. so'mni tashkil etdi. Demak bu yerda soliq bazasi (100-35) 65 mln. so'mni tashkil etib, soliq ob'ekti soliq bazasidan katta ko'rinishga ega bo'ladi.

Ikkinchi pozitsiya. Soliq ob'ekti = Soliq bazasi $>$ 0. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lovchisi hisoblangan korxonada hisobot davrida 50 mln. so'mlik umumxo'jalik faoliyatdan (soliq to'lagunga qadar foyda) foydaga ega bo'lib, amaldagi soliq qonunchiligi bo'yicha hech qanday soliq imtiyozlariga (soliq chegirmalariga) ega bo'lmagan. U holda korxonaning foyda solig'i bo'yicha soliq ob'ekti va soliq bazasi o'zaro teng bo'lib, 50 mln. so'mlik soliq ob'ekti o'zgarmay qoladi.

Uchinchi pozitsiya. Soliq ob'ekti $<$ Soliq bazasi $<$ 0. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini to'lovchisi hisoblangan korxonada hisobot davrida 50 mln. so'mlik

umumxo'jalik faoliyatdan (soliq to'lagunga qadar foyda) foydaga ega bo'lib, soliq solinadigan bazadan chegiriladigan 4 mln. so'mlik xarajatlarga ega bo'lishi bilan birga amaldagi soliq qonunchiligida ko'zda tutilgan xarajatlar, ya'ni chegirilmaydigan tarzidagi xarajatlarni amalga oshirib, uning umumiy summasi 59 mln. so'mni tashkil etgan. U holda soliq bazasi $(50+4-59) = 5$ mln so'mni tashkil etadi. ya'ni, bu holatda soliq bazasi soliq ob'ektidan miqdoriy jihatdan kattadir. Garchi, natija matematik ifoda nuqtai nazaridan manfiy ko'rsatkichga ega bo'lsa-da, iqtisodiy mazmun jihatdan korxonada amaldagi qonunchilikka ko'ra 5 mln. so'mlik soliq bazasidan soliq to'laydi (buning asosiy sabablari yuridik shaxslarni soliqqa tortish fanining tegishli mavzusida batafsil ihozlanadi). Ushbu pozitsiyalardan kelib chiqib (1) formulamizni boshqacharoq tartibda ifodalashimiz mumkin:

Soliq bazasi = (Soliq ob'ekti) - (Soliq ob'ektining soliqqa tortilmaydigan qismi) - (soliq imtiyozlari) + (soliq bazasini ko'paytirishga olib keluvchi xarajatlar) (2).

Shu bilan birgalikda soliq bazasining xususiyatlarini chuqurroq anglashda soliq ob'ektining soliq bazasiga aylanish koeffitsientini aniqlash orqali ham soliq ob'ektining qancha qismi budjetga soliq to'lovlari sifatida jalb qilinishi darajasini ko'rish mumkin va u quyidagicha aniqlanadi:

Soliq bazasi koeffitsienti = Amalda shakllangan soliq bazasi summasi / Soliq ob'ekti summasi (2).

Bu erda soliq bazasi koeffitsienti manfiy ko'rsatkichga 1 dan kam bo'lsa, yuqorida keltirilgan birinchi pozitsiyadagi holatni ifodalab soliq to'lovchining soliq imtiyozlariga ega ekanligi va soliq turining rag'batlantiruvchilik xususiyatini bildiradi, agar 1 ga teng bo'lsa, ikkinchi pozitsiyani, ya'ni tegishli soliq turi soliq to'lovchiga nisbatan neytral holatdaligini izohlaydi va 1 dan yuqori bo'lsa, u holda

uchinchi pozitsiyaga to'g'ri kelib, soliq turining progressiv xarakterdaligini va soliq to'lovchining soliq imtiyozlariga ega emasligini, qolaversa, uning iqtisodiy faoliyatida va soliqlarni to'lash (ayniqsa xarajatlar) borasida ma'lum bir muammolar mavjudligini tavsiflaydi. Soliq bazasining bunday holatda mavjud bo'lishligi uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarga bog'liq bo'ladi. Bunday omillar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyati (xarajatlarni amalga oshirish, mahsulot realizatsiyasining sotish hajmi, unumsiz xarajatlarning miqdori, korxonada mahsulotning bozordagi talabning holati va shu kabilar)ning tashkil etilishi va yo'nalishi;

2) davlatning soliq siyosatidagi o'zgarishlarning soliq turlari orqali soliq to'lovchining faoliyatiga ta'siri;

3) soliq to'lovchi tomonidan soliq qonunchiligiga va o'zaro hisob-kitoblar tizimiga amal qilishi (turli xil jarimalar, debitorlik va kreditorlik qarzlarning darajasi);

4) fors major holatlar (korxonada mahsulotiga bozordagi talabning keskin tushib ketishi, turli xil baxtsiz hodisalar, boshqaruv jarayonidagi boshboshdoqlik) va shu kabilar.

6.5-§. Soliq stavkasi

Soliq ob'ektining soliqqa tortiladigan qismi-soliq bazasini aniqlash bu soliq to'lovchining (soliq turlari bo'yicha) yuzaga kelgan soliq majburiyatlari hajmini ifodalaydi va budjetga jalb qilinadigan soliq summasining bazasini ko'rsatadi. Ammo shakllantirilgan soliq bazasining qancha qismini davlat manfaatlariga (budjetga) olish masalasini esa soliq stavkalarisiz hal etib bo'lmaydi. Demak, soliqlarni undirish jarayonida soliq elementlari sifatida stavkalar muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shundan kelib chiqib aytish

mumkinki, soliq stavkasi bu – soliq bazasi (ob’ekti)ga qo’llaniladigan va davlatning vakolatli organlari tomonidan qonun va qonun osti hujjatlariga asosan o’rnatiladigan me’yor bo’lib, shakllangan soliq bazasining tegishli qismini davlatning markazlashtirilgan (budjet va budjetdan tashqari) fondlariga jalb qilingan miqdori aniqlashtiruvchi ko’rsatkichdir. Demak, soliq stavkalari soliq bazasini soliq to’lovchi va davlat manfaatlari o’rtasida taqsimlovchi vosita-ko’rsatkich hisoblanadi. Bunga asoslanib, soliq stavkasining umumiy ko’rinishini matematik formula tarzida quyidagicha aks ettirishimiz mumkin:

$$\text{Soliq stavkasi} = \frac{\text{Soliq tushumlari summasi} \cdot 100\%}{\text{Soliq bazasi}} \quad (3).$$

Soliq stavkasining bunday ko’rinishi aslida soliq stavkasining o’rtacha darajasini aniqlab beradi. Amaldagi qonunchilikka o’rnatilgan soliq stavkasi o’rtacha darajadan farq qilishi mumkin. Soliq bazasi qancha kichik bo’lsa, o’rtacha soliq stavkasi shuncha katta bo’ladi, aksincha soliq bazasi qanchalik katta bo’lsa, o’rtacha soliq stavkasi past bo’ladi. Odatda soliq stavkasining soliq bazasi va soliq tushumlariga va shu orqali soliq to’lovchilarga ta’sirini aniqlashda maksimal soliq stavkalari ham aniqlanadi. Masalan olaylik daromad hajmi 90 ming so’m bo’lgan sharoitda 6 ming so’m soliq to’lash, daromad hajmi 120 ming so’m bo’lganda esa 18 ming so’m soliq to’lash sharoitida o’rtacha va maksimal soliq stavkalari qanday ko’rinishda bo’ladi?

Bunday sharoitda maksimal soliq stavkasi quyidagiga teng bo’ladi:

$$SS_{\text{mak}} = \frac{\Delta ST}{\Delta DH} \cdot 100\% = \frac{18000 - 6000}{120000 - 90000} \cdot 100\% = 40\% \quad (4).$$

Bu yerda:

Smak – Maksimal soliq stavkasi;

ΔST – Soliq summasining o'zgarishi;

ΔDH – Daromad hajmining o'zgarish.

Maksimal soliq stavkasi stavkasi soliq summasining oshishi daromad summasiga bog'liqlik darajasini ko'rsatib, misolda har bir birlik daromad hajmining oshishi 0,4 birlikda soliq summasining oshib borganligini ko'rsatadi. Aynan ushbu holatda esa o'rtacha soliq stavkasini hisoblaydigan bo'lsak, uning darajasi quyidagicha bo'ladi:

$$SSo'r = \frac{ST}{DH} * 100\% = \frac{18}{120} * 100\% = 15\%(5).$$

Bu yerda:

SSo'r – O'rtacha soliq stavkasi;

ST – Soliq summasi hajmi;

DH – Daromad hajmi.

Bu yerda ko'rinadiki, maksimal va o'rtacha soliq stavkalarining darajalari ancha farqqa ega. O'rtacha soliq stavkasi esa oxirgi holatdagi daromadga nisbatan darajani bildirsa, maksimal soliq stavkalari ma'lum bir vaqt oralig'ida daromad va soliq stavkalaridagi o'zgarishlarning o'zaro bog'liqligini va uning ta'sirida soliq tushumlarining o'zgarish tendensiyalarini ifodalaydi.

Soliq stavkalari belgilanishi jihatdan turlicha guruhlanadi. Bular jumlasiga proporsional (mutanosib), progressiv, regressiv soliq stavkalari kiradi.

Proporsional soliq stavkalari bu soliq ob'ekti (bazasi) ning hajmidan, soliq to'lovchining faoliyati va ishlab chiqarayotgan mahsulot (xizmat) turidan qat'iy nazar bir xil tartibda qo'llaniladigan soliq stavkalariga aytiladi. Masalan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, mol-mulk solig'i, obodonlashtirish va ijti-

moiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va shu kabi soliq turlarida soliq stavkalari proporsional bo'lib, soliq ob'ektining hajmidan qat'iy nazar bir xil miqdorda belgilangan va qo'llaniladi. Proporsional soliq stavkalari o'zida soliqlarning befarqlilik (neytrallik) xususiyatini aks ettiradi.

Progressiv soliq stavkalari proporsional soliq stavkalaridan farqli ravishda soliqlarning progressivlik xususiyatini izohlab, soliq ob'ektining oshib borishiga muvofiq ravishda soliq stavkalarining ham o'sib borishini bildiradi. Shu jihatdan olganda progressiv soliq stavkalari soliqlar orqali tartiblashning ham muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunday soliq turlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq stavkalarini keltirish mumkin. 2019 yil 1-yanvarigacha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha proporsional soliq stavkasi qo'llanilgan bo'lsa, 2019 yil birinchi yanvardan boshlab ushbu soliq turi bo'yicha stavkalar yagona 12 foiz qilib belgilanib, proporsional soliq stavkasi qo'llanila boshlandi. Shuningdek, shu yil (2019 yil)dan boshlab jismoniy shaxslarning mol-mulkidan olinadigan soliq stavkalari bo'yicha esa uy-joylarning egallagan maydoni (kv.m) ga qarab, uy-joylar va kvartiralar, dala hovli imoratlari mol-mulkning kadastr qiymatiga nisbatan soliq stavkalari belgilangan.

Ushbu soliq turlari bo'yicha ko'rinadiki, soliqqa tortiladigan ob'ektning oshib borishiga muvofiq soliq stavkalari ham oshib boradi. Aynan ushbu jarayonni yer solig'i stavkalarida ham ko'rish mumkin. Qishloq xo'jaligiga yaroqli sug'oriladigan yerlardan olinadigan yer solig'i stavkalarining belgilanishi soliq ob'ekti(erning boniteti) oshib borishi bilan birga soliq stavkalari(qat'iy so'mlardagi) va unga tuzatuvchi koeffitsient tartibidagi stavkalar oshib

boradi.

Regressiv soliq stavkalari. Soliqlar befarqlik va progressiv xarakterda bo'lishi bilan bir qatorda ular rag'batlantiruvchilik xususiyatiga ega bo'lib, bunda soliq stavkalari asosiy rol o'ynaydi. Regressiv soliq stavkalari progressiv soliq stavkalaridan aksincha, soliq ob'ekti oshib borishi bilan soliq stavkalarining kamayib borishini tavsiflaydi. Agar buni foyda solig'i misolida tushuntiradigan bo'lsak, Soliq kodeksining 337-moddasida belgilab qo'yilganidek, soliq to'lovchilar, agar o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlari jami daromadning 90 foizdan ko'prog'ini tashkil etsa, bu kabi soliq to'lovchilarga faoliyatning barcha turlari bo'yicha 0 foiz miqdorida regressiv soliq stavkasi qo'laniladi, bu erda umumiy daromadlarda o'zi ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan daromadlar belgilangan me'yor 90 foiz va undan ko'pni tashkil etilishi bilanoq soliq stavkasi nolga tenglashib qoladi.

Shuningdek, foyda solig'i stavkasini qo'llashda tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat sub'ektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar agar ko'rsatilgan faoliyat turlarini amalga oshirishdan olingan daromadlar joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 90 foizini tashkil etsa, 7,5 foiz miqdoridagi soliq stavkasini qo'llashga haqli, bu erda ham ko'rinadiki, olingan daromadlar belgilangan me'yor 90 foiz va undan ko'pni tashkil etilishi, amaldagi umumiy belgilangan soliq stavkasi (15 foizlik) 50 foizga qisqaradi, ya'ni 7,5 foizlik stavka qo'llaniladi.

Bundan tashqari, o'zida ishlovchilarning umumiy o'r-tacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi

bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi belgilangan norma (3 foiz)dan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi. Shuningdek, agar soliq to'lovchi tovarlarni (xizmatlarni) eksport qilishdan olinadigan daromadlar jami daromadning kamida 15 foizini tashkil etsa, bu holatda ham regressiv soliq stavkasi maksimum darajada qo'llaniladiki, bu nol darajadagi stavkaga tushib qoladi.

Bulardan tashqari, soliq stavkalari qat'iy pul birliklari (so'm)da (masalan, yer solig'i, aksiz solig'i va sh.k.), advalor¹, ya'ni foiz shaklda ham bo'ladi. Shuningdek, soliq stavkalari soliq to'lovchilarning faoliyat turiga(yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari va yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq), joylashgan joyiga(savdo va umumiy ovatlanishi korxonalari to'laydigan yagona soliq va yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun qat'iy belgilangan soliq), soliq ob'ektining paydo bo'lishiga (suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq) qarab tabaqalashtirilgan soliq stavkalari ham bo'ladi. Aksiz solig'ining stavkalari, mahsulot narxi dinamikasidan va uni realizatsiya qilish, shu jumladan, import qilish hajmidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Bundan tashqari, soliq stavkalari «jazolovchi» va rag'batlantiruvchi shakllarda ham bo'ladi. Masalan, yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'ida o'z vaqtida o'rnatilmagan, va yakka tartibda qurilgan uy-joylar belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan holatlar

¹ Advalor lotincha «Ad valorem-narxi, qiymati bo'yicha» degan ma'noni beradi. Odatda 19-asrning o'rtalarida Angliya va AQShda bojxona bojlariga nisbatan qo'llanila boshlagan.

uchun belgilangan stavkadan ikki barobar miqdorda soliq stavkalari qo'llaniladi.

6.6-§. Soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq davri, soliq hisobotini taqdim etish va soliqlarni to'lash tartibi

Soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi. Soliqlarni undirish mexanizmini shakllantirishda soliq elementlarining tarkibiy qismi sifatida soliqlarni hisoblab chiqarish jarayoni o'zida soliq ob'ekti, soliq bazasi, soliq stavkasi va soliq imtiyozlarini aks ettiradi. Chunki soliqlarni hisoblash chiqarish uchun soliq to'lovchi tomonidan soliqning ob'ekti va undan soliq bazasini ajratib olish (aniqlab olish), tegishli soliq stavkalari va imtiyozlarini qo'llashni taqozo etadi. Soliqlarni hisoblash tartibi asosan soliq majburiyatlari yuklatilgan yuridik shaxslar tomonidan ular to'lashi lozim bo'lgan soliq turlari bo'yicha; soliq agentlari tomonidan ularga yuklatilgan soliqlarni hisoblab chiqish va to'lov manbaida ushlab qolib budjetga undirish tartibida; soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli er va mol-mulk solig'ini ulardagi ma'lumotlarga asosan hisoblab chiqariladi va belgilangan tartibda to'lanadi.

Yuridik shaxslar, soliq agentlari va soliq xizmati organlari soliqlarni hisoblab chiqarishda shakllantirilgan soliq bazasi va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqib amalga oshiradi va soliqlarning to'g'ri hisoblanganligi uchun javobgar bo'ladi. Soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan mol-mulk va yer solig'ini hisoblash javobgarligi jismoniy shaxslarga yuklatilmaydi, ammo soliqlarni budjetga to'lash javobgarligi ularning o'ziga yuklatiladi. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar bo'yicha soliqlarni hisoblash jarayoni, ulardan olingan daromadlar bo'yicha deklaratsiya topshirish

majburiyati yuzaga kelganda amalga oshiriladi. Ammo ular asosiy ish joyidan tashqari boshqa korxonalar va tashkilotlarda huquqiy shartnomalar asosida olgan qo'shimcha ish haqi va shu shakldagi olgan daromadlari bo'yicha ish beruvchiga uning daromadidan daromad solig'i ushlab qolib budjetga o'tkazish xususidagi yozma murojaat (ariza taqdim) qilgan holda soliqlarni hisoblab chiqarish va uni to'lamaganlik uchun javobgarlikdan soqit qiladi. Soliqlarni hisoblab chiqarish tartibi soliq turlari bo'yicha o'ziga xos tartibda farqlanib, bunday tartiblar soliq qonunchiligi bilan tartibga solinadi. Soliqni hisoblab chiqarish tartibi soliq bazasidan, soliq stavkasidan, shuningdek, mavjud bo'lgan taqdirda, soliq imtiyozlaridan kelib chiqqan holda soliq davri uchun soliq summasini hisob-kitob qilish qoidalarini belgilaydi. Soliqni hisoblab chiqarish to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda amalga oshiriladi.

Agar soliq bo'yicha soliq davri bir necha hisobot davrini tashkil etsa, ulardan har birining natijalari bo'yicha joriy to'lovlar qilinadi. Joriy to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi. Alohida soliq turlari uchun bo'nak to'lovlari nazarda tutilishi mumkin. Bo'nak to'lovlarni to'lash majburiyati soliqni to'lash bo'yicha majburiyatga tenglashtiriladi. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlarni banklar orqali naqd pulsiz shaklda to'laydi.

Soliq davri. Soliq davri bu soliq to'lovchilar tomonidan soliq majburiyatlarining yuzaga kelishi va ularni to'lashni amalga oshirishning davriy oralig'ini ifodalaydi. Soliq davri u tugaganidan keyin soliq solinadigan baza aniqlanadigan hamda soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi hisoblab chiqariladigan davrdir. Soliq to'lovchilar soliq davridan kelib chiqib soliq hisobotlarini va soliqlarni to'lash tartibini amalga oshiradi. Soliq davri soliq turlari bo'yicha

belgilanayotganda soliqlarning xususiyatlari e'tiborga olgan holda kalendar yili(moliya yili), hisobot yili choragi va hisobot yili oyi qilib belgilanishi mumkin.

Soliq davri bir necha hisobot davrlaridan iborat bo'lishi mumkin. Agar yuridik shaxs kalendar yil boshlanganidan keyin, lekin shu yilning 1 dekabriga qadar tashkil etilgan bo'lsa, uning uchun u tashkil etilgan kundan e'tiboran shu yilning oxiriga qadar bo'lgan davr birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi. Agar yuridik shaxs 1 dekabrda 31 dekabr qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa, tashkil etilgan kundan e'tiboran tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr uning uchun birinchi soliq davri deb e'tirof etiladi. Bunda yuridik shaxs davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kun u tashkil etilgan kun deb hisoblanadi.

Soliq qonunchiligida belgilangan tartibda o'zini mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining soliq rezidentlari deb e'tirof etgan hamda faoliyati bunday e'tirof etish sanasida O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxslari uchun foyda solig'i bo'yicha birinchi soliq davrini aniqlashga nisbatan qo'llanilmaydi.

Agar yuridik shaxs kalendar yil oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun shu yil boshidan to tugatish (qayta tashkil etish) tamomlangan kungacha bo'lgan davr oxirgi soliq davri deb e'tirof etiladi. Agar kalendar yil boshlanganidan keyin tashkil etilgan yuridik shaxs shu yil oxiriga qadar tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e'tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo'lgan davr soliq davri deb e'tirof etiladi. Yuridik shaxs joriy kalendar yilning 1 dekabrda 31 dekabr qadar bo'lgan davrda tashkil etilgan bo'lsa va tashkil etilgan yildan keyingi kalendar yil

oxirigacha tugatilgan (qayta tashkil etilgan) bo'lsa, uning uchun u tuzilgan kundan e'tiboran tugatilgan (qayta tashkil etilgan) kungacha bo'lgan davr soliq davri deb hisoblanadi.

Shuningdek, faoliyati O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa tuzishga olib kelmagan chet el yuridik shaxsi o'zini mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, uning uchun foyda solig'i bo'yicha birinchi soliq davrini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

✓ agar ushbu chet el yuridik shaxsi o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish to'g'risidagi arizani taqdim etgan kalendar yilning 1 yanvaridan e'tiboran o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, mazkur ariza taqdim etilgan kalendar yil uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi;

✓ agar ushbu chet el yuridik shaxsi tegishli ariza taqdim etilgan sanadan e'tiboran o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etsa, ko'rsatilgan ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e'tiboran ushbu ariza taqdim etilgan kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr uning uchun birinchi soliq davri hisoblanadi. Bunda agar chet el yuridik shaxsining o'zini O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etish to'g'risidagi arizasi 1 dekabrda 31 dekabr qadar bo'lgan davrda taqdim etilgan bo'lsa, uning uchun ushbu ariza soliq organiga taqdim etilgan sanadan e'tiboran u soliq organiga taqdim etilgan kundan keyingi kalendar yilning oxirigacha bo'lgan davr birinchi soliq davri hisoblanadi.

O'zbekiston soliq qonunchligida yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, ijtimoiy soliq,

yagona yer soliqlari bo'yicha soliq davri O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining tegishli moddalarida turli xil davrlar belgilab qo'yilgan.

Shuningdek, ayrim turdagi soliqlar bo'yicha masalan, faoliyatning ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqning soliq davri bir oy hisoblanadi. Soliq davri bir necha hisobot davriga bo'linishi mumkin bo'lib, ularning yakunlari bo'yicha hisob-kitoblarni taqdim etish hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'lanishi lozim bo'lgan summalarini to'lash majburiyati yuzaga keladi. Joriy to'lovlarni to'lash bo'yicha majburiyat yuzaga kelgan davr hisobot davri bo'lmaydi.

Soliq hisobotini taqdim etish tartibi. Soliq elementlarining orasida soliq hisobotlarini taqdim etish tartibi ham mavjud bo'lib, bunga ko'ra soliq majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va soliq agentlari davlatning vakolatli organlari (Davlat soliq qo'mitasi va Moliya vazirligi) tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan soliq (moliyaviy) hisobotlarini davlat soliq xizmati organlari va bojxona organlariga taqdim qiladilar. Soliq to'lovchining har bir soliq turi yoki to'langan daromadlar bo'yicha hisob-kitoblarni va soliq deklaratsiyalarini, shuningdek, hisob-kitoblarga hamda soliq deklaratsiyalariga doir ilovalarni o'z ichiga oladigan, soliq to'lovchilarning va soliq agentlarining soliq majburiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan hujjatlari soliq hisobotidir. Soliq hisoboti O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan shakllarda tuziladi. Soliq hisoboti soliq organlariga shaxs faqat soliq to'lovchi deb e'tirof etiladigan soliqlar bo'yicha taqdim etiladi. Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik

soliq to'lovchining yoki soliq agentining zimmasiga yuklanadi.

Soliq to'lovchilar soliq hisobotlarini qog'ozda va (yoki) elektron hujjatga doir talablarga rioya etilgan holda elektron hujjat tarzida tuzib, imzolab va (agar u yuridik shaxs bo'lsa) uning muhri bilan tasdiqlagan holda u hisobga qo'yilgan joydagi davlat soliq xizmati organiga taqdim etadi. Ayrim turdagi soliqlar bo'yicha soliq hisoboti ham Soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda ob'ektlar bo'yicha hisobga qo'yilgan joy bo'yicha soliq to'lovchi tomonidan taqdim etiladi. Elektron hujjat tarzida taqdim etilgan soliq hisoboti soliq to'lovchining elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan holda belgilangan muddatlarda yuboriladi. Soliq deklaratsiyasi topshirish majburiyati yuzaga kelgan soliq to'lovchi jismoniy shaxslar esa soliq deklaratsiyasini yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga topshiradilar.

Soliq to'lovchilar soliq hisobotini o'z xohishlariga ko'ra shaxsan o'zlari olib borishi, pochta orqali buyurtma xat asosida va telekommunikatsiya kanallari orqali elektron hujjat tarzida topshirishi mumkin. Bunda soliq hisobotini davlat soliq xizmati organiga taqdim etish sanasi quyidagilardir:

soliq hisoboti shaxsan olib borib berish tartibida taqdim etilganda – soliq hisoboti davlat soliq xizmati organi tomonidan qabul qilib olingan sana;

soliq hisoboti pochta orqali buyurtma xat bilan taqdim etilganda – aloqa tashkilotining tamg'asida ko'rsatilgan, pochta jo'natmasi jo'natilgan sana;

soliq hisoboti elektron hujjat tarzida taqdim etilganda – elektron hujjat davlat soliq xizmati organi tomonidan olingan sana.

Agar soliq hisobotida soliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilmagan yoki noto'g'ri ko'rsatilgan, soliq

davri va (yoki) soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi ko'rsatilmagan yoki soliq hisobotini tuzishga doir belgilangan talablar buzilgan bo'lsa, u holda soliq hisoboti davlat soliq xizmati organiga taqdim etilmagan deb hisoblanadi.

Belgilanmagan shakldagi soliq hisoboti taqdim etilganda davlat soliq xizmati organi hisobot olingan kundan e'tiboran uch kun ichida bu haqda soliq to'lovchiga yozma bildirish yuboradi va aniq fikr-mulohazalarni ko'rsatgan holda uni maromiga etkazish uchun qaytaradi. Kamchiliklari tuza-tilgan soliq hisoboti uni taqdim etishning belgilangan muddati tugaguniga qadar taqdim etilgan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan javobgarlik choralari qo'llanilmaydi.

Yuridik shaxs bo'lgan soliq to'lovchilar va yakka tartibdagi tadbirkorlar soliq hisobotini o'zi hisobga olingan joydagi soliq organiga belgilangan shakllar bo'yicha elektron hujjat tarzida taqdim etadi. Yirik soliq to'lovchilar, joylashgan eridan qat'i nazar, soliq hisobotini yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga topshiradi. Soliq hisoboti blankalari soliq organlari tomonidan bepul beriladi. Soliq hisoboti soliq qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda soliq to'lovchi tomonidan soliq organiga shaxsan yoki vakil orqali taqdim etilishi yoxud pochta jo'natmasi tarzida joylanmalar ro'yxati bilan yuborilishi mumkin. Soliq maslahatchilari tashkiloti soliq hisobotini soliq to'lovchi nomidan soliq to'lovchining shaxsiy kabineti orqali elektron hujjat tarzida taqdim etishga haqli bo'lsa, soliq organi soliq to'lovchi tomonidan belgilangan shaklda taqdim etilgan soliq hisobotini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Soliq hisoboti qog'ozda olingan taqdirda, soliq organi soliq to'lovchining iltimosiga ko'ra soliq hisobotining ko'chirma nusxasiga uning qabul qilib olingani to'g'risida

belgi qo'yishi va u olingan sanani ko'rsatishi shart. Soliq hisobotisoliq to'lovchining identifikatsiya raqami ko'rsatilgan holda taqdim etiladi. Soliq to'lovchi va uning vakolatli vakili soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini tasdiqlab, unga imzo qo'yadi.

Agar soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va to'liqligini soliq to'lovchining vakolatli vakili tasdiqlasa, soliq hisobotida bu haqda tegishli belgi qo'yiladi. Bunda soliq hisobotiga ushbu vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi ilova qilinadi. Soliq hisoboti elektron shaklda taqdim etilganda vakilning uni imzolashga bo'lgan vakolatini tasdiqlovchi hujjatning ko'chirma nusxasi telekommunikatsiya aloqa kanallari orqali elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Respublikamiz soliq tizimida soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarining shakllarini soddalashtirish, ularning sonini qisqartirish va ularni topshirish tartiblarini soddalashtirish maqsadida ko'plab Farmon va Qarorlar qabul qilinib, ular asosida amaliy tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Soliqlarni to'lash tartibi. Soliq to'lovchilar tomonidan hisoblangan soliqlarni to'lash soliqlarni undirish mexanizmining yakuniy bosqichlari va soliq elementlaridan biri sanaladi. Soliqlarni to'lash bu – soliq to'lovchining hisobvarag'idan pul mablag'larini soliq majburiyatlari doirasida, tegishli soliq yoki boshqa majburiy to'lovni to'lash uchun bankka to'lov topshiriqnomasi taqdim etish yoki to'lov naqd pul mablag'lari pul summasi bankka yoki vakolatli organ kassasiga topshirishi, shuningdek, soliq agentlari tomonidan ushlab qolingani soliq summalarini budjet hisobiga o'tkazishi, hamda soliq ob'ektlari yuzaga kelgan holatning o'zida bira yo'la undirish jarayoni tushuniladi.

Soliq yoki boshqa majburiy to'lov summasi soliq to'lovchi tomonidan qonunchilikda belgilangan muddatlarda to'lanadi. Ayrim hollarda soliq to'lovchiga soliq va (yoki) boshqa majburiy to'lovni, shuningdek, penyani to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, moliyaviy sanksiyalar budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagi tartibda o'tkaziladi:

- asosiy summa;
- hisoblangan penya;
- jarimalar.

Soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari doirasidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash hisobi soliq to'lovchilar tomonidan buxgalteriya hisobining qonun bilan o'rnatilgan tartiblari asosida olib boriladi.

Soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni to'lashda banklar soliq to'lovchining soliqni va (yoki) boshqa majburiy to'lovni o'tkazishga doir to'lov topshiriqnomalarini, shuningdek, tegishli vakolatli organning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida undirish to'g'risidagi inkasso topshiriqnomalarini belgilangan tartibda bajarishi shart. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini tegishli budjet yoki davlat maqsadli jamg'armasining hisobvarag'iga kiritish soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini o'tkazish deb e'tirof etiladi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini o'tkazishga doir to'lov topshiriqnomasi yoki ularni tegishli budjet yoxud davlat maqsadli jamg'armasiga undirish to'g'risidagi tegishli vakolatli organning inkasso topshiriqnomasi, to'lov topshiriqnomasi yoki inkasso topshiriqnomasi olinganidan keyingi operatsiya kunidan kechik-

tirmay bank tomonidan inobatga olingan holda bajariladi. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash bo'yicha bajarilmagan majburiyatlari bo'lgan soliq to'lovchi o'zining bank hisobvarag'ida pul mablag'lari mavjud bo'lishidan qat'i nazar, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni belgilangan to'lash muddatidan kechiktirmay ularni xizmat ko'rsatayotgan bankka to'lash uchun to'lov topshiriqnomasini taqdim etishi shart.

O'zbekiston soliq tizimida soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni to'lash quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi: *Soliq to'lovchilar soliqlarni asosan joriy to'lovlarni kiritish tartibida:* (masalan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, aksiz solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun solig'i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan solig'ini to'lashda);

tegishli soliq bo'yicha hisob-kitobini taqdim etish uchun belgilangan kundan kechikmagan tartibda: (qo'shilgan qiymat solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va sh.k.);

pul mablag'larini olish uchun xizmat ko'rsatuvchi bankka hujjatlarni taqdim etish bilan bir vaqtda: (jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini soliq agentlari tomonidan to'lashda);

soliq hisob-kitobi (deklaratsiya) topshirish muddatidan keyin ikki oy muddat ichida: (masalan, O'zbekiston Respublikasining rezidentlari daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyaning ma'lumotlari asosida hisoblab chiqarilgan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini to'lashda);

soliq to'lash haqidagi to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddat doirasida: (jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk va er solig'i);

teng ulushlar tartibida: (yuridik shaxslar tomonidan er

solig'ini to'lashda);

dekadalar tartibida: (aksiz solig'i);

har oyda: (ijtimoiy soliq);

soliq o'ekti yuzaga kelgan vaqtda bir yo'la tartibda: (avtotransport vositalarini olganlik va (yoki) O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig'im ular O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilayotganda, qayta ro'yxatdan o'tkazilayotganda) amalga oshiriladi.

Bundan ko'rinadiki, soliqlarni to'lash tartibi soliq turlari bo'yicha o'ziga xos turli xil tartiblarda amalga oshirilib, soliqlarni to'lash tartibining o'zi ham soliq to'lovchining o'zida hisoblangan soliqlarni buxgalteriya hisob registrlarida aks ettirish va ular haqidagi ma'lumotlarni soliq xizmati organlariga taqdim etib borish, soliq to'lovchiga joriy xizmatlarni ko'rsatadigan bank muassasi bilan soliqlarni budjet hisobiga o'tkazish borasidagi tegishli topshiriqlarni berish(to'lov topshiriqnomasini taqdim qilish), bank muassasalari orqali naqd pullar bilan to'lash, soliq agentlari tomonidan ushlab qolingan mablag'larni budjet hisobiga o'tkazish hamda soliq ob'ekti yuzaga kelgan vaqtlarda bir yo'la tartibda amalga oshirish kabi jarayonlarni qamrab oladi.

6.7-§. Soliq imtiyozlari va preferensiyalari

Yuqorida keltirib o'tilgan soliqqa tortish elementlari bevosita soliqqa tortish jarayoniga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda Soliq kodeksida soliq imtiyozlari soliq elementlari sifatida keltirilmagan bo'lsa-da, ammo soliq imtiyozlari asosiy soliq elementlaridan biri sanaladi. Chunki soliq imtiyozlari soliq ob'ekti va soliq bazasi o'rtasidagi chegarani aniqlashga yordam berishi bilan birgalikda ular

solliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolini to‘liq ifodalaydi. Soliq imtiyozlari solliqlarning paydo bo‘lishi bilan birga shakllanib kelgan tushunchalardan hisoblanadi. Agar uning etimologik kelib chiqishiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, qadimgi hind tilida aughu-engil, qadimgi irland tilida aigiukam, oz, nemis tilida leicht-engil, qadimgi slavyan tilida legkiy ma‘nosida ishlatilib kelingan.

Bu so‘zning iqtisodiyotga kirib kelishi esa uning iqtisodiy ma‘nodagi qo‘llanishi XVIII-asrda Fransiyada privus – alohida maxsus, legis – qonun, ya‘ni maxsus qonunlar sifatida e‘tirof etilishi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ingliz tilida privilege – imtiyoz, ozod qilish, afzallik, rus tilida esa privilegiya – imtiyoz, afzallik kabi ma‘nolarni beradi, keyinchalik esa soliqqa oid va boshqa iqtisodiy jarayonlardagi engilliklarni izohlashda jahon amaliyotida, ayniqsa, ingliz tilida turli xil iqtisodiy tushunchalardan, masalan, imtiyozli narxlar – reduced (special) price, imtiyozli to‘lovlar – preferential duty, imtiyozli ssudalar – concessional loan, imtiyozli kelishuvlar – franchise agreement, imtiyozli kreditlar – lax credit, imtiyozli muddat – grace period, imtiyozli rejimlar – favourable treatment kabi tushunchalardan foydalaniladi. Soliqlar bo‘yicha engilliklarni ham turlicha izohlash tajribalari mavjud. Ingliz tilida soliq imtiyozlarini izohlashda esa tax allowance va tax exemts tushunchalaridan foydalaniladi. Shuningdek, solliqlardan chegirmalar tarzidagi imtiyozlar tax relief deb yuritiladi.

Avvalgi boblarda ta‘kidlab o‘tganimizdek, iqtisodiyotdagi jarayon va hodisalarni izohlashda kategoriya – terminlardan foydalanish uning lug‘aviy ma‘nosi va etimologik kelib chiqishini bildiradi. Shu jihatdan olganda qayd qilib o‘tilgan terminologik izohlash va yondashuvlar o‘zlarida bitta narsani, ya‘ni u yoki bu jarayonlarda ma‘lum

bir yengilliklarni tavsiflaydi. Soliqlarni hisoblash va ularni to'lash jarayonidagi yengilliklar odatda soliq imtiyozlari tushunchasi orqali ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida(75-moddasida) soliq imtiyozlari tushunchasiga – «Soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda to'lash imkoniyati soliq imtiyozlari deb e'tirof etiladi» deb ta'rif berilgan. Soliq imtiyozlari davlat budjeti uchun ham soliq to'lovchilar uchun ham ham iqtisodiy jihatdan ham sotsial-ijtimoiy jihat muhim jarayon hisoblanadi. Ta'kidlash kerakki, soliq to'lovchiga soliqlarni to'lash bo'yicha muddatni kechiktirish (bo'lib-bo'lib to'lash) imkoniyati berilishi soliq imtiyozlari hisoblanmaydi.

Soliq imtiyozlari individual xususiyatga ega bo'lishi mumkin emas. Ayrim soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i solinadigan mahsulotlar ishlab chiqarilganda va (yoki) realizatsiya qilinganda aksiz solig'i va er qa'ridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan faqat belgilangan soliq stavkasini kamaytirish, lekin ko'pi bilan 50 foizga kamaytirish tarzida va ko'pi bilan uch yil muddatga berilishi mumkin.

Soliq imtiyozlariga ega bo'lish soliq to'lovchi uchun iqtisodiy ahamiyati shundaki, ma'lum bir mablag'lar ularning o'zlarida qoldirilishi moliyaviy imkoniyatlarni yaxshilashga imkon bersa, sotsial ahamiyati imtiyozga ega bo'lgan korxonalarda bozorda raqobat muhitiga moslashishi imkoniyati paydo bo'lib «yashab qolish» imkoniyati paydo bo'ladi va soliq imtiyozlari qo'llaniladigan soha va faoliyat turlariga qiziqish o'yg'onadi. O'zbekistonda o'z faoliyatini boshlaydigan soliq to'lovchilarga beriladigan faoliyatining

dastlabki yillari (asosan ikki yil)da soliq imtiyozlarining berilishida soliq imtiyozlarining iqtisodiy va sotsial jihatlarini ko'rinadi. Soliq imtiyozlari berilishi, qo'llanilishi, imtiyozlarning maqsadli va maqsadsiz berilishi, ma'lum bir shartlar va shartsiz berilishi, soliq bazalari va to'lash tartiblariga qo'llanilishi hamda davriyligi jihatdan farqlanadi yoki guruhlanadi.

Shunga ko'ra soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarga nisbatan joriy etish va qo'llash quyidagi tartiblarda amalga oshiriladi yoki soliq imtiyozlari guruhlanadi:

Soliq to'lovchilarni soliq jarayoniga tortmaslik, ya'ni to'laligicha soliqdan ozod etish. Buning o'zi ham uch xil asosda – faoliyatni soliqqa tortmaslik, mahsulot (xizmat, ish)ni soliqqa tortmaslik va soliq to'lovchining o'zini soliqqa tortmaslik shaklida amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchi, faoliyat va mahsulot (xizmat, ish)ni ma'lum bir muddatlarga soliqqa tortmaslik yoki qisman shaklidagi soliq imtiyozlari. Bunga ko'ra soliq to'lovchi, ma'lum bir faoliyat, mahsulot turi ma'lum bir muddat davomida soliqdan ozod etiladi. Bunda soliq imtiyozlarini qo'llash o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi. Soliq to'lovchining o'zi yoki faoliyati emas, balki uning ishlab chiqaradigan turli xil mahsulotlaridagi alohida olingan mahsulotga nisbatan soliq imtiyozlari qo'llanilishi mumkin. Shu boisdan soliq imtiyozining ob'ektini aniq farqlash talab etiladi.

Soliqlar bo'yicha imtiyozlar soliq solishdan bo'shagan mablag'larni aniq maqsadlarga yo'naltirishi sharti bilan berilishi mumkin. Bunday mablag'lar maqsadli ishlatilmagan taqdirda maqsadsiz ishlatilgan mablag'lar summasi belgilangan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirilishi lozim. Soliqlar bo'yicha imtiyozlar berilishi munosabati bilan bo'shagan va mazkur imtiyozlarning amal qilish davrida foydalanilmagan mablag'lar summasi

berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati tugaganidan soʻng bir yil davomida ularni taqdim etishda belgilangan maqsadlar uchun yoʻnaltirilishi mumkin. Bunda belgilangan muddatda foydalanilmagan mablagʻlar budjetga oʻtkazilishi lozim. Qoʻshilgan qiymat soligʻi boʻyicha imtiyozlar, shu jumladan, tovarlar Oʻzbekiston Respublikasining hududiga olib kirilishida (importida) soliq solishdan boʻshagan mablagʻlarni aniq maqsadlarga yoʻnaltirish sharti bilan, berilishi mumkin emas.

Soliq bazasini kamaytirish, undan chegirmalar qilish. Bunday holatda soliq toʻlovchining soliq bazasini shakllantirish jarayonida soliq bazasidan maʼlum bir chegirmalar(asosan xarajatlar) qilinadi. Masalan, foyda soligʻi bazasini shakllantirishda korxonadan yangi texnologik uskunalarni qiymatining, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va (yoki) texnologik jihatdan qayta jihozlash xarajatlarning va (yoki) axborot tizimlarini yaratishga doir investitsiya loyihalari doirasida mahalliy ishlab chiqarishning dasturiy taʼminotini sotib olishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summalarining 10 foizi miqdorida, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalaniladigan binolar va inshootlarni rekonstruksiya qilishga yoʻnaltiriladigan mablagʻlar summasining 5 foizi miqdorida soliq bazasini kamaytirishga asos boʻladi.

Soliq toʻlovchilarning ayrim faoliyat turlarini ragʻbatlantirish, alohida olingan shaxslarni ijtimoiy himoyalash va shu kabi maqsadlarda imtiyozli soliq stavkalarini qoʻllash.

Bunga misol tariqasida mahsulot (xizmat, ish)larni eksport qiluvchi korxonalar oʻzlari ishlab chiqargan mahsulotlarining eksport qilinishini ragʻbatlantirish hamda tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan elektron savdo qoʻllanilib koʻrsatilgan xizmatlar tushumining salmogʻini

oshirishni rag'batlantirish maqsadida imtiyozli soliq stavkalarining qo'llanilishi (ushbu bobning soliq stavkalari paragrafida bu haqda aniq misollar keltirilgan) hamda aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlarga nol darajali stavka bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinishini keltirish mumkin.

O'zbekiston soliq tizimida soliq imtiyozlarini taqdim qilinishi (belgilanishi) uch pog'onada amalga oshiriladi. Birinchisi bu – Oliy Majlis tomonidan qabul qilinadigan qonunlar asosida keyingi pog'anada esa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga muvofiq hamda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan belgilanishi mumkin. Keltirilgan vakolatli organlar va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan soliq imtiyozlari bo'shagan (soliq imtiyoziga teng summa) mablag'larni muayyan maqsadlarga yo'naltirish sharti bilan berilishi mumkin.

Bunday mablag'lardan belgilanmagan maqsadda foydalanilgan taqdirda, belgilanmagan maqsadda foydalanilgan summa o'rnatilgan tartibda penya hisoblangan holda budjetga undirib olinadi. Soliq to'lovchilar soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha imtiyozlardan tegishli huquqiy asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran ular amal qiladigan butun davr mobaynida foydalanishga haqli bo'lib, bunday huquqdan foydalanish ularga majburiyat va javobgarlikni yuklamaydi.

Dunyo amaliyotida iqtisodiy siyosatdagi u yoki bu darajadagi engilliklarni, odatda, preferensiyalar tushunchasi bilan ham izohlaydi. Preferensiya tushunchasi lotincha so'z bo'lib, «praeferentis – afzallik, yon bosish» kabi ma'nolarni anglatadi. Preferensiyalar dastlab davlatlar o'rtasida xalqaro tashqi savdo munosabatlarini, shuningdek, davlatning boj

siyosatida rag'batlantirish mexanizmlarini qo'llashning usullari sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyinchalik xalqaro va ichki soliqqa tortish jarayonida ham keng qo'llanila boshlandi.

Preferensiyalar imtiyozli ko'rsatkichga ega bo'lgan turli xil narsalarga, masalan, preferensialli aksiya, preferensialli narx, preferensialli ta'rif, preferensialli shartnoma kabilarda ham qo'llaniladi. Soliq tizimidagi preferensiyalar esa soliq imtiyozlaridan keng tushuncha va jarayon bo'lib, soliqqa tortish maqsadlaridagi preferensiyalar bu – davlat tomonidan soliq to'lovchilarga soliq imtiyozlarini berish, ularni ro'yxatga olish va ruxsat berish taomillarini engillashtirish, qulay soliq rejimlarini joriy qilish, xalqaro darajada soliqqa tortish munosabatlarini tartibga solish va muvofiqlashtirishda hamda bojxona tartiblarini rasmiylashtirishda ma'lum yon berish, soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni to'lash jarayonlarini engillashtirish (soliq qarzlarini kechiktirish, bo'lib-bo'lib to'lash, davlat zarariga kechish) kabi jarayonlardir. Shu jihatdan olganda preferensiyalar va soliq imtiyozlari mazmunan o'xshash bo'lsa-da, shu bilan birgalikda jarayonlarni qamrab olishi va qo'llanilishi jihatdan o'ziga xos farqli xususiyatlarga ham egadir.

Soliq imtiyozlari va preferensiyalarning umumiy jihatlari bu soliq to'lovchilarga qulay soliq to'lash tizimini yaratish va ular zimmasigadagi soliq og'irligini kamaytirishga qaratilgan bo'lib, ikkalasi ham soliq siyosatining ob'ekti hisoblanadi. Ularning o'zaro farqlari sifatida preferensiyalar majburiy xarakterga ega bo'lib, ularni amalga oshirilmaganlik va qo'llamaganlik uchun javobgarlik belgilangan bo'lsa, soliq imtiyozlari soliq to'lovchining hohishiga ko'ra uning tomonidan foydalanishi (qo'llanilishi) va buning uchun javobgarlikning yo'qligi

(ba'zi hollarda soliq imtiyozlarini bo'rttirib ko'rsatish va maqsadli berilgan imtiyozlar summasidan maqsadli sarflash holatlari bundan mustasno), soliq imtiyozlari soliq to'lovchi tomonidan alohida hisobi olib borilishi va uning hisobotlarda aks ettirilishi lozim bo'lsa, preferensiyalar maxsus hisobotlarda ko'rsatilmaydi va ularning alohida hisobi yuritilmaydi, soliq imtiyozlari muddatli bo'lishi mumkin bo'lsa, preferensiyalar esa muddatsiz xarakterda bo'ladi. Soliq imtiyozlari va preferensiyalarning umumiy xususiyatlari sifatida ular bitta soliq turidagi ham mavjudligi bo'lib, bu holatni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha belgilangan imtiyozlar va preferensiyalar misolida ko'ramiz:

Preferensiyaning mazmuni	Soliq imtiyozining mazmuni
<p><i>Quyidagilar jami daromad tarkibiga kiritilmaydi:</i> O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlariga va davlat pul mukofotlariga sazovor bo'lgan soliq to'lovchi olgan bir yo'la beriladigan davlat pul mukofoti yoki shunga teng bahodagi esdalik sovg'alarining qiymati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida bir yo'la beriladigan pul mukofoti va sovg'alar</p>	<p><i>Quyidagi soliq to'lovchilar qisman (daromadlar qaysi oyda olingan bo'lsa, o'sha oyda har bir oy uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdoridagi daromadlar bo'yicha) soliq solishdan ozod etiladi:</i> «O'zbekiston Qahramoni», Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan shaxslar</p>

Donorlik uchun pul mukofotlari, shuningdek tibbiyot muassasalarining xodimlari tomonidan qon olganlik uchun olinadigan summalar	Urush nogironlari va ishtirokchilari, shuningdek ularga tenglashtirilgan va doirasi qonun hujjatlarida belgilanadigan shaxslar
Olingan alimentlar, fuqarolar tomonidan olinadigan sug'urta to'voni summalari, qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlarda va tartibda to'lanadigan stipendiyalar, qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy-kommunal xizmatlar haqini to'lash bo'yicha har oylik kompensatsiya pul to'lovlari	Bolalikdan nogironligi bo'lgan shaxslar, shuningdek I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar
Davlat pensiyalari, qonun hujjatlarida belgilangan nafaqalar, bundan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi va shu kabilar	Ikki va undan ortiq o'n olti yoshga to'lmagan bolalari bor yolg'iz onalar va shu kabilar

Bundan ko'rinadiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq to'lovchilarning olgan daromadlarining ba'zilari, garchi ular mazmunan va iqtisodiy mohiyati jihatdan soliq to'lovchining daromadi hisoblansada, ammo ular soliqqa tortish maqsadida ularning daromadi sifatida qaralmay, bu erda preferensiyalar qo'llanilmoqda. Demak, soliq imtiyozlari va preferensiyalar soliq turi mexanizmida soliq to'lovchiga berilgan turli darajadagi engilliklar va yon bosishlarni ifodalaydi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi va O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksida preferensiya tushunchasiga izoh berilmagan bo'lsa-da, ammo ularning mazmunida preferensiya tartibidagi jarayonlar keltirib o'tilgan.

Tayanch soʻz va iboralar:

Soliq elementlari, soliq ob'ekti, soliq sub'ekti, soliq bazasi, soliq stavkalari, progressiv soliq stavkalari, regressiv soliq stavkalari, proporsional soliq stavkalari, soliq imtiyozlari, soliq preferensiyalari, soliq davri, soliq kanikuli, soliqlarni hisoblab chiqarish, soliq hisobotlari, soliqlarni to'lash muddatlari, soliq madaniyati, soliq krediti, soliq yuki.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq elementlari nima? Ularning soliqqa tortish jarayonidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Soliq sub'ektlari kimlar hisoblanadi?
3. Soliq ob'ekti nima? Soliq ob'ektlarining tarkibi nimalardan iborat?
4. Soliq bazasi va soliq ob'ektining qanaqa farqi mavjud?
5. Soliq bazasini aniqlashning qanaqa usullari bor?
6. Soliq stavkasi nima? Uning qanaqa turlari mavjud?
7. Soliqlarni hisoblab chiqarish deganda nima tushuniladi?
8. Soliq hisobotlari nima? Ularni tuzish va topshirish tartibi va muddatlarini aytib bering.
9. Soliqlarni to'lash tartibi qanaqa?
10. Soliq imtiyozlarining qanaqa turlari mavjud?
11. Soliq preferensiyalari deganda nima tushunasiz?
12. Soliq imtiyozlari va preferensiyalari o'rtasida qanaqa farqlar mavjud?

7-BOB. SOLIQ SIYOSATI

7.1-§. Soliq siyosati va uning mazmuni

Avvalgi (1-bob) boblarda ta'kidlanganidek, har qanday iqtisodiy tizim sharoitida ham davlatning muhim va bosh funksiyalaridan biri bu – jamiyatning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasidagi o'zaro tenglikni (proporsiyani) ta'minlash hisoblanadi. Bu orqali esa davlat iqtisodiyotning bir maromda borishini ta'minlashga, provardida esa sotsial-iqtisodiy rivojlanishning asosiy yo'nalishlarini belgilab olishga erishadi. Aslida moliyaviy va soliq munosabatlarining vujudga kelishi ham ushbu jarayonni tashkil etilishidan kelib chiqadi. Davlat markazlashtirilgan pul fondlarini tashkil etish orqali ishlab chiqarish sohasidagi yaratilgan milliy daromadni uning yaratuvchilari va davlat o'rtasida qayta taqsimlaydi. Bu qayta taqsimlashdan asosiy maqsad esa davlatning o'z funksiyalarini moliyalashtirishni ta'minlash, jamiyatga ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish va shu orqali sohalar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdan iborat bo'lib, bunda soliqlar asosiy vositachi bo'lib yuzaga chiqadi.

Bunday munosabatlarni ta'minlash iqtisodiy, sotsial, huquqiy, hatto siyosiy munosabatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Markazlashgan pul fondlarini tashkil etish va uning daromad manbaalarini shakllantirish soliqlarning vujudga kelishining zaruratini keltirib chiqaradi. Soliqlar esa bu erda milliy daromadni qayta taqsimlaydi. Markazlashgan pul fondlarini, ayniqsa, uning eng muhim ko'rinishlaridan biri sanalgan budjetni shakllantirish davlatning keng qamrovli chora-tadbirlarni belgilashi va uni amalga oshirish zarurligini keltirib chiqaradi. Markazlashgan pul fondi shaklidagi budjet va uning turli xil zvenolarini shakllantirish

va undagi mablag'larini davlatning funksiya va vazifalarini bajarish yo'lida sarflashni amalga oshirish murakkab jarayon hisoblanib, bu erda turli munosabatlarni shakllantirish, ularning bir-biriga bog'liq holda amal qilishini ta'minlash, muvofiqlashtirish va nazorat qilish kabi munosabatlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Ushbu jarayonlarni shakllantirish, ularni muvofiqlashtirish va ularning yo'nalishlarini to'g'ri belgilash ma'lum bir muddatlarga mo'ljallangan rejalarni ishlab chiqish borasidagi yangi vazifalarni keltirib chiqaradi. Davlat yuqorida ta'kidlab o'tilgan funksiyalarini to'g'ri bajarishligi va uning samaradorligini ta'minlash maqsadida sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirib boradi. Bu esa davlatning iqtisodiyotga «barometr» sifatidagi aralashuvining zarurligidan kelib chiqadi. Jamiyatda sotsial va ijtimoiy-iqtisodiy rejalashtirish jarayonlarini amalga oshirish, uni real voqeylik va holatlar bilan solishtirish orqali davlatning faoliyatining samaradorligi, uning funksiyalari va vazifalarining bajarilishining tendensiyalari aniqlanadi, provardida esa bosh maqsad nisbat munosabatlarining darajasiga baho beriladi. Davlat bu boradagi funksiyalari bajarilishini ta'minlashda o'zining faoliyatini ma'lum bir yo'nalishlar bo'yicha guruhlagan holda amalga oshiradi. Bu esa uning turli yo'nalishlardagi siyosatining o'zagini tashkil etadi. Davlatning ushbu siyosatlari asosan ikki: ichki va tashqi yo'nalishlarda kechadi.

Ta'kidlash lozimki, davlatning ichki siyosatining mazmunida markazlashgan pul fondlarini shakllantirish va ularni taqsimlash bilan munosabatlar asosiy rol o'ynaydi. Bu esa davlatning iqtisodiy siyosatining eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq siyosati bilan bog'liqdir. Davlatning har qanday sohadagi faoliyatining yo'nalishi maqsadga

qaratilgan bo'ladi. Shu jihatdan olganda maqsadga erishish esa ma'lum bir chora-tadbirlar va faoliyatning uyg'ulashuvini talab qiladi. Bunday chora-tadbirlar va faoliyatning uyg'un holda mavjud bo'lishligini esa davlat siyosati deb izohlanadi. Siyosat so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, «πολιτική – davlat faoliyati, ko'pchilikning manfaati, ko'p tomonlama hamkorlik»(πόλις (polis) – ko'p tomonlama hamkorlik, τική (tiki) – belgilanish, πολι (poli) – ko'pchilik, τόκος (tokos) – manfaat) kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, siyosat zamirida ko'pchilikning manfaatlariga asoslangan davlat faoliyati turadi. Davlatning bunday faoliyatining soliqlarga oid qismi esa, o'z navbatida, soliq siyosatining o'zagi tashkil etadi. Soliq siyosatining o'zagi esa ta'kdlanganidek, taqsimot munosabatlariga borib taqaladi. Milliy daromadni taqsimlash, uning uchun majburiy to'lovlar vositalarini (soliqlarni) joriy etish, uni undirish va bu jarayonning borishini tartibga solib turish hamda uni doim takomillashtirib borish kabi munosabatlarni taqozo qiladi. Bu munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni ta'minlash esa davlatning faoliyatida ma'lum bir yo'nalishdagi jarayonni-soliq siyosatini talab qiladi.


Har qanday siyosat ma'lum tarkibiy qismlarga ega bo'ladi. Soliq siyosati ham davlatning iqtisodiy (moliyaviy) siyosatining bo'g'ini sifatida uchta tarkibiy qismdan iborat bo'ladi. Ya'ni, soliqlarni joriy etish, uni undirish va uni takomillashtirishga qaratilgan faoliyatdan iborat bo'ladi. Soliq siyosatining mohiyatini anglashda uni tor va keng ma'noda tushunish mumkin. Tor ma'noda soliq siyosati deganda soliqlar joriy etish va uni undirishga qaratilgan davlatning faoliyati tushuniladi. Chunki siyosatning o'zi davlatning faoliyatini bildiradi. *Soliq siyosati keng ma'noda esa milliy daromadni daromadni qayta taqsimlash maqsadida soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexaniz-*

mlarini shakllantirish va amalga oshirish hamda joriy etilgan soliqlarni undirish jarayonlarini takomillashtirib borishga qaratilgan davlatning maqsadli o'zaro bog'liq chora tadbirlarini qamrab olgan faoliyati tushuniladi.

Har qanday siyosat o'z chegarasi bo'lganligi sababli soliq siyosati ham ma'lum bir chegaralariga ega bo'ladi. Ammo soliq siyosatida iqtisodiy munosabatlardan tashqari sotsial, psixologik, madaniy hatto tashqi munosabatlarni qamarab oladiki, bu soliq siyosatining boshqa ichki va tashqi siyosatlarining o'zaro chambarchas tarzda mavjud bo'lishini ko'rsatadi. Soliq siyosatining sotsial siyosat bilan bog'liqligi shundaki, aholining kam ta'minlangan va kam daromadga ega bo'lgan qatlamini ijtimoiy himoya qilish, ularga soliq imtiyozlarini qo'llash, aholiga ko'rsatiladigan xizmatlar narxiga soliq stavkalari orqali ta'sir qilish (qo'shilgan qiymat solig'ida nollik stavkaning qo'llanilishini eslang), nogironlar va yosh mutaxassislar (kolllej o'quvchilarini)ni ishga qabul qilishda imtiyozlarni qo'llash, ish o'rinlarni yaratish va shu kabi jarayonlar sotsial siyosatning mazmunini tashkil etib, bunda soliq tizimi bilan o'zaro bog'liqlikda bo'ladi.

Soliqlarni undirish jarayonida soliq to'lovchilarning soliqlarning ob'ektiv zarurligini to'liq anglab etishi, ularning soliqlardan qochishi yoki to'lashdan bo'yin tovlashining o'zining taqdiriga salbiy ta'sir qilishini, soliqlar davlat ravnaqining moliyaviy asoslaridan biri ekanligi, soliqlarga farz sifatida qarash kabi holatlarning o'rni katta bo'lib, bu bevosita soliq to'lovchilarning psixologiyasi bilan bog'liq bo'lib, u esa soliq madaniyatining darajasini bildiradi. Demak, soliq siyosati madaniy va psixologik munosabatlarni ham qamrab oladi. Aholi va korxonalarining iqtisodiy madaniyati bu ularning daromad topishi va ist'emolni tanlash hamda xarajatlarni sarflashi bilan birgalikda,

asosiysi davlat oldidagi ijtimoiy qarzlari bilan birga soliqlar borasidagi qarzlarning muhimligini anglab etishi ularning iqtisodiy madaniyatining darajasini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Soliqlarni to‘lamaslik, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash, soliq to‘lovchi sifatida ro‘yxatda turmaslik va boshqa shu kabi soliq huquqbuzarlik hamda soliqqa oid jinoyatlar esa soliqlarning huquqiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq holda bo‘lishini bildiradi.



4-rasm. Moliya va soliq siyosatining tarkibiy tuzilishi

Keltirilgan rasmdan ko‘rinadiki, moliya siyosati iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida o‘zida soliq, budjet, fiskal va budjet-soliq siyosatini mujassamlashtirib, ushbu siyosat shakllari ham o‘zaro bog‘liqlikda bo‘ladi. Jahon amaliyotida shunday holatlar ham uchraydiki, davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ikki tomonlama munosabatlarda soliqlar asosiy siyosiy instrument sifatida yuzaga chiqadi (masalan, AQSh va Eron, Venesuela davlatlari o‘rtasidagi, Hindiston va Pokiston davlatlari o‘rtasidagi munosabatlar). Soliq

siyosati davlatning boshqa sohadagi siyosatlari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lsa-da, iqtisodiy siyosatning tarkibi qismida sifatida unga mazmunan juda yaqin bo‘lgan iqtisodiy siyosat turlari bilan o‘zaro farqli jihatlarini va ulardagi o‘rni bilish aniqlash soliq siyosatining mazmunini yanada ochishga xizmat qiladi. Aslini olganda soliq siyosati moliya siyosatning tarkibiy qismi bo‘lib, moliya siyosati esa bu boradagi siyosatlarning asosini tashkil etadi.

Moliya siyosatining tarkibiga kiruvchi siyosat turlari o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular o‘ziga xos chegara va farqlarga ega/

4-jadval

Moliya siyosati va uning tarkibining mazmuniga konseptual yondashuv

1.	Moliya siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarini shakllantirish, ularni taqsimlash, ushbu fondlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartiblash, markazlashgan pul fondlari bilan bog‘liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni hamda markazlashmagan pul fondlarini muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
2.	Soliq siyosati bu:	Milliy daromadni daromadni qayta taqsimlash maqsadida soliqlarni joriy etish, ularni undirish mexanizmlarini shakllantirish va amalga oshirish hamda joriy etilgan soliqlarni undirish jarayonlarini takomillashtirib borishga qaratilgan davlatning maqsadli o‘zaro bog‘liq chora tadbirlarini qamrab olgan faoliyati
3.	Budjet siyosati bu:	Budjetni shakllantirish, uning mablag‘larini taqsimlash, taqsimlangan mablag‘larni maqsadli, samarali va manzilligini ta‘minlanganligini moliyaviy nazorat qilish, budjetlararo munosabatlarni hamda davlat budjeti bilan bog‘liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
4.	Fiskal siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarini shakllantirish, ularning manbaalarini aniqlash hamda ularni moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlash hamda ushbu jarayonlarni tartibga solish va muvofiqlashtirishga qaratilgan davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.

5.	Budget-soliq siyosati bu:	Markazlashgan pul fondlarining manbaalarini joriy etish, ularni undirish mexanizmini yaratish, amalga oshirish, daromadlarni taqsimlash, nazorat qilish, ushbu fondlar o'rtasidagi, ular bilan bog'liq boshqa iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish va muvofiqlashtirishga hamda ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirishga qaratilgan (ilmiy tadqiqot) jarayonlarni tashkil etishga oid davlatning vakolatli organlari tomonidan maqsadli amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidir.
----	---------------------------	--

Soliq siyosati moliya siyosatining boshqa tarkibiy qismlari bilan chambarchas bog'liq holda mavjud bo'ladi. Soliq siyosati budget siyosati bilan birgalikda ko'pincha budget-soliq siyosati ham deb yuritiladi. Shu bilan birgalikda soliq siyosati fiskal siyosat bilan o'zaro farqli xususiyatlarga ham ega bo'ladi. Soliq siyosati, bundan tashqari, monetar siyosat bilan ham o'zaro ta'sirda bo'ladi. Chunki soliq siyosati ishlab chiqilayotganda inflyasiya darajasi, pul agregatlarining hajmi va harakatiga soliqlarning ta'siri, korxonalarining investitsion siyosatini qo'llab-qo'vvatlashda kredit resurslaridan foydalanish kabi masalalar, albatta, soliq siyosati bilan ham bog'liq bo'ladi.


7.2-§. Soliq siyosatining shakllari

Davlatning soliq siyosati mazmunan keng va boshqa iqtisodiy-moliyaviy siyosat turlari bilan bog'langanligi uning murakkab jarayonlarni qamrab olishini ifodalaydi. Aslida soliq siyosatining yadrosini jamiyatda ishlab chiqilgan yalpi milliy (ichki) mahsulotning va yangidan yaratilgan qiymat-milliy daromadning qancha qismini davlat manfaatlari yo'lida markazlashtirilgan pul fondlari (asosan davlat budjeti)ga jalb qilish masalasini hal etish yotadi. Mana shu masalaning hal etilishiga qarab fiskal va budget siyosatining yo'nalishlari aniqlanadi. Agar

davlat milliy daromadni qayta taqsimlashda iqtisodiyotni qo'llab-quvvatlash maqsadida soliq yukini haddan tashqari kamaytirsa, u holda davlat budjet siyosatini ham shunga moslashtirish zarur bo'ladi. O'z navbatida, budjet daromad manbaalarini bilash shug'ullanuvchi fiskal siyosatning mazmuni ham shunga bog'liq bo'ladi. Agar davlat milliy daromadning budjetga jalb qilinadigan qismini oshiradigan bo'lsa, u ishlab chiqarish sohasidagi takror ishlab chiqarish jarayonining holatiga, u erdagi investitsion jarayonga ta'siri qilishi bilan birgalikda monetar, fiskal va budjet siyosatiga ham ta'sir qiladi.

Real sektorga soliq yukining oshirilishi ularda kredit resurslariga bo'lgan talabni ko'paytirish inflyasiyaning oshishiga ta'sir qilsa, bunday sharoitda davlat hisobidan investitsion xarajatlarni ham oshirishga imkoniyat tug'iladi. Soliq siyosatining turli xil xarakterli jihatlari uning shakllari va turlarining rivojlanishiga olib keladi. Davlatning soliq siyosati uning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, o'sha vaqtdan buyon uning turli xil ko'rinishlari paydo bo'ldi. Davlatning soliqlar borasidagi soliq siyosati ma'lum bir tizginga solingan tartibda o'tkazilgan holatlar (Qadimgi Rim, Qadimgi Gretsiya, Qadimgi Xitoy, Hindiston, Rossiyada Petr I, Ekaterina II hukmronlik qilgan davrlardagi) bo'yicha avvalgi boblarda keltirib o'tilgan. Hozirgi kunda soliq siyosatining quyidagi shakllari ko'proq e'tirof etiladi:

- ✓ maksimal darajada soliqqa tortishga asoslangan soliq siyosati;
- ✓ iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan soliq siyosati;
- ✓ oqilona soliq siyosati.



5-rasm. Soliq siyosatining shakllari

Bundan tashqari, davlat tomonidan soliq siyosatining amalga oshirilishi jihatidan ular ikki turga: diskritsiyali (lotincha *discretio*, inglizcha. *Discretion* – davlat organlarining o‘z vakolatlari doirasida qaror qabul qilishi degan ma‘noni anglatadi) va nodiskretsiyali (o‘z-o‘zidan barqarorlashuvchi) soliq siyosatlariga bo‘linadi. Diskritsiyali (diskritsiyon) soliq siyosatida davlatning iqtisodiyotga soliqlar vositasida ta‘sir qilishi jarayoni oshadi va bunday turdagi soliq siyosatida iqtisodiyotdagi ishsizlik va inflyasiyaga ta‘sir etish (kamaytirish) maqsadida davlat o‘zining xarajatlarining o‘zgarishidan kelib chiqqan holda yondashadi. Bunday soliq siyosati deyarli har bir davlatning soliq siyosatida uchraydi. O‘z navbatida, diskritsiyali soliq siyosati ham ikki xil shaklda amalga oshiriladi.

Birinchi, bu fiskal ekspansiyaga («*expansio*» –

lotincha soʻz boʻlib, kengayish, tarqalish degan maʼnoni beradi) asoslanadigan soliq siyosati shaklida boʻlib, bunda yalpi talab va davlat xarajatlarini oshirish va soliqlarni kamaytirishga urgʻu berilib, unda soliqlarning ragʻbatlantiruvchilik roli kuchaytirilib, iqtisodiy oʻsish shakllarida yuqori tebranishlarning oldi olinadi. Ammo bunday soliq siyosatini amalga oshirish oqibatida davlat budjeti taqchilligi va inflyasiya darajasi oshadi. Ikkinchisi esa fiskal restriksiyali («restnctio» lotincha soʻz boʻlib – «cheklash» degan maʼnoni beradi) soliq siyosati boʻlib, bunda davlat xarajatlarini qisqartirish va soliqlarni oshirish orqali ishlab chiqarish surʼatini pasaytirish bilan inflyasiyani kamaytirishga qaratilgan boʻladi. Biroq bunday soliq siyosati ishsizlikni keltirib chiqaradi va uning oshishiga olib keladi.

Shu bilan birgalikda soliq siyosati koʻlamiga koʻra xalqaro darajadagi, milliy iqtisodiyot darajasidagi va alohida olingan hududlarga oid soliq siyosatlariga boʻlinadi. Davlat xalqaro darajada soliq siyosatida milliy iqtisodiyotga tovar(xizmat)larning oqimini oshirish yoki uni cheklash (protetsion soliq siyosati) siyosatiga asoslanishi mumkin, shuningdek, xalqaro soliq siyosatida preferensiyalarni qoʻllash asosida tashqi kapital, tovarlarning kirib kelishini ragʻbatlantirishni amalga oshiradi. Bunda koʻpincha proteksion-preferensiyali soliq siyosati shaklida yuzaga chiqadi. Bunday soliq siyosatining mazmuni shundan iboratki, davlat baʼzi sohalarda ichki bozorni himoyalash siyosatini olib borsa, boshqa sohalarda esa preferensiyalarga asoslangan (yaʼni yon bosish, imtiyozlar berish, kvotalarni cheklashni kamaytirish yoki bekor qilish, boj toʻlovlarini bekor qilish (kamaytirish), soliqqa tortishning imtiyozli alohida normalarini qoʻllash va sh.k.) soliq siyosatini yuritadi.

Bunday soliq siyosati O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatida ham ko'rinadi. Milliy iqtisodiyot doirasidagi soliq siyosati mamlakatning barcha hududlari uchun bir xil tartib va qoidalarga asoslangan tartibda qo'llaniladi. Hududiy soliq siyosatida esa davlat o'zining iqtisodiy siyosatining strategiyasidan kelib chiqib, alohida olingan hududni maqsadli dasturlarni amalga oshirish jarayonida maxsus soliq siyosatini yuritishi mumkin. Hududni erkin iqtisodiy zona deb e'lon qilishi va u erga alohida soliq rejimlarini joriy qilishi mumkin. Buni O'zbekiston soliq siyosatida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi, «Angren» va «Jizzax» maxsus industrial zonalarini tashkil etilishi va ularga alohida soliq rejimlarining qo'llanilishida ko'rish mumkin.

Soliq siyosati davriylik amal qilishi jihatidan joriy (asosan bir yillik) o'rta muddatli (1 yildan uch yilgacha) va strategik (5-10 yillik) soliq siyosatlariga ham bo'linadi. Soliq siyosatining bunday turlari davlatning budjet tuzilishi va uni rejalashtirish shakllariga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, Rossiyada o'rta muddatli (asosan uch yillik) budjetni rejalashtirish amal qilib, soliq siyosati ham asosan o'rta muddatli xarakterda bo'ladi. Shu bilan birgalikda har yilgi davlatning budjet-soliq siyosati ham ishlab chiqilib, mavjud holatdan kelib chiqib, o'rta muddatli budjet va soliq siyosatiga o'zgartirishlar kiritib boriladi.

Soliq siyosati yo'nalishi va boshqaruv tizimidagi roliga ko'ra fiskallashtirish, tartiblovchi, rag'batlantiruvchi va kombinalashgan (muvozanatlashgan) soliq siyosati turlariga bo'linadi. Fiskallashtirish soliq siyosati aslida soliqlarning mohiyati va uning asosiy funksiyasi bo'lgan fiskal funksiyasiga asoslansa-da, ammo bu soliq siyosati soliqlarni ko'proq undirishga qaratilgan bo'ladi. Davlat bunday soliq siyosatini o'rinli qo'llash samara berishi

mumkin. Bunday soliq siyosati agar iqtisodiyotda qayta takror ishlab chiqarish jarayoni davom etib, unda o'sish darajalari saqlanib turgan sharoitda ichki investitsiya (korxonalarining reinvestitsiyalashuvi) darajasi pasayib, ist'emol qilish darajasi oshgan bir sharoitda qo'llanilishi, davlat real sektordan mablag'larni markazlashtirgan pul fondlariga ko'proq jalb qilgan holda iqtisodiyotga investitsiya kiritishda davlatning ulushini oshirish orqali iqtisodiyotda asosiy kapitalning sifat va miqdor jihatdan o'sishini ta'minlashga erishadi. Tartiblovchi soliq siyosati mazmunan soliqlarning iqtisodiyotni tartiblashdagi rolini oshirishga qaratilgan siyosatni tashkil etib, bunda egri soliqlar bo'yicha soliqlarning ist'emol, narx, ishlab chiqarish jarayoniga tez ta'sir etuvchi soliq instrumentlarni kuchaytirishga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, soliq siyosatining bu shaklida soliq imtiyozlarini kamaytirish, ba'zilarini bekor qilish, import va eksportga soliqlar va boj to'lovlari stavkalarini oshirish kabilar ham ustunlik kasb etadi. Bunday soliq siyosati uzoq vaqt davomida qo'llanilishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir qiladi. Davlat bunday soliq siyosatidan doim foydalanishi uning darajalarini iqtisodiyotning boshqa siyosati bilan birga qo'llashi va ularga yordam berishi nuqtai nazardan yondashishi yaxshi samara berishi isbotlangan.

Rag'batlantiruvchi soliq siyosatida soliqlarning rag'batlantirish funksiyasining realizatsiyasi ta'minlanadi. Bunda soliqlar bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalarning qo'llanishiga ustuvorlik kasb etadi. Asosan bunda to'g'ri soliqlar orqali ishlab chiqarishga maqsadli soliq imtiyozlarini berish orqali ishlab chiqarish va mahsulot(xizmat)larning diversifikatsiyasini oshirish, investitsiya jarayonini kengaytirish, soliq to'lovchilarning daromadlarini kamroq soliqqa tortish, alohida soliq rejimlari (soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi), soliq ma'murchiligini soddalashtirish

jarayonlariga asoslanadi. Bunday soliq siyosati uzoq vaqt va zluksiz qo'llanilishi salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Ya'ni, soliq to'lovchilarda boqimandalik ruhiyati shakllanib qolishi, ishlab chiqarishni ko'paytirishga harakatlanish jarayoni susayishi, davlat budjetidan soliq imtiyozlari hisobiga yo'qotilgan mablag'larning o'zni qoplanmay qolishi kabilar yuzaga kelishi mumkin. Shu boisdan ham ushbu soliq siyosatining turi tartiblovchilik soliq siyosatining samarali instrumentlari bilan birgalikda qo'llash samara berishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining keyingi yillardagi soliq siyosatida rag'batlantiruvchi soliq siyosatining ustuvorligiga va tartiblovchilik soliq siyosatining instrumentlaridan foydalangan holda qo'llanishi yaxshi samara berayotganligini ko'rish mumkin. Jahon amaliyotida soliq siyosatining eng samarali turlaridan biri sifatida kombinalashgan (muvozanatlashgan) soliq siyosati ancha keng qo'llanilib borilmoqda. Milliy iqtisodiyotda raqobat muhitining chuqurlashuvi, davlatning tadbirkorlik sifatda namoyon bo'lishining ortishi, milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimotidagi o'zni oshib, xalqaro integratsiyalashuv darajasining kengayib borishi davlatlarning soliq siyosatida kombinalashgan soliq siyosatidan ham keng foydalanishni taqozo etadi. Bunday soliq siyosatining o'ziga xosligi shundaki, unda soliq siyosatining boshqa turlarining asosiy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu soliq siyosatini ishlab chiqishning qulayligi shundaki, mavjud soliq siyosatlarining u yoki bu jihatlariga qurilsada, ammo murakkabligi shundaki, fiskal, tartiblovchi, rag'batlantiruvchi soliq siyosatlarining qaysi biriga ustuvorlik berishini tanlash masalasidir. Shu jihatdan olganda kombinalashgan soliq siyosati moslashuvchan xarakterda bo'lishi taqozo etiladi. Soliq siyosatining fiskallik turiga


ko'proq e'tibor berilishidagi yuzaga kelib qolgan salbiy oqibatlarni boshqa qaysi soliq siyosatidan foydalanish orqali bartaraf etishni hal etish bu soliq turining moslashuvchan tarzda mavjud bo'lishligini talab etadi. Demak, kombinalashgan soliq siyosati doim o'zgaruvchan, vaziyatga moslashuvchan xarakterdagi barcha soliq siyosatlarining mazmunini o'zida aks ettiruvchi soliq siyosati bo'lib, uning ishlab chiqilishi va amalga oshirilish jarayoni ham davlatning boshqa iqtisodiy sohadagi siyosatlariga moslashgan bo'ladi.

Bulardan tashqari, soliq tizimida shunday holatlar ham uchraydiki, ba'zi davrlarda soliqlar bo'yicha qarz summalarining ortib borishi, faoliyat ko'rsatayotgan iqtisodiyot sub'ektlarining soliq to'lovchi sifatida ro'yxatdan turishi va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlashi, soliqqa oid ma'lumotlarni soxtalashtirishi, majburiy tartibdagi buxgalteriya hisobini yuritmasligi holatlari ham uchraydiki, agar bunday holatlar doimiy tus olib va ortib borish xarakteriga ega bo'lsa, bunday holat (jarayon)ni muvofiqlashtirishga qaratilgan nazorat-muvofiqlashtiruvchi soliq siyosati ham mavjud bo'ladi.

7.3-§. Soliq siyosatining ishlab chiqilishi va unda Hokimiyat organlarining ishtiroki

Har qaysi faoliyat, jarayon va siyosatning amal qilishining dastlabki shartlaridan biri uning tamoyillarining aniqlanishidir. Yuqoridagi paragarflarda soliq tamoyillarining mohiyati, jarayonlarining rivojlanishi va kechishidagi roli va ahamiyatini yoritgan edik. Soliq siyosati ham boshqa siyosat singari o'ziga xos tamoyillarga ega bo'lishi talab etiladi. Har qanday siyosat maqsaddan kelib chiqsa-da, uning boshlanishi siyosatni ishlab chiqishdan iborat bo'ladi.

Shunga ko'ra har qaysi siyosat, jumladan, soliq siyosati ham ma'lum bir tizimga asoslanadi.



6-rasm. Soliq siyosatining ishlab chiqilish jarayonlari.

Keltirilgan rasmdan shuni anglash mumkinki, har qaysi siyosat, avvalo, davlat faoliyatida aniqlangan maqsaddan kelib chiqadi, maqsadga erishishning vositalari, usul va tamoyillarini birlashtirgan faoliyat-siyosatni amalga oshiradi. Davlatning soliq siyosati esa qayd etilganidek, sohalar o'rtasida taqsimot munosabatlarini muvozanatlashtirishni ta'minlash maqsadida markazlashtirilgan pul fondlarini shakllantirish va ularni daromad manbaalari bilan ta'minlash hamda jamiyat hayotini tartiblash va muvofiqlashtirishda soliqlardan samarali foydalanishdan iboratdir. Davlatning bunday maqsadiga erishish esa soliq siyosatini amalga oshirishni taqozo etadi. Soliq siyosati, avvalo, ishlab chiqilishi lozim. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda esa ma'lum bir tamoyillarga asoslanish zarur bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va boshqa qonunchiliklarda soliq siyosatining tamoyillari belgilab berilmagan (Soliq kodeksidagi soliqqa tortish tamoyillari bilan soliq siyosati tamoyillari o'rtasida farq mavjud). O'zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 7-moddasida budjet tizimi prinsiplari va Soliq kodeksidagi soliqqa tortish prinsiplari soliq siyosatining ishlab chiqilishidan keyingi

jarayonlar bo'lib, ular o'zlarida budget-soliq siyosatining tamoyillarini qisman aks ettiradi. Demak, soliq siyosatining ishlab chiqilish va amalga oshirilish tamoyillarini ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda izohlaymiz.

5-jadval.

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari¹

№	Soliq siyosati tamoyillari	Xususiyatlari
1.	Iqtisodiy siyosatning ustuvorligi	Iqtisodiy siyosatda ustuvorlik kasb etayotgan- soliq yukini kamaytirish, soliqlarni unifikatsiyalash, soliq stavkalarini bosqichma- bosqich kamaytirib borish, eksportni rag'batlantirish, importni tartiblash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznesni rivojlantirish, milliy boylikni tejash, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va soliq preferensiyalarini oshirish va shu kabilar. Ya'ni soliq siyosati iqtisodiy siyosatdagi ustuvor yo'nalishlarga mos bo'lishi lozim.
2.	Iqtisodiyotning holati darajasiga asoslanishi	Soliq siyosati iqtisodiyotning holati(siklligi) dan kelib chiqishi lozim, iqtisodiyotning rivojlanganlik darajasi soliqlarning rag'batlantiruvchilik yoki tartiblovchilikni qo'llashning yo'nalishlarini ko'rsatib beradi.
3.	Milliy xususiyatning e'tiborga olishi	Har qanday siyosat, albatta, mamlakatning etnik o'zagini tashkil etadigan xalqning milliy xususiyatlarini e'tiborga olishi talab etiladi, soliq siyosati milliy mentalitetga zid kelmasligini bildiradi.
4.	Xalqaro kelishuvlarga asoslanishi	Soliq siyosati umume'tirof etilgan qadriyatlar va xalqaro normalarga moslangan va ularni e'tiborga olingan holda bo'lishi zarur.

¹ Mualliflar yondashuvi.

5.	Ilmiy takliflar va soliq to'lovchilar ruhiyatiga asoslanishi	Soliq siyosati ishlab chiqilayotganda jamiyat a'zolari tomonidan turli darajadagi ilmiy asosga ega bo'lgan ilmiy-nazariy qarashlarga asoslanishi va soliq to'lovchilarning ruhiyatini singdirishi lozim.
6.	Davlatning moliyaviy resurslarga ehtiyojini ta'minlashi	Soliq siyosatining asosiy o'zagi sifatida davlatlarning moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash bosh masala sifatida qaralib, ammo bunday ehtiyojlar cheksizligini e'tiborga olgan holda minimal ta'minlash va uni iqtisodiyot darajasidan kelib chiqib oshirib borishga asoslanish lozim.
7.	Milliy dasturlarni amalga oshirishni e'tiborga olishi	Davlat faoliyatida jamiyatning turli sohalarini rivojlantirish maqsadida amalga oshiriladigan maxsus Dasturlarni amalga oshirishni ustuvor sifatida qaralib, ularni moliyaviy ta'minlash va soliq imtiyozlari hamda preferensiyalarni kuchaytirishni taqozo etadi.
8.	Hududlar rivojlanishida o'zaro muvofiqlikni ta'minlashi	Soliq siyosati o'zida hududlarning rivojlanishida o'zaro tenglik va muvofiqlikni ta'minlanish lozimligi e'tiborga olishi zarur.
9.	Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga asoslanishi	Soliq siyosati mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlarini izchil amalga oshirilishiga ko'maklashishi va uning lokomotivi sifatida bo'lishi lozim.
10.	Soliq to'lovchilarning soliq potentsiali va budjetni rejalashtirishning o'zaro bog'liqligi	Soliq siyosatining budjetni rejalashtirishga ta'sirini baholashda va budjetni rejalashtirish jarayonida soliq to'lovchilarning soliq potentsialiga asoslanishi zarur.

Keltirilgan ushbu soliq siyosati tamoyillari O'zbekistonda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining mazmu-

nidan kelib chiqqan bo'lib, shu bilan birgalikda soliq to'lovchilarning soliq potentsiali va budjetni rejalashtirishning o'zaro bog'liqligi tamoyilini ham e'tiborga olish talab etiladi. Mazkur keltirilgan soliq siyosati tamoyillari, albatta, o'zgaruvchan xususiyatga ham ega bo'lib, ularning har birini vaziyatdan kelib chiqib qo'llash soliq siyosatining puxtaligi va uni amalga oshirish yaxshi samara berishi hamda davlatning oldiga qo'yilgan maqsadga erishishda muhim qadam bo'ladi. Har bir davlatning soliq siyosati davlatning umumiy rivojlanish yo'nalishlariga bog'liq holda kechadi. Ba'zi davlatlarda esa davlat boshqaruvini vaqtinchalik qo'lga kiritgan siyosiy partiyalarning o'z dasturlaridan kelib chiqib davlatning soliq siyosatini shakllantirishi va uning mamlakat parlamenti tomonidan rad etilishi oqibatida qayta-qayta o'zgartirishlar kiritish asosida amalga oshirilishi mamlakatlarning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir etish holatlari ham mavjud. Bu boradagi O'zbekiston tajribasi esa aksariyat davlatlar tomonidan eng barqaror budjet-soliq siyosati deb tan olinmoqda.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirish jarayonida unda mamlakatda joriy qilingan hokimiyat shakllari va uning bo'g'inlarining ishtirokini aniqlash ham katta ahamiyatga ega. Chunki soliq siyosati bu faqatgina tegishli qonun va me'yoriy hujjatlar (dasturlar) ni ishlab chiqishgina emas, balki aniq maqsadga qaratilgan faoliyatdir. Bunday faoliyat esa hokimiyat shakllari va boshqa zvenolarning vakolatlari va majburiyatlari doirasida yuzaga chiqadi. O'zbekistonda soliq siyosatini ishlab chiqishda Davlat hokimiyati va jamoatchilikning roli quyidagichadir:

O'zbekiston soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining vakolatlari (ishtiroki). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

davlat boshlig'i sifatidagi Konstitutsiyaning 93-moddasida belgilangan vakolatlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga mamlakat ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishning eng muhim masalalari yuzasidan murojaat qilish huquqiga ega bo'lib, bunda davlat soliq siyosatining strategiyasi va taktik yo'nalishlari ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan takliflarini kiritishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qonun tashabbuskorligi huquqidan foydalangan holda soliqqa oid qonunlar yuzasidan yangi qonun loyihalarini ishlab chiqish va mavjudlarini takomillashtirish yuzasidan Qonunchilik palatasiga takliflar kiritish huquqiga ega. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari singari soliqqa oid qonunlarini imzolaydi va e'lon qiladi, agar ushbu qonunlarga nisbatan e'tirozlari mavjud bo'lsa, qonunga o'z e'tirozlarini ilova etib, uni takroran muhokama qilish va ovozga qo'yish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qaytarishga haqlidir. Bulardan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti soliq siyosatining konsepsiyalarini taqdim etishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi ishtiroki. Oliy hokimiyat organi hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi o'z vakolati bo'yicha respublikada soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasida belgilangan fuqarolar qonun bilan belgilangan soliq va mahalliy yig'implarni to'lashga majburiyligi normalaridan kelib chiqib, soliqlar majburiy tartibda joriy etiladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq (78-modda) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining birgalikdagi vakolatlari sifatida O'zbekiston Respublikasi ichki va tashqi siyosatining

asosiy yoʻnalishlarini belgilash hamda davlat strategik dasturlarini qabul qilish, boj, valyuta va kredit ishlarini qonun yoʻli bilan tartibga solish, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan Oʻzbekiston Respublikasining Davlat budjetini qabul qilish va uning ijrosini nazorat etish, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni joriy qilish kabi vakolatlari belgilab qoʻyilgan boʻlsa, «Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining reglamenti toʻgʻrisida»gi qonunda esa uning soliq va budjet siyosatiga oid vakolatlari va ularni amalga oshirish tartiblari koʻrsatib oʻtilgan. Bunga koʻra soliq siyosatining boshlanishi Oliy Majlisning faoliyatidan boshlanib, shu bilan birgalikda ular joriy qilingan soliqlarning undirilish jarayonlarini ham oʻzlarining vakolatlari doirasida nazorat qiladi.

Oliy Majlis tarafidan soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishdagi roli bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari bilan birgalikda har yilgi budjet-soliq siyosatining asosiy yoʻnalishlarini ishlab chiqish va Davlat budjeti loyihasini, unda soliq turlari va yigʻimlari boʻyicha soliq tushumlarining prognoz koʻrsatkichlari koʻrib chiqilib, tasdiqlash tartibida ham amalga oshiriladi. Bu Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 15 oktyabridan kechiktirmay Qonunchilik palatasiga kiritiladigan navbatdagi moliya yili uchun Davlat budjeti loyihasining Parlament reglamentiga asoslangan holda muhokamalaridan oʻtkazilib tasdiqlanadi. Agar soliq siyosati (jumladan, budjet siyosati)ga oid boshqa qonunchilik loyihalarida davlat daromadlarini kamaytirish yoki davlat xarajatlarini koʻpaytirish, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Davlat budjeti (bundan buyon matnda Davlat budjeti deb yuritiladi) moddalari boʻyicha oʻzgartirishlarni nazarda tutuvchi qonunlarning loyihalari boʻlsa, u holda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xulosasi taqdim qilinishi lozim bo'ladi. Davlat budjetining loyihasi Qonunchilik palatasi tomonidan joriy yilning 15 noyabridan kechiktirmay ko'rib chiqiladi. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan Davlat budjeti esa mazkur budjet qabul qilingan kundan e'tiboran besh kun ichida ko'rib chiqish uchun Senatga yuboriladi.

Agar davlat budjetiga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining taqdimiga binoan belgilangan tartibda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilishi lozim bo'lsa va bu masala budjetni tartibga solishda qiyinchiliklar keltirib chiqarishi mumkin bo'lsa, birinchi navbatda Qonunchilik palatasining majlisida ko'rib chiqiladi. Oliy Majlisning soliq siyosatini amalga oshirishdagi ishtiroki uning parlament eshituvi va nazorati tartibidagi vakolatlari doirasidagi faoliyatida ko'rish mumkin. Bunday vakolatlari doirasida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va har yiligi belgilab beriladigan budjet-soliq siyosatining ustuvor vazifalarining qanday bajarilayotganligi, davlat budjeti ijrosining qanday amalga oshirilayotganligi va shu kabi masalalar tegishli (Davlat soliq qo'mitasi, Moliya vazirligi, Bojxona qo'mitasi va shu kabi) davlat organlarining hisobotlarini eshitish, parlament ishchi guruhlar va tegishli qo'mita va fraksiyalari tomonidan bu masalalarni joylarda o'rganish, vakolatlari doirasida asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtai nazarini bayon qilish talabi bilan parlament so'rovi yuborish tartibida ham amalga oshiriladi. Shu maqsadda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatida soliq, budjet, bojxona, bank hamda moliya masalalari bilan alohida shug'ullanuvchi qo'mita faoliyat ko'rsatadi. Bu qo'mitalar esa Oliy Majlisning moliya-soliq sohasiga doir siyosatini muvofiqlashtirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

soliq siyosatidagi roli.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyatning eng yuqori zvenosi sifatida Respublikaning boshqa sohalari kabi soliq sohasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish, amalga oshirish va nazorat qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida qonun tashabbuskori sifatida soliq siyosatining mazmuniga daxldor qonunlarni Oliy Majlisga taqdim etish doirasida soliq siyosatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Vazirlar Mahkamasining bu boradagi faoliyatining keyingi bosqichi reglamentga ko'ra soliqqa oid qonunlarga asoslangan holda boshqa qonunosti hujjatlari (Yo'riqnoma, Nizom, Tartiblar, Qoidalar)ni ishlab chiqishni tashkil qiladi va ularni joriy qiladi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (98-moddasiga) ko'ra samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy, pul-kredit siyosati yuritilishi, fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlashni hamda iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uchun javobgar bo'ladi hamda O'zbekiston Respublikasida pul va kredit tizimini mustahkamlash chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashadi, yagona narx siyosatini o'tkazish, mehnatga haq to'lash miqdorining belgilangan kafolatlarini hamda ijtimoiy ta'minot darajasini ta'minlash chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

Shuningdek, davlat byudjetini, O'zbekistonni iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish istiqbol ko'rsatkichlarini va eng muhim dasturlarini ishlab chiqishni hamda ularning ijrosini tashkil etadi. «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida»gi qonuniga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini, O'zbekiston Respublikasi byudjetining asosiy ko'rsatkichlarini va unga

kiritiladigan o'zgarishlarni ishlab chiqadi hamda Oliy Majlisning tasdig'iga taqdim etadi. Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qo'mitalarining O'zbekiston Respublikasi Hukumati faoliyati masalalariga doir tavsiyalari va takliflarini ko'rib chiqadi hamda ular yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi. Tavsiyalar va takliflarni ko'rib chiqish natijalari haqida hamda ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida Vazirlar Mahkamasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining tegishli qo'mitalariga kelishilgan muddatda ma'lum qiladi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Reglamentiga ko'ra Vazirlar Mahkamasi soliq siyosatiga doir o'z vakolati doirasidagi muhim bo'lgan O'zbekiston Respublikasining butun hududida barcha organlar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar va farmoyishlar chiqaradi.

Soliq siyosatiga daxldor Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlari loyihalari soliq siyosatini amalga oshirishga mas'ul vazirliklar, davlat qo'mitalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosarlari topshiriqlariga muvofiq yoxud tashabbus ko'rsatish tartibida ishlab chiqiladi. Hujjatlar loyihalarini tayyorlash manfaatdor idoralar va tuzilmalar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Ishlab chiqilgan loyihalar belgilangan tartibda manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan hamda majburiy tartibda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan kelishiladi. Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, agar ushbu hujjatlarda boshqa muddatlar belgilanmagan bo'lsa, imzolangan vaqtidan boshlab kuchga kiradi. Vazirlar Mahkamasining soliq siyosatiga tegishli normativ xususiyatga ega bo'lgan qarorlari, agar ushbu

hujjatlarda boshqa muddat belgilanmagan bo'lsa, ular rasmiy e'lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining soliq siyosatidagi roli.

Davlat soliq qo'mitasi soliq qonunchiligiga rioya etilishini, davlatning iqtisodiy manfaatlari va mulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash sohasidagi nazorat bo'yicha respublika davlat boshqaruvi organi sifatida davlat soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish sohasidagi roli quyidagilarda ko'rinadi:

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga, davlat maqsadli jamg'armalariga va budjetdan tashqari jamg'armalarga tushishi prognozini ishlab chiqishda qatnashadi, soliqqa oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, soliqlarni va boshqa majburiy to'lovlarni unifikatsiya qilish, soliq yukini qisqartirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va erkinlashtirish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rag'batlantirish, ularga zarur imtiyozlar va preferensiyalar berish bo'yicha takliflar tayyorlashda qatnashadi;

belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklari va idoralari bilan birgalikda soliq qonunchiligiga muvofiq soliq solish masalalari bo'yicha idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

soliq hisobotlari hamda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqish, to'lash bilan bog'liq boshqa hujjatlar shakllarini ishlab chiqadi va belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

soliq qonunchiligi bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar to'plamlarini nashr qiladi, davlat soliq xizmati organlarini qonun hujjatlari bilan ta'minlash chora-tadbirlarini ko'radi;

O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlar bilan

solliq sohasida hamkorlik qilish masalalari bo'yicha xalqaro shartnomalari loyihalarini ishlab chiqishda qatnashadi hamda ularning belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat solliq qo'mitasi va uning tarkibiga kiruvchi davlat solliq xizmati organlari tomonidan o'z vakolatlari doirasida qabul qilinadigan qarorlar barcha solliq to'lovchilar – yuridik shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi. Davlat solliq xizmati organlari o'zlariga solliq siyosatini amalga oshirishga oid vazifalarini davlat boshqaruvi boshqa organlari, mahalliy davlati hokimiyati organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, huquqni muhofaza qilish, statistika va moliya organlari, banklar hamda boshqa tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlikda bajaradilar. Davlat Solliq qo'mitasining solliq siyosati borasidagi boshqa organlar bilan hamkorligi quyidagi tartibda amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi bilan solliqqa tortishning umumiy masalalari, Moliya vazirligi bilan solliqqa tortishning barcha yo'nalishlari va davlat budjeti yuzasidan Davlat statistika Qo'mitasi bilan solliq to'lovchilarni hisobga olish, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi hamda Bojxona Qo'mitasi bilan import-eksport operatsiyalarini solliqqa tortish, Markaziy bank bilan solliq tushumlarini hisobga olish, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini davlat qo'mitasi bilan birgalikda yagona er solig'i va er solig'i, O'zbekiston Respublikasi geologiya va mineral resurslar davlat qo'mitasi er osti boyliklarini solliqqa tortishga oid qonunosti hujjatlarini ishlab chiqadi va kelishilgan holda tasdiqlab ro'yxatga oladi.

Mazkur ishlab chiqilgan me'yoriy tusdagi hujjatlarni

esa Adliya vazirligidan ekspertiza va ro'yxatdan o'tkazadi. Adliya vazirligi soliq siyosatiga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ularning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, qonunchilikka, shuningdek, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan ekspertiza qiladi, qonun loyihalarini ularning mamlakatda o'tkazilayotgan islohotlar maqsadlari va vazifalariga muvofiqligi, shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlari uchun ortiqcha ma'muriy va boshqa cheklashlarni kirituvchi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining asoslanmagan xarajatlari yuzaga kelishiga olib keluvchi qoidalar va normalarni aniqlash yuzasidan tahlil qiladi va belgilangan tartibda ro'yxatga oladi.

O'zbekiston Moliya vazirligining soliq siyosatidagi ishtiroki. O'zbekiston Moliya vazirligining soliq siyosatini ishlab chiqishdagi ishtiroki Davlat soliq qo'mitasi bilan birgalikda har yilgi budjet-soliq siyosatining ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish, Davlat budjetini tuzish va unda solikli daromadlarning tushumini prognozlashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarga oid normativ-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, ayrim turdagi soliq to'lovlari bo'yicha soliq stavkalari va imtiyozlarni belgilash va shu kabi holatlarda amalga oshadi. Shu bilan birgalikda Moliya vazirligi o'z Nizomiga ko'ra, soliq solish va soliq maslahati bo'yicha faoliyat sohasida qonunchilik va me'yoriy aktlarni ishlab chiqishda qatnashadi va bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshiradi, budjetni muvozanatlashtirish zaruratidan kelib chiqib, soliqlar tizimini respublikadagi boshqa daromadlarni takomillashtirish, davlat moliya mablag'larini mustahkamlash, korxonalar, birlashmalar, tashkilotlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati hamda fuqarolarning tadbirkorlik ishlari uchun eng maqbul moliyaviy sharoitlarni ta'minlash bo'yicha chora-

tadbirlarni ishlab chiqadi, soliq maslahatchisi tizimining amal qilish mexanizmlarini ta'minlaydi.

Soliq siyosatida mahalliy davlat hokimiyati organlarining roli. Mahalliy davlat hokimiyatlari ham O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (111-moddasi)ga muvofiq mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, budjetdan tashqari jang'armalarni hosil qilishi, O'zbekiston Respublikasi Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonuniga asosan Xalq deputatlari Kengashi tomonidan o'z hududida mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash, Soliq kodeksi (30-moddasi)ga asosan hamda ga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mol-mulk solig'i, er solig'i, yagona yer solig'i hamda obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bo'yicha imtiyozlarni berishi mumkin.

Shuningdek, Xalq deputatlari Kengashi viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budjetlarini, shuningdek, tumanlar va shaharlar budjetlarini tegishliligi bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda qabul qilish, mahalliy budjetlarning tegishli davrdagi ijrosi to'g'risidagi hisobotlarni taluqliligi bo'yicha viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar va shaharlar hokimlarining taqdimnomasiga binoan ko'rib chiqish hamda tasdiqlashni amalga oshiradi.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda sud-huquq tizimi organlarining ishtiroki. Soliq siyosatida sud-huquqi organlarining ishtiroki, avvalo, ularning soliq'larga oid qonun hujjatlarining huquqiy norma va qoidalarga muvofiq kelishini tahlil va ekspertiza qilishda ishtirok etib ularni takomillashtirish, soliq qonunchiligiga rioya qilinishining

nazoratini amalga oshirish, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, soliqlar sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish, soliq qonunchiligining buzilishining holatlari yuzasidan javobgarlik choralari belgilash va shu kabilar tarzida amalga oshiriladi.

Shuningdek, ularning soliq siyosatidagi ishtiroki soliqqa oid qonunchilikning mazmunini oydinlashtiruvchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi va uni qo'llaydi. Masalan, sud amaliyotida soliq qonunchiligiga oid bahsli masalalar vujudga kelayotganligi munosabati bilan hamda xo'jalik sudlari tomonidan ishlarni ko'rishda O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi umumiy qismini to'g'ri va bir xilda qo'llanilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumining 2010 yil 18 iyundagi 210-sonli qarori asosan Soliq kodeksini sud amaliyotida qo'llashni aniqlashtiruchi qaror qabul qilingan bo'lib, bunda soliq qonunchiligini to'g'ri qo'llashning yo'nalishlari aniqlashtirilgan.

Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda jamoatchilikning roli. Jahon amaliyotida, jumladan, O'zbekistonda soliqqa oid qonunlarni qabul qilish jarayonida uning muhokamasida jamiyatning har bir a'zosi ishtirok etib, o'z fikr va tavsiyalarini bildirishi, soliq qonunchiligini takomillashtirish va soliqqa tortish amaliyotiga oid jarayonlarga oid o'z qarashlari va takliflarini Parlamentga (Oliy Majlis) siyosiy partiyalar yoki shaxsan o'zlari bildirishi (ma'ruza tezisi shaklida), bevosita davlat vakolatli organlarga yozma yoki og'zaki shaklda fikrlarini bildirishi, soliq amaliyotidagi mavjud to'siqlar va ularni bartaraf etish yuzasidan ma'lumotlar (mulohazalar) bildirishi mumkin. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositlarida chiqish

qilish orqali ham ishtirok etishi ta'minlanadi.

Umumiy qilib aytganda, soliq siyosatini ishlab chiqish, uni amalga oshirish va takomillashtirish davlat hokimiyati organlari va jamiyatning boshqa sub'ektlari tomonidan amalga oshiriladi. Soliq siyosatida har bir vakolatli organlarning ishtiroki ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi. Soliq siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda barcha zvenolar faoliyatining uyg'unlashuvi soliq siyosatining samaradorligini ta'minlaydi.

7.4-§. Soliq siyosati strategiyasi va taktikasi


Har qaysi davlat siyosati tarkibiy jihatdan strategik va taktik yo'nalishlarga ega bo'ladi. Siyosatning strategiyasi va taktikasining mazmuni, avvalo, faoliyat (jarayon) ning xarakteri va davlat tuzilishiga asoslangan holda uni boshqaruv mexanizmlarining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Agar davlat federativ davlat bo'ladigan bo'lsa, soliq-larni joriy etish va undirish siyosati ham shunga muvofiq bo'ladi, o'z navbatida, unitar davlatlarda esa budjet va soliq tizimi o'ziga xos bo'ladi. Shuningdek, soliq siyosati soliqlarning xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Soliqlar tabiatan o'zgaruvchan va moslashuvchan xarakterda amal qilishi uning strategiyasi va taktikasining o'zgaruvchan bo'lishiga ham ta'sir qiladi. Shu bilan birgalikda soliq strategiyasi ichki tuzilishi va mohiyatiga ko'ra doimiy va o'zgaruvchan shakllarda bo'ladi. Soliq strategiyasi o'zi nima? Strategiya grekcha so'z bo'lib, «στρατηγία – qo'mondonlik, boshqarish, harbiy san'ati» degan ma'noni berib, u dastlab, harbiy sohada qo'llanilib, keyinchalik davlat boshqaruvida va uning siyosatida qo'llanila boshlagan. Siyosatda qo'llanilishi esa ko'pincha unga davriylik jihatdan yondashiladi. Shu jihatdan olganda strategiya

davlatning ma'lum bir soha (yo'nalish)dagi faoliyatini tizimli boshqarishning uzoq muddatli davrga tegishli jarayonlarini aniqlash va uning yo'nalishlarini belgilab olinishidir. Bu holat soliqlarga oid siyosatda ham mavjud bo'ladi.

Soliq siyosati strategiyasining belgilanishi esa davlatning majburiy to'lovlar borasidagi faoliyatining uzoq davrlarga oid xususiyatlarini aks ettiradi. Demak, soliq siyosati strategiyasi deganda davlatning jamiyat a'zolaridan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar borasidagi uzoq muddatga mo'ljallangan faoliyatining umumiy yo'nalishlari va xususiyatlarini aks ettiruvchi jarayon hisoblanadi. O'zbekiston soliq tizimida ham soliq siyosati strategik va taktik yo'nalishlari asosida amal qiladi. Ta'kidlanganidek, soliq siyosati strategiyasi davlat iqtisodiy siyosatining mazmunidan kelib chiqib, doimiy va o'zgaruvchan strategiyaga ega bo'ladi.

O'zbekiston soliq siyosatining bosh (doimiy) strategiyasi sifatida davlat budjeti va soliq to'lovchilar o'rtasidagi manfaatlarning uyg'unlashuvi oqilona soliq siyosati orqali ta'minlanadi va u uzoq vaqtni qamrab olib doimiy xarakterda bo'ladi. Bir tomondan davlat tomonidan oqilona soliq siyosatining tashkil etilishi, bu hali bunday manfaatlarni uyg'unlashtira olmaydi, buning uchun soliq to'lovchilarda yuqori darajadagi soliq madaniyati shakllanishi lozim bo'ladi. Soliq siyosatida soliq imtiyozlari va preferensiyalarni ko'paytirish bilan birga soliq to'lovchilar tomonidan bunday imtiyoz va preferensiyalardan o'rinli foydalangandagina bunday engilliklar samara beradi, aks holda esa budjet manfaatlariga putur etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida soliq to'lovchilarga o'ziga xos egoizm xususiyatlarining saqlanib qolishi, soliqlardan qarzdorlik, soliqlardan qochish holatlari uchrab turadi va bu ham budjet manfaatlariga zid keladi. Demak, soliq to'lovchilar va budjet manfaatlarining to'g'ri

kesishuvi bu soliq qarzdorligi deyarli yo'qotilganligi, soliq to'lovchilarning soliq madaniyati yuqoriligi, budjetdan berilayotgan subsidiyalarning samarasi yuqoriligini bildiradi, bu jarayon esa uzoq vaqt davomida erishiladi. Ushbulardan kelib chiqqan holda, soliq siyosatining o'zgaruvchan strategiyasini aniqlash mumkin. Bunga ko'ra O'zbekitson soliq siyosatining o'zgaruvchan soliq strategiyasi budjet daromadlarining bir maromda shakllanishi, tadbirkorlik sub'ektlariga soliq imtiyozlari va prefrensiyalarni oshirish va ularning samaradorligini ta'minlash, soliq to'lovchilarning soliq madaniyatini oshirishga erishish hamda soliqlarning ishlab chiqarish jarayonini jonlantirishga ta'sirini yanada oshirishdan iboratdir.



7-rasm. Soliq siyosati strategiyasiga ta'sir etuvchi omillar.

Albatta, har bir davlatning soliq siyosati strategiyasi umumiy omillar bilan birgalikda milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning belgilanishi va o'zagartirishiga ta'sir etuvchi omillar ham mavjud bo'ladi. Xalqaro miqyosda o'zaro siyosiy-iqtisodiy muno-


sabatlarning yoʻnalishlari, milliy iqtisodiyotni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi, iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar yoʻnalishi va mazmuni hamda mamlakat miqyosida maxsus iqtisodiy dasturlarning amalga oshirilishi kabi omillar davlatning soliq siyosati strategiyasining oʻzgarishiga taʼsir etadi. Jahon amaliyotida soliq siyosati strategiyasining oʻzgarishiga siyosiy holatlar, masalan, hukumat yoki parlamentda koʻpchilik ovozga ega boʻlgan partiyaning iqtisodiy platformasidagi ustuvor yoʻnalishlar soliq siyosatining strategiyasining asosi qilib olinishi mumkin.

Soliq siyosatining tuzilishi va yoʻnalishi jihatdan muhim tarkibini soliq taktikasi tashkil etadi. Taktika ham kategoriya sifatida xuddi strategiya kabi grek tilidan olingan boʻlib, «τακτικός – qoʻshinning tuzilishi, τάξις – tuzilish va joylashish» degan maʼnolarni berib, harbiy sohaga tegishli termin sifatida, keyinchalik esa davlatning har qanday siyosatining tuzilishi va yoʻnalishini ifodalashda qoʻllanila boshlangan. Soliq siyosatining taktikasi deganda esa soliq siyosati va uning strategiyasida maqsad qilib belgilangan vazifalarni amalga oshirish jarayonida oʻzaro bogʻliq holda qoʻllaniladigan usul va vositalarning yigʻindisidir. Sodda qilib aytganda, soliq siyosati strategiyasida belgilab qoʻyilgan maqsadga oson va qulay erishishning yoʻllaridir. Bundan koʻrinadiki, soliq siyosatining taktikalari usullar va vositalardan tashkil topganligi tufayli har bir davlat soliq siyosatida ularning eng qulay va samarali shakllarini qoʻllashi davlatning soliq siyosatini amalga oshiruvchi vakolatli organlarning faoliyatiga bogʻliq boʻladi.

Soliq siyosati taktikalari amaliyotda qoʻllanilishi ularning samarali yoki samarasiz ekanligini koʻrsatib beradi. Shu bilan birgalikda taktik usullar yoki vositalar tuzilishi va mazmunan samarali boʻlsa-da, ammo uni qoʻllashdagi

xatoliklar, garchi usul yoki vositalar mazmunan ijobiy bo'lsa-da, natija samarasiz ham bo'lishi mumkin. Bu esa soliq siyosatining taktikalarini nazariy va amaliy jihatdan farqlashni ko'rsatadi. Ma'lum davlat yoki hududda samara bergan taktik usullar boshqa bir joyda samara bermasligi ham mumkin, demak, soliq siyosati taktikalari iqtisodiyotning holati va davriyligini (qaysi darvda qo'llanilganligini) ham e'tiborga olishni talab etadi. Alohida olingan milliy iqtisodiyotda islohotlarning dastlabki davrida qo'llanilgan taktik yo'nalishlar, ma'lum bir muddatda samarasiz bo'lib qolishi yoki, aksincha, ma'lum bir muddatda qo'llanilib, keyinchalik voz kechilgan usullar, rivojlanishning keyingi davrlarida yanada talab etilishi yoki samarali usulga aylanishi mumkin. Bunday usullar (taktik yo'nalishlar) qatoriga progressiv soliqqa tortish usulini misol qilib keltirish mumkin. Progressiv soliqqa tortish iqtisodiyotda tushkunlik (tanazzul) kuzatilayotgan vaqtda samara berishi jahon amaliyotida (Keynsning soliqqa tortish nazariyasining AQSh iqtisodiyotidagi krizisdan qutulishdagi ahamiyatni eslang) isbotlangan.

Shuningdek, iqtisodiyot rivojlanib, unda jamg'arish kuchayib, investitsiyaga aylanishining sekinlashishi orqali iqtisodiyotga salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida progressiv soliqqa tortish taktikasi yana samara beradi. Shu jihatdan olganda, soliq siyosatining taktikalarining samara berishi ularning davriylik va iqtisodiyotning holati jihatdan qo'llanishiga bog'liqligini bildiradi. Soliq strategiyasi singari soliq siyosati taktikalarining o'zgartirilishiga ma'lum bir omillar ta'sir etib boradi.



8-rasm. Soliq siyosati taktikalariga ta'sir etuvchi omillar.

Keltirilgan rasmdan ko'rish mumkinki, soliq siyosati taktikalariga umuminsoniy va umummilliy qadriyatlar, jahon bozori konyukturasi nobarqarorligi va turli xil inqirozlar, milliy qonunchilikning o'zgarishi va yangi qonunlarning yuzaga kelishi, kelgusi (joriy) yil uchun ustavor vazifalarning mazmuni, milliy iqtisodiyotning rivojlanish holati, ichki bozordagi tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinish holatini muvofiqlashtirish zarurligi hamda turli xil «fors-majior» holatlar kabi omillar ta'sir qiladi. Bu erda umuminsoniy va umummilliy qadriyatlar sifatida keksa yoshdagi aholi, tug'ma nogironlar, tarixiy obidalar, millatlar o'rtasidagi milliy qadriyatlar (an'analar), balog'at yoshiga etmaganlar, insonparvalik yordamlari va shu kabilar nazarda tutilib, ularning yuzaga kelishi, albatta, barcha davlatlarning soliq siyosati taktikalariga ta'sir qiladi, o'z navbatida, ichki

bozordagi tovar va xizmatlarning ishlab chiqarilishi va iste'mol qilinish holatini muvofiqlashtirish zarurligi esa yalpi ichki mahsulot va uning iste'molida inson sog'ligi uchun zararli bo'lgan mahsulotlar (masalan, alkogolli, tamaki mahsulotlar)ni ulushi ortishi, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar hajmining ortishi va uning iste'mol darajasining pasayib ketishi va aksincha holatlarning yuz berishi soliq siyosati taktikalarini o'zgartirishga olib keladi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi sharoitida Respublikamiz soliq siyosatining taktikalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

✓ Soliq to'lovchilar zimmasidagi soliq yukini iqtisodiy rivojlanish darajasiga monand holda bosqichma-bosqich kamaytirib borish;

✓ Soliq qonunchiligini ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirib borish;

✓ soliq ma'murchiligining qulay va samara berish jihatidan takomillashtirish;

✓ mavjud soliq turlarini qisqartirish, ularni unifikatsiyalashtirish va asosiy soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarini qisqartirib borilishi;

✓ kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini soliq tizimi orqali muntazam qo'llab-quvvatlanishi;

✓ real sektor korxonalarini, shuningdek, eksportyor korxonalar faoliyatini soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirilishi;

✓ soliq ma'murchiligining soddalashtirilishi, soliq imtiyozlari va preferensiyalarini maqsadli va samaradorligining oshirib borilishi;

✓ turli nazorat organlarininng tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvi va soliq tekshiruvlarining qisqartirilib borilishi;

✓ importni tartiblash va eksportni rag‘batlantirish jarayonining oshirib borilishi;

✓ soliqlarning sotsiallashtiruvining kuchaytirilishi;

✓ milliy iqtisodiyotda reinvestitsiyalashuvning va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda soliqlarning rag‘batlantiruvchilik rolining oshirib borilishi va shu kabilar.

O‘zbekistonning soliq siyosatining taktik yo‘nalishlari o‘zaro bog‘liq holda va bir-birini to‘ldirib borish xususiyatlariga ega. Ushbu soliq siyosati taktikalarining umumiy yo‘nalishi va ularning natijaviyligi milliy iqtisodiyotimizda makroiqtisodiy o‘zaro barqarorligini oshirib borish hamda soliq to‘lovchilar zimmasida qulay soliq yuki darajasida davlat budjetini zaruriy mablag‘lar bilan ta‘minlashga qaratilganidir.

Soliq siyosatida uning strategiyasi va taktikalariga xizmat qiluvchi konsepsiyasiga ham ega bo‘lishi mumkin. Konsepsiya so‘zining lug‘aviy ma‘nosi lotin tilidan olingan bo‘lib, «conceptio – tushunish, anglash, fahmlash, tizim», «concipere – fikrlash, mulohaza qilish» degan ma‘nolarni anglatadi. Konsepsiya jarayonlarni o‘rganishda ikki xil tartibda qo‘llaniladi. Birinchisi bu o‘rganilayotgan jarayonning rivojlanishini tizimi sifatida tushunilsa, keyingisi jarayonni rivojlantirish va uning yo‘nalishlarining ma‘lum bir jihatlarini tizim shaklida ifodalash tushuniladi. Soliq siyosatining konsepsiyasi esa uning strategiyasining mazmunidan kelib chiqqan holda uning ayrim olinganlar o‘zaro bog‘liq taktik yo‘nalishlarini ilmiy asoslangan holda o‘zida aks ettiradi. Shu jihatdan ham u oraliq taktikalar ham deb yuritiladi. Bundan tashqari, soliq siyosatining konsepsiyasi soliq siyosatiga oid turli xil bir necha yo‘nalishlarning ketma-ketligini ifodalaydigan ilmiy qarashlar sifatida ham tavsiflanadi.

Shu jihatdan ham u oraliq taktikalar ham deb yuritiladi.

Bundan tashqari, soliq siyosatining kontseptsiyasi soliq siyosatiga oid turli xil bir necha yo'nalishlarning ketma-ketligini ifodalaydigan ilmiy qarashlar sifatida ham tavsiflanadi.

7.5-§. O'zbekiston soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari

O'zbekiston o'z mustaqilligi qo'lga kiritgan vaqtdan boshlab moliya-kredit sohasidagi iqtisodiy islohotlarning muhim yo'nalishi sifatida mustaqil soliq tizimini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan soliq siyosatining yo'nalishlarini tahliliy o'rganishni uni ma'lum bir bosqichlarga bo'lib o'rganish soliq siyosatining xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Shu jihatdan O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va uning yo'nalishlari shartli ravishda to'rt bosqichga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich. Bu bosqich 1991-1995 yillarni o'z ichiga oladi. Bu davrda soliq siyosatining asosiy xususiyatlari mustaqil soliq tizimini yuzaga keltirish borasida soliqlarning huquqiy bazasini shakllantirish, moliya tizimi tarkibidan soliqlarni undirish bilan shug'ullanuvchi davlat boshqaruv organini tuzish, joriy qilingan soliqlarni undirishning mexanizmlarini barpo etish, milliy iqtisodiyot holatiga mos soliq siyosati strategiyasi va uning taktikalarini ishlab chiqish, mamlakat iqtisodiyotida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan moliyaviy mexanizmlar bilan birgalikda soliqlardan samarali foydalanishni amalga oshirish, progressiv soliqqa tortish va kuchli ijtimoiy siyosatga asoslangan holda aholining turmush darajasini pasayishini oldini olish va shu kabilar bilan xarakterlanadi.

Qonunchilik bazasi yaratish borasi va respublika miqyosida amal qiladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni

joriy qilish borasida dastlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 15 fevralda ikkita qonun «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi va «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolaridan, ajnabiy fuqarolardan va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslardan olinadigan daromad solig‘i to‘g‘risida»gi qonun, 1993-yil 6-mayda esa soliqlarga oid bir yo‘la yana ikkita qonun – «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi va «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi qonunlar qabul qilindi. «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to‘g‘risida»gi 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan bo‘lsa-da, uning kuchga kiritilishi 1991-yilning 1 yanvari etib belgilandi. Bu qonun qabul qilingan vaqtda O‘zbekiston hali sobiq ittifoq tarkibida bo‘lib, uning moliya tizimidagi mexanizmlardan hali xalos bo‘lmagan edi.

Shu jihatdan ham mazkur qonunga ko‘ra foydadan olinadigan soliq stavkasini qo‘llayotganda hisobga olinadigan rentabellik eng yuqori darajasi uning tarmoqdagi o‘rtacha darajasiga nisbatan ikki hissa ortiq holda qabul qilinadigan bo‘ldi (chunki sobiq ittifoq qonunida shunday tartib mavjud edi), yangi ulgurji, xarid, chakana va smeta narxlarini va tariflarni hisobga olgan holda xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha rentabellik va uning o‘rtacha hajmini hisoblash tartibi belgilandi, soliq solinadigan foyda hisoblab chiqilayotgan mehnatga haq to‘lash uchun qilinadigan xarajatlarning norma belgilanadigan me‘yori korxonalar tomonidan ishlab chiqarish (ish, xizmatlar) hajmining o‘shishiga yoki faoliyatining boshqa ko‘rsatkichlariga qarab aniqlana boshlandi, xalq xo‘jaligi tarmoqlari va sanoat (asosiy faoliyat turlari) bo‘yicha mehnatga haq to‘lash uchun qilinadigan xarajatlarning o‘shish koeffitsientlaridan foydalanish joriy etildi. O‘zbekistonda mustaqil soliq tizimiga kiruvchi korxonalar daromadiga solinadigan soliq,

qo‘shilgan qiymat uchun soliq, aksiz solig‘i, korxonalarining mol-mulkiga solinadigan soliq va yer osti boyliklaridan foydalanganlik uchun olinadigan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqlari joriy qilindi. Shu bilan birgalikda iste‘molga qaratilgan mablag‘lar xarajatini tartibga soluvchi soliq bekor qilindi.

1993 yilga kelib «Mahalliy soliqlar va yig‘imlar to‘g‘risida»gi qonunga asosan quyidagi: jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq, yer solig‘i, kurort mintaqasida ishlab chiqarish ob‘ektlarini qurishga solinadigan soliq, reklama solig‘i, avtomobil vositalari, murakkab hisoblash va ro‘zg‘or texnikasini qayta sotganlik uchun solinadigan soliq, transport vositalari egalaridan olinadigan soliqlar va quyidagi: kurort yig‘imi, savdo-sotiq qilish huquqini beruvchi yig‘im, vino-aroq mahsulotlari bilan savdo-sotiq qilish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig‘imi, mahalliy kimoshdi savdolari va lotereyalar o‘tkazish huquqini beruvchi ruxsatnoma yig‘imi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan jismoniy shaxslarni ro‘yxatga o‘tkazganlik uchun olinadigan yig‘im, avtotransportlar saqlanadigan joydan foydalanganlik uchun yig‘im, otchoparlarda poygada qatnashganlik uchun yig‘im, otchoparlarda o‘tkazilgan poygadagi yutuq uchun yig‘im, birjalardagi oldi-sotdi bitimlaridan undiriladigan yig‘imlar, kino va telesuratga olishlarni o‘tkazish huquqini beruvchi yig‘imlar, aholi manzilgohlari hududini supirib-sidirish uchun yig‘imlar joriy qilindi. Bu turdagi soliqlarni undirishda ayrim tarmoq korxonalarining xo‘jalik birlashmalari yil davomida budjet bilan hisob-kitoblarni hukumatning ruxsati bilan markazlashtirilgan tarzda amalga oshirish, O‘zbekiston Respublikasida doimiy istiqomat joyiga ega bo‘lgan fuqarolarning O‘zbekiston Respublikasi hududida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi tashqarisida natu-

ra tarzida olgan daromadlari ham soliqqa tortish amalga kiritildi. Bu bosqichdagi soliq siyosatining asosiy xususiyatlari asosan fiskallikka (ko'proq soliq undirish) asoslangan edi.

Bu ob'ektiv iqtisodiy zarurat bo'lib, uning bir necha sabablari mavjud edi. Birinchidan, iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida iqtisodiyotda aksariyat korxonalar monopol mavqega ega bo'lib, ularning faoliyatini yuqori soliqqa tortish mexanizmi orqali sub'ektiv omillar (narxlarning keskin o'sishi, mahsulotga bo'lgan talabning yuqoriligi, boshqa o'rinbosar tovarlarning yo'qligi) evaziga olgan daromadlarini budjetga ko'proq undirishni taqozo etardi, vaholanki, iqtisodiy holatning bunday sharoitda bu eng maqbul yo'l hisoblanishi jahon amaliyotidan ham ma'lum; ikkinchidan, davlat kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirayotgan bir davrda, shuningdek, bozor infratuzilmasini shakllantirish, jahon hamjamiyatiga qo'shilish zarurati yuzasidan ko'plab qo'shimcha vakolatli organlar tizimini shakllantirish, iqtisodiyotni tarkibiy o'zgartirish uchun davlat investitsiya dasturlari orqali yangi korxonalarni barpo etish budjetga ko'proq mablag'larni jalb etilishini zarurat qilib qo'ygan edi; uchinchidan, rivojlangan davlatlar tajribasidan ma'lumki, iqtisodiy tanazzul davrlarida soliq yukini haddan ziyod kamaytirish o'zini oqlamagan, qolaversa, davlat ichki imkoniyatdan ko'proq soliq undirish orqali bo'lsa ham maksimal foydalanmasdan, davlatning tashqi qarzlari evaziga muammoni hal etish bir qator, hatto ayrim qo'shni davlatlarning holatiga tushib qolish ehtimoldan holi emas edi.

Bubosqichdagiasosiyjarayonlardanbiri shubilanbirgalikda parallel ravishda moliya organlari tarkibida joriy qilingan soliqlarni undirishni amalga oshiruvchi alohida organ – soliq xizmati organlari tashkil etildi. Bu borada dastlab Moliya

vazirligi qoshida soliqlarni undirish bilan shug'ullanuvchi alohida boshqarma shakllantirilgan bo'lsa, 1992-yilda Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi tashkil etildi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq Bosh boshqarmasini O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo'mitasiga aylantirish to'g'risida»gi PF-744-sonli Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasi qoshida Soliq bosh boshqarmasi negizida 1994 yil 1 martidan boshlab Davlat Soliq Qo'mitasiga aylantirildi.

Ikkinchi bosqich. Bu bosqich davriyligi jihatdan 1995-1998 yillar oralig'ida soliq siyosatining o'ziga xos jihatlarini aks ettiradi. Bu bosqichda soliq siyosatidagi tub burilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 30-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-1014-son Farmoni katta ahamiyat kasb etdi. Bu farmonga ko'ra yuridik shaxslardan olinadigan soliq miqdorini kamaytirish; mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini ko'paytirishga, tadbirkorlik faoliyatini va investitsiya faolligini kengaytirishga, mablag'lar aylanishini jadallashtirishga va foydani oshirishga soliqlarning rag'batlantiruvchi ta'sirini kuchaytirish; tabiiy resurslar va mol-mulkdan olinadigan soliqlar ulushini oshirish hisobiga daromadlar tarkibini takomillashtirish; resurs hamda ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish samaradorligiga ularning ta'sirini kuchaytirish; mahalliy budjetlarning daromad negizini mustahkamlash hamda respublika va mahalliy budjetlar o'rtasida soliqlarni chegaralab qo'yish hisobiga respublikaning davlat budjetida mahalliy budjetlarning salmog'ini jiddiy ravishda oshirish; soliq solish mexanizmini mumkin qadar soddalashtirish va soliq tizimining barqarorligini ta'minlash kabi soliq

siyosatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berildi. 1995-yildan boshlab esa qo'shimcha qiymat solig'ining miqdori 20 foizdan 18 foizgacha pasaytirildi, korxonalarining daromad solig'i o'rniga foydadan olinadigan soliq joriy etilib, uning eng yuqori miqdori 38 foiz qilib belgilandi, dehqon (fermer) xo'jaliklari, xususiy korxonalar, savdo korxonalari, xorijiy investitsiyalarga asoslangan korxonalar uchun amaldagi daromad solig'i tartibi va soliq imtiyozlari saqlab qolindi.

Shuningdek, foydadan soliq undirib olish chog'ida mahsulot ishlab chiqarish (ishlar, xizmatlar) hajmi o'sishining har bir foizi uchun belgilangan soliq miqdoriga nisbatan 0,3 foizli punkt miqdorida pasaytiruvchi koeffitsient qo'llanilishi, balans foydasining 30 foizdan 50 foizgacha qismidan ishlab chiqarishni rivojlantirishda, uni qayta qurish va texnika bilan qayta qurollantirishda foydalanilgan taqdirda 5 foizli punkt miqdorida, balans foydasining 50 foizdan ko'proq qismidan shu maqsadlarda foydalanilgan taqdirda esa 10 foizli punkt miqdorida pasaytiruvchi koeffitsientdan foydalanish belgilandi va yangi barpo etilgan korxonalar uchun soliqdan ozod qilish, shuningdek, imtiyozlar berishning amaldagi tartibi saqlab qolinganda holda mulkchilik shakllaridan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar foydadan uy-joy va ijtimoiy-madaniy qurilishga sarflayotgan mablag'larning 50 foizi soliq to'lashdan ozod qilinadigan bo'ldi. Monopoliyachi korxonalar esa ularga belgilangan rentabellik darajasi oshirilishining har bir foiziga foydadan olinadigan belgilangan soliq miqdoriga nisbatan 0,5 foizli punkt miqdorida oshiriluvchi koeffitsient joriy etildi.

Shu bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqib ketiladigan xom ashyo resurslari va mahsulotdan olinadigan soliq, fuqarolardan olinadigan daromad solig'i to'g'risidagi qonunni jamoa xo'jaliklarining

a'zolariga nisbatan joriy etib, ularning mehnat haqi fondidan olinadigan soliq, o'rmon xo'jaligidan tushadigan daromadni olib qo'yish tartibi bekor qilindi hamda amortizatsiya ajratmalarining jami hajmi korxonalarining tasarrufida qoladigan bo'ldi. 1995-yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati va Davlat byujdetining asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlash huquqi berildi. Soliq siyosatida tabiiy resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish maqsadida ulardan olinadigan soliqlarning yangi stavkalarini belgilash, soliq sohasidagi imtiyozlarni tartibga solish, daromadlarni mahalliy budjetlar foydasiga qaytadan taqsimlash va hududlarning rivojlanish darajasiga qarab umumdavlat soliqlaridan ajratmalarining tabaqalashtirilgan me'yorlarini belgilash, soliq to'g'risidagi qonunlarni buzganlik uchun jarima to'lash choralarini qo'llash tartibiga o'zgartishlar kiritish masalalariga asosiy e'tibor qaratildi.

Respublikamiz soliq tizimida fiskallikka asoslangan soliq siyosatida asta-sekin soliq to'lovchilarning faoliyatini rag'batlantiruvchi mexanizmga asoslangan yo'nalishlar kuchayib bordi. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotida barqarorlikning ta'minlanganligidan dalolat berib, shakllanayotgan soliq tizimimizda va soliq siyosatida qo'llanilayotgan taktik yo'nalishlarga keskin o'zgarishlar qilinishiga turtki bo'ldi, natijada esa, aksariyat korxonalarimiz (banklar, shou-biznes korxonalaridan tashqari) daromad solig'i o'rniga foyda solig'ini to'lashga o'tishdi, bu esa, o'z navbatida, korxonalar tomonidan budjetga to'lanayotgan soliq summalarining bir qismi ularning ixtiyoriga qolishini ta'minladi va ularning moliyaviy holatining bir muncha yaxshilanishiga imkon paydo bo'ldi. Real sektorni bozor munosabatlariga o'tkazilishi ularga mos soliq tizimini taqozo etadi, bu soliq islohotlari

natijasida yuzaga keladi. Yangi tizim bo'sh erda paydo bo'lmaydi. Shundan kelib chiqib, ilgari mavjud bo'lgan va bozor munosabatlariga mos kelmaydigan oborot solig'i o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i joriy etildi. Iqtisodiy islohotlarning dastlabki yillarida soliq islohotlari asosan quyidagi yo'nalishlarda borganligining guvohi bo'lishimiz mumkin:

– soliqlarga oid yangi qonunlar qabul qilinishi orqali soliqqa tortish huquqiy asosga ko'chirildi;

yangi soliq institutlari shakllantirildi;

eski soliqlar bosqichma-bosqich yangi soliqlar bilan almashtirildi;

bozor talabiga javob beruvchi soliq imtiyozlari kiritildi;

soliqlar nisbati o'zgartirildi, soliq yuki qaytadan taqsimlandi;

soliqqa tortishning yangi tartiblari joriy etildi;

soliq-budjet siyosati o'rtasidagi yaxlitlik ta'minlandi.

Bu bosqichdagi soliq siyosatining eng muhim jihatlari mavjud soliq qonunchiligi iqtisodiyotdagi yuz berayotgan tarkibiy va sifat o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda takomillashtirilib, mavjud 4 ta soliqlarni o'zida mujassam etgan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 24-apreldagi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi hamda 1997-yil 27-avgustda qabul qilingan davlat soliq xizmati organlarining faoliyatining asoslarini belgilab beruvchi «O'zbekiston Respublikasining Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi bo'ldi.

Uchinchi bosqich. Uchinchi bosqich 1998–2008-yil-largacha muddatni o'z ichiga olib, uning asosiy xususiyati ikkinchi bosqichda boshlangan soliqlarning rag'balantiruvchilik rolining oshirilishi, soliqqa tortish tartiblarining soddalashtirilishi hamda soliq qonunchiligining takomillashtirilib borilishi bilan tavsiflanadi. Respublikamiz

soliq tizimining rivojlanib borishidagi yana bir muhim jihatlaridan biri sifatida soliq turlari sonini kamaytirib borish hamda bir xil yoki o'xshash soliq ob'ektiga ega soliqlarni unifikatsiyalash (bixillashtirish) jarayonini alohida ko'rsatish joiz. Bir xil soliq ob'ektiga ega soliq turlari unifikatsiya qilinib borilmoqda. Mahalliy budjetlarga birlashtirilgan obodonlashtirish uchun yig'im va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i bixillashtirildi, ya'ni ular obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'iga birlashtirildi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan transport solig'i mol-mulk solig'i ob'ektiga kiritildi, keyinchalik esa jismoniy shaxslarning transportidan olinadigan mol-mulk solig'idan transport vositalari soliq ob'ektidan chiqarilib, jismoniy shaxslardan transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bilan bixillashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997-yil 24-aprelda qabul qilingan va 1998-yildan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi qabul qilinishi bilan ilgari mavjud bo'lgan 20 ga yaqin soliq turlari 11 ta soliqqa, 15 dan ortiq turli xil yig'im va to'lovlar 9 taga birlashtirildi va yana o'ziga xos bo'lgan ham soliqni, ham yig'imlarni o'zida aks ettirgan – yagona soliq to'loviga ular unifikatsiya qilindi va ixchamlashtirildi. Bu davrda soliq siyosatidagi eng muhim yo'nalishlardan biri bu kichik biznes sub'ektlariga nisbatan alohida tartibdagi rag'batlantiruvchi soliqqa tortish tartiblarining qo'llanishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi «Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-1987-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 15-apreldagi Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan kichik korxonalariga soliq

solish tartibi to'g'risida»gi 159-son qaror asosan kichik korxonalar uchun soliq solishning soddalashtirilgan tizimini qo'llash tartibi yalpi umumdavlat soliqlarini, shuningdek, davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig'implarni to'lash o'rniga yagona soliq to'lashni nazarda tutadi.

Bu davrda soliq siyosatining muhim taktikalaridan biri sifatida soliqqa oid tekshiruvlarning erkinlashtirilishi va qisqartilishiga ustuvorlik berila boshlandi. Bu yillarda respublikamizda tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklash, ularning faoliyat yuritishlari uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda tadbirkorlik sub'ektlarida o'tkaziladigan tekshirishlar tizimini yanada takomillashtirish (soddalashtirish va qisqartirish) da O'zbekiston Prezidentining 2005-yil 5-oktyabrdagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2005-yil 14-iyundagi «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-son qaroriga muvofiq tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaxo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish qilish) faqat davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Bu sohada Respublikamiz Prezidentining «Tadbirkorlik sub'ektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3619-son, «Tadbirkorlik sub'ektlarini tekshirishni yanada qisqartirish va uning tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-3665-son hamda «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida»gi PF-4058-sonli farmonlari ijtimoiy-siyosiy

hayotimizda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yuqoridagi hujjatlarga muvofiq, tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan bir qator huquqiy ta'sir choralari qo'llash faqat sud orqali amalga oshirilishi, tekshirish (taftish qilish) vakolatiga ega bo'lgan nazorat organlarining aniq ro'yxati hamda rejali tekshirishlar davriyligi qat'iy belgilab qo'yildi.

To'rtinchi bosqich. Soliq siyosatining oxirgi davrlardagi yo'nalishlarini aks ettiruvchi to'rtinchi bosqich 2008-yildan 2017-yilgacha qadar davrlarni o'z ichiga olib, uning xususiyatlari ikkinchi bosqichdan boshlab soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirib borishga qaratilgan taktikalar kuchaytirilishi va ularning takomillashtirilib borilishi, soliq preferensiyalarining oshirilishi, milliy iqtisodiyotda alohida olingan soliqqa tortish rejimlari (maxsus iqtisodiy zonalar)ni kuchaytirilishi, xorijiy investitsiyalarini jalb qilish, banklarning investitsion va kapitallashuvni oshirishda soliqlarning ta'sirini imtiyozlar orqali oshirish, milliy iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda soliqlarning rolini oshirish, MahalliyLashtirish Dasturlari va alohida olingan sohalarni rivojlantirishda soliq imtiyozlarining kuchaytirilishi hamda soliq ma'murchiligini soddalashtirish (takomillashtirish)ni kuchaytirish va shu kabi yo'nalishlarda ko'rinadi. Buning asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2008-yilda qabul qilingan «Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularning barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi va «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlariga asosan Jahon moliya-iqtisodiy krizisining salbiy oqibatlarini bartaraf etish, iqtisodiyot real sektori bazaviy tarmoqlarining iqtisodiy o'sishi barqaror sur'atlari va makroiqtisodiy mutanosibligi hamda barqaror

ishlashini ta'minlash, aholi bandligiga ko'maklashish, eksport qiluvchilar, sanoatning etakchi tarmoqlari korxonalari hamda kichik biznesni aniq manzilli qo'llab-quvvatlash maqsadida keng soliq imtiyozlari belgilandi.

Mahalliyashtirish Davlat dasturiga kiritilgan korxonalarni, shuningdek, ushbu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi korxonalarga soliq imtiyozlari orqali rag'batlantirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi 1048-sonli qarori bilan tasdiqlangan Mahalliyashtirishning davlat Dasturi alohida ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizdagi yengil va oziq-ovqat sanoatining iste'mol tovarlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalari, shuningdek, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturida ishtirok etayotgan korxonalar uchun keng ko'lamlı qo'shimcha soliq va bojxona imtiyozlari berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi «Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1731-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-apreldagi PF-4434-sonli «To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda 2014-yil 7-apreldagi «O'zbekiston Respublikasida investitsiya iqlimi va ishbilarmonlik muhitini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4609-sonli Farmonlarida soliqlar bo'yicha soliq imtiyozlari va preferensiyalar joriy qilindi.

Mamlakatimizda ishlab chiqaruvchi korxonalarining eksport salohiyatini yanada oshirishni rag'batlantirish ko'lamı yanada oshirildi. Shu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 26-martdagi «Eksport

qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishni kuchaytirish va raqobatbardosh mahsulotlarni eksportga etkazib berishni kengaytirish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1731-son Qarori qabul qilinib, ushbu qarorga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalarga sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini sertifikatsiyadan o'tkazish, shuningdek laboratoriya testlari va sinovlarini o'tkazish komplekslarini xarid qilishga yo'naltiriladigan mablag'larga yangi texnologik uskunalarni sotib olishda nazarda tutilgan yagona soliq to'lovi bo'yicha soliq solinadigan bazani kamaytirish huquqi berildi.

Tadbirkorlik sub'ektlarini moliya-kredit mexanizmlari orqali qo'llab-qo'vvatlashning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ularning faoliyatiga soliq va boshqa sohadagi tekshiruvlarni qisqartirish hamda ular tomonidan soliq va boshqa tUSDagi hisobotlarni topshirish tartib taomillari soddalashtirildi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 16-iyuldagi «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4453-sonli va 2012-yil 18-iyuldagi «Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-4455-sonli Farmonlari bilan soliq hisobotlarining soni qisqatirildi, ularni topshirish davriyligi uzaytirildi hamda turli xil yig'imler bekor qilindi yoki kamaytirildi. 2012-yilning 1-avgustidan litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 20 foiz), shu jumladan, ularni bekor qilish va birlashtirish yo'li bilan qisqartirildi. Xususan, qimmatbaho metall va toshlardan zargarlik buyumlarini tayyorlash, audiovizual asarlarni, fonogrammlar va


EHM uchun yaratilgan dasturlar uchun moddiy jismlarni ishlab chiqarish, ichki va xalqaro havo yoʻnalishlarida yoʻlovchilar va yuk tashishni amalga oshirish va boshqa faoliyat turlarini litsenziyalash bekor qilindi. Shu bilan birga ayrim faoliyat turlari yagona litsenziyalanadigan faoliyat turiga birlashtirildi. Shuningdek, 2012-yilning 1-avgustidan boshlab 80 turdagi ruxsat berish tartib-taomillari (ularning umumiy miqdoriga nisbatan 26 foiz) bekor qilindi.

Soliq siyosatida xizmat koʻrsatish sohasidagi va oilaviy tadbirkorlik subʼektlarini ragʻbatlantirishga keng eʼtibor berilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-maydagi «2012–2016-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatish sohasini rivojlantirish dasturi toʻgʻrisida»gi PQ-1754-sonli qaroriga muvofiq, moliya-bank, maishiy va boshqa xizmat turlarini koʻrsatuvchi mikrofirmalar va kichik korxonalar 2017-yil 1-yanvarigacha foyda soligʻi va yagona soliq toʻlovini toʻlashdan ozod qilindi. Shuningdek, 2012-yilning II choragidan boshlab agar imtiyozlar berilgan xizmat turlarini koʻrsatishdan tushgan tushum umumiy tushum hajmida 80 va undan yuqori foizni tashkil etsa, foyda soligʻi va yagona soliq toʻlovi boʻyicha imtiyozlar mikrofirmalar va kichik korxonalarining barcha daromadlariga tatbiq etildi. Oilaviy biznesni yuritishga keng yoʻl ochib berish maqsadida oilaviy korxonalar oʻzi ishlab chiqargan xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy sanʼati buyumlarini realizatsiya qilishdan olingan tushum boʻyicha yagona soliq toʻlovini toʻlashdan 2014-yil 1-yanvargacha ozod qilindi.

7.6-§. Yangi O‘zbekiston sharoitida soliq siyosati

Soliq siyosatining beshinchi bosqichi bu 2017 yildan to hozirgi vaqtgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi deyish mumkin. Chunki bu bosqich soliq siyosatimizda keskin tub burilishlar davrini boshlab berdi. O‘zbekiston Respublikasining hozirgi soliq siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda strategiyaning aniq belgilanishi, unga erishishning taktik yo‘nalishlarining ifodasi sifatida ilmiy asoslangan konsepsiya ishlab chiqilib, izchil amalga oshirilib borilayotganligidir. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida O‘zbekistonning soliq siyosatining strategiyasi sifatida soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish va tegishli rag‘batlantiruvchi choralarni kengaytirish kabi muhim masalalar belgilab olingan bo‘lib, bular iqtisodiyotni tezkor rivojlantirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari sifatida belgilab olindi.

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontseptsiyasining asosiy yo‘nalishlari belgilab olindi:



9-rasm. O'zbekistonda yangi soliq kontsepsiyasini joriy qilinishining asosiy omillari

Mavjud tizimli muammolarni bartaraf etish, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning

beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida belgilangan soliq yukini kamaytirish va soliq solish tizimini soddalashtirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish vazifalarini amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari belgilab olindi:

Yangi Oʻzbekiston deb nomlangan keyingi besh yillikda iqtisodiyotning muhim tarmogʻi sifatida soliq tizimini isloh qilishning asosiy yoʻnalishlari 2017–2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasida aniq qilib belgilab qoʻyildi, yaʼni soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish siyosatini davom ettirish, soliq maʼmuriyatchiligini takomillashtirish va tegishli ragʻbatlantiruvchi choralarni kengaytirish¹ soliq siyosatining bosh ustuvor yoʻnalishi sifatida izchil amalga oshirila boshlandi. Dastlab, moliya-soliq tizimida yigʻilib qolingan muammolar va dastlabki aniq yoʻnalishlar belgilab olindi. Yaʼni, soliqlar va boshqa majburiy toʻlovlarni yigʻish, soliq solinadigan bazani kengaytirish va soliq toʻlovchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muammolar sifatida: soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish holati soliq maʼmuriyatchiligining shaffoqligini, soliq solish masalalarida manfaatdor vazirlik va idoralar bilan hamkorlik qilish hamda nazorat samaradorligini, shuningdek davlat xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini taʼminlayotganligi; soliq toʻlovchilarning, eng avvalo, tadbirkorlik subʼektlarining ularga toʻgʻridan-toʻgʻri muloqotsiz xizmat koʻrsatishni taʼminlaydigan "soliq toʻlovchining shaxsiy

¹ 2017 – 2021 yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasi.

kabineti"dan foydalanish manfaatdorligini oshirish bo'yicha faol ish tashkil etilmaganligi; soliq organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olish va soliq solinadigan bazani kengaytirish, shuningdek soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida yig'ish uchun mavjud resurslarni safarbar qilish imkonini bermayotganligi; soliq nazoratini tashkil qilish mexanizmlarining mukammal emasligi; soliq nizolarini sudgacha hal etish – soliq apellyasiyasi instituti imkoniyatlaridan etarli darajada foydalanilmayotganligi; soliq solish tizimining murakkabligi va bir xil soliq solish bazasiga ega soliqlarning etarli darajada unifikatsiya qilinmaganligi, soliq qonunchiligining o'zgaruvchanligi soliq to'lovchilar tomonidan o'z soliq majburiyatlarini to'liq bajarish, soliq organlarining Davlat budjetiga tushumlar to'liqligini ta'minlash faoliyati ustidan tashqi nazorat mexanizmlarining mavjud emasligi soliq solinadigan bazani kengaytirish, soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish va soliq to'lovchilarni hisobga olish imkonini bermayotganligi, bozorlar va savdo komplekslari faoliyati ustidan samarali soliq nazorati o'rnatilmaganligi mahalliy budjetlarni to'ldirish uchun mavjud rezervlarni to'liq safarbar qilish, shuningdek naqd pul mablag'larining kafolatli qaytishini ta'minlamayotganligi va shu kabilar ko'rsatib o'tildi.¹

Ushbu muammolarning echimi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni

to'g'risida"gi Farmonida 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasidagi soliq solish tizimini izchillik bilan soddalashtirish, soliq solinadigan bazani kengaytirish orqali soliq yukini pasaytirish kabi vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek soliq ma'muriyatchiligining zamonaviy uslublarni joriy etish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish maqsadida bir qator muhim vazifalar belgilab berildi. Ya'ni,

➤ soliq ma'muriyatchiligi jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarni keng joriy etish, soliq to'lovchilarga, eng avvalo, tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ridan-to'g'ri muloqotsiz elektron xizmat ko'rsatishga to'liq o'tish;

➤ ikkinchidan, soliq solish ob'ektlari va soliq solinadigan bazaning o'z vaqtida hamda ishonchli hisobga olinishini ta'minlash, vakolatli organlar va tashkilotlar mansabdor shaxslarining soliq solish masalalari bilan bog'liq bo'lgan ishonchli axborotni o'z muddatida taqdim etish bo'yicha mas'uliyatini kuchaytirish;

➤ uchinchidan, soliq majburiyatlarini bajarishda soliq to'lovchilarga har tomonlama ko'maklashish, soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq to'lovchilarning huquqiy madaniyatini oshirish, soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarni joriy etish;

➤ to'rtinchidan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar dinamikasi va hududlarning soliq salohiyatini tizimli tahlil qilish orqali soliq solish ob'ektlarini to'liq qamrab olishni ta'minlash va soliq solinadigan bazani kengaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish;

➤ beshinchidan, faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining faoliyatini tiklashga har tomonlama ko'maklashish,

past rentabelli va zarar ko'rib ishlayotgan korxonalarining moliyaviy ahvolini sog'lomlashtirish, o'zaro hisob-kitoblar mexanizmlarini mustahkamlash, soliq qarzi oshishiga yo'l qo'ymaslik orqali soliq solinadigan bazani kengaytirish;

➤ oltinchidan, soliq solish masalalarida, shu jumladan respublika va mahalliy budjetlar daromadlarini oshirishning qo'shimcha zaxiralarini aniqlash orqali moliya organlari, manfaatdor vazirlik va idoralar, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish;

➤ ettinchidan, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, soliq organlarini ma'naviy-axloqiy jihatdan yuqori malakali xodimlar bilan to'ldirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, shuningdek xodimlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasini ta'minlash va ular uchun xizmatni o'tashning munosib shart-sharoitlarini yaratish va shu kabilar.

Mazkur farmon bilan 2018-yil 1-yanvardan boshlab, soliq organlari va halol soliq to'lovchilar o'rtasida ularga joriy soliq solish masalalarini hal qilishda har tomonlama ko'maklashgan holda kengaytirilgan axborot almashinuvini nazarda tutuvchi soliq nazoratining zamonaviy shakli – soliq monitoringi joriy etildi, yirik soliq to'lovchilar bo'yicha soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat soliq boshqarmalari tomonidan amalga oshirila boshlandi, vaqtinchalik moliyaviy qiyinchiliklarga to'qnash kelgan halol soliq to'lovchilar – xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq ta'tillari berildi, o'tkazilgan kameral nazorat natijalari bo'yicha aniqlangan tafovutlar yuzasidan soliq to'lovchilar tomonidan asoslar taqdim etilmagan taqdirda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summalarini sud tartibida undirish joriy etildi, ortiqcha to'langan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni qaytarish yoki hisobga olish soliq to'lovchi vakolatli

organlarga murojaat etgan sanadan boshlab 15 ish kuni ichida amalga oshirila boshlandi, davlat soliq xizmati organlariga kirim hujjatlarini rasmiylashtirmasdan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qiladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini 5 bank kunigacha bo'lgan muddatga vaqtinchalik to'xtatib turish vakolati berildi.

Soliq tushumlarini tushishini ko'paytirish, ortiqcha ma'muriyatlilik mexanizmlarini soddalashtirish, soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish maqsadida soliq xizmati organlarining faoliyati tanqidiy jihatdan qayta ko'rib chiqildi va tarkibiy o'zgartirishlar amalga oshirildi. Xususan, davlat soliq xizmati organlarining shtatlar sonini qisqartirish hisobidan cheklangan shtat soni 41 nafardan iborat bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi tuzilmasida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga tushumlarning to'liqligini nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etildi, O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasida Bozorlar va savdo komplekslari faoliyatini nazorat qilish bosh boshqarmasi hamda Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida naqd xorijiy valyuta muomalasiga yo'l qo'ymaslik ustidan nazorat qilish, qisqa muddatli tekshirishlarni tashkil etish bo'yicha maxsus boshqarma negizida Chakana savdo va xizmat ko'rsatish sohasida huquqbuzarliklarni profilaktika qilish bosh boshqarmasi, Axborot-tahlil bosh boshqarmasining Texnik boshqarmasi negizida Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosh boshqarmasi tashkil etildi.

Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tuzilmasida Axborot-tahlil bosh boshqarmasi Tahlil va prognozlashtirish bosh boshqarmasiga, Soliq solish metodologiyasi boshqarmasi Metodologiya va soliq organlarini modernizatsiya qilish boshqarmasiga,

Axborot xizmati Jamoatchilik bilan aloqalar va huquqiy axborot bo'limiga, yuridik bo'lim Yuridik boshqarmaga aylantirildi, soliq organlari faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun mas'ul bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi raisining o'rinbosari – Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bosh boshqarmasi boshlig'i lavozimi joriy etildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad esa, soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirishga, uning shaffofligini ta'minlashga qaratildi.

Yangi O'zbekiston sharoitida soliq siyosatini yanada takomillashtirishning muhim yo'nalishi O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining ishlab chiqilishi va uning izchil amalga oshirilishi bo'ldi. Bu konsepsiya bilan shu vaqtda qadar soliq tizimida yig'ilib qolgan bir qator muammolar:

- umumbelgilangan soliqlarni to'lovchilar uchun soliq yuki darajasining yuqoriligi, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan va umumbelgilangan tizimida soliqlarni to'laydigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasidagi soliq yuki darajasidagi farqning sezilarliligi;

- qo'shilgan qiymat solig'ini undirishning samarasiz tizimi, soliq to'lovchilarning aylanma mablag'larini jalb qiladigan, shuningdek, iste'mol mahsulotining oraliq va yakuniy qiymati qimmatlashishiga olib keladigan hamda yirik va kichik biznes o'rtasidagi kooperatsiyaning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan majburiy to'lovlarning mavjudligi;

- soliq to'lovchilar tomonidan xodimlarning real sonini va mehnatga haq to'lash fondini yashirishga olib keluvchi mehnatga haq to'lash fondi soliq stavkalarining yuqoriligi;

- imtiyozlarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish bo'yicha ta'sirchan tizimning mavjud emasligi sababli

sogʻlom raqobatni taʼminlashga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi, xoʻjalik yurituvchi subʼektlarni soliq va bojxona, shu jumladan individual xususiyatga ega boʻlgan imtiyozlar hisobiga qoʻllab-quvvatlash amaliyotining keng tarqalganligi;

– davlat organlari va tashkilotlari oʻrtasida axborot almashish mexanizmlarining, elektron soliq maʼmuriyat-chiligi hamda soliq nazoratini amalga oshirish shakl va uslublarining takomillashmaganligi;

– oʻtkaziladigan nazorat tadbirlarining sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatuvchi va insofli tadbirkorlik subʼektlarining faoliyatiga aralashishlarni kamaytirishga toʻsqinlik qiluvchi nazorat faoliyatini amalga oshirishda xavf-xatarlarni tahlil qilish va boshqarishning aniq tizimi yoʻqligi;


– mahalliy soliq va yigʻimlarning maʼmuriyatchiligi mexanizmlarining samarasizligi oqibatida ularning yigʻiluvchanlik darajasi yetarli emasligi, shuningdek, koʻchmas mulk va yer uchastkalarini toʻliq hisobga olish va qiymatini obʼektiv aniqlashning mavjud emasligi¹ va shu kabilarni tizimli ravishda hal etishni taqozo etdi.

Aynan ushbu muammolarni hal etishning ustuvor yoʻnalishi sifatida Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yoʻnalishlari etib quyidagilar belgilandi:

Mazkur konsepsiya doirasida Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi doirasida 2019 yil 1 yanvardan boshlab: barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligʻining yagona stavkasini 12 foiz miqdorida joriy etildi, shundan

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «Oʻzbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish kontsepsiyasi toʻgʻrisida»gi PF-5468-sonli farmoni

0,1 foizini shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob varaqlariga yo'naltirilgan holda, ayrim toifadagi fuqarolarning mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 1,41 baravari miqdoridagi daromadlarini soliq solishdan ozod qilishning amaldagi tartibi saqlab qolindi.



Fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallarini bekor qilindi. Pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida budjet tashkilotlari va davlat korxonolari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik

shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi.

Oborot (tushum)dan soliqlarni optimallashtirgan holda umumbelgilangan va soddalashtirilgan soliqlar to'lovchilarni soliqqa tortish, shuningdek, soliq solishning soddalashtirilgan tartibiga o'tish mezonlari quyidagilar orqali takomillashtirildi:

– davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni bekor qilish;

– yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i stavkasini 14 foizdan 12 foizgacha, tijorat banklari uchun — 22 foizdan 20 foizgacha pasaytirish, shuningdek, mobil aloqa xizmati ko'rsatayotgan yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) uchun rentabellik darajasidan kelib chiqib ular uchun qo'shimcha foyda solig'i hisoblash tartibini bekor qilgan holda 14 foizdan 20 foizgacha oshirish;

– dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasini 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirish;

– o'tgan yil yakunlari bo'yicha yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so'mdan oshgan yoki yil davomida belgilangan chegaraviy miqdorga yetgan korxonalarni umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tkazish.

Barcha tadbirkorlik sub'ektlari, shu jumladan oboroti (tushumi) 1 milliard so'mgacha bo'lgan yuridik shaxslar uchun yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni joriy etildi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan ilgari xususiy lashtirilgan ob'ektlardan samarasiz foydalanayotgan

yuridik shaxslar uchun oshirilgan stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda, 5 foizdan 2 foizga pasaytirildi. Yillik oboroti (tushumi) 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan soliq to‘lovchilar uchun oborotdan (tushumdan) soliqni 4 foiz miqdordagi bazaviy stavkadan kelib chiqib hisoblash va to‘lash tartibini hamda qo‘shilgan qiymat solig‘ini ixtiyoriy ravishda to‘lash imkoniyatini belgilandi, yagona er solig‘i to‘lovchilar uchun soliq solish tartibini saqlab qolindi.

Darhaqiqat qisqa davrda O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining amaliyotga joriy etilishi natijasida mehnatga haq to‘lash jamg‘armasiga soliq yuki kamaytirildi, aylanma mablag‘lardan olinadigan soliqlar optimallashtirildi, davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalarni bekor qilish va yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasini kamaytirish orqali soliq tizimi qayta ko‘rib chiqildi. Soliq tizimini yanada takomillashtirish, iqtisodiyotda xufiyona aylanmani qisqartirish va O‘zbekiston Respublikasi soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasining asosiy yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni qabul qilindi va uning asosida O‘zbekiston soliq tizimida soliq ma‘murchiligi yanada soddalashtirilgan holda takomillashtirildi, Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasi va Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xaritasi» tasdiqlandi.

Ushbu farmon asosida shunday tartib o‘rnatildiki, unga ko‘ra¹, unga muvofiq tadbirkorlik sub’ektlari aniqlangan soliqqa oid huquqbuzarlikni tan olib, davlat soliq xizmati organlarining soliqqa oid huquqbuzarlik uchun javobgarlikka tortish to‘g‘risidagi qarorini olgan kundan e‘tiboran o‘n kun muddat ichida moliyaviy jarimalarni ixtiyoriy ravishda to‘lasa, tadbirkorlik sub’ektlarining mansabdor shaxslari yoki xodimlari yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi fuqarolar mazkur huquqbuzarlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan jinoiy va ma‘muriy javobgarlikdan ozod etiladigan bo‘ldi.

2020 yil 1 yanvardan boshlab, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tadigan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar davlat soliq xizmati organlarida ushbu soliqning to‘lovchisi sifatida majburiy hisobga olinishi, va bu qo‘shilgan qiymat solig‘i summasini hisobga olishning sharti hisoblanishi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tishda ushbu soliq summasi qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tilgan sanadan avvalgi oxirgi 12 oyda xarid qilingan tovar-moddiy zaxiralarning tasdiqlangan qoldiqlari bo‘yicha realizatsiya hajmiga mos keladigan ulushda hisobga olinishi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tish yoki yagona soliq to‘lovini to‘lashni rad etish to‘g‘risidagi xabarnoma qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lashga o‘tiladigan oy boshlanishidan oldin o‘n ish kunidan kechiktirmasdan taqdim etilishi belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, mazkur farmonda chetel fuqarolari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi chegarasini kesib o‘tishda xarid qilingan tovarlar uchun to‘langan qo‘shilgan qiy-

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi “Soliq ma‘muriyatchiligini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5468-sonli Farmoni

mat solig'ini qaytarish («tax free») tartibini belgilash, soliqlar bo'yicha to'lovlarni keyinchalik bo'lib-bo'lib foizi bilan qaytarish orqali kamaytirishni nazarda tutuvchi «investitsiyaviy soliq kreditlari» institutini joriy etish, soliq to'lovchi — yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor unga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy jarimalar to'g'risidagi qarorni olgan kundan boshlab, qo'llanilgan moliyaviy jarimalar miqdorining 50 foizini o'n kun davomida ixtiyoriy ravishda to'laganda, uni jarima summasining qolgan qismini to'lashdan ozod etish bo'yicha moliyaviy jarimalarni undirishning soddalashtirilgan tartibini joriy etish, yuridik shaxslar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan soliq solishning soddalashtirilgan tartibini qo'llash maqsadida yalpi tushumning chegaraviy miqdorini sun'iy pasaytirishga qaratilgan xatti-harakatlarga (bo'linish, yangi tadbirkorlik sub'ektlarini tashkil etish va boshqalar) chek qo'yish choralarini ko'rish, mazkur holatlar aniqlanganda to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar summasiga davlat soliq xizmati organlari tomonidan tuzatish kiritish va ularni sud tartibida undirish mexanizmlarini joriy etish masalalari ham aks ettirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018-yil 24-dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2019-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-508-sonli Qonuni, 26-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari hamda 2020–2021-yillarga budjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qaror asosida soliq yukini bosqichma-bosqich pasaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiyotni

tezkor rivojlantirish va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini yaxshilashning muhim shartlari belgilab berildi.

Qonun bilan 3 ta, jumladan O‘zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentyabrda qabul qilingan «Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida»gi 938–XII-sonli Qonuni (4 ta moddasiga), O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–136-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (105 ta moddasiga, shundan 94 tasiga o‘zgartirish kiritilgan, 7 ta yangi qo‘shilgan va 4 tasi bekor qilingan, shuningdek, 1 ta bo‘lim va 1 ta bob bekor qilingan) hamda O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrda qabul qilingan O‘RQ–360-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksiga (21 ta moddasiga) o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

2019-yil 1-yanvardan barcha fuqarolar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining 4 shkalali va hisoblab chiqarilishi murakkab bo‘lgan tizimidan voz kechilib, 12 foiz miqdorida (2018-yilda 0; 7,5; 16,5; 22,5 %)gi yagona stavka joriy etildi;

– fuqarolarning mehnatga haq to‘lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga ushlab qolinadigan sug‘urta badallari bekor qilindi (2018 yilda 8 %);

– pensiya tizimining barqarorligini ta’minlash maqsadida budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg‘armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko‘proq miqdorda bo‘lgan yuridik shaxslar uchun yagona ijtimoiy to‘lovstavkasi 25 foiz miqdorida belgilanib, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to‘lov stavkasi 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirildi;

– yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkasi

14 foizdan 12 foizga, tijorat banklari uchun – 22 foizdan 20 foizga pasaytirildi;

– polietilen granula ishlab chiqaruvchi va mobil aloqa xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalaridan rentabellik darajasidan kelib chiqib qo'shimcha foyda solig'i to'lash tartibi bekor qilingan holda, ular uchun 20 foiz miqdori dayagona stavka belgilandi.

Shuningdek, yagona soliq to'lovi va yagona ijtimoiy to'lovning eng kam miqdorlari, yuk tashish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi yuridik shaxslar uchun, soliqqa tortish tizimidan qat'i nazar, bitta transport vositasiga hisoblaganda ular tomonidan to'lanayotgan soliqlarning jami miqdori yakka tartibdagi tadbirkorlar ushbu faoliyat turi bo'yicha to'layotgan qat'iy belgilangan soliq miqdoridan kam bo'lmasligi to'grisidagi tartibi bekor qilindi.

2019 yildan boshlab shunday tartib o'rnatildiki, unga ko'ra¹, kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi 100 million so'mdan oshgan, biroq bir milliard so'mdan oshmaganyakka tartibdagi tadbirkorlaryagona soliq to'lovini 4 foiz stavkada to'lashga o'tkazildi, kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi 100 million so'mdan oshmaganyakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy belgilangan soliqnihisoblash va to'lash tartibi saqlab qolindi, kalendar yilida tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bir milliard so'mdan oshganyakka tartibdagi tadbirkorlar soliqlar va boshqa

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2018 yil 24 dekabrda "Soliq va byudjet siyosatining 2019 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RBQ-508-sonli Qonuni.

majburiy to'lovlarni yuridik shaxslar uchun nazarda tutilgan tartibda to'laydigan bo'ldi. Foydali xizmat muddati tugagan, to'liq eskirgan uskunalardan foydalanish uchun to'lov bekor qilindi.

Tajriba tariqasida meva-sabzavotchilik mahsulotlari (sabzavotlar, poliz ekinlari, mevalar, tokzorlar) bilan band qilingan sug'oriladigan va sug'orilmaydigan erlar uchun meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilaridan undiriladigan yagona er soligining bazaviy stavkalari kiritildi. Investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda ahamiyatga ega bo'lgan dividendlar va foizlar ko'rinishidagi daromadlar bo'yicha to'lov manbaidan ushlab qolinadigan foyda solig'i stavkasi 10 foizdan 5 foizgacha pasaytirildi. Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasini, bino va inshootlardan, shu jumladan ilgari xususiyashtirilgan ob'ektlardan samarasiz foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun oshirilgan stavkada soliq hisoblash tartibini saqlab qolgan holda, 5 foizdan 2 foizga pasaytirildi.

Shuningdek, yirik soliq to'lovchilar, joylashgan eridan qat'i nazar, soliq hisobotini Yirik soliq to'lovchilar bo'yicha hududlararo davlat soliq inspeksiyasiga taqdim etadigan bo'ldi, soliq to'lovchilarni pasportlashtirish (68¹-modda) sifatida yangi soliq nazorati shakli qo'shilgan bo'lib, Soliq to'lovchilarni pasportlashtirish – ko'zdan kechirish, izlash hamda so'rov o'tkazish usullari bilan soliq solish ob'ektlarini, soliq solish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarni va soliq to'lovchilarning soliq solinadigan bazasini aniqlashtirish maqsadida amalga oshirilshi, mavzuli ekspres-o'rganish (70¹-modda) sifatida yangi soliq nazorati shakli ham qo'shilgan bo'lib, Mavzuli ekspres-o'rganish - kameral nazorat natijalari bo'yicha joyiga chiqqan holda, soliq to'lovchi tomonidan taqdim etilgan axborotning

ishonchliligini hamda soliq to'lovchining hisobotlarida aks ettirilgan soliqlar va bojxona imtiyozlarini qo'llashning qonuniyligini tasdiqlash uchun amalga oshirilishi va muddati besh ish kunidan ortiq bo'lmasligi kerakligi belgilandi.

Xronometraj ko'zdan kechirish (71-modda) tushunchasi o'zgartirish kiritildi, ya'ni, xronometraj ko'zdan kechirish – xronometraj o'tkaziladigan davrda tushumlarning haqiqiy hajmlarini, pul tushumi summalarini, ishlab chiqarish hajmlarini, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish hajmlarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) haqiqiy realizatsiya hajmlarini aniqlashga doir soliq nazoratining shakli bo'lib, soliq solish ob'ektlarini, soliq solish bilan bog'liq bo'lgan ob'ektlarni va soliq solinadigan bazani aniqlash uchun asos bo'lishi deb belgilandi.

«Benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq» o'rniga «benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilganlik uchun olinadigan aksiz solig'i» kiritildi. soliq tekshiruvlari turlari o'zgardi, tekshiruvlar quyidagi:

- tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra o'tkaziladigan tekshiruvlar;

- vakolatli organni xabardor qilish tartibida o'tkaziladigan tekshiruvlarga bo'lindi.

Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirishlarni muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli organ bilan kelishuvga ko'ra o'tkaziladigan tekshiruvlar jumlasiga quyidagilar kirishi belgilandi:

- soliq to'lovchining moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish (taftish);

- jismoniy va yuridik shaxslarning qonun hujjatlari buzilishi faktlari to'g'risidagi murojaatlari asosida o'tka-

ziladigan tekshirish yoki tavakkalchilikni tahlil etish natijalarining yakunlari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tashabbusiga ko'ra tekshirish. Bunda esa, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatining soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'ttiz kalendar kundan oshmasligi, qisqa muddatli soliq tekshiruvini o'tkazish muddati o'n ish kunidan oshmasligi belgilab qo'yildi.

O'z navbatida Soliq to'lovchi bo'lgan yuridik shaxslarning banklardagi hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turish davlat soliq xizmati organlarining qarorlari asosida ham amalga oshirilishi mumkinligi, to'lovning belgilangan muddatidan keyingi kundan e'tiboran muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun, (to'lov kuni ham shunga kiradi) 0,045 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'lishi, agar penyani hisoblash soliq tekshiruv natijalari bo'yicha davlat soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilsa, – 0,06 foiz miqdorida penya hisoblashga sabab bo'lishi kabi o'zgartirishlar kiritildi.

Ma'lumki, soliq konsepsiyasini qabul qilinishidan ya'ni 2018-yilning iyulidan boshlab Soliq kodeksining yangi tahriri loyihasi ustida ishlar amaga oshirildi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi loyihasi yuzasidan fuqarolar hamda tadbirkorlik sub'ektlari vakillari tomonidan 600 ga yaqin taklif va mulohazalar bildirildi va qizg'in muhokama qilindi. Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi loyihasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yigirma beshinchi yalpi majlisida ko'rib chiqilib ma'qullandi. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-sonli Qonuni bilan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi tasdiqlandi. Ushbu soliq kodeksining qabul qilinishi bilan bir qator muhim o'zgarishlar ro'y berdi.

Ya'ni, soliqlar va yig'implarning soni va turlari,

shuningdek alohida soliq rejimlari optimallashtirildi. Xususan soliqlarning 9 turi, katta bo'lmagan korxonalar uchun (1 mlrd. so'mgacha oboroti bilan) esa aylanmadan soliq ko'rinishidagi alohida soliq rejimi saqlanib qolindi. Qo'shilgan qiymat solig'ini qaytarib berish tizimi tubdan o'zgartirildi. Soliq organlarining ustuvor vazifalari sifatida soliq to'lovchilar bilan hamkorlik asosida ish yuritish prinsipi kiritildi. Asosiy vositalar hamda ko'chmas mulk ob'ektlari xarid qilinganda yoki yangidan barpo etilganda qo'shilgan qiymat solig'ini bir yo'la hisobga olinishini nazarda tutuvchi tartib joriy etildi. Ortiqcha to'langan soliq summalarini o'z vaqtida qaytarilmaganligi yoki soliq organlari tomonidan asossiz undirilganligi uchun, Markaziy bankning qayta moliyalashtirish stavkasi miqdorida budjetdan soliq to'lovchilarga foiz to'lash belgilandi, soliq qarzini debitorlaridan undirish tartibidan voz kechildi. Soliq organlari tomonidan axborot texnologiyalari asosida amalga oshiriladigan soliq tekshiruvlarining yangicha tartibi joriy etildi, sog'lom raqobat muhitini ta'minlash maqsadida, transfert narxlarini nazorat qilish bo'yicha yangi normalar kiritildi.

Mazkur Soliq kodeksining qabul qilinishidan so'ng, uni amaliyotda qo'llash jarayonida ayrim o'zgartirishlar kiritib borilmoqda. 2021 yilda O'zbekiston Soliq kodeksiga bir qator yangilanishlar va o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, 2021 yil uchun soliq siyosatida soliqlarning asosiy stavkalari saqlab qolindi, xususan QQS (15%), foyda solig'i (15%, ayrim toifalar uchun — 20%), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12%), yuridik shaxslarning mol-mulk solig'i (2%), qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'i (0,95%), ijtimoiy soliq (xo'jalik yurituvchi sub'ektlar — 12%, budjet tashkilotlari — 25%) va oborot solig'i (bazaviy stavka — 4%). QQSni hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, 15 foizli stavka saqlanib qolmoqda. Daromad

miqdoridan qat'i nazar, QQS to'laydigan korxonalar doirasi alkogolli ichimliklar, shu jumladan pivo chakana savdosi uchun statsionar savdo shoxobchalari, shuningdek, bozorlar va savdo majmualari hisobiga kengaydi. Tovarlar (xizmatlar) ning savdo aylanmasi oyiga 1 mlrd so'mdan oshmaydigan soliq to'lovchilar uchun soliq davri chorak (kvartal) sifatida belgilanadi.

73 turdagi aksiz solig'i bekor qilindi, shu jumladan elektrotexnika mahsulotlari (muzlatkichlar, konditsionerlar, kir yuvish mashinalari), traktorlar va yarim romorklar (pritsep), oziq-ovqat mahsulotlari (margarin, qandolat mahsulotlari va boshqa mahsulotlar) va boshqalar. Aksiz soliq to'lovchilariga aniqlik kiritildi, xususan, yakuniy iste'molchiga sotiladigan olib kirilgan (import qilingan) aksiz to'lanadigan tovarlar (benzin, dizel yoqilg'isi, suyultirilgan va siqilgan gaz) o'z ehtiyojlari uchun ishlatilganda, ushbu tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun olib kirishni amalga oshirgan shaxslar soliq to'lovchilari bo'lib e'tirof etiladi. Ishlab chiqaruvchilar tomonidan turistik marshrutlar bo'ylab tashkillashtirilgan degustatsiya (tatib ko'rish) zonalarida (joylarda) sotiladigan tabiiy vinolar (butilkalardan tashqari) soliqqa tortilmaydi. Uyali aloqa xizmatlarining aksiz solig'i stavkasi 25 foizdan 15 foizgacha pasaytirildi.

Foyda solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, 2020-yilda amal qiladigan soliq stavkalari saqlab qolindi. Soliq kodeksining 304-moddasi 8, 9, 14, 15 va 17-bandlariga muvofiq kelib tushgan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulk, shuningdek, soliq va bojxona imtiyozlari berilgani natijasida bo'shagan mablag'lar hisobidan olingan yoki sotib olingan (barpo etilgan) mol-mulk amortizatsiya aktivlari sifatida tan olinmaydi va amortizatsiya qilinmaydi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini

hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, 12 foizlik soliq stavkasi saqlab qolindi. Ijtimoiy soliqni hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, 2020-yilda yuridik shaxslar uchun 12 foiz, budjet tashkilotlari uchun esa 25 foiz soliq stavkalari saqlanib qolindi. Oborot solig'ini hisoblash va to'lash tartibi saqlanib qoldi. Yuridik va jismoniy shaxslar uchun mol-mulk solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, yuridik shaxslar uchun bazaviy soliq stavkasi 2 foiz miqdorida saqlanib qolindi.

Jismoniy shaxslar uchun 2020 yilda amal qiladgan soliq stavkalari 1,15 baravarga indekslandi. Buning sababi shundaki, jismoniy shaxslar uchun ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlar tomonidan belgilanadigan soliq solinadigan ob'ektlarning kadastr qiymatining (soliq bazasi) kattaligi 2018-yilda saqlanib qolindi. Shu bilan birga, 2021-yilda jismoniy shaxslar uchun 2018-yilda aniqlangan kadastr qiymati asosida hisoblangan soliq miqdori 2020 yil uchun hisoblangan soliq miqdoridan 30 foizdan oshmasligi kerakligi belgilandi va soliq imtiyozi sayyohlik zonalarda joylashgan sanatoriy-kurort muassasalarining bir qismida bekor qilindi. Shu bilan birga, Qoraqalpog'istonning Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari viloyat Kengashlariga turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriya muassasalari egallab olgan yer uchastkalariga nisbatan soliq stavkasini kamaytirish yoki mol-mulk solig'idan ozod qilish huquqi berildi.

Yuridik va jismoniy shaxslardan yer solig'ini hisoblash va to'lash tartibi, shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlari uchun belgilangan soliq stavkasi qishloq xo'jaligi yerlarining standart qiymatiga nisbatan 0,95 foiz miqdorida saqlanib qolindi. Meva-sabzavotchilik qishloq xo'jaligi korxonalari uchun meva-sabzavot mahsulotlari egallagan erlar bo'yicha, shuningdek, dehqon xo'jaliklarining sug'oriladigan va

sug'orilmaydigan qishloq xo'jaligi yerlari uchun qishloq xo'jaligi yerlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda yer solig'i to'lash tartibi joriy etildi.

Dehqon xo'jaligi uchun berilgan qishloq xo'jaligi yerlariga soliqni hisoblash soliq solish ob'ekti bo'lmagan qishloq xo'jaligi yer uchastkalarini chiqarib tashlagan qishloq xo'jaligi yerlarining standart qiymatini belgilaydigan organ ma'lumotlari asosida yer uchastkasi joylashgan joyda soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslarga yakka tartibdagi uy-joy qurish va turar joy binosini obodonlashtirish uchun beriladigan uy-joy mulkdorlari yer uchastkalari yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun ajratilgan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkasiga qo'llanadi.

Soliq kodeksida yuridik va jismoniy shaxslar uchun qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan yerlar uchun soliq-larning asosiy stavkalarini (mutlaq ma'noda) mamlakat hududlari sharoitidan kelib chiqib belgilandi.

Qishloq xo'jaligi bo'lmagan yerlar uchun soliq stavkalarining o'ziga xos miqdori quyidagi tartibda belgilandi:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va viloyatlar xalq deputlari Kengashlari 0,5 dan 2,0 gacha bo'lgan kamayturuvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo'llagan holda, belgilangan bazaviy soliq stavkalari asosida tuman va shaharlar kesimida ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab, soliq stavkalarini belgilaydi;

- tumanlar va shaharlar xalq deputatlari Kengashlari belgilangan soliq stavkalariga Toshkent shahri uchun esa — belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo'lgan kamayturuvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni ularning hudularida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko'cha kesimida kiritadi.

Shu bilan birga, tumanlar va shaharlar Kengashlari yakka tartibdagi yer uchastkalariga nisbatan 3 baravargacha oshirilgan yer solig'i stavkalarini, shuningdek, sayyohlik zonalarida joylashgan maydoni 1 gektardan ortiq jismoniy shaxslardan foydalanishda yer uchastkalarini belgilash huquqiga ega. Yuridik shaxslar 2021 yil uchun qishloq xo'jaligiga tegishli bo'lmagan yerlar bo'yicha soliq hisobotlarini soliq idoralariga 2021 yilning 10 yanvarigacha taqdim etishlari lozim. Barcha turdagi chiqindilarni saqlash va ularni yo'q qilish uchun ajratilgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i bo'yicha soliq solish ob'ektidan chiqarib tashlandi.

Quyidagi erlarning egallagan qismida yuridik shaxslar uchun soliq imtiyozlari bekor qilindi.


- sayyohlik zonalarida joylashgan kurort muassasalari;
- onalarning dam olish va sog'lomlashtirish joylari, dam olish uylari.

Shu bilan birga, Jo'qorg'i Kenges va hududiy kengashlarga turistik zonalarda joylashgan alohida sanatoriy-kurort ob'ektlari egallab olgan yer uchastkalariga nisbatan soliqning kamaytirilgan stavkasini belgilash yoki yer solig'idan ozod qilish huquqi berildi.

Agar, O'zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasiga o'tish davridagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlarini nazariy jihatdan tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagicha guruhlash mumkin:

Mazkur yo'nalishlar O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi 29.12.2021 yildagi O'RQ-741-son qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2021 yildagi PQ-73-sonli O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonuni ijrosi-

ni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risidagi" qarori mazmunlarida o'z aksini topgan.



10-rasm. O'zbekiston Respublikasining Harakatlar strategiyasidan taraqqiyot strategiyasiga o'tish davridagi soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari¹

Agar, ushbu soliq siyosatining birinchi - "Tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash" yo'nalishini qaraydigan bo'lsak, unda asosiy vositalarga investitsiyalar kiritilishini rag'batlantirish maqsadida, foyda solig'i bazasidan chegiladigan ayrim xarajatlar miqdori oshirilishi; faoliyat natijasida ko'rilgan va kelgusi davrga o'tkaziladigan

¹ Mualliflar ishlanmasi.

zararlarning cheklangan miqdori joriy soliq davri soliq bazasining 60 foizidan 100 foizigacha oshirilishi; mahalliy va xorijiy investorlarga teng shart-sharoitlar yaratish maqsadida, respublikada doimiy muassasa orqali faoliyat yuritadigan norezidentlar tomonidan foyda solig'i bilan birga, sof foydadan dividend solig'i (10 foiz) to'lash tartibi joriy etilishi; tadbirkorlarga ular umumiy maydoni 1 000 kv metrdan (10 sotixdan) ortiq bo'lgan yer uchastkalariga va (yoki) bino (inshoot)larga mulk huquqini qo'lga kiritganda mol-mulk va yer solig'i bo'yicha to'lovlarni olti oyga kechiktirish huquqi berilishi; soliq hisobotini belgilangan muddatlarda taqdim etmaganlik uchun moliyaviy sanksiyalar bekor qilinishi; avtotransport vositalari sotib olinganda ularning qiymatiga nisbatan 3 foiz miqdorida hamda dvigatel quvvatiga qarab bazaviy hisoblash miqdorlarida yig'imga undirish tartibi bekor qilinishi; yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida quyidagilarga yo'naltirgan mablag'lar daromad solig'idan ozod qilinishini o'z ichiga olganligini ko'rish mumkin.

Ikkinchi yo'nalish "Byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash" borasidagi soliq siyosati orqali asosiy soliq stavkalari – qo'shilgan qiymat solig'i (15 foiz), foyda solig'i (15 foiz), jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (12 foiz) stavkalari o'zgarishsiz qoldirilayotganligi; qishloq xo'jaligidagi soliqlar – yer solig'i (0,95 foiz) va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (1 metr kub uchun 40 so'm) stavkalari ham amaldagi miqdorlarda saqlab qolinayotganligi; qat'iy miqdorda belgilangan aktsiz, yer, mol-mulk, suv soliqlari stavkalari o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinayotganligi; mahalliy polietilen granulalariga aktsiz solig'i stavkasi amaldagi 20 foizdan 10 foizga pasaytirilib, import polietilenga ham 10 foiz stavkada aktsiz solig'i joriy etilayotganligi; tabiiy gazni

eksportga hamda import qilingan tabiiy gazni ichki bozorda realizatsiya qilishda aksiz solig'i stavkasi nol foiz miqdorida belgilanayotganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, ikkinchi yo'nalishda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi amaldagi 2 foizdan 1,5 foizga pasaytirildi, soliq solish maqsadida, 1 metr kvadrat ko'chmas mulk ob'ekti uchun minimal qiymat joriy etildi (Toshkent shahrida – 2,5 mln so'm, Nukus shahri va viloyat markazlarida – 1,5 mln so'm, boshqa hududlarda – 1 mln so'm), sug'oriladigan yer maydoni 25 gektardan ko'p qishloq xo'jaligi korxonalarini qo'shilgan qiymat solig'i to'lashga o'tkazilishi belgilandi, xususiy tijorat tashkilotlariga jismoniy tarbiya va sport xizmatlari bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'idan berilgan imtiyozlar bekor qilindiki, bulardan ko'zlangan asosiy maqsad byudjet daromadlarining bir maromda tushishini ta'minlash, soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini to'laroq amal qilishini amalga oshirishdan iborat ekanligini anglash mumkin.

Taraqqiyot strategiyasi sharoitidagi soliq siyosatining "Foydali qazilmalarni qazib olishni soliqqa tortish" doirasidagi uchinchi yo'nalish borasida quyidagi soliq siyosati taktikasi qo'llanilayotganligini ko'rish mumkin:

Birinchi, oltin, kumush, platina, palladiy, mis, ruh, qo'rg'oshin

va molibden bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning soliq solish bazasi amaldagi o'rtacha sotish narxidan London metall birjasining narxlariga o'zgartirildi, ikkinchi, tabiiy gaz, neft va metallarni qazib olib, yakuniy iste'molchiga sotadigan korxonalar uchun yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblashda soliq bazasini tashish va qayta ishlash bilan bog'liq xarajatlar summasiga kamaytirildi, uchinchi, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari: neft bo'yicha – 20

dan 10 foizga, gaz bo'yicha – 30 dan 10 foizga, oltin va mis uchun – 10 dan 7 foizga, volfram bo'yicha – 10,4 dan 2,7 foizga, uran bo'yicha esa – 10 dan 8 foizgacha pasaytirildi, to'rtinchidan, yangi foydalanishga topshirilgan neft va gaz quduqlari uchun mol-mulk solig'idan dastlabki ikki yil davomida to'liq ozod qilish, keyingi uch yilda belgilangan soliq stavkasining 50 foiziga kamaytirib qo'llash orqali yangi konlarni o'zlashtirish uchun rag'batlantirish mexanizmi yaratildi, beshinchidan, foydali qazilmalarning narxi oshishi natijasida vujudga keladigan yuqori darajadagi foydaning bir qismini byudjetga undirish maqsadida maxsus renta solig'i joriy qilindi. Agar, mazkur uchinchi yo'nalishning mazmuniga qaraydigan bo'lsak, unda asosan soliq imtiyozlarining nisbatan bekor qilinishi va ayrimlari bo'yicha soliq imtiyozlarining joriy etilishi bilan izohlash mumkin.

Agar, O'zbekiston respublikasining Harakatlar strategiyasini amalga oshirish bilan bog'liq dastlabki davlatning soliq siyosatidagi ustuvor yo'nalishga qaraydigan bo'lsak, unda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. Harakatlar strategiyasi sharoitidagi dastlabki Prezident farmonlaridan biri bo'lgan "Soliq ma'muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning yig'iluvchanligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi PF-5116-son farmoni ham aynan soliqlarning yig'iluvchanligini oshirish hamda soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga qaratilgan edi. Soliq ma'muriyatchiligini doimiy takomillashtirish hozirgi taraqqiyot strategiyasi sharoitida ham soliq siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olinganligi ko'rish mumkinki, bu to'rtinchi yo'nalish qilib belgilangan "Soliq

ma'muriyatchiligini takomillashtirish" borasidagi taktik yo'nalishda ko'rish mumkin.

Bu yo'nalishda soliq nazoratini ochiq-oshkora tashkil etish hamda soliq organi xodimlari va soliq to'lovchilar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqani cheklash imkonini beruvchi tekshiruvdan oldingi tahlil tizimi joriy etilayotganligi, hisobvaraqa-fakturalar va cheklarda identifikatsiya kodlarini qasddan xato ko'rsatganlik uchun javobgarlik, xususan tovar va xizmatlar qiymatining 1 foizi miqdorda jarima, jismoniy shaxslarning ro'yxatdan o'tgan joyidan qat'i nazar, eng yaqin bo'lgan soliq organiga borish yoki elektron shaklda ariza berish orqali daromad solig'ining ortiqcha to'langan summasini bank kartasiga qaytarish mexanizmi, notijorat tashkilotlar, jumladan byudjet tashkilotlarining qo'shimcha faoliyatidan qo'shilgan qiymat solig'i to'lash majburiyati joriy etilayotganligini ko'rish mumkin.

7.7-§. Soliq siyosatining samaradorligini baholovchi ko'rsatkichlar

Har qanday soliq siyosatining qo'llanilishi va uning natijalariga qarab uning samaradorligini izohlovchi ko'rsatkichlar orqali tahlil qilish soliq siyosatining strategiyasi, konsepsiya va taktikalarining qanchalik puxta ishlanganligi va uning amalga oshirilganligini bildiradi. Soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar, o'z navbatida, ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruhga soliq yukining pasaytirilishiga muvofiq budjet daromadlarining ko'payishi (yoki kamayishi), ishlab chiqarish hajmlarining oshishi (yoki kamayishi), investitsiyalarning samarasi, aholining real pul daromadlarining oshishi (kamayishi), iste'molning ortishi (qisqarishi), narxlar darajasi va shu kabi ko'rsatkichlar kirib,

bu kabi ko'rsatkichlar amalga oshirilgan (oshiralayotgan) soliq siyosatining samaradorligini tavsiflovchi umumiy xulosalarni beradi. Ikkinchi guruhga kiruvchi ko'rsatkichlar esa bevosita soliq siyosatining ichki mexanizmlarining samaradorligini tavsiflaydi. Ular jumlasiga esa quyidagilar kiradi:

Soliq to'lovchilarning miqdor va sifat jihatdan o'zgarishi. Bu ko'rsatkich muayan vaqt (bir yil) davomida jami yangidan tashkil etilgan va tugatilgan yuridik shaxslarning o'rtasidagi nisbat bilan, jami soliq to'lovchilar tarkibidagi miqdor va sifat o'zgarishlarning nisbatini solishtirish orqali aniqlanadi. Soliq to'lovchilarning miqdori va sifat o'zgarish ko'rsatkichlari soliq to'lovchilar faoliyatining soliq to'lash borasidagi samaradorligini ko'rsatadi. Agar soliq to'lovchilarning soni oshgan sharoitda budjetga soliq tushumlari va ishlab chiqarish darajasi o'smaydigan bo'lsa, demak, soliq siyosatining taktikalarining qaysi birlarining qo'llanishi samara bermayotganligini ko'rsatadi yoki aksincha.

Soliq yukining normal (xalqaro mezon darajada: 30-35 foiz) darajada saqlanishi. Soliq yukining darajasining umumiy mezonlar darajasida saqlangan holatining ishlab chiqarishning o'sishi va soliq tushumlarining darajasiga ta'sirini baholash soliq siyosatining qanday samara berayotganligini tavsiflaydi. Yuqori soliq yuki darajasi saqlangan sharoitda ham budjetga soliq tushumlari darajasining kamayib ketishi holati yuz berishi bu boradagi soliq siyosatining samarasizligini ko'rsatadi.

Davlat budjetining bajarilishi holati. Bunda davlat budjetining bajarilishi taqchillik yoki profitsit ko'rsatkichlari bilan amalga oshirilganligiga asoslanadi. Bunda ham davlat budjetining bajarilishi taqchillik ko'rsatkichlari umumiy daraja (xalqaro miqyosda normal holat deb qabul

qilingan yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz atrofida) daligi yoki undan baland ko'rsatkichga egaligi soliq siyosatining etarlicha samara bermayotganligini ko'rsatadi. Budjetning bajarilishi taqchilikning me'yordaligi yoki profitsit ko'rsatkichlariga egaligi esa soliq siyosatining samaradorligini tavsiflaydi.

Soliq imtiyozlarining berilishi va ularning samara berish darajasi. Bunda soliq imtiyozlarining nima maqsadda berilganligi va ushbu maqsadga erishilganligi aniqlanadi. Soliq qonunchiligi va boshqa hukumat darajasidagi qaror va farmonlarga ko'ra berilgan soliq imtiyozlari summalarining budjetga qaytishi, korxonalarining saqlanib qolingani, ish o'rinlarining yaratilganligi, mahsulot tannarxining oshganligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshganligi, aholi real pul daromadlarining ortganligi, investitsiya hajmining ortishi, soliq to'lovchilar sonining oshishi, yangi tashkil etilgan korxonalarining bozorda «yashab qolishi» va raqobat muhitiga moslashib ketish darajasi va shu kabi ko'rsatkichlarga qarab soliq imtiyozining samaradorligi aniqlanadi. Bu kabi ko'rsatkichlardagi ijobiy tendensiyalar soliq imtiyozlari borasidagi davlat siyosatining optimalligini bildiradi.

Soliq qarzdorligining darajasi. Soliq turlari va soliq to'lovchilar guruhi (tarmoqlar, aholi tabaqalari) bo'yicha soliq qarzdorligining darajasi ham soliq siyosatining na qadar to'g'ri ekanligini tavsiflaydi. Uning darajasining kamayib borishi bu boradagi soliq siyosati taktikalarining samara berayotganligini bildiradi, aksincha darajasi esa soliq siyosatining etarlicha samara bermayotganligi ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichni aniqlash va tahlil qilishda, shuningdek, soliq qarzdorligining oshishiga ta'sir etuvchi omillarning tahliliga ham e'tibor berish bu boradagi soliq taktikalarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Import va eksport operatsiyalarining umumiy hajmining darajasi. Muayan vaqt davomida import va eksport operatsiyalarning o'sish va kamayish darajalari ham soliq siyosatining samaradorligini xarakterlaydi. Bunda boj to'lovlarining oshishi bilangina emas, balki import va eksport operatsiyalarida ijobiy (eksportning importdan ortiqligi) yoki salbiy farq (importning eksportdan ortiqligi) ning oshishi yoki kamayish holatlariga, milliy iqtisodiyotda etishmayotgan mahsulotlarning ta'minlanishida import samarasi va eksport operatsiyalari bo'yicha valyuta zaxiralarining ortishi kabi ko'rsatkichlar ham asos qilib olinadi. Shuningdek, eksport mahsulotlarining diversifikatsiyalashuvi va uning tarkibiy o'zgarish darajalari ham muhim ko'rsatkichlardan sanaladi.

Davlat miqyosida boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro shartnomalarning soni va ularning amal qilish darajasi. Boshqa davlatlar bilan ikkiyoqlama soliqqa tortishning oldini olishga qaratilgan xalqaro shartnomalarning soni va ularning ishlashi davlatning xalqaro darajadagi soliq siyosatining samardorligini izohlaydi. Imzolangan shartnomalarning amaliy realizatsiyasi xalqaro darajada soliqqa tortish borasidagi ishlarning ijobiy jihatlarini bildiradi. Xalqaro darajada imzolangan shartnomalarning etarli darajada ishlamasligi xalqaro soliqqa tortish borasidagi soliq siyosatining taktikalariga o'zgartirish kiritishni ko'rsatadi.

Soliq tizimida maxsus soliq rejimlarining qo'llanilishi va ularning samarasi. Soliq siyosatining samaradorligida milliy iqtisodiyot darajasida maxsus soliq rejimlari va soliqqa tortish tartiblarining qo'llanilishi oqibatida iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlar ham soliq siyosatining samaradorligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi.

Boshqa ko'rsatkichlar. Soliq siyosatining samaradorligini

boshqa ko'rsatkichlar jumlasiga soliq to'lovchilarning soliq madaniyatining oshganligi, soliq xizmati organlari xodimlarining xizmat madaniyati darajasi, soliq to'lovchilar tomonidan soliq hisobotlarining o'z vaqtida topshirilish darajasi, soliq to'lovchilarga qo'llanilgan jarimalarning darajasi va uning holati, soliq to'lovchilar tomonidan soliqlarni undirish bilan shug'ullanuvchi organlarning faoliyatidan qoniqish darajasi, xo'jalik sudlarida soliqqa oid bahsli ishlarning ko'rilish darajasi va shu kabi ko'rsatkichlar kiradi, ushbu ko'rsatkichlarning darajasi ularning mazmunidan kelib chiqib, soliq siyosatining samaradorligini tavsiflaydi.

Tayanch so'z va iboralar:

Siyosat, soliq siyosati, soliq siyosati shakllari, soliq siyosati strategiyasi, soliq siyosati taktikasi, vakolatli organlar, soliq siyosati konsepsiyasi, soliq siyosati taktikasiga ta'sir etuvchi omillar, deskritsiyali soliq siyosati, nodeskritsiyali soliq siyosati, soliq siyosati yo'nalishlari, soliq siyosatini baholovchi ko'rsatkichlar, soliq siyosatining yo'nalishlari, soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillari, soliq siyosatining aks ta'siri, soliq siyosati va boshqa siyosat shakllarining uzviy bog'liqligi, soliq siyosati bosqichlari.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq siyosati deganda nima tushuniladi?
2. Soliq siyosatini ishlab chiqish tamoyillarini izohlab bering.
3. Soliq siyosati strategiyasining mohiyatini tushuntirib bering va unga ta'sir etuvchi omillarni sanab bering.
4. Soliq siyosati taktikasi nima? U qanday amalga oshiriladi?
5. Soliq siyosati konsepsiyasining mohiyatini tushuntirib bering.
6. Deskritsiyali va nodeskritsiyali soliq siyosatining qo'llanilish holatlarini tushuntirib bering.
7. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining strategik va taktik yo'nalishlarini izohlab bering.
8. Soliq siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati shakllarining ishtirokini izohlab bering. Soliq ob'ekti nima? Soliq ob'ektlarining tarkibi nimalardan iborat?
9. Soliq siyosatini amalga oshirishda Davlat soliq xizmati organlarining ishtirokini tushuntirib bering.
10. Soliq siyosatida vakolatli organlarning faoliyati qanday muvofiqlashtiriladi?

8-BOB. SOLIQ TIZIMI

8.1-§ Soliq tizimining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibi

Iqtisodiyotda amal qiladigan har qanday munosabat tizim shaklida yuzaga chiqadi. Tizim bu – munosabatlar ichki elementlarining o‘zaro bog‘liq, bir-birini to‘ldirgan shaklda amal qilishini bildiradi. Tizimi bu – grek tilidan olingan bo‘lib, «σύνστημα – butunlik, qismlardan iborat, birlashish» degan ma‘noni beradi. Tizimning asosiy sharti bu – uning elementlarining ikki va undan ko‘p bo‘lishi va ularning o‘zaro bog‘liq holda tizimning faoliyatini ta‘minlashdan iborat. Shuning uchun ham tizim bosh kategoriya va munosabat sifatida mavjud bo‘lib, elementlarining har biri alohida tizim sifatida amal qilishi mumkin. Masalan, soliq tizimining elementi hisoblangan soliq siyosati strategiya, taktikalar va konsepsiya kabi elementlarni qamrab olgan bo‘lib, soliq siyosatining o‘zi ham, uning elementlari ham tizim sifatida mavjud bo‘ladi. Soliq siyosatining elementi bo‘lgan strategiya ishlab chiqilish, amalga oshirilish, takomillashtirish kabi elementlardan tashkil topadi. Demak, biror bir jarayonni tizim sifatida o‘rganish, birinchidan, o‘sha tizimning mohiyatini dialektik tushunishga yordam bersa, ikkinchidan, uning turli qirralarining o‘zaro bog‘liqligining darajasi aniqlanadi va har bir elementning tizimni shakllantirish va uning amal qilishidagi roli ochib beriladi, tizimning rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan jarayonlarni aniqlashga imkoniyat tug‘diradi, uchinchidan esa, tizimiy asosda tadqiq qilish (o‘rganish) tadqiqotning turli xil metodlarini qo‘llash orqali ob‘ektiv natijalar olishga sharoit tug‘diradi.


Soliq kategoriyasining keng munosabatlarni qamrab

olishi uning tizim shaklida amal qilishining murakkabligini bildiradi. Tizim tushunchasi munosabatlarni izohlashda bosh kategoriya sifatida uyg'unlashtiruvchi vazifani o'taydi va shu tufayli ham tizim tarkibiga kiruvchi barcha elementlarni bitta joyga to'playdi. Soliq tizimining mohiyatini to'laroq anglash uchun, avvalo, uning tarkibiy tuzilishini aniqlab olish lozim bo'ladi va u quyidagi tarkib (elementlar)ga ega bo'ladi (11-rasmga qarang).

Quyida keltirilgan 11-rasmdan ko'rinadiki, soliq tizimi asosan yirik to'rt elementlar: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; soliq mexanizmi; soliq siyosati; soliq menejmenti kabilardan tashkil topadi. O'z navbatida, har bir yirik elementlarning o'zi ham yana elementlarga bo'lingan holda tizimlashish jarayonini davom ettiradi. Shuningdek, ushbu elementlar o'zaro bir-biriga bog'langan bo'ladi. Masalan, soliqlar va yig'imlar mavjud bo'lmasa, soliq tizimining boshqa elementlarining mohiyati yo'qoladi va ular amal qilmaydi, o'z navbatida, soliq siyosati elementi bo'lmasa, soliqlarni joriy etish amalga oshirilmaydi va soliq menejmentiga ham hojat qolmaydi, agar soliqlar joriy qilinmasa, ularning undirishga xizmat qiluvchi soliq elementlari va soliqlarni undirish usullarining ob'ekti yo'qoladi.

Quyida keltirilgan 11-rasmdan ko'rinadiki, soliq tizimi asosan yirik to'rt elementlar: soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar; soliq mexanizmi; soliq siyosati; soliq menejmenti kabilardan tashkil topadi. O'z navbatida, har bir yirik elementlarning o'zi ham yana elementlarga bo'lingan holda tizimlashish jarayonini davom ettiradi. Shuningdek, ushbu elementlar o'zaro bir-biriga bog'langan bo'ladi. Masalan, soliqlar va yig'imlar mavjud bo'lmasa, soliq tizimining boshqa elementlarining mohiyati yo'qoladi va ular amal qilmaydi, o'z navbatida, soliq siyosati elementi

bo'lsa, soliqlarni joriy etish amalga oshirilmaydi va soliq menejmentiga ham hojat qolmaydi, agar soliqlar joriy qilinmasa, ularning undirishga xizmat qiluvchi soliq elementlari va soliqlarni undirish usullarining ob'ekti yo'qoladi.



11-rasm. Soliq tizimi va uning tarkibi (elementlari).


Shu jihatdan olganda, soliq tizimining elementlari o‘zaro bir-biriga bog‘liq va bir-birini to‘ldirib turadi. Ushbularga asoslanib soliq tizimiga ta’rif beriladigan bo‘lsa, soliq tizimi soliqlarning jamiyatda amal qilishi bilan bog‘liq barcha munosabatlarni o‘zida aks ettiruvchi elementlarning o‘zaro bog‘liq holda bir-birini to‘ldirish tartibida amal qilish jarayonidir. Avvalgi boblarda qayd qilinganidek, har qanday jarayon va hodisa ma’lum bir tamoyillar asosida amal qiladi. Soliqlar va soliqqa tortish tamoyillari bu soliqlarni joriy etish va uni undirish borasidagi umumiy yo‘llarni ko‘rsatib beradi. Shu bilan birgalikda soliq tizimining tamoyili mavjud bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi: O‘zaro bog‘liqlik tamoyili. Soliq tizimining bu tamoyili uning barcha elementlarining bir-biriga bog‘liq holda rivojlanishini va birining ta’siri, albatta, ta’sir kuchiga egaligi bildiradi. Masalan, soliq menejmentida soliq ma’murchiligi jiddiylashsa, soliq mexanizmi va boshqa elementlariga tez ta’sir qiladi.

Keyingi tamoyil bu bir-birini to‘ldirish tamoyili bo‘lib, buning birinchi tamoyildan farqi shundaki, soliq tizimining bir elementining susayishi (susaytirilishi, kamaytirilishi) yoki oshirilishi boshqa elementlar orqali muvofiqlashtiriladi. Olaylik soliq mexanizmida soliq undirish usullari takomillashtirilib, soliq to‘lovchilardan soliqlarni undirishning yangi metodlari qo‘llanilsa, u soliq ma’murchiligi orqali to‘ldiriladi yoki yangi turdagi soliq va boshqa majburiy to‘lovlar joriy qilinsa, uni undirish tartibi soliq mexanizmi bilan to‘ldiriladi. Agar soliqlarni undirish mexanizmlarida depsinish sezilsa, bunday jarayon soliq siyosati va soliq boshqaruvini takomillashtirish orqali hal qilinadi. Bu erda ko‘rinadiki, soliq tizimining bir elementidagi bo‘liq boshqa elementlari orqali to‘ldiriladi yoki bartaraf etiladi. Soliq tizimi,

shuningdek, moslashuvchanlik tamoyiliga ham amal qiladi. Buning mohiyati shundaki, soliq tizimining elementlari dogmatik tarzda bo'lmaydi va ular jamiyat va uning iqtisodiy jabhasidagi jarayonlarga moslashib boradi. Agar iqtisodiyotda deqsinish, pasayish va inqirozlar kuzatilsa, u holda soliq siyosati va soliq menejmentida o'zgaruvchanlik kuchayishi talab etilib, soliq tizimining ushbu elementlari iqtisodiy holatga moslashgan holda amal qilishi talab etiladi, o'z navbatida, bunday moslashuvchanlik boshqa elementlarga ham ma'lum darajada ta'sir qiladi. Soliq tizimining yana muhim tamoyillari qatoriga nisbiy ustunlik tamoyili ham kiradi. Bu tamoyilning mohiyati shundaki, soliq tizimining elementlari ichida soliq siyosati boshqa elementlarning faoliyatini va rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashda birmuncha ustunlikka ega bo'ladi. Ya'ni soliq siyosati asosiy ta'sir kuchiga ega tarzda mavjud bo'ladi. Bu erda nisbiy ustunlik soliq siyosatiga nisbatan qo'llaniladi. Agar soliq siyosati asosiy element sifatida amal qilmasa, boshqa elementlarning faoliyatining samarasi tushib ketadi. Shu boisdan ham soliq tizimining yaxlit holda amal qilishi soliq siyosati elementining nisbiy usutunligiga asoslanishini taqozo etadi. Qayd qilinganlardan ko'rinadiki, soliq tizimining o'ziga xos tamoyillari uning ichki mazmun-mohiyatidan kelib chiqadi.

Soliq tizimi o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi. U ma'lum bir tashkiliy tizimga ham ega bo'ladi. Uning tashkiliy tizimi, avvalo, davlat faoliyati orqali yuzaga chiqadi. Davlat iqtisodiy funksiyasini bajarishda soliq tizimini shakllantiradi, ammo soliqlarning barcha jarayonlari ham davlat faoliyati bilan bog'liq bo'lmaydi. Bunda iqtisodiyotdagi qonunlar ham muhim rol o'ynaydi. Soliqlarning joriy qilinishi davlat tomonidan amalga oshirilsa-da ularning yo'nalishlarida iqtisodiy qonunlar ham o'z ta'siriga ega, shu boisdan

soliq tizimida bunday qonunlar tashkiliy ahamiyatga ham ega bo'ladi. Iqtisodiy qonunlar soliqlarning amal qilishi jarayoniga ta'sir qilib, soliq tizimining elementlarida o'rtasidagi aloqalarni o'zgartirib turadi.



12-rasm. Soliq tizimining tashkiliy asoslari.

Agar davlat soliqlarni erkinlashtirsa (soliqlar orqali iqtisodiyotga ta'sirini susaytirsa) iqtisodiy qonunlar iqtisodiyotdagi talab va taklif, iste'mol va jamg'arilish, narx va bozor muvozanati, egri va to'g'ri soliqlar o'rtasidagi nisbatlarni stixiyalashuviga olib keladi, natijada esa soliq tizimining elementlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka putur etib, ularning tashkiliy asoslarida o'zgarish sodir bo'ladi. Bu esa yuqorida soliq tizimining soliq siyosati elementining nisbiy ustunlik tamoyilining afzalliklarini tasdiqlaydi. Soliq tizimi tashkiliy asoslarida davlat iqtisodiy qonunlarining salbiy ta'sirini muvofiqlashtirilib turishni taqozo etadi. Albatta, soliq tizimining tashkiliy jihatlarida tashqi omillarning ham ahamiyati bor. Tashqi omillar deganda mamlakatdagi siyosiy tuzum, iqtisodiy tizimning shakli (totalitar, aralash, an'anaviy), mulkchilik munosabatlari, milliy iqtisodiyotda tabiiy resurslarga bog'liqlik darajasi (masalan, arab davlatlari bilan Yaponiya davlatining soliq tizimidagi tashkiliy asoslarning farqlanishida ushbu omil

asosiy rol o'ynaydi), tabiiy iqlim sharoiti va shu kabilar kiradi. Dunyo amaliyotida asosiy daromadi turizmdan shakllanadigan hududlar bilan uglevodlar (yoqilg'ilar) dan tushumlar katta ulushni egallaydigan hududlardagi soliq tizimi tashkiliy mexanizmlarda farq yuzaga kelishi tabiiy. Bunday hollarda davlat tuzilishi, iqtisodiy tizim va iqtisodiy qonunlar qanday amal qilishidan qat'i nazar tashqi omillarning roli katta bo'ladi. Demak, har bir davlatning soliq tizimi o'ziga xos tarzda shakllanadi. Soliq tizimining elementlari esa aksariyat davlatlarda bir xil shaklda shakllansa-da, ammo ularning amal qilishi va tashkiliy asoslarining xususiyatlari farqlanadi. Hozirgi zamon ssivilizatsiyasi sharoitida barcha davlatlarda soliq tizimida yuqorida qayd qilingan 4 ta element (soliqlar va majburiy to'lovlar, soliq siyosati, soliq mexanizmi va soliq menejmenti) mavjud bo'lib, ularning holati va qo'llanilishi, albatta, yuqorida ta'kidlab o'tilgan holat va jarayonlarga bog'liq bo'ladi.

8.2-§. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning guruhlanishi

Soliqlarning iqtisodiy mohiyati uning yuzaga kelish shart-sharoitlari, ularning belgilari, funksiyalari va vazifalari asosida ochib beriladi. Joriy qilingan soliqlarni ma'lum bir guruhlariga bo'lgan holda o'rganish ularni guruhiy holdagi mohiyatini yoritishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda ularning o'zaro yaqin xususiyatlari ma'lum bo'ladi, ularning budjetni shakllantirishdagi hamda iqtisodiyotda tutgan o'rniga baho berishga imkon tug'diradi. Odatda, soliqlar budjetga birlashtirilishiga qarab *umumdavlat soliqlari va mahalliy soliqlarga* bo'linadi. Umumdavlat soliqlari mohiyati jihatidan Respublika budjetining daromad manbai

bo'lib xizmat qiladi. Soliq kodeksining (16-17-moddasi) ga muvofiq umumdavlat soliqlar va boshqa majburiy to'lovlariga quyidagilar kiradi:

Soliqlar:

- 1) qo'shilgan qiymat solig'i;
- 2) aksiz solig'i;
- 3) foyda solig'i;
- 4) jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- 5) er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;
- 6) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- 7) mol-mulk solig'i;
- 8) yer solig'i;
- 9) ijtimoiy soliq.

Yig'imlar:

O'zbekiston Respublikasi hududida yig'imlar belgilanishi mumkin. Yig'imlarni joriy etish, hisoblab chiqarish va to'lash tartibi ushbu Soliq Kodeksida hamda boshqa qonun hujjatlarida belgilanadi. Avtotransport yig'imini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi Soliq Kodeksi bilan tartibga solinadi. Davlat bojini hisoblab chiqarish va undirish tartibi davlat boji to'g'risidagi qonun hujjatlarida o'z ifodasini topadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksi (51-moddasi)da davlat budjetining umumdavlat yig'imlari (boshqa majburiy to'lovlari), Respublika budjetining boshqa daromadlari sifatida mahsulot taqsimotiga oid bitimlar bo'yicha foyda keltiradigan mahsulotdagi davlat ulushi, O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga yo'naltiriladigan yig'imlar, tovon pullari, kompensatsiya to'lovlari va jarima sanksiyalari, davlat aktivlarini joylashtirish, foydalanishga berish va sotishdan belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlar, meros, hadya huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tkazilgan pul mab-

lagʻlari, yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, rezident-yuridik shaxslarga berilgan budget ssudalarini, chet davlatlarga berilgan kreditlarni toʻlash hisobidan toʻlovlar, aksiyalarning davlat ulushi (payi) boʻyicha dividendlar (daromadlar), mobil aloqa xizmatlari koʻrsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun toʻlov, Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankining foydasi va shu kabilar belgilab qoʻyilgan boʻlib, bularning ayrimlar soliqlar va majburiy toʻlovlarni ifodalamaydi.

Mahalliy soliqlar va yigʻimlarga esa quyidagilar kiradi:

Soliqlar:

mol-mulk soligʻi (yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan);

er soligʻi (yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan);

yagona er soligʻi;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari boʻyicha qatʻiy belgilangan soliq.

Boshqa majburiy toʻlovlar:

ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni koʻrsatish huquqi uchun yigʻim;

bozorlardan tushadigan daromadlar.

Shu bilan birgalikda Oʻzbekiston Respublikasi Budget kodeksi (52-moddasi)ga muvofiq, davlat budgetining mahalliy yigʻimlari (boshqa majburiy toʻlovlari) hamda mahalliy budgetlarning boshqa daromadlariga yuridik va jismoniy shaxslardan, shuningdek, chet davlatlardan tushgan qaytarilmaydigan pul tushumlari, davlat daromadiga oʻtkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan belgilangan normativlar boʻyicha olingan daromadlar, qonun hujjatlariga muvofiq Qoraqal-

pog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo'naltiriladigan davlat bojlari, yig'imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo'yicha davlat ixtiyoriga o'tgan mol-mulkni, huquq bo'yicha davlat daromadiga o'tkazilishi lozim bo'lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa daromadlar kiradi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (100-moddasi), O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy Davlat hokimiyati to'g'risida»gi Qonuni (24-moddasi) ga muvofiq Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan, shuningdek, shahar tarkibiga kiruvchi tumanlardan tashqari) hokimlar boshchilik qiladigan xalq deputatlari Kengashlari tomonidan mahalliy budjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'imlarni belgilash, budjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish, mahalliy soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalarini qonun hujjatlarida belgilangan miqdorlar doirasida belgilash kabi vakolatlari belgilab berilgan bo'lib, bunga ko'ra ushbu hokimliklar o'z hududlarida Soliq kodeksida belgilab qo'yilganlardan tashqari mahalliy soliqlar va yig'imlarni joriy qilishi mumkin.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning bunday guruhlanishi ham iqtisodiy ham huquqiy asosga ega bo'lib, soliqlarning bu tartibda guruhlanishi, avvalo, davlat budjetining tuzilishidan kelib chiqadi. Unitar davlatlarda budjet tuzilishi, odatda, ikki pog'anadan (Respublika va mahalliy budjetlar) iborat bo'lib, unga muvofiq soliqlar ham budjetga birlashtirilishi jihatidan respublika va mahalliy miqyosida guruhlanadi. Masalan, Fransiya, Buyuk Britaniya, Shvetsiya kabi davlatlarda byudjet tuzilishiga mos holda soliqlar ham ikki pog'ona asosida undiriladi. Federativ tuzilmaga ega bo'lgan davlatlar, masalan, Rossiya, AQSh ,

Germaniya, Kanada va shu kabi davlatlarda budjet tuzilishi federalizmga asoslangan bo'lib, unga muvofiq soliqlar ham federal, hududiy (federatsiya sub'ektlari, shtatlar) va mahalliy (munitsipial) soliqlarga bo'linadi. Davlat budjetiga kiruvchi budjetlardan xarajatlarni amalga oshirish tartibi va mexanizmlari budjetlarga biriktirilgan soliqlarning tegishli budjetlar xarajatlarini qoplash imkoniyatlari farqlanishini keltirib chiqaradi. Davlat bunda o'zining moliyaviy (budjet) siyosati orqali soliqlar budjetlarning moliyaviy resurslarini shakllantirishdagi farqli imkoniyatlarini tartibga solishi *soliqlarning biriktirilgan va tartibga soluvchi guruhlariga bo'linishiga* asos bo'ladi. Biriktirilgan soliqlar mahalliy budjetlarga qonun asosida biriktirilgan hamda o'zlarining (mahalliy hokimiyatlarning) moliyaviy huquqlari asosida joriy qilgan soliqlari va yig'im (to'lov)laridan iborat bo'ladi.

Biriktirilgan soliqlar (yig'imlar)dan tushadigan daromadlar bilan mahalliy budjetlarning xarajatlari o'rtasidagi farqni qoplashning zarurligi umumdavlat soliqlarining ba'zilarini tartibga soluvchi sifatida soliqlarga aylanadi. O'zbekistonda soliqlarning bunday guruhlanishi, asosan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 30 noyabr-dagi O'zbekiston Respublikasida soliqlarning rag'batlantiruvchi ahamiyatini kuchaytirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi PF-1014-sonli Farmoniga asosan 1995 yilgi Davlat budjetining asosiy ko'rsatkichlarini tasdiqlashda daromadlarni mahalliy budjetlar foydasiga qaytadan taqsimlash va hududlarning rivojlanish darajasiga qarab umumdavlat soliqlaridan ajratmalarining tabaqalashtirilgan me'yorlarini belgilash tartibi kiritilishi bilan amalga oshirilib kelinmoqda. Hozirgi kunda Budjet kodeksiga muvofiq biriktirilgan soliqlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

qo'shilgan qiymat solig'i;

aksiz solig'i;

yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

Soliqlarni guruhlashda eng asosiy mezonlardan biri bu ularni bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) soliqlarga bo'linishi bo'lib, soliqlarning bunday bo'linishi haqidagi nazariy qarashlar XVII-asrning oxirlari va XVIII-asrning boshlaridan boshlab kuchayib boshladi. Aslida tarixiy jihatdan qaraganda bilvosita soliqlar dastlab mavjud bo'lganligi (asosan, yer solig'i, keyinchalik jon boshiga soliq shaklida) haqida dalillar keltirilsa, Qadimgi Rimda imperator Oktavian Avgust tomonidan soliq islohotlari o'tkazilishi natijasida aylanmadan soliq, aksiz va qul savdosi uchun soliq kabi bilvosita soliqlar ham joriy qilinganligi ma'lum. Keyinchalik, soliqlarning ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro yuklanish masalalari tadqiqot markaziga aylanishi bilan soliqlarni bevosita va bilvosita soliqlarga ajratish ham kuchayib bordi. Soliqlarning aslida bunday guruhlanishiga soliqlarning yuklanishi jarayoni katta ahamiyat kasb etadi. Soliqlar davlat tomonidan jamiyat a'zolari – soliq to'lovchilar zimmasiga qo'ygan umumiy soliq majburiyatini kim qanday to'laydi degan masalaning yechimi soliqlarni turli xil mezonlarga guruhlash asosida o'rganishga turtki bo'lib keldi.

Soliqlarning tarixiy shakllanishi va uning turli davlatlardagi holati bevosita va bilvosita soliqlarga ajratilishi soliqlarning mohiyati jihatidan emas, davlatchilikning shakli va moliyaviy tartiblarga qarab guruhlanib kelingan. Masalan, XVII-asrda Fransiyadagi bevosita soliq deb tan olingan Angliyada bilvosita soliqlar sifatida e'tirof etilgan holatlar

ham mavjud. Soliqlarning bevosita va bilvosita guruhlarga ajratilishining asosiy va an'anaviy mezonni soliqni haqiqatda kim to'lashi (kimning chekiga, yukiga tushishi)ga qarab ajratilishidir. Shu jihatdan olganda, bevosita soliqlar uning to'lovchisi va budjetga o'tkazib beruvchisi ham bitta shaxs (soliq to'lovchi) bo'lgan soliqlardir. Bilvosita soliqlar esa haqiqiy soliq to'lovchisi bilan budjetga o'tkazib beruvchisi boshqa-boshqa shaxs (soliq to'lovchi)lar bo'lgan soliqlarga aytiladi. Masalan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i bu bevosita soliq bo'lib, uning budjetga to'lovchisi va uning og'irligini qabul qiluvchi shaxs-soliq to'lovchi korxonaga hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ida soliq og'irligi daromad egasiga tushadi, ammo bu erda budjetga o'tkazishda soliq agentlari (ish beruvchilar) qatnashadiki, soliqlarni ushlab qolib budjetga o'tkazishi bilvosita soliqlarning mohiyatiga ta'sir qilmaydi, chunki olingan daromaddan ushlangan soliqlar va budjetga o'tkazilgan soliqlar hajmi bir xil bo'ladi. Mohiyati jihatidan yer solig'i, mol-mulk solig'i bevosita (to'g'ri) soliqlar hisoblanadi. Bu kabi soliqlarning to'lovchisi bilan soliqni budjetga bir xil tartibda o'tkazib beruvchilari bitta shaxs hisoblanib, bu soliqlar korxonaning davr xarajatlari (umumiy xarajatlari) tarkibiga qo'shib, moliyaviy natijalar aniqlanayotgan korxonaning zarariga olib boriladi va foyda hajmini kamaytiradi. O'zbekiston budjet tizimida Moliya vazirligi tomonidan budjetga soliqlarning tushumlarini soliqlar bo'yicha hisobga olishda to'g'ri (bevosita), egri (bilvosita), resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i kabi tartibda guruhlanishi soliqlarning bevosita va bilvosita guruhlanishiga daxlsiz bo'lib, Moliya vazirligi tomonidan soliqlarni uch guruhga bo'linishi soliqlarni hisobga olish nuqtai nazaridan amalga oshiriladi. Aslida esa soliqlar bevosita va bilvosita soliqlarga guruhlanadi. Bevosita

soliqlarning o'zi ham, odatda, ikki guruhga: shaxsiy va real guruhlarga bo'linadi. Sh axsiy bevosita soliqlar bu soliq to'lovchining to'lovga qobilligini ko'rsatib, u soliq to'lovchining haqiqiy olgan daromadlaridan undirilsa, real bevosita soliq to'lovchining olgan daromadlariga unchalik bog'liq bo'lmaydi, balki, daromad bilan chamabarchas bog'lanmagan soliq ob'ektlari, masalan, mol-mulk, er, transport vositalari uchun to'lanadigan soliqlarni ifodalaydi.

O'zbekistonda mavjud soliq tizimida bilvosita soliqlar jumlasiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, transport vositalariga benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq va bojxona boji kiradi. Bilvosita soliqlarning mohiyatini to'laroq tushunish uchun qo'shilgan qiymat solig'ining to'lanish jarayonini quyidagi jadval orqali ifodalaymiz. Bunda uchta shartli «A» «B» «S» korxonaga va ularga tegishli bo'lgan shartli raqamlardan foydalanamiz:

Ushbu jadvaldan ko'rinadiki, «A» korxonaga mahsulot ishlab chiqarish maqsadida «B» korxonadan material sotib olib, undan ishlab chiqarish jarayonida to'liq foydalanib, ustiga qiymat qo'shgan holda «S» korxonaga mahsulot sotdi. Bu jarayonda «A» korxonaga «B» korxonadan material sotib olish vaqtida materialga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i summasi (20%)ni 200.000 ming so'mni «B» korxonaga to'laydi. «A» korxonaga ham xuddi «B» korxonaga singari «S» korxonaga sotgan mahsulotiga qo'shilgan qiymat solig'i bilan birga sotib, «S» korxonadan sotgan mahsulotga tegishli qo'shilgan qiymat solig'i summasi 320.000 so'mni undiradi. Biroq budjetga 120.000 ming so'm o'tkazib berayapti. Bu 120.000 ming so'mlik bilvosita soliq «B» va «S» korxonaga tegishli bo'lib, uning budjetga o'tkazib beruvchisi sifatida «A» ishtirok etadi. O'z navbatida, «B» korxonaga «A» korxonadan olgan 200.000 ming so'mlik qo'shilgan qiymat solig'i summasini «S» korxonaga «A»

korxonaga to‘lagan 320.000 so‘mlik qo‘shilgan qiymat solig‘i summasining qanchadir qismini (bu uning mahsulot realizatsiya hajmidan kelib chiqib aniqlanadi) budjetga o‘tkazib beradi. Bu erdan shu narsa ko‘rinadiki, bilvosita soliqlar, ko‘pincha, ikki qadam bilan yuradi, birinchisini material sotib oluvchiga qo‘ysa, ikkinchisini mahsulot sotib oluvchiga qo‘yadi, ammo soliq yukini uchinchi shaxs – o‘rtada turuvchi ishlab chiqarishni amalga oshirgan korxonaga zimmasiga yuklaydi.

№	Ko‘rsatkichlar	Korxonaga	Raqam
1.	«A» korxonaga «B» korxonadan material sotib oldi	»A» "B"	1000.000
2.	«A» korxonaga «B» korxonadan materialga tegishli qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi (20%)	«A» «B»	200.000
3.	«A» korxonaga sotib olingan materiallarni ishlab chiqarish jarayoniga sarflab uning ustiga qiymat qo‘shdi	«A»	1600.000
4.	«A» korxonaga «S» korxonaga mahsulot sotdi	«A» «S»	1600.000
5.	«A» korxonaga «S» korxonaga sotgan mahsulotga tegishli qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi	»A» "C"	320.000
6.	«A» korxonaga tomonidan byudjetga o‘tkazishi lozim bo‘lgan qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi $(320.000-200.000)$ yoki $(1600.000-1000.000) \cdot 20/100$	"A"	120.000

Soliqlar soliq to‘lovchilarga tegishligiga qarab yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar) va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar)ga bo‘linadi. *Yuridik shaxslardan olinadigan soliqlar (yig‘imlar)*ga quyidagilar kiradi: yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i, qo‘shilgan qiymat solig‘i, aksiz solig‘i, yer qabulidan foydalanuvchilar uchun soliqlar, suv resurslaridan

foydalanganlik uchun soliq, mol-mulk solig'i, yer solig'i, yagona yer solig'i, ijtimoiy soliq tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im, davlat boji, bojxona to'lovlari, bojxona boji va shu kabilar.

Quyidagilar jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va yig'implar hisoblanadi: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, mol-mulk solig'i, tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq, ayrim turdagi tovarlar bilan chakana savdo qilish va ayrim turdagi xizmatlarni ko'rsatish huquqi uchun yig'im, davlat boji, bojxona to'lovlari, bojxona boji va shu kabilar. Shu bilan birgalikda yuqorida ta'kildlab o'tganimizdek, agar mahalliy hokimiyatlar o'zlarining moliyaviy huquqlari sifatida o'z hududlarida qayd etilganlardan tashqari boshqa mahalliy soliqlar va yig'implarni joriy etsa, tegishliliga qarab yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlarga kirishi mumkin.

Shuningdek, soliqlar uning undirilish ob'ektiga ko'ra daromaddan olinadigan soliqlar, mol-mulkdan olinadigan soliqlar va aylanma (oborot)dan olinadigan soliqlarga ajratiladi.

8.3-§. Soliq mexanizmi


Soliq tizimida soliq mexanizmi tushunchasi ham qo'llaniladi. Har qaysi jarayon ikki xil tartibda amal qiladi. Birinchisi bu tabiiy harakat bo'lib, kategoriyaning ichki qoidalariga asoslangan holda tabiiy ravishda amal qiladi. Bunday tabiiy harakatlar boshqariladigan va boshqarilmaydigan bo'ladi. Masalan, tabiatdagi fasllarning almashinuvi bu boshqarib bo'lmaydigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Xuddi shu singari iqtisodiyotda ham tabiiy

jarayonlar mavjud bo‘ladi. Ammo iqtisodiyotni insoniyatning o‘z yaratgan va uning aksariyat jihatlarini inson boshqarish imkoniga ega. Demak, ikkinchi holatda boshqariladigan tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy harakatlarni insoniyat uni o‘z manfaatlari yo‘lida boshqarib boradi. Soliqlarni aslida insoniyatning o‘zi yaratgan. Uning mavjudligi ob‘ektiv ijtimoiy-iqtisodiy jarayon hisoblansa-da, ammo uning harakati boshqariladigan jarayon hisoblanadi. Bunday boshqarilish uning mexanizmlarining mavjudligini taqozo etadi. Soliq mexanizmi haqida yagona fikrlar mavjud emas.

Ammo soliq mexanizmiga nisbatan uning amalga oshirilish jarayoni va uning soliq tizimidagi o‘rni nuqtai nazaridan yondashish lozim. Soliq tizimida qo‘llanilgan har bir kategoriya aniq o‘zining chegarasi va ifodasi bo‘lishi zarur. Agar «soliq mexanizmi» degan tushuncha qo‘llanila boshlandimi, demak, bu tushuncha orqali soliq tizimidagi u yoki bu jarayonlarni ifodalash uchun uning ob‘ekti bo‘lishi kerak. Aks holda bu tushunchani qo‘llashdan mazmun qolmaydi. Dastlab mexanizm so‘zining ma‘nosi va uning soliq tizimiga tegishliligini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Mexanizm so‘zi aslida grek tilidan olingan bo‘lib, «μηχανή mechané – mashina» degan ma‘noni bildirib, bu tushuncha asosan mashina va texnik qurilmalarning harakatga keltiruvchi xususiyatlari sifatida keng qo‘llaniladi. Mashina va texnik qurilmalarning ichki elementlarini harakatga keltirish jarayoni – mexanizm so‘zi orqali ifodalanadi. Demak, mexanizmning asosi ob‘ekt elementlarini ma‘lum bir yo‘nalishda harakatga keltirish jarayonidir. Buni soliq tizimiga nisbatan qo‘llaydigan bo‘lsak, joriy etilgan soliqlarni undirishni amalga oshirish uchun soliq siyosati yuritiladi (avvalgi boblarda to‘xtalib o‘tilgan). Ammo soliq siyosati soliqlarni undirishning mexnizmlarini yaratsa-da, ularni harakatga keltiruvchi elementlarning o‘zaro bog‘liq

holdagi harakatini soliq siyosati o'zida to'liq qamrab olmaydi. Shu boisdan ham bunday jarayonlarni uyg'un holda ifodalash zarurligi soliq mexanizmi zimmasiga tushadi. Soliq mexanizmining mohiyatini anglash uchun, avvalo, uning tarkibiy tuzilishini aniqlab olishimiz lozim.

Keltirilgan rasmdan ko'rinadiki, soliq mexanizmi o'z tarkibiy tuzilishiga ega bo'lib, u soliq elementlari, soliq undirish usullari va soliqqa tortish tartiblarini qamrab oladi. Mexanizm tushunchasi va soliq mexanizmining tarkibiy tuzilishidan kelib chiqib, soliq mexanizmiga ta'rif berish mumkin. *Soliq mexanizmi bu* – soliq elementlari, soliq undirish usullari va soliqqa tortish tartiblarining o'zaro bog'liq holda holati va harakat qilish jarayoni bo'lib, joriy qilingan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar undirilishining amaliy jarayonlarini ifodalaydi.



13-rasm. Soliq mexanizmi va uning tarkibiy tuzilishi.

Soliq mexanizmining tarkibida asosiy o'rinni egallaydigan soliq elementlari haqida avvalgi boblarda batafsil to'xtalib o'tilgan edi. Quyida esa soliq undirish usullari va soliqqa tortish tartiblari xususida to'xtalamiz.

Kadastr lug'aviy ma'nosi fransuz tilida «cadastre – ro'yxat, reestr» degan ma'noni bildirsa, lotin tilida «catastrum ya'ni, capitastrum (caput-bosh) – bosh soni» ma'nosiga ega. Kadastr tushunchasi dastlab er, aholi va chorva mollarining haqiqiy hisobini yuritish maqsadida qo'llanilgan bo'lib, buning asosiy sababi ham soliqqa tortish maqsadi bo'lgan (bu haqda avvalgi boblarda keltirilgan). Eramizdan avvalgi uch minginchi yillarda Qadimgi Misrda erlarning hajmini o'lchash va ularni ro'yxatga olish ishlari amalga oshirilgan va ularning hisobi yuritib borilgan. Qadimgi Rimda O.Avgust tomonidan erdan olinadigan majburiy to'lov sifatida «caputigum» kiritilgan, keyinchalik esa aholini ro'yxatga olish maqsadida «caputigum registrum» tushunchasi qo'llanila boshlandi. Bu davrda soliq tizimini isloh qilish borasida «capitastrum» va «catastrum» kategoriyalari soliq ob'ektlarini izohlash maqsadida qo'llanila boshlandi. 1718 yilda italiyan Djovanni Djakomo Marioni tomonidan dastlabki ilmiy asoslangan kadastrning ishlab chiqilishi keyinchalik Yevropaning aksariyat davlatlarida yer uchastkalari va kuchmas mulklarni soliqqa tortish maqsadida asos qilib olina boshlandi va shu tariqa soliqqa tortishning asosiy usullaridan biri sifatida kadastrli ma'lumotlar muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

O'zbek davlatchiligi tarixida amal qilgan davlatlarda ham asosiy soliq turlari sifati erlardan olinadigan soliqlar davlat xazinasini to'ldirishda muhim ahamiyat kasb etganligi avvalgi boblarda keltirib o'tilgan. Bu davrlarda ham erlardan soliq undirishda ularning hajmi va erlardan olinadigan soliq miqdori hisoblab borilgan. Hozirgi jahon soliqqa

tortish amaliyotida kadastrli usul orqali er uchastkalari bilan birgalikda kuchmas mulk ob'ektlari va transport vositalarini soliqqa tortish amalga oshirilib kelinmoqda. Demak, soliqqa tortishning kadastrli usuli bu soliq ob'ektlariga soliq miqdorlarini belgilash va undirish ushbu ob'ektlarning texnik, fizik va ximiyaviy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirilishini bildiradi. Bu erda ob'ektning texnik xususiyati deganda uning tuzilishi va mustahkamligi (seysmologik xususiyatlari), fizik xususiyati esa ob'ektning ishlash qobiliyati (masalan, transport vositasining ot kuchi), ximiyaviy xususiyatlari esa yerlarning tuzilishi, uning unumdorligi kabilar nazarda tutiladi. O'zbekiston soliq tizimida kadastr usuli orqali yer solig'i, mol-mulk solig'i, chetdan avtomobil transport vositalarini olib kirishda aksiz solig'i va Yo'l fondiga yig'imlar hamda transport vositalarining vaqtinchalik tranzit holda Respublika hududidan olib o'tganlik uchun Yo'l fondiga yig'imlar undirishda qo'llanilib kelinmoqda. Er solig'ini undirishda kadastr usulidan foydalanishda O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi hamda yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastr davlat qo'mitasi tomonidan erlarning tuzilishi, joylashuvi, unumdorligi, foydalanish darajasiga qarab muvofiqligi kabi ko'rsatkichlarni o'zi ichiga olgan kadastr ma'lumotlariga asoslanadi va qat'iy so'mda soliq birligini belgilash orqali soliq undiriladi.

Xorijdan O'zbekiston hududiga avtomobil transport vositalarini olib kirishda aksiz solig'ini undirishda avtomobillarning qiymati emas, balki ularning fizik hajmi, bunday avtomobillar uchun Yo'l fondiga yig'imlarni undirishda esa transport vositalarining ot kuchi hamda transport vositalarining vaqtinchalik tranzit holda Respublika hududidan olib o'tganlik uchun Yo'l fondiga yig'imlar undirishda

transport vositalarining sig'imi (joylashuv o'rni) kabi ko'rsatkichlarga asoslanadi.

Soliqqa tortishning kadastr usulining afzalligi shundaki, bunda soliqlarni hisoblash jarayoni oson kechadi, avvaldan aniqlab qo'yilgan qat'iy ko'rsatkichlariga asoslanib soliq birligiga soliq stavkalarini qo'llash orqali soliqlar hisoblanadi. Ammo soliqqa tortish kadastrli usuli soliq ob'ektlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini e'tiborga olmaydi, soliq ob'ektidan olinadigan daromadlar hajmi bilan bog'lanmaydi, bu esa soliq ob'ektiga egalik qiluvchidan soliq ob'ektidan ob'ektiv ravishda (masalan, betobligi, ishga yaroqsizligi, noqulay ob-havo sharoiti tufayli yerlardan daromad olomasligi) unumsiz foydalangan vaqtda ham soliq undirishga olib keladi. Shu sababli ham mazkur usul soliqlarning moddiy va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga undash xususiyatlarini ham ifodalaydi.

Soliqlarni undirishda yana bir keng qo'llaniladigan soliqqa tortish usuli bu *daromad egasining daromad manbaidan olganiga qadar soliq undirish usulidir*. Bu usulning mohiyati shundaki, soliq to'lovchi hisoblangan yuridik yoki jismoniy shaxs daromad manbaiga ega bo'lib, ushbu daromadlarga egalik qilish (tasarrufiga olishi) jarayonidan oldin belgilangan tartibda soliqqa tortilib soliq undiriladi. Bu usul asosan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash jarayonida korxonalar o'z aksionerlari va ta'sischilariga hisoblangan dividendlar va foizlarga to'lov manbaida soliq solinadi, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashda ish beruvchi korxonalar (soliq agenti) tomonidan soliq summasi daromad manbaida (ish haqi va boshqa soliqqa toriladigan daromadlarni jismoniy shaxs qo'liga olganiga qadar) ushlab qolinadi.

Soliqqa tortishning ushbu usulining afzalligi shundaki,

birinchidan daromad egasini soliqlarni budjetga o'tkazib berish majburiyati va uning javobgarligidan xalos etadi, soliqlarning o'z vaqtida budjetga to'lanishiga imkon yaratilib, ushbu soliq turlari bo'yicha soliqlarning yig'iluvchanligining darajasini oshiradi hamda soliq qarzdorligi juda kam holatlarda yuzaga keladi. Kamchiligi shundaki, ushbu soliqqa tortishda soliq agentlari tomonidan soliqlarni undirish va hisoblashdagi xatolik va qonunbuzarliklar soliq to'lovchining real daromadlarini kamayishiga olib kelishi bilan birgalikda bunday holatlar haqida daromad egasining ma'lumotlarga ega bo'lishi qiyin kechadi.

Soliqqa tortishning keyingi usuli *deklaratsiya usuli* hisoblanadi. Soliq tortishning deklaratsiya usuli ham boshqa iqtisodiy kategoriyalar va munosabatlar singari o'z tarixiga ega bo'lib, tarixiy manbaalarga qaraganda dastlabki soliqlar yuzaga kelgan qadimgi Rimda amalda qo'llanilgan bo'lib, Rimda imperatorlik qilgan Oktavian Avgust tomonidan amalga oshirilgan soliq islohotlariga borib taqaladi. Ya'ni yer egalari va daromadga ega bo'lgan shaxslar davlatga o'zlarining mol-mulki va daromadlari bo'yicha axborot berib turish majburiyati yuklatilgan bo'lib, ushbu ma'lumotnoma keyinchalik deklaratsiya nomi bilan atalgan. Chunki Rim imperiyasi bu davrda juda ko'p joylarni o'z hukmronligida saqlagan bo'lib, ulardan soliqlar (tovon)ni undirishda bir tomondan qiyinchilik tug'ilgan bo'lsa, boshqa tomondan soliqlarni undirish xarajatlari oshib ketgan, qolaversa, davlatning daromadlarini aniqlash murakkablashib borgan. Soliq deklaratsiyasining joriy qilinishi esa soliqlarni undirish ishlarini osonlashtirgan.

Soliq deklaratsiyasi garchi Rimda paydo bo'lgan bo'lsa-da, uning lug'aviy ma'nosi aksariyat boshqa iqtisodiy-huquqiy tushunchalar singari lotincha «Declaratio» – «e'lon, oshkor etaman» degan ma'noni beradi. Hozirgi

kunda esa jahon amaliyotida soliq deklaratsiyasi «Tax declaration» «tax return» kabi terminlar bilan izohlanib, ular ham soliq deklaratsiyasining mazmunini ifodalaydi. Deklaratsiya tushunchasiga, jumladan, uning soliqdarga tegishliligi bo'yicha O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida «deklaratsiya (lot. declaratio – ma'lum qilaman, e'lon qilaman) bir yoki bir necha xukumatlar, siyosiy partiyalar, xalqaro yoki jamoat tashkilotlarining dasturiy hujjat, muhim xalqaro voqea, qonun va hokozolarni umum e'tiboriga etkazuvchi bayonoti; umumsiyosiy prinsiplarni tantanali ravishda e'lon etish (mas., Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Mustaqillik deklaratsiyasi); soliq to'lovchining daromadlar xususiyati va miqdori to'g'risida bayon qilishi; pochta bilan mamlakat tashqarisiga yuboriladigan pul va qimmatbaho paketlarga ilova qilinadigan hujjat; chegaradan o'tuvchi shaxs o'zida buyumlar, qimmatbaho narsalar va h.k. borligi va ular miqdori to'g'risida bojxonaga topshiradigan ma'lumot (q. Bojxona deklaratsiyasi)» sifatida ta'rifi keltirilgan bo'lsa-da, ammo Soliq kodeksida soliq deklaratsiyasi tushunchasining mohiyati keltirilmagan. Soliq deklaratsiyasi bu soliq to'lovchilar tomonidan o'zlarining olgan daromad manbaalari va miqdorlari haqida tizimlashgan axborotlarni tegishli davlat organlariga taqdim etish shakli va vositasidir.

O'zbekiston soliq tizimida ushbu usul orqali mulkiy daromadlar, (agar bu daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa) fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik va ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqi tariqasida daromadlar, asosiy bo'lmagan ish joyidan olingan moddiy naf tarzidagi daromadlar, ikki yoki undan ko'p manbadan olingan soliq solinadigan daromadlar, O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi manbaalardan olingan daromadlar, soliq agentlari bo'lmagan manbaalardan olin-

gan daromadlar soliqqa tortiladi va bunday daromadga ega bo'lgan shaxslar belgilangan muddatdan kechikmay (O'zbekiston va ko'pgina davlatlarda joriy hisobot yilidan keyingi yilning 1 aprelidan kechiktirmay) belgilangan shakldagi deklaratsiyani taqdim etadi. Soliqqa tortishning deklaratsiya usulining o'ziga xos xususiyati soliq xizmati organlari qo'shimcha soliq manbaalari haqida ma'lumotga ega bo'lib, ulardan xabardorligi oshadi. Soliq undirishning deklaratsiya usulining keyingi muhim xususiyati u soliq to'lovchilarga o'zlari olgan daromadlarining soliqqa tortilish darajasini o'lchab beradi. Ya'ni soliqqa tortilmay qolgan qismi yoki ortiqcha to'langan soliqlar xususida axborotga ega bo'ladi. Yana bir xususiyati soliq to'lovchilarning soliq savodxonligini oshirishga xizmat qilishi hamda soliqlarning yig'iluvchanligi darajasini oshirishga xizmat qilishidir. Demak, bu usul soliq tizimida nafaqat soliqlarni undirishga xizmat qiladi, shu bilan birgalikda soliq ma'murchiligi va soliq to'lovchilar soliq madaniyatini oshirishning muhim omillari ham hisoblanadi.

Soliq mexanizmining tarkibiy qismlariga soliqqa tortish tartiblari ham kiradi. Soliqqa tortish tartiblarini soliqqa tortish usullaridan farqlash lozim. Dunyo amaliyotida soliqqa tortishning to'rt xil tartibidan qo'llanadi. Bular umumiy tartib, markazlashtirilgan tartib, soddalashtirilgan tartib va xalqaro tartiblardir. Soliqqa tortishning umumiy tartibi mamlakatning barcha hududlarida soliqqa tortishning umumiy tamoyillarining amal qilishini bildiradi. Bunda har bir soliq turi bo'yicha soliq elementlari (soliq ob'ekti, bazasi, stavkasi, imtiyozlarni qo'llash, soliq hisoblab chiqarish va budjetga o'tkazish) bir xil tartibda qo'llaniladi. Soliqlar bo'yicha beriladigan soliq imtiyozlari va preferensiyalari umumiy tartibga nisbatan belgilanadi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslarning

mol-mulk solig'ini undirish tartibi, ya'ni soliq stavkasi, soliq ob'ekti va bazasini aniqlash tartibi, soliqqa tortish maqsadida mol-mulkning yillik o'rtacha qiymatini aniqlash tartibi, soliq imtiyozlari va soliqni hisoblab budjetga o'tkazish tartibi barcha hududlardagi soliq to'lovchilarga ularning mulkchilik shakli va qaysi tarmoqqa bo'ysinishligidan qat'iy nazar bir xil tartibda amal qiladi. Soliqqa tortishning umumiy tartibi soliqlarning adolatlilik tamoyilini o'zida aks ettirib, soliqlarni bir xil tartibda undirish, soliq qonunchiligi normalarini qo'llashni osonlashtiradi va soliq mexanizmidan foydalanishda qulayliklarni yaratadi. Soliqlar bo'yicha qarzdorlik summalarining yuzaga kelish sabablarini o'rganishni soddalashtiradi va soliq tahlilini amalga oshirishda qulaylik tug'diradi.

Jahon amaliyotida soliqqa tortishning markazlashtirilgan tartiblari ham qo'llaniladi. Markazlashtirilgan soliqqa tortish tartibining mohiyati shundaki, bunda soliqlar va majburiy to'lovlarni undirish bilan bog'liq jarayonlar tizim (tarmoq, konsern, xolding, korporatsiya va sh.k.)ning bitta (asosan eng yuqori tashkilot) soliq to'lovchisi bilan amalga oshiriladi. Butun boshli tizim (tarmoq) uchun soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bosh korxonadan tomonidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshiriladi. Soliqqa tortishning mazkur tartibining afzalligi shundaki, bunda soliqlarni to'lash jarayoni soddalashadi, mehnat va moddiy sarflar kamayadi, soliq ma'murchiligini soddalashishiga olib keladi va soliq xizmati organlari tomonidan ham soliqlarning undirilishini nazorat qilish jarayonlari engillashtirishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida markazlashtirilgan tartibda soliq to'lash tartibi va uning qoidalari nazarda tutilmagan bo'lsa-da, ammo soliq amaliyotida soliqlarni undirishni soddalashtirish maqsadida bunday tartib istisno tariqasida foydalaniladi. Masalan,

O'zbekistondagi aksiz solig'ining yirik donor tarmoqlardan bo'lgan «O'ztransgaz» Aksionerlik Kompaniyasi tomonidan to'lanadigan aksiz solig'i butun respublika bo'yicha markazlashgan tartibda to'lanadi.

Soliqqa tortish tartibining keyingi turi bu soddalashtirilgan tartibda soliq solish tartibidir. Mazkur tartib davlat soliq siyosatining taktik yo'nalishlaridan kelib chiqib, ayrim turdagi soliq to'lovchilarni maqsadli rag'batlantirish va ularning xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularga nisbatan qo'llaniladigan soliq mexanizmlarini ifodalaydi. Respublikamiz soliq tizimida ham bu tartibdan keng foydalaniladi. Soliq kodeksida soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdagi soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi sifatida keltirilgan bo'lib, u asosan yagona soliq to'lovini, yagona yer solig'ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq turlari bo'yicha qo'llaniladi. Bu tartibga ko'ra qishloq xo'jalik korxonalari yagona yer solig'i, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, mikrofirmalar va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi, yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlari va ayrim yuridik shaxslar faoliyatidan kelib chiqib qat'iy belgilangan soliqni to'laydilar.

Davlatlar o'rtasida o'zaro tashqi savdo va boshqa iqtisodiy integratsiyalarining kuchayib borishi soliqqa tortishning keyingi shakli xalqaro soliqqa tortish tartiblarini yuzaga keltirdi. Davlatlar o'rtasida investor korxonalar, doimiy muassasa orqali faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik sub'ektlarini soliqqa tortishni tartibga solish hamda import va eksportni tartiblash yoki rag'batlantirishni muvofiq-

lashtirish maqsadida mazkur soliqqa tortish tartibi tamoyillaridan foydalaniladi. O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida ham mazkur soliqqa tortish tartibidan asosan 1993-yildan boshlab qo'llanilib, hozirga qadar 76 ta xalqaro soliqqa tortishning normalarini o'zida aks ettirgan xalqaro shartnomalar imzolangan, ular orqali amaldagi soliq qonunchiligi bilan birgalikda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el kompaniyalari va norezidentlarini soliqqa tortishda keng foydalanilmoqda. Soliqqa tortishning ushbu shaklining ahamiyati shundaki, xalqaro kapitalning taqsimlanishi, investitsiyalarni rag'batlantirish, o'zaro tovar ayirboshlash jarayonlarini rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi hamda tadbirkorlik sub'ektlarining ikki tomonlama soliqqa tortilishining oldi olinadi. Albatta, soliqqa tortishning ushbu keltirib o'tilgan tartiblarining qaysi biridan foydalanish yoki ustuvorlik berish davlatning iqtisodiy, jumladan, soliq siyosatining yo'nalishlaridan kelib chiqiladi.

8.4-§. Soliq menejmenti

Soliq tizimi normal holatda amal qilishi uchun bu jarayonni tashkil qilish, uni boshqarishning mexanizmlarini yaratish, soliqlarni budjetga jalb qilish va ularni undirish bilan bog'liq tavakkalchiliklarni bartaraf etish, davlatning joriy etilgan soliqlarni undirish borasidagi faoliyatining funksional xususiyatlarini aniqlash, soliq to'lovchilarga nisbatan munosabatlarning umumiy va aniq yondashuvlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, soliq siyosatini ishlab chiqish va uni amalga oshirishda ishtirok etuvchi vakolatli organlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va bu jarayonda boshqaruv tamoyillarini ishlab chiqish, soliq to'lovchilarning madaniyati, ularning soliq siyosatiga

nisbatan munosabatlarini baholash, davlat budjetiga solikli daromadlarning kelib tushish jarayonlarini ilmiy asosda amalga oshirish (soliqlarni rejalashtirish va prognozlash), soliq tizimining turli bosqichlari va elementlarida yuzaga keladigan turli darajadagi tavakkalchiliklarni baholash va ularning salbiy ta'sirini kamaytirish va shu kabi muhim jarayonlar borki, bularni e'tiborga olmasdan soliq tizimining samarali ishlashini tashkil etish amri maholdir. Bu jarayonlar esa soliq tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lgan soliq menejmentiga bo'lgan ehtiyojni va uning amal qilishini taqozo etadi. Soliq menejmenti mazmunan umumiy menejmentning ichki mohiyatiga asoslanadi. Menejment kategoriyasining o'zi lug'aviy jihatdan turlicha mazmunga ega. Masalan, ingliz tilida management, manage – boshqarish, boshqaruv, ma'muriyat degan ma'nolarni, italyancha maneggiare – instrumentlar bilan muomala qilish, lotin tilida manus – qo'l, fransuz tilida manage – xo'jalik yuritish, boshqarish degan ma'nolarga ega. Bundan ko'rinadiki, menejmentning asosida ma'lum bir faoliyatga ta'sir etish, uni boshqarish va u bilan munosabatga kirishish jarayonlari yotadi. Ammo aksariyat mutaxassis va olimlarning e'tirofiga ko'ra boshqaruv jarayoni menejment jarayoni va tushunchasidan kengroq bo'lib, menejment asosan ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial jarayonlarni qamrab olsa, boshqaruv jamiyat va tabiatdagi jarayonlarga ham ta'lluqlidir va shu tufayli menejment boshqaruvining eng muhim va asosiy qismi sifatida yuzaga chiqadi.

Ushbularga asoslanib, soliq sohasidagi boshqaruv jarayonlarining zamonaviy shakli sifatida soliq menejmenti ham o'z ob'ekti, sub'ekti, bosqichlari va xususiyatlariga egadir. Soliq menejmenti deganda davlatning soliq tizimiga kiruvchi elementlarning holati, harakati, ularning o'zaro aloqasi, shuningdek, soliqqa tortish maqsadida to'lovchilar

faoliyatiga davlat tomonidan aralashuvi (tartiblash, rag'batlantirish, nazorat qilish)ga oid munosabatlarni umumiy maqsadga yo'naltirilgan holda boshqarishga oid ilmiy asoslangan faoliyat va jarayon tushuniladi. Soliq menejmenti, avvalo, soliq tizimiga kiruvchi elementlarning o'zini boshqarish hamda ushbu elementlar bilan bog'liq soliq to'lovchilar faoliyatini boshqarish makonlarini qamrab oladi. Shu jihatdan soliq menejmentining ikki tomonini ko'rish mumkin. Davlatning soliq menejmenti davlatning soliqlarni joriy etish va undirish bilan bog'liq o'zining bu boradagi faoliyatini (vakolatli organlar faoliyatini) boshqarish hamda davlatga soliq to'lash majburiyati yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslarning soliq to'lash bilan bog'liq faoliyatini boshqarish (muvofiqlashtirish) soliq menejmentining qo'llanish chegarasini aniqlab beradi. Soliq menejmenti shu boisdan ham ko'lami jihatidan makro va mikro darajadagi soliq menejmentiga bo'linadi. Makrodarajagi soliq menejmenti davlatning vakolatli organlarining faoliyatining bir qismi hisoblanadi. Davlat o'zining markazlashtirilgan pul fondlariga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirar ekan, bu bilan bog'liq keng qamrovli faoliyatni tashkil etish, uni optimal boshqarish va muvofiqlashtirib turishi talab etiladi. O'zining soliq siyosati orqali soliqlarni joriy etishi, ularning undirish mexanizmlari va ularni takomillashtirish bilan bog'liq faoliyatini yo'lga qo'yishidan tashqari, soliqlar bilan bog'liq boshqa yana bir qator munosabatlar tizimi ham yuzaga chiqadiki, ularning yagona maqsad yo'lida boshqarish va muvofiqlashtirishni talab qiladi. Soliq menejmenti esa soliq siyosatidan ham kengroq tarzdagi munosabatlarni qamrab oladi. Davlat makroiqtisodiy soliq menejmenti doirasida bevosita soliq tizimining faoliyatini boshqarish bilan birgalikda soliq xizmati organlarining boshqa vakolatli organlar bilan


soliq to'lovchilar va soliq ob'ektlarini ro'yxatga olish, soliq tushumlarni hisobga olish, soliqlarning budjetga jamlanishi va soliqlarning budjetlar o'rtasida taqsimlanishi, soliqqa oid majburiyatlarning yuzaga kelishi, soliqqa oid qonunbuzilishlar bo'yicha javobgarlik choralari belgilash va javobgarlikka tortish, soliq tizimi hamda soliq to'lovchilar faoliyatini tadqiq etish, soliq to'lovchilarning psixologik holati va soliq tizimiga oid mulohazalarini aniqlashga oid jarayonlar va ularni amalga oshiruvchi soliq xizmati organlaridan tashqari boshqa organlarning bu bilan bog'liq munosabatlarni tartiblaydi, boshqaradi va muvofiqlashtiradi.

Bu jarayon bilan bog'liq strategiyalar va taktikalarni ishlab chiqadi. Soliq menejmenti mikro darajada amal qilishi korxonalar tomonidan moliyaviy menejmentning tarkibiy qismi sifatida amal qiladi. Korxonada doirasida soliqlarni to'lash bilan bog'liq jarayonlardan kelib chiqadigan munosabatlarni boshqarish va muvofiqlashtirish mikro darajadagi soliq menejmentining ob'ektini belgilaydi. Mikro darajadagi soliq menejmenti uch bosqichdagi munosabatlarni qamrab oladi.

Birinchisi bu korxonada doirasida soliqlarni rejalashtirish jarayonlarini, ikkinchisi, korxonaning davlat budjeti va boshqa maqsadli fondlarga soliqlarni to'lash bilan bog'liq munosabatlarni hamda soliq majburiyati bilan bog'liq boshqa iqtisodiy sub'ektlar va davlat organlari bilan o'zaro munosabatlardan iborat bo'ladi. Demak, makro darajadagi soliq menejmentida davlat budjeti va boshqa maqsadli pul fondlariga soliqlarni undirish bilan bog'liq munosabatlarni boshqarish masalasi yotsa, mikro darajadagi soliq menejmentida korxonaning soliq majburiyatlari bilan bog'liq jarayonlarni boshqarish masalasi asosiy o'rin tutadi. Ushbularga asoslangan holda soliq menejmentining

mohiyatini to'laroq anglash maqsadida uning tarkibiy tuzilishini quyidagi 14-rasmda aks ettiramiz.

Bu rasmda keltirilgan soliq menejmentining munosabatlarni qamrab olishi uning elementlarining mazmunini ham tashkil etadi. Soliq menejmenti elementlarining amalga oshirilishi qayd etilgan munosabatlarni qamrab oladi. Biroq hozirga qadar soliq menejmenti va uning elementlari haqida iqtisodchi olimlar o'rtasida yagona to'xtamga kelinmagan. Ba'zi iqtisodchilar soliq menejmentini soliq siyosati bilan sinonim sifatida ta'riflashsa, ayrimlari uni soliq mexanizmi bilan birga qo'yadi. Jumladan, soliq elementlari xususida ham. Masalan soliq nazoratini soliq ma'murchiligi tarkibida deb hisoblovchilar ham mavjud bo'lib, aslida soliq ma'murchiligi soliq xizmati organlarining faoliyatini qamrab olib, soliq tushumlarining o'z vaqtida tushishi va soliq qonunchiligiga soliq to'lovchilar tomonidan qanday amalga oshirilish jarayonlarini ham nazorat qilish ularning faoliyatiga kiradi.



14-rasm. Soliq menejmenti shakllari va elementlari.

Vaholanki, soliq nazorati kengroq tushuncha bo'lib, u soliq xizmati organlari tomonidan amalga oshirilayotgan soliq nazorati doirasidan kengroq tartibda, ya'ni jamoatchilik tartibi, Parlament nazorati tartibi, aksionerlar tomonidan korxonaning soliq majburiyatlarini bajarishini nazorat qilish tartibi va shu kabilar doirasida mavjud bo'ladi. Bularga asoslansa, soliq nazorati soliq ma'murchiligi doirasidagi nazoratdan ham kengroq munosabatlarni qamrab oladiki, uni soliq menejmentining alohida elementi sifatida ham qarash mumkin. Demak, soliq menejmenti keng qamrovli faoliyat bo'lib, u o'ziga xos elementlarining amal qilishida namoyon bo'ladi. Soliq menejmentining eng muhim elementini *soliq ma'murchiligi* tashkil etadi. Qayd etish joizki, soliq ma'murchiligi tushunchasi bu zamonaviy tushuncha sifatida soliq jarayonini tashkil etish va boshqarish munosabatlari tushunchasining sinonimi sifatida kirib keldi.

Ma'murchilik bu «administratsiya» xalqaro kategoriya-ning o'zbek tilidagi ma'nosi bo'lib, bu termin lotincha so'z bo'lib, administratio – boshqaruv, rahbarlik degan ma'nolarni anglatadi. Iqtisodiyotda, jumladan, soliq tizimida ham u yoki bu termin (kategoriya)ni qo'llashda, albatta, uning o'ziga xos ma'lum bir munosabatlarni ifodalay olish ob'ekti bo'lishi lozim. Shu jihatdan olganda soliq ma'murchiligi ham soliq tizimi va soliq menejmenti tarkibida ma'lum bir jarayon va munosabatlarni o'zida qamrab oladi. Soliq ma'murchiligida ham juda ko'p yondashuvlar mavjud. Soliq ma'murchiligi aslida soliqlarni undirish vakolati yuklatilgan davlat organlarining faoliyatini qamrab olib, bu faoliyat o'zlarining huquq va burchlari, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga jalb qilishi bilan bog'liq tashkiliy-uslubiy jarayonlarni, soliq undirishga xizmat qiluvchi va soliq to'lovchilar bilan soliqlarni undirish borasidagi keng qamrovli o'zaro manfaatga asos-

langan faoliyatlarning tizimli ravishda boshqarilishi va muvofiqlashtirish munosabatlarini qamrab oladi. Shu jihatdan olganda soliq ma'murchiligi quyidagi yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

Soliq xizmati organlarining ierarxiyali tuzilishi, ularda faoliyatni tashkil etilish tartibi. Davlatning tegishli qonunlariga asosan soliq xizmati organlariga yoki soliqni undirish vakolatli organlarning huquqiy maqomi aniqlanadi va ularning ierarxiyali tuzilishi va bo'ysinish tamoyillari, yuqori turuvchi organning yo'riqnoma, Nizom, qaror, buyruq va boshqa shu tartibdagi ma'muriy xarakterdagi hujjatlarining huquqiy maqomi belgilanadi va ularning qaysi doiralarda majburiy tartibda amal qilish chegaralari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, soliq xizmati organlarining faoliyatining huquqiy asoslari belgilanadi, ularning vakolatlari va burchlari, funktsiya va vazifalari aniqlanadi.

Davlat soliq xizmati organlari va boshqa vakolatli organlarning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisobini yuritish jarayoni. Bu jarayon soliq ma'murchiligining asosiy mazmunlaridan birini tashkil etadi. Soliq va bojxona xizmati organlarida soliqlar va boshqa majburiy tushumlarni hisobga olish, ularni umumlashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash, jarayonni tahlil qilish kabi ishlari tizimli ravishda amalga oshiriladi. Mavjud kamchiliklar aniqlanadi va uni bartaraf etish yuzasidan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Soliq to'lovchilardan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish yuzasidan tashkiliy-texnik va hamkorlik jarayonlari. Bunda soliq xizmati organlari o'zlarining vakolatlaridan foydalanib, budjetga soliq tushumlarini undirish bo'yicha bank va moliya muassasalari bilan hamkorlik ishlarini tashkil etadi, bank muassasalariga soliqlarni undirish (so'zsiz) buyicha tegishli ko'rsatmalar, qonun yo'l qo'ygan sharoitlarda soliq qarzdorligi bo'lgan

soliq to'lovchilarning hisobvaraqlarini vaqtinchalik muzlatib turish borasidagi ko'rsatmalarni amalga oshiradi va tegishli tartibda Moliya organlari bilan hamkorlikda soliq tushumlarining holati bo'yicha o'zaro ma'lumotlar ayirboshlaydi. Shu bilan birgalikda, o'z vakolatlari doirasida soliq tushumlarining yig'iluvchanlik darajasini aniqlash borasida tanlanma kuzatish ishlari (masalan, xronometraj) ni amalga oshiriladi.

Soliq xizmati organlarida soliq ob'ektlari va ularning tushumlari hamda soliq ishini tashkil etishning avtomatlashtirilgan (axborot texnologiyalarini qo'llash) shakllarini yaratish va realizatsiya qilish. Soliq xizmati organlarida ish jarayonlarini, shuningdek, soliq ob'ektlari, tushumlari va soliq to'lovchilarning holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarning yagona axborot bazasini yaratish va unga zamonaviy axborot texnologiyalarni qo'llash ishlari tashkil etiladi. O'zbekiston soliq tizimida bu borada 30dan ortiq maxsus dasturiy mahsullardan foydalaniladi.

Soliq qonunchiligining ta'minlanishi yuzasidan hamkorlik ishlarini tashkil etish. Soliq xizmati organlari soliq nazoratini amalga oshirish va boshqa usullar bilan soliq qonunchiligi buzilgan hollarda ushbu holatlarga huquqiy baho berishda o'zlarining vakolatlaridan tashqari holatlar bo'yicha huquq-tartibot organlariga tegishli tartibda murojaatlar qiladi va zaruriy hamkorlik ishlarini amalga oshiradi. Shuningdek, xo'jalik sudlariga soliq qarzdorligini undirish, soliq to'lovchini bankrot deb e'lon qilish, soliq to'lovchining mol-mulkini xatlash va shu kabi yo'nalishlar murojaatlar qilish ishlarini tashkil etadi.

Soliq to'lovchilarga soliq xizmatlarini ko'rsatish va ularning soliq madaniyatini oshirish borasidagi ishlarni amalga oshirish. Soliq xizmati organlari soliq to'lovchilardan soliqlarni majburiy tartibda undirish ishlari bilan bir

qatorida ularga soliq xizmatlarini ham ko'rsatishga majbur hisoblanadi. Bunda ulardan soliq hisobotlarini elektron tarzda qabul qilib olish, soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni ularga belgilangan tartibda etkazish, soliq to'lovchilarning soliq va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha savollariga javob berishi, ularga maslahat ishlarini amalga oshiradi. Bundan tashqari, soliq to'lovchilarning madaniyatini oshirish bo'yicha turli xil tadbirlarni (tushuntirish, ko'rik tanlovlar o'tkazish, turli xil aksiyalar o'tkazish, ommaviy axborot vositalarida chiqish qilish, turli xil reklamalar berish va sh.k.) ham amalga oshirib boradi.

Soliq xizmati organlari o'zida qonunchilikka rioya qilinishini nazorat qilish. Bu jarayon ham soliq ma'murchiligining muhim qismi hisoblanadi. Soliq xizmati organlarining o'zlarida umumiy qonunlarning bajarilishi, soliq to'lovchilar bilan o'zaro munosabatlarida qonunlarga rioya qilinish holatlari, ishonch telefonlariga qilingan murojaatlarning haqqoniyligi, soliq xizmati organlari xodimlari tomonidan soliq ob'ektlarini yashirish, soliq hisobotlarini noto'g'ri qabul qilish, soliq to'lovchilarning qonuniy murojaatlariga javob bermaslik, soliq tekshiruvlarini o'tkazishda noxolislik qilinishi kabi holatlarning oldini olish va ular aniqlanganda tegishli tartibda choralar ko'rish ishlari ham amalga oshirilib boriladi.

Qayd etilganlardan ko'rinadiki, soliq ma'murchiligi jarayoni o'ziga xos tarkibga va tuzilishga ega bo'lib, u turli-tuman faoliyatlarni (huquqiy, iqtisodiy, sotsial, madaniy) qamrab oladi. Soliq tizimining qanchalik samarali ishlashi ko'pincha soliq ma'murchiligining samarali tashkil etilishi va amalga oshirilishiga bog'liq bo'ladi.

Soliq menejmentining muhim elementlari qatorida *solliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish* tashkil etadi. Har qaysi davlatning budjet-soliq siyosatidagi muhim

bo'g'ini bu markazlashgan pul fondlarining daromad manbaalarini aniqlash va unga soliq va boshqa majburiy to'lovlarning kelib tushish jarayonlari holatini rejalashtirish va prognozlashtirish hisoblanadi. Bu jarayon esa soliq menejmentining eng muhim va murakkab bo'g'ini sanaladi. Chunki soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirish jarayonini amalga oshirish murakkab hisob-kitoblarni amalga oshirish bilan bir qatorda, soliqlarning hajmiga ta'sir etuvchi juda ko'plab omillarning ta'sirini baholashni taqozo etadi, bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy, statistik, matematik va ekonometrik tahlillar va modellarni qo'llashni zarurat qilib qo'yadi. Milliy iqtisodiyotdan qancha miqdorda soliq sifatida daromadlarni budjetga safarbar etish mumkinligi va budjet orqali davlatning faoliyatiga ta'sirini muntazam baholab turish domiy muaommolardan biri bo'lib yuzaga chiqadi. Bu esa soliqlarni budjetga kelib tushish darajasini, soliq to'lovchilarning soliq to'lash imkoniyati (potensial)ni aniqlashni zaruriyat qilib qo'yadi. Albatta, soliq to'lovchilarning soliq to'lash imkoniyati maksimal darajada ularning ixtiyoridagi moliyaviy resurslar hajmida bo'lishi mumkin. Biroq yuqorida ta'kidlaganimizdek, ularning moliyaviy resurslarini ham ularning o'zlari ham davlat manfaatlari¹ yo'lida oqilona taqsimlash iqtisodiy jihatdan samaralidir. Bu jarayon aslida milliy iqtisodiyotni sotsial-iqtisodiy prognozlashtirish va unga asoslangan holda sotsial-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotdagi sotsial-iqtisodiy nisbatlarni o'rnatish maqsadida markazlashgan pul fondlarining to'laqonli amal qilishini ta'minlash, o'z

¹ Davlat manfaatlari deganda uni ikki tomonlama tushunish kerak. Aslida davlat jamiyat a'zolari, jumladan, ishlab chiqarish sohasi vakillarining ham manfaatlarini ko'zlaydi.

navbatida, davlatning moliyaviy boshqaruv funksiyasini keltirib chiqaradi. Moliyaviy boshqaruvning muhim tarkibiy qismini esa moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish tashkil etadi. Moliyaviy rejalashtirish jarayonida esa soliqlarni prognoz qilish alohida ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni prognoz qilish jarayonining zarurligi shundaki, iqtisodiy munosabatlar bozor qonunlari doirasida stixiyali tarzda kechadi, soliq to'lash majburiyati yuklatilgan iqtisodiy individlarning faoliyati raqobat muhitiga bog'liq bo'lib, ular turlicha darajada daromadlarga ega bo'ladi, ularning moliyaviy imkoniyatlari ham o'zgaruvchan xususiyatga ega bo'ladi, bundan tashqari, ularning faoliyatiga ta'sir etuvchi juda ko'plab omillar mavjud bo'ladiki, ularning ta'sirida milliy daromadni o'zlashtirish darajasi tabaqalashadi va notekislikni keltirib chiqaradi provardida jamiyatning soliq imkoniyatlarining keskin farqlanishi ob'ektiv ravishda mavjud bo'ladi. Bundan tashqari, boshqaruv jarayonida qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan axborotlarga tayanish eng muhim shartlardan biri sanaladi.

Soliqlarni prognoz qilish jarayoni, avvalo, soliq to'lovchilarning yuzaga kelish jarayonlarini prognoz qilish, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni budjetga kelib tushishini prognoz qilish, milliy iqtisodiyot, hudud va alohida olingan soliq to'lovchilarning soliq potensialini aniqlash hamda budjetni rejalashtirish va soliqlarni prognozlash natijalarini bog'liqligini ta'minlashdek o'zaro bog'liq va ketma-ketlikka asoslangan jarayonlardan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotga oid ilmiy va o'quv adabiyotlar hamda boshqa manbaalar o'rganilganda soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirishning mazmunini ochib beruvchi yagona tushunchani uchratish qiyin. Bir tomondan prognoz va rejalashtirish jarayoni o'ta murakkabligi bo'lsa, boshqa tomondan bu jarayonlarni mutaxassislar tomonidan turlicha

talqin qilinishidir. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlarining o'xshash xususiyatlari quyidagilarda aks etadi: ya'ni ular soliq siyosatining tarkibiy elementi hisoblanadi, ikkalasi ham moliyaviy instrumentlar sifatida yuzaga chiqadi, budjetni rejalashtirishning asos bo'lib xizmat qilishi bilan birga ularda asosan bir xil turdagi modellar va metodlarning qo'llaniladi. Shu bilan birgalikda ular o'zaro farqli xususiyatlarga ham ega. Ularning bu farqli xususiyati ko'lami jihatidan farqlanishi (soliqlarni rejalashtirish mikrodarajada asosan mahalliy hokimliklar tomonidan o'z vakolatlari doirasidagi soliq siyosatining mazmuni va korxonalarda soliq to'lovlarini to'lashni rejalashtirish shaklida kechadi), budjet-soliq siyosatidagi ishtiroki turlichaligi (soliqni rejalashtirish soliq siyosatining yo'nalishlarini belgilashga qaratilgan bo'lsa, soliq prognozi budjetning solikli daromadlarini qamrab oladi), jarayonda foydalaniladigan ko'rsatkichlarning turlichaligi, turli xildagi axborot bazalaridan foydalanishi, turlicha umumiy belgiga egaligi va vazifalarining farqlanishi, jarayon natijalarini aks ettirishi jihatdan farqlanishi hamda amal qilish muddatlarining turlichaligi va shu kabi xususiyatlari bilan farqlanadi. Soliqlarni rejalashtirishning farqli xususiyati shundaki, qabul qilingan variant ijro uchun majburiy hisoblanadi. Soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish soliq tizimi va soliq siyosatining samaradorligini ifodalaydi.

Avvalo, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari davlatning moliyaviy siyosatining eng muhim ajralmas qismi bo'lib, bu ikki tushuncha keng qamrovli munosabatlarni izohlaydi. Soliqlarni prognoz qilish ham, rejalashtirish ham davlat budjeti jarayoniga xizmat qilib ular bir-birini to'ldiruvchi iqtisodiy kategoriyalar sifatida budjet-soliq siyosatining yadrosini tashkil etadi. Ammo soliqlarni rejalashtirish iqtisodiy munosabatlardagi o'rni yuzasidan

prognoz jarayoniga nisbatan birlamchi hisoblanadi. Shu jihatdan olganda soliqlarni rejalashtirish davlatning budjet-soliq siyosatining asosiy tarkibiy qismi sifatida davlatning soliq va fiskal siyosatining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydi hamda u tarkibiy jihatdan soliqlarni joriy etish, soliq stavkalarini belgilash, ularning darajalarini o'zgartirish, soliq imtiyozlarini berish (bekor qilish), soliqlarni undirish, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlari bilan huquqiy-me'yoriy normalarni ishlab chiqish hamda ushbu jaryonlarni tartibga solish, muvofiqlashtirish bilan bog'liq munosabatlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Soliqlarni prognoz qilish moliyaviy prognozning muhim tarkibiy qismi sifatida moliyaviy prognozning boshqa turlari bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu esa moliyaviy prognoz va soliq prognozining ildizi bitta narsaga, ya'ni moliyaviy siyosatning o'zagini tashkil qilishligini bildiradi. O'z navbatida, soliqlarni prognoz qilish jarayoni moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy prognozlashtirish, budjetni rejalashtirish, byudejetni prognozlashtirish hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonlari bilan o'zaro bog'liq bo'ladi. O'z navbatida, soliqlarni prognoz qilish va rejalashtirish jarayonlari makro va mikro darajada amal qilib, ular nafaqat bir-biriga, shuningdek, qayd etilgan ko'rsatkich (jarayonlar)larga ta'sir qiladi. Soliqlarni prognoz qilish makro darajada jamlanma budjetning daromadlar qismiga soliq tushumlarini prognoz qilishni qamrab olib, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy prognoz qilish va budjet hamda soliqlarni rejalashtirish jarayonining asosi bo'lib xizmat qiladi va ularning yo'nalishlarini belgilashga ta'sir qilsa, mikro darajada esa tarmoqlar, hududlar, soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholashni, soliq turlari bo'yicha soliq prognozini qamrab oladi, hududlarni sotsial-iqtisodiy rivojlantirishning prognoz ko'rsatkichlari hamda

mahalliy budjetlarning ko'rsatikchlarini aniqlashga xizmat qiladi va uning yo'nalishlarini belgilashga ta'sir qiladi.

Soliqlarni rejalashtirish jarayoni esa makrodarajada soliq siyosatining o'zagi sifatida soliqlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid jarayonlarni qamrab oladi, mamlakat iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo'lib xizmat qiladi, budjet jarayoni va, o'z navbatida, soliqlarni prognoz qilish (soliq potensiali) jarayoniga aks ta'sir qiladi. Shuningdek, mikro darajada ham mavjud bo'lib, mahalliy hokimliklarning o'z vakolatlari doirasidagi majburiy to'lovlarni joriy qilish, ularni undirish mexanizmlari, soliq stavkalari, imtiyozlarini belgilashga oid va korxonalarda soliqlarni rejalashtirish bilan bog'liq jarayonlarni qamrab oladi, hudud iqtisodiyotini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish rejalarining asosi bo'lib xizmat qiladi, hududning soliq salohiyatini aniqlashga ta'sir qiladi.

Soliq nazorati soliq menejmentining elementi sifatida bir tomondan soliqlarning nazorat tartibidagi xususiyatlarini ifodalasa, boshqa tomondan soliq xizmati organlari va boshqa daxldor organlarning soliq qonunchligiga rioya qilinishining nazoratini amalga oshirishga doir huquqiy munosabatlarini qamrab oladi. Yuqorida ta'kidlagimizdek, soliq nazorati bu faqatgina soliq xizmati organlarining soliq qonunchiligining rioya qilinishi ustidan nazorat tartibidagi faoliyatini emas, balki soliq qonunchiligining amal qilinishi nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan vakolatli organlari bilan birgalikda jamoatchilik va shaxsiy (ta'sischilar, aksionerlarning ular moliyaviy mablag' qo'ygan korxonalar tomonidan soliqlar qanday to'lanayotganligini nazorat qilish shakli) soliq nazoratini ham qamrab oladi. Soliq qonunchiligining amal qilinishi nazorat qilish huquqiga ega bo'lgan vakolatli organlar qatoriga Parlament (Oliy Majlis)

va Hisob palatasi kabilar kirib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisning soliq nazoratini amalga oshirish tartibi avvalgi (Soliq siyosati) bobda keltirib o'tilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi mamlakatning eng oliy nazorat organi hisoblanib, ushbu palata tomonidan davlat soliq xizmati va boshqa vakolat berilgan davlat organlarida soliq qonunchiligining nazorati va ularning o'zlarining faoliyatining qonuniyligi ustidan nazorat amalga oshiriladi va ushbu holat bo'yicha Oliy majlis palatalariga ma'lumotlar (hisobot shaklida) taqdim qilib boradi. Davlat soliq xizmati va boshqa vakolat berilgan organlar tomonidan soliq nazorati O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga ko'ra (III bo'lim, 12-bob, 67-moddasi) soliq nazorati soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish, kameral nazorat, naqd pul tushumlari kelib tushishining xronometraji, soliq tekshiruvlari, fiskal xotirali nazorat-kassa mashinalarini qo'llash, aksiz to'lanadigan ayrim turdagi tovarlarni markalash, shuningdek, ayrim korxonalarda moliya inspektori lavozimini joriy etish, davlat daromadiga qaratilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushadigan pul mablag'lari davlat daromadiga o'z vaqtida va to'liq tushishini nazorat qilish, boshqa majburiy to'lovlarni undirish vazifasini amalga oshiradigan davlat organlari va tashkilotlar ustidan nazorat qilish va shu kabilar shaklida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

Bu erda garchi Soliq kodeksida soliq to'lovchilarni hisobga olish, soliq solish ob'ektlarini va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni hisobga olish, budjetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushayotgan tushumlarni hisobga olish jarayonlari soliq nazorati shakli sifatida qayd etilgan bo'lsa-da, ular mazmunan soliq xizmati va boshqa

organlar (davlat statistika organlari, adliya boshqarmalari, hokimiyatlar qoshidagi tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish davlat inspeksiyalari)ning umumiy faoliyatini tashkil etadi. Bu jarayonlarni nazorat qilish esa soliq nazorati tartibida amalga oshiriladi.

Tayanch so'z va iboralar:

Tizim tushunchasi, soliq tizimi, soliq tizimining ierarxialiligi, soliq tizimi tarkibi, soliq tizimining tashkiliy tamoyillari, egri soliqlar, to'g'ri soliqlar, mol-mulkdan olinadigan soliqlar, aylanmadan olinadigan soliqlar, daromaddan olinadigan soliqlar, soliqlarning guruhlanish mezonlari, soliq mexanizmi, soliqlarni hisoblash usullari, soliqqa tortish tartiblari, soliq deklaratsiyasi, soliq menejmenti, soliq ma'murchiligi, soliq nazorati, umumdavlat soliqlar, mahalliy soliqlar.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliq tizimining mohiyatini izohlab bering.
2. Tizim tushunchasi deganda nima tushuniladi?
3. Soliq tizimi qanaqa tarkibga ega?
4. Soliqlar budjetga yo'naltirilishiga ko'ra qanday guruhlanadi?
5. Mahalliy soliqlarga qaysi soliqlar kiradi?
6. Soliqqa tortish tartibi va soliqqa tortish usullarining mohiyati va ularning farqini aytib bering.
7. Soliq deklaratsiyasining soliqlarni undirishdagi roli va uni topshirish tartibini izohlab bering.
8. Soliq mexanizmi deganda nimani tushunasiz? U qanaqa tarkibga ega?
9. Soliq menejmenti nima?
10. Soliq ma'murchiligining mohiyati va uni amalga oshirish jarayoni haqida so'zlab bering.

11. Soliq nazoratini amalga oshirish tartibi nimalarni o'z ichiga oladi?

12. Soliq tizimining tashkiliy tamoyillari deganda nimalar tushuniladi?

13. Soliqlarni rejalashtirish va prognozlashtirishning o'zaro farqli va o'xshash xususiyatlari nimalardan iborat?

14. Egri soliqlarning takror ishlab chiqarish jarayonida yuzaga kelish jarayonini misol tariqasida tushuntirib bering.

9-BOB. SOLIQLAR VA MAKROIQTISODIY HOLATNING UZVIY BOG‘LIQLIGI

9.1-§. Soliqlar va yalpi ichki mahsulotning o‘zaro bog‘liqligi

Soliqlar mohiyati jihatidan nafaqat markazlashtirilgan pul fondlarini daromadlar bilan ta‘minlaydi, shu bilan birgalikda ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida jamiyatning iqtisodiy sohasi bilan o‘zaro bog‘liq holda amal qiladi. Shu bilan birgalikda soliqlar davlatning iqtisodiyotga aralashuvi (tartiblashi va muvofiqlashtirishi)da eng muhim vosita sifatidagi roli ham soliqlarning makroiqtisodiy holat va uni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar – yalpi ichki mahsulot (YaIM), milliy daromad, investitsiya (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya)lar, yalpi talab, yalpi taklif, aholining real pul daromadlari, davlat xarajatlari, umumiy va alohida tovar (xizmat)larning iste‘mol etilish darajasi, budjet taqchilligi, import va eksport hajmi va shu kabilar bilan o‘zaro ta‘sirida bo‘ladi. Soliqlar aslida asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichning tarkibi sifatida u bilan ta‘siri uch tomonlama xarakterga ega bo‘ladi.

Birinchisi, bu soliqlar mohiyati jihatidan iqtisodiy munosabatlarda yalpi ichki mahsulot va jamiyat a‘zolari (uni yaratganlar)ning daromadi bo‘lgan milliy daromadni taqsimlash vositasida yuzaga kelib, soliqlar o‘zining bir marta taqsimlab bo‘lingan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ni qayta taqsimlaydi va shu orqali jamiyatning makroiqtisodiy holatiga ta‘sir qiladi. Bunda agar yalpi ichki mahsulotning ko‘proq qismini davlat manfaatlariga taqsimlasa, u holda umumiy iqtisodiy holatga salbiy ta‘sir qiladi, aksincha, YaIMdan davlat uchun minimal zarur bo‘ladigan qismidan kamroq ulushni davlat manfaatlari uchun taqsimlasa, u

holda davlatning faoliyati susayib ketadi va aks ta'sir sifatida ishlab chiqarishning holatiga ham salbiy ta'sir qiladi. Demak, soliqlar va YaIMning o'zaro ta'sirida eng asosiy jarayon soliqlarning taqsimlovchilik «faoliyati»da taqsimlash mezonini qanday belgilashiga bog'liq bo'ladi. Ikkinchisi, soliqlar YaIM bilan o'zaro bog'liqligi uning funksiyalari – fiskal, rag'batlantiruvchilik, tartiblash va qayta taqsimlash funksiyasining amal qilishi darajasiga qarab YaIMning o'zining darajasiga ta'sir qiladi. YaIMning darajasiga ta'siri ham bir necha yo'nalishlarda, ya'ni uning tarkibiy tuzilishini o'zgartirish, YaIMning miqdoriga ta'sir qilish, YaIM iste'mol qilinish darajasiga ta'sir etish orqali amalga oshadi. Uchinchisi, soliqlar YaIM orqali boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning holatiga ta'sir qiladi. To'rtinchisi esa, YaIM va u orqali boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning soliqlarning darajasiga aks ta'siri orqali soliqlarning amal qilishiga ta'sir qiladi. Soliqlarning YaIM bilan bog'liq darajasini yaqqolroq tushunish uchun uning tarkibiy tuzilishi, aniqrog'i YaIMning hisoblanish jarayoni bilan bog'liq holda ko'rishni taqozo etadi.

Ma'lumki, soliqlar odatda uch xil tartibda hisoblanadi. Birinchisi bu ishlab chiqarish yoki qo'shilgan qiymat usuli bo'lib, bunga ko'ra YaIM bu muayan vaqt (odatda bir yil davomida) jami ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat, ish)larning bozor qiymatidagi yakuniy qiymati va ushbu jarayonda oraliq iste'mol qilingan mahsulot (xizmat, ish)larning qiymatining o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadiki, bu aslida yalpi qo'shilgan qiymatni ham ifodalaydi. Ya'ni bunda YaIM va yalpi qo'shilgan qiymat miqdor jihatdan teng bo'ladi.

Soliqlarning YaIMga ta'siri ikki xil tartibda mahsulotlar va xizmatlarga ta'sir etish orqali yalpi qo'shilgan qiymatning hamjiga ham ta'sir qiladi. Agar mahsulot tannarxiga

qo'shiladigan soliqlarning darajalari ortib, mahsulotlarning oraliq iste'moli kamayadigan bo'lsa, YaIMda (yalpi qo'shilgan qiymatda) soliqlarning ulushi ortadi, ammo bu soliq yukining oshganligini ko'rsatmaydi.

Oraliq iste'mol deganda esa takror ishlab chiqarish jarayonida ikkinchi yoki keyingi bosqichlarda ishlatiladigan (iste'mol qilinadigan) mahsulotlar tushuniladi. Masalan, uy xo'jaliklari uchun oziq ovqat mahsulotlari, iste'mol etilgan sartaoshlik xizmati, sotib olingan maishiy buyumlar oxirgi iste'mol darajasida to'xtaydi. Ammo un mahsuloti uy xo'jaligi uchun oxirgi iste'mol darajasida bo'lsa, non mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar uchun u oraliq iste'mol qilinadi. Bunday jarayonda ularning egri yoki to'g'ri soliqlarning ob'ektiga tushishi orqali umumiy YaIMdagi soliqlarning hissasiga ta'sir qiladi. Agar takror ishlab chiqarish jarayonida oraliq iste'mol etilish darajasi oshsa, demak, YaIMning tarkibida egri soliqlar katta ulushni tashkil etadi, aksincha bo'lsa, to'g'ri va resurs soliqlarining roli oshadi. Bu erdan soliqlarning YaIM bilan bog'liqligida yana shu narsani ko'rish mumkinki, yalpi qo'shilgan qiymat jamiyat miqyosida o'zida ishlab chiqarish jarayonidagi barcha bosqichlarda yaratilgan qo'shilgan qiymat bilan birgalikda foyda normalarini ham o'zida aks ettirgan. Ya'ni yalpi qo'shilgan qiymat bu o'zida egri soliqlarni aks ettirmaydi, aksincha, to'g'ri va resurs soliqlarini o'zida jamlaydi. Agar YaIM tarkibida mahsulot va import-eksportga sof soliqlar darajasi oshsa, u holda davlat budjetida egri soliqlarning ortganligini ham ko'rsatadi.

Soliqlar va YaIMning makroiqtisodiy bog'liqligini YaIMni hisoblashning keyingi usullari-daromadlar usuli va xarajatlar usulida hisoblashda YaIMning tarkibiy tuzilishini tahlil qilish orqali ham aniqlanadi:

YaIMni daromadlar va xarajatlar usuli bo'yicha tarkibiy tuzilishi (mlrd. so'm)

1.	YaIMning xarajatlar bo'yicha elementlari	YaIMning daromadlar bo'yicha elementlari
2.	Uy xo'jaliklari (aholining) iste'mol xarajatlari (S)	Ish haqi daromadlari (W)
3.	Umumiy xususiy investitsiyalar (I _g)	Foiz ko'rinishdagi daromadlar (r)
4.	Davlatning tovar va xizmatlarni iste'moli (G)	Renta daromadlari (R)
5.	Sof eksport (NX)	Foyda (R)
6.		Amortizatsiya (D)
7.		Egri soliqlar (IT)

Bu yerda YaIM xarajatlar usuli bo'yicha $GDP^1 = (S) + (I_g) + (G) + (NX)$ ga va daromadlar usuli bo'yicha esa $GDP = (W) + (r) + (R) + (R) + (D) + (IT)$ ga teng bo'ladi. YaIMni aniqlashning keyingi ushbu usullaridan ko'rinadiki, agar soliqlar aholining real pul daromadlariga ta'sir qilsa, ya'ni daromad solig'i stavkalarini kamaytirilsa, ularning iste'mol xarajatlari oshadi, bu esa davlat xarajatlarni kamayishiga moliyaviy zamin bo'ladi. Masalan, oxirgi uch yil davomida jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha soliq stavkalarining pasaytirilishi natijasida aholiga ixtiyorida 300 mlrd.so'mdan ortiq mablag'larning qolishi, davlat budjetining aholini ijtimoiy himoya qilish va kam ta'minlangan aholi qatlamlariga ajratiladigan xarajatlarning

¹ Bu yerda YaIM va uning elementlari xalqaro qabul qilingan shartli birliklar bo'yicha keltirilmoqda. Ya'ni: GDP- Gross Domestic Product (YaIM-yalpi ichki mahsulot); S- Consumption (uy xo'jaliklari iste'mol xarajatlari); I_g- investment general (umumiy xususiy investitsiyalar); G- Government (davlatning tovar va xizmatlarni iste'moli); NX- net export (sof eksport); W- Wage (ish haqi daromadlari); r- rate (foiz ko'rinishdagi daromadlar); R- profit (foyda); D-depreciation (amortizatsiya); IT-indirect tax (egri soliqlar).

ortib borishi esa yalpi ichki mahsulotning daromadlar bo'yicha elementlarining hissasining o'zgarishiga olib keladi. O'z navbatida, importdan eksportning ortiqligi sof eksport sifatida YaIMda aks etadi. Soliqlar orqali eksport operatsiyalarini rag'batlantirilishi esa, o'z navbatida, sof eksportning ulushini oshiradi. Soliqlarning YaIMda sof eksportning ulushini oshirishi esa valyuta zahirasini boyitish orqali milliy valyuta – so'mning qadrini oshirishga ta'sir qiladi va, o'z navbatida, aholining pul daromadlarining xarid qobiliyati oshirilishi hisobiga jamg'arilishni rag'batlantiradi. Agar YaIMning daromadlar bo'yicha tarkibiga soliqlarning ta'sirini ko'radigan bo'lsak, davlatning ish haqlarini oshirish va uni tartibga solish borasidagi siyosati va ishlab chiqarish sohasida ish haqi fondlariga mablag'larning sarflanishi YaIMda ish haqi daromadlarining oshishini ta'minlab, o'z navbatida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan soliq tushumlarining ham oshishiga ta'sir qiladi. Ish haqining oshishi esa aholining iste'mol xarajatlariga ham ta'sir qiladi. Iste'mol xarajatlarning oshishi esa YaIMdagi egri soliqlarning ulushining oshishiga ta'sir qiladi. Ish haqi shaklidagi daromadlarning kamayishi korxonalarda qo'shilgan qiymatni kamaytirish bilan birga iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni kamaytiradi. Talabning kamayishi esa egri soliqlarning ob'ekti bo'lgan aylanma (realizatsiya) hajmiga ta'sir qiladi. Korxonalarining olgan foydasi, renta daromadlari va foiz ko'rinishdagi daromadlarning oshishi esa to'g'ri soliqlarning YaIMdagi ulushini oshirib, egri soliqlar hissasini kamaytiradi.

Korxonalarda yaratiladigan amartizatsiya esa umumiy xususiy investitsiyalarning ko'payishiga olib kelib, YaIMda resurs soliqlarining hissasini oshiradi. Yuridik va jismoniy shaxslarda jamg'arilishga moyillikning oshishi investitsiyani kamaytirsa-da, ammo foiz ko'rinishdagi daro-

madlarni oshiradi. Biroq foiz ko'rinishdagi daromadlarda investitsiyaga nisbatan iqtisodiy samaradorligi past bo'ladi. Korxonalarda investitsion jarayonlarni soliqlar orqali rag'batlantirish esa foiz ko'rinishdagi daromadlarning YaIMdagi ulushini kamaytirib, ishlab chiqarishning o'sishiga va ular orqali egri soliqlar miqdorini oshiradi. Chunki investitsiyalar qo'shilgan qiymatni shakllantiradi. Demak, soliqlarning YaIM bilan makroiqtisodiy bog'liqligi uch omil hisobiga yuz beradi va harakatda bo'ladi. Birinchisi bu davlatning iqtisodiy siyosati bo'lsa, ikkinchisi korxonalarining iqtisodiy-moliyaviy siyosati, uchinchisi esa aholining iqtisodiy faolligidir. Mana shu uch bo'g'indagi o'zaro bog'liqlik va ularning iqtisodiy siyosati (faolligi) YaIMning daromadlar va xarajatlar tarkibiy elementlarining holatiga ta'sir qilib, bu ta'sir soliqlarning qanday shakllarda YaIM tarkibida qatnashishini belgilab ham beradi. Vaholanki, soliqlarning o'zi YaIMni taqsimlovchi vosita sifatida ham amal qiladi. Soliqlar va YaIM o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi qayd etilgan holatlar bilan birga ularning miqdoriy korrelyasion bog'liqlikka ham ega bo'lib, uni ekonometrik tahlillar orqali anglash mumkin. Soliqlar va YaIM o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik doimo korrelyasion bog'liqlikda bo'ladi. Budjetga soliq tushumlarining bir maromda oshib borishi va YaIMning ham bir maromda oshib borishi sharoitida bunday korrelyasion bog'liq va ularning elastikligi proporsional tartibda kechadi. Agar YaIM hajmi kamaygan sharoitda soliq tushumlarining ham ortishi davom etadigan bo'lsa, ularning bog'liqligi regressiv xarakterga ega bo'ladi, boshqacha qilib aytganda, soliqlarning progressivligi oshganligini bildiradi va u YaIM hajmi kamaygan sharoitda ham soliqlarning budjetga jalb qilishi ishlab chiqarish sohasida kapital jamg'arilishi va investitsiyani susaytiradi. Albatta, uni tartiblash davlatning

soliq siyosatida qanday taktikalardan foydalanishiga bog'liq bo'ladi.

9.2-§. Soliq multiplikatori va uning makroiqtisodiy samarasi

Jahon amaliyotida soliqlarning mohiyatini tadqiq etishda uning makroiqtisodiy holat bog'liqligini tavsiflovchi ko'rsatkichlardan keng foydalaniladi. Ta'kidlanganidek, soliqlar ham makro, ham mikro darajada iqtisodiyotdagi takror ishlab chiqarish jarayoni bo'g'inlari iste'mol, ayirboshlash, ishlab chiqarish va taqsimot munosabatlari bilan doim birga bo'ladi va ularning o'zaro harakatlariga ta'sir qilib turadi. Soliqlarning takror ishlab chiqarish jarayonlariga ta'siriga oid ko'rsatkichlar jumlasiga soliq multiplikatori ko'rsatkichi kirib, multiplikator tushunchasi lotincha «multiplicare – ko'paytirish, oshirish» degan ma'nolarni anglatib, u dastlab iqtisodiyotdagi makroiqtisodiy holatlarni izohlashda ingliz iqtisodchisi Richard Ferdinand Kan tomonidan qo'llanilgan. R.Kan o'zining 1931 yilda yozgan «Uy xo'jaliklarining investitsiyasi va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik» (The Relation of Home Investment to Unemployment) asarida investitsiya va bandlik masalalari hamda aholi daromadlarining o'zaro bog'liqligini multiplikator orqali tushuntirib beradi. Ushbu makroiqtisodiy bog'liqlikni esa AQSh lik olim J.Keyns va uning izdoshlari davom ettirib, multiplikator tushunchasi orqali investitsiya, daromad, soliqlar va davlat xarajatlarining o'zaro nisbatlarining makroiqtisodiy samarasini keng izohlab berdi. Multiplikator aslida o'zgarayotgan jarayonning iste'molga maksimal moyillik (MPC) jamg'arilishga maksimal moyillik (MPS) indekslarining doim o'zaro teng kelishi va ularning holatiga qarab davlat xarajatlari va soliqlarning ta'siri

turlicha bo'lishi mumkinligi izohlangan. J.Keyns va uning izdoshlarining fikricha $MPC + MPS = 1$ koeffitsientga teng bo'lib, o'z navbatida, jamg'arilishga maksimal moyillik teskari hajmi $1/MPS$ ga yoki uning iste'molga ta'siridagi farq birligi $MPS - 1/(1 - MPS)$ ga teng bo'ladi.

Keyns multiplikatori shuni ko'rsatadiki, dastlabki investitsiya darajasiga nisbatan milliy daromad qanchaga o'sishi, shuningdek, davlatning umumiy xarajatlari natijasida yalpi ichki mahsulotning o'sishiga ham ta'chir qiladi. Bunday samaradorlikni multiplikatorlik samarasi deb aytaydi. Dastlabki investitsiya milliy daromadni o'stirishni yuzaga keltiradi, milliy daromadning bir qismi jamg'arilishga va bir qismi iste'molga sarflanishi milliy daromadning yangidan o'sishini ta'minlaydi, ammo avvalgi bosqichiga nisbatan qamroq hajmda bo'lib, buning darajasini iste'molga yoki jamg'arilishga moyillik darajasini aniqlab beradi. Bunday samaradorlik quyidagicha tushuntiriladi. Milliy iqtisodiyotda investitsiya xarajatlarining 5 mlrd. dollorga oshishi milliy daromadning 15 mlrd.ga oshishiga olib kelsa, u holda multiplikator 3 ga teng bo'ladi ($15/5$), milliy daromad 20 mlrd. dollorni tashkil etsa, u holda multiplikator 4 ga teng bo'ladi. Bundan tashqari, agar avtonom ravishda alohida hududga yoki korxonaga sarflangan investitsiyaning iste'molga moyillik darajasida multiplikator ko'rsatkichi nimaga teng bo'lishi quyidagi misolda tushuntiramiz. Yangidan korxonani qurishga sarflangan 100.000 mln. so'mlik mablag' milliy daromadni oshirishda ikkinchi bosqichli daromadni shakllantiradi va shu orqali davom etadi. Agar milliy iqtisodiyotda iste'molga moyillik ko'rsatkichi $2/3$ nisbat (yoki 0,66667) koeffitsientiga teng bo'lsa, sarflangan 100.000 mln so'mning 66,67 mln. so'mligi iste'mol tariqasida (qurilish mollari, ish kuchi va shu kabi xarajatlar) boshqa tovar ishlab chiqaruvchilar

tomonidan ushbu mablag' daromad sifatida o'zlashtiriladi. Agar qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarda ham iste'molga moyillik $2/3$ nisbatda bo'lsa, ularning o'zlashtirgan 666,67 mln. so'mlik mablag'ning 444,44 mln. so'mligi (0,66667 koeffitsient) iste'molga sarflanib, ushbu mablag' boshqa korxonalarining daromadiga aylanadi va shu tartibda davom etadi. Dastlabki sarflangan 100 mln so'mlik investitsiya iste'molga moyillikning teng ravishda 0,66667 koeffitsientga egaligi holatida quyidagicha milliy iqtisodiyotning o'sishini ta'minlaydi:

$$100.000+666.67+444,44+296,30+197,50+131,60+87,70+58,40+39,50+26,60+17,40+11,60+7,70+5,10+3,40+2,20+1,40+0,90+0,6667 = 300 \text{ mln. so'm.}$$

Demak, milliy iqtisodiyotga investitsiya qilingan 100 mln so'mlik mablag' teng ravishda iste'molga moyillik ko'rsatkichi (0,66667) sharoitida 300 mln. so'mga aylanadi, ya'ni milliy daromadni oshiradi. Bu holda multiplikator ko'rsatkichi $M_k = 1/(1-2/3) = 3$ ga teng bo'ladi.

Keynsning ushbu multiplikatorlik samarasi tushuncha va koeffitsientlari u va uning izdoshlari tomonidan soliqlarga ham olib o'tildi. Davlatning soliq siyosatining samaradorligini baholovchi hamda ularning makroiqtisodiy holat bilan qanday bog'liqlikda bo'lishligini aynan soliq multiplikatori tushunchasi sifatida kiritadi. Soliq multiplikatori (m , Tax multiplier) mohiyati jihatidan soliqlarning o'zgarishi milliy iqtisodiyotda YaIM yoki milliy daromadning o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqni ifodalaydi va u oddiy holatda quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Ms(m) = \frac{\text{YaIM yoki milliy daromadning o'sishi}}{\text{Soliqlarning o'zgarishi}}$$

Bu koeffitsientni to'laroq shaklda esa Kenschilar quyidagi tartibda izohlagan:

$m_t = \frac{\Delta V}{\Delta T} = \frac{-b}{1-b} \cdot (2)$. O'z navbatida $\Delta V = \frac{-b}{1-b} \cdot \Delta T$. ga teng bo'ladi. (3).

Bu yerda:

ΔV – YaIM yoki milliy daromadning o'sishi;

ΔT – soliqlarning o'sishi;

b – iste'molga moyillik ko'rsatkichi.

Bu yerda soliqlarning o'zgarishi ham ikki tomonlama xarakterga ega bo'ladi. Soliqlarning rag'batlantiruvchilik xususiyati oshirilib, soliqlar bazis (avvalgi) yilga nisbatan kamaytirilishi, o'z navbatida, YaIM yoki milliy daromadni oshiradi va, aksincha, soliqlarning oshirilishi YaIMni kamaytiradi. Bu kamaytirish YaIMning ko'proq qismini budjetga olishi va YaIMning ishlab chiqarishdagi holatining kamayishi tarzida yuz beradi. Buni quyidagi *shartli misolda* ko'rish mumkin. 2013-yilda YaIM ko'rsatkichi 7306 mlrd dollar va 2014 yilda 8944 dollorni tashkil etgan bo'lsin. Shu yillarda oxirgi iste'molga qilingan xarajatlar miqdori mos holda 4477 va 5887 mlrd dollorni tashkil etib, bu yillarda orasida iste'molga moyillik darajasi quyidagicha bo'ladi:

$b = (5887-4477)/(8944-7306) = 1410/1638 = 0,861$ koeffitsient. Agar davlat budjetga soliq tushumlari 2345 mlrd dollorni tashkil etib soliqlarni 10 foizga kamaytirish (234,5 mlrd dollorga) YaIM hajmining 1452,6 mlrd dollorga oshishiga olib kelishi mumkin ($234,5 \times 0,861 / (1-0,861) = 1452,6$). Bu erdan ko'rinadiki, soliqlar umumiy hajmining 10 foizga kamaytirilishi hisobiga budjetdan yo'qotilgan mablag'ga (234,5 mlrd dollar) nisbatan YaIMning o'sishi (1452,6 mlrd.dollar) qariyb 6,2 marta ($1452,6/234,5$)ga ko'proqqa o'sishini ta'minlaydi va bu soliqlarning teskari iqtisodiy samarasi bo'lib, bu soliq mul tiplaktori orqali

izohlanadi. Demak, o'rtacha soliq stavkasi kamaytirilsa, soliq multiplikatori samarasi shuncha yuqori bo'ladi va aksincha. Soliqlarning kamaytirilishi xususiy va yalpi taklif bilan birgalikda ishlab chiqarish hajmini ham oshiradi, soliqlarning oshirilishi esa ularni kamaytiradi.

Shundan kelib chiqadiki, iste'mol xarajatlari soliq stavkalarining darajasiga bog'liq bo'ladi. Bu holatda esa soliq multiplikatori quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$m_t = \frac{-b}{1-b(1-t)}. \quad (4).$$

Agar iqtisodiyot ochiq bo'lsa, ya'ni, yumshaytirilgan proteksion siyosat amal qilsa, soliq multiplikatori importga moyillik darajasiga ta'sir qiladi. Importga moyillik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, soliq multiplikatori samarasi ham shuncha past bo'ladi, aynan shu holat davlat xarajatlariga nisbatan ham multiplikator samarasiga ham xos bo'ladi. Soliq multiplikatori, o'z navbatida, davlatning avtonom tarzdagi (tovarlar va xizmatlarni sotib olish xarajatlari) xarajatlari bilan ham bog'liq ravishda yalpi talab va taklifga hamda YaIM darajasiga ta'sir qiladi va bu davlat xarajatlari multiplikatori deb yuritiladi:

$$\text{Mult.} = 1 / (1 - mrs). \quad (5).$$

Bu yerda: Mult. – davlat xarajatlari mul tiplakatori.

Bu koeffitsient shuni ko'rsatadiki, davlat xarajatlarning oshirilishi yoki kamaytirilishi YaIM darajasining qanchaga oshishi yoki kamayishini izohlashga xizmat qiladi. Davlat xarajatlari oshgan sharoitda YaIM mul tiplikativli darajada oshadi va davlat xarajatlari kamaytirilsa, teskari holat yuz beradi. Bu yerda soliqlar yalpi talabga ta'sir qilish orqali xarajatlarning multiplikatoriga ham ta'sir qiladi. Bunda soliqlarning mul tiplikativli samarasi davlat xarajatlari multiplikatori samarasiga nisbatan kamroq bo'ladi. Chunki

davlat xarajatlarining oshishi bevosita yalpi talabni ham oshirsa, soliqlarning o'zgarishi esa yalpi talabni oshirishi bilvosita tarzda (iste'mol xarajatlariga ta'sir qilish orqali) amalga oshadi. Bu yerda soliq multiplikatorining ikki jihatiga e'tibor qaratiladi. Birinchisi bu soliq multiplikatori darajasi doim salbiy bo'ladi, ya'ni uning harakati jami daromadga nisbatan teskari bo'lib, soliqlarning oshishi YaIMni kamaytiradi, kamayishi esa uni oshiradi. Ikkinchisi esa soliq multiplikatori xarajat multiplikatoriga nisbatan doim kichik bo'ladi.

Agar davlat tovarlar va xizmatlarga xarajatlarni oshirish bilan bir qatorda soliqlarni ham oshirsa, xarajatlar daromadlarni oshirishga xizmat qilsa, soliqlar hisobiga esa ular kamayadi. Olaylik, iste'molga maksimal moyillik MRS – 0,8 koeffitsientga teng bo'lgan sharoitda davlat xaridi 100 ming so'mga ohsa, u holda jami YaIM 500 ming so'mga oshadi ($100/0,2$). Soliqlarning oshirilishi esa daromadlarni (YaIM)ni 400 ming so'mga kamaytiradi (chunki soliq multiplikatori doim xarajatlar multiplikatoridan kam bo'ladi), natijada esa YaIMning real o'sishi esa 100 ming so'mga teng bo'ladi. Bunday sharoitda multiplikatorlik samarasi o'zaro teng bo'ladi.

Multiplakatsiyali samaradorlikka transfert to'lovlari ham ta'sir qiladi va ular odatda «soliqlarga qarshi» tarzda ta'sirda bo'ladi. Transfert to'lovlari ham soliqlar singari yalpi talabga iste'mol xarajatlari orqali bilvosita ta'sir qiladi. Transfertlarning oshirilishi daromad egalarining ixtiyorida qoladigan daromadni oshiradi, ularning qisqartirilishi esa bunday daromadlarni kamaytiradi. Olaylik davlat tansfert to'lovlarini 100 ming so'mga oshirsa, daromad egalarining ixtiyorida qoladigan daromadlari ham shuncha miqdorga oshadi. Iste'molga maksimal moyillik MRS- 0,8 koeffitsienti mavjud bo'lgan sharoitda iste'mol 80 ming


so'mga oshadi va xarajatlar multiplikatori ($100/20$) 5 ga teng bo'lib, YaIM esa 400 ming so'mga oshadi. Bu yerda soliqlar ishga tushib, jami daromadni 500 ming so'm emas, balki 400 mingga tushiradi. Ya'ni, davlat xarajatlari 100 ming so'mga emas, balki, 80 mingga oshgan bo'ladi 500 ming so'mning har 100 ming so'midan 20 ming so'mlik xarajatlarning jami daromadning kamayishiga olib kelgan. Agar soliqlar bo'lmaganda transfert xarajatlarning YaIMga ta'siri ham teng ravishda 5 karraga oshirar edi, soliqlar esa ularni 4 karraga oshishiga olib kelgan. Shu jihatdan olganda soliq multiplikatori xarajatlarning daromadlarga ta'siri jihatdan doim salbiy ta'sirda bo'ladi degan yuqorida keltirilgan fikrni tasdiqlaydi.

Soliq multiplikatorining makroiqtisodiy jarayonlar bilan soliqlarning bog'liqligini tavsiflashda daromadlarning o'sishi bilan bog'liq bo'lgan soliqlar (masalan, daromaddan olinadigan soliqlar)ning ta'sirini izohlashdan foydalaniladi. Ma'lumki, iste'mol funksiyasi soliqlar bilan bog'liq holatda $C = \underline{C} + mpc (Y - \underline{T} - tY)$ (bu erda: t – maksimal soliq stavkasi) bo'lib, bu funksiya jami daromadlar (YaIM)ning o'sishi sharoitida soliq tushumlarining qanchalik oshayotganligi yoki kamayotganligini ko'rsatadi. Maksimal soliq stavkasi esa $t = \frac{\Delta T}{\Delta Y}$ $0 < t < 1$ ko'rinishga ega bo'lib,

$Y = C + I + G$ ga teng ekanligini e'tiborga olib, $Y = \underline{C} + MRS * Y - MRS * \underline{T} - MRS * t * Y + \underline{I} + \underline{G}$ ga ega bo'lamiz. (6). Soliq multiplikatorining darajasi daromad solig'i stavkasi amal qilmagan sharoitdagiga nisbatan kamroq bo'ladi (chunki $((1 - mrc (1 - t) > (1 - mrc)$), Olaylik iste'molga moyillik darajasi $mrc = 0.8$, maksimal soliq stavkasi $t = 0,1$ (ya'ni 10%) koeffitsentni tashkil etadi. Daromad solig'i mavjud bo'lmagan (qo'llanilmagan) sharoitda xarajat multiplikatori $5(1 / (1 - 0.8) = 5)$ ga teng

bo‘ladi, agar daromad solig‘i mavjud bo‘lsa, u holda xarajat multiplikatori $3,57 (1 / (1 - 0.8 (1 - 0.1))) = 3.57$ ga teng bo‘ladi. Demak, bu misoldan shunday xulosa kelib chiqadiki, daromadga qaratilgan soliqlar davlat xarajatlariga ta‘sir qiladi va uning ta‘siri samarasi esa xarajat multiplikatori orqali aniqlanadi. Daromadga qaratilgan soliqlar xarajat multiplikatorini kamaytiradi.

Soliqlarning kamaytirilishi jami daromadlar, jami iste‘molga ta‘sirga qiladi. Agar soliqlar ΔT miqdorda kamaytirilsa, daromad egalarining ixtiyorida qoladigan daromadlari $Y_d = Y - T$ ga teng bo‘lib, ΔT darajaga oshadi. Buni yaxshiroq tushunish uchun quyidagi funktsiyali bog‘liqlikdan foydalanamiz.



15-rasm. Soliqlarning daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar yo‘nalishida yalpi iste‘mol va daromadlarga ta‘siri.

Iste‘mol xarajatlari esa mos holda $\Delta T \times b$ miqdorda oshadi va rejalashtirilgan xarajatlarning funktsiya chizig‘i egri holda yuqoriga siljiydi va $m_1 = \frac{\Delta Y}{\Delta G} = \frac{b}{1-b}$ ko‘rinishdagi soliq multiplikatori darajasida Y_1 dan Y_2 darajaga etadi. Kel-

tirilgan funksiya shuni ko'rsatadiki, soliqlarning bir marta o'zgarishi iste'molni bir necha marta o'zgarishiga olib keladi va quyidagi darajalarda bog'liqlik o'zgarishlarga olib keladi.

Soliqlarning $\Delta T \downarrow$ darajaga kamayishi:

=> daromad egalari ixtiyorida qoladigan daromadlari $\Delta T \uparrow$ darajada oshadi;

=> iste'mol darajasi $\Delta T \uparrow$ darajaga oshadi;

=> jami xarajatlar $\Delta T \uparrow$ darajaga oshadi;

=> jami daromadlar (YaIM) $\Delta T \uparrow$ oshadi va shu tartibda davom etadi.

Demak, soliqlarning makroiqtisodiy holat va uni tavsiflovchi ko'rsatkichlar bog'liqligi turli bosqichlarda va turlicha o'zaro ta'sirda kechadi. Bu o'zaro ta'sirda soliqlar asosiy tartiblovchi va muvofiqlashtiruvchi rol o'ynaydi. Davlat xarajatlari, jami daromadlar (YaIM), iste'molga moyillik orqali jamg'arilishga ta'siri va daromadga ta'siri, shuningdek, investitsiyalarning bazis davriga nisbatan iste'molga moyillikning holatidan kelib chiqib YaIMning o'zgarishiga ta'siri kabi jarayonlarni izohlashda esa soliq multiplikatori muhim etalon sifatidagi ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

9.3-§. Soliqlarning narx, talab va taklif bilan o'zaro bog'liqligi

Soliqlarning narx bilan bog'liqligi chambarchas bog'liq bo'ladi. Soliqlarning narx kategoriyasi bilan bog'liqligi asosan ikki xil shaklda: davlat mexanizmlari va bozor mexanizmlari orqali bo'ladi. Narx va soliqlarning o'zaro ta'sir doiralari, o'z navbatida, ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi.

Soliqlarning narxga ta'siri etishining davlat mexanizmlari

asosan soliq stavkalariga ta'sir qilish, davlat o'z moliyaviy siyosati orqali mahsulot tannarxini tartiblashi va iste'mol bilan bog'liq (egri) soliqlar orqali amalga oshiriladi. Davlat soliq stavkalari orqali ayrim turdagi mahsulotlarning narxini ushlab turishga va uning o'sib ketmasligining oldini olishga harakat qiladi. Masalan, O'zbekiston soliq qonunchiligida aholining ijtimoiy himoya qilish maqsadida aholiga ko'rsatiladigan (suv ta'minoti, kanalizatsiya, sanitariya tozalash, issiqlik ta'minoti bo'yicha) xizmatlarga nol darajali stavkada soliq solinib, bundan asosiy maqsad bunday turdagi xizmatlarning narxining qo'shilgan qiymat solig'i summasiga kamaytirish nazarada tutiladi. Shuningdek, davlat o'z moliyaviy siyosatini yuritish orqali korxonaning mahsulot tannarxini shakllanishiga soliqlarning ta'sirini oshirish orqali ularga ta'sir qiladi. Ya'ni bu erda mahsulot tannarxining sun'iy oshib ketmasligi maqsadida resurs to'lovlari bo'yicha soliq summalarini mahsulot tannarxida emas, korxonaning daromadi (davr xarajatlari) hisobidan to'lash mexanizmlarini joriy qilish orqali soliqlarning narxni kamaytiruvchi sifatidagi roli yuzaga chiqadi.

Soliqlarning narxga ta'sirini tartiblashda davlatning eng muhim vositalaridan biri bu iste'mol bilan bog'liq (egri) soliqlardir. Bu yerda davlat asosan ushbu soliqlar bo'yicha soliq stavkalarini oshirish yoki tushirish orqali iste'molni tartiblaydi, bunday tartiblashda esa mahsulotlarning soliqlar orqali oshirilishi asosiy rol o'ynaydi. Egri soliqlar orqali davlat o'zining progressiv soliq siyosati bilan birgalikda narx siyosatini ham parallel amalga oshiradi. Bunda aksiz solig'i katta ahamiyatga ega bo'ladi. Aksiz solig'iga tortiladigan mahsulotlarning tannarxiga soliq stavkalarining ta'siri aksiz osti shaklidagi ayrim tovarlarni iste'mol jarayoni tartibga solinadi. Bunda narx omili fiskal xususiyat emas, balki, tartiblovchi xususiyat kasb etadi.



16-rasm. Soliqlarning narx bilan bog'liqligi.

Soliqlarning bozor mexanizmlari orqali ta'sir etishi asosan mahsulotga sarflangan mehnatni ijtimoiy tan olinishi, ya'ni korxonada mahsulot (xizmat)ga sarflangan mehnat (material va mehnat sarflar)ning bozorda ijtimoiy tan olinishi degani ushbu mahsulotga nisbatan talab va taklif kesishadi. Ammo talab va taklifning bunday kesishuvida uchta vaziyat kuzatiladi. Birinchisi korxonada yuqori foyda normasiga ega bo'ladi, ikkinchisida oddiy takror ishlab chiqarish saqlanib qolinadi (foyda ham zarar ham bo'lmaydi) va uchinchisi korxonaning zarariga hisobiga sodir bo'ladi. Agar korxonada uchinchi holatni lozim topsa, uning mehnati ijtimoiylashadi yoki aksincha. Bu yerda ko'rinadiki, mahsulot tannarxiga kiruvchi soliqlar mahsulotning bozorda tan olinishida ham rol o'ynaydi va shu orqali narxga ta'sir etib turadi. Bu erda soliqlar narxga ta'siri ishlab chiqaruvchilarni bozor talablariga moslashishiga majburlaydi va muvofiqlashtiruvchi sifatida

namoyon bo'ladi. Bozor mexanizmlari orqali soliqlarning ta'sirida mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvini va raqobatni kuchaytirish orqali namoyon bo'ladi.

Bozor raqobatni rag'batlantiradi va shu orqali mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvi (yangi turdagi mahsulotlarning yaratilishi)ni talab etadi. Mahsulotlarning diversifikatsiyalashuvi esa narxga ta'sir qiladi. Soliqlar bu jarayonda rag'batlantiruvchi va tartiblovchi sifatida yuzaga chiqadi. Yangi turdagi mahsulotning paydo bo'lishi uning realizatsiyasini tezlashtiradi, mahsulot realizatsiyasi tezlashgan mahsulot esa korxonaning boshqa mahsulotlariga tegishli bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'ini ham o'ziga jalb qiladi, natijada esa shu turdagi mahsulotga nisbatan soliq og'irligi oshadi. Biroq mahsulotga bo'lgan talab esa bunday soliq og'irligini neytrallashtiradi. Soliqlar, o'z navbatida, korxonalarda qo'shilgan qiymatni tartiblashga ta'sir qilib, qo'shilgan qiymat darajasi esa mahsulot tannarxini belgilab beruvchi omillardan biri hisoblanadi. Korxonada ishlab chiqarish jarayonida iste'mol etadigan resurslariga ushbu resurslarga qo'shilgan qiymat va boshqa narx ichiga kiruvchi soliqlarning darajasi ta'sir qiladi.

Agar korxonada ishlab chiqarish jarayonida material xarajatlarga nisbatan qo'shilgan qiymatni ko'proq qo'shsa, mahsulot tannarxiga egri soliqlarning ta'siri oshadi, aksincha, material xarajatlar mahsulot tarkibida ko'proq ulushni egallasa, korxonada qo'shilgan qiymat darajasi kamayadi, o'z navbatida, egri soliqlarning narxdagi hissasi kamayadi. Narxning ichki tarkibida material xarajatlarning qo'pligi korxonaning foyda normasiga ham ta'sir etadi. Soliqlar bozorning talab va taklif qonunining amal qilishi bosqichida narxga ta'siri ikkilamchi xarakterda bo'ladi. Chunki bozorda narxni shakllantiruvchi omillarni bozorning elementlari amalga oshiradi. Bular jumlasiga talab jarayoni

bo'lib, bu bozorda iste'molchilarning talabini yuzaga keltiradi, bu esa ishlab chiqaruvchilar (sotuvchilar)ning taklifi orqali qondiriladi. Talab qonuni talab hajmi bilan narx o'rtasidagi teskari aloqa mavjudligini ko'rsatadi. Iste'molchilar past narxdagi tovarlarni sotib olishga intiladi, narx esa bu erda iste'molchilarning xaridiga to'siq bo'ladi, narx yuqori bo'lsa, ularning xaridi kamayadi va tovarlardan miqdor va sifat jihatdan nafliligi kamayadi. Iste'molchi keyingi turdagi mahsulotni sotib olishga befarqliligi oshib, uning narxi tushgan sharoitdagina sotib olishga moyillik paydo bo'ladi. Narx pasaygan sharoitda esa ularning xarid qobiliyati oshadi va ularning daromadliginingi samarasi oshadi va bu iqtisodiyotda daromad samarasi deb yuritiladi. Narxning oshishi esa teskari holatni keltirib chiqaradi va bunday sharoitda xaridorlar o'rinbosar tovarlarga nisbatan moyilligi oshadi, bu holat esa iqtisodiyotda o'rnini bosish samarasi deb izohlanadi. Bozorda talab va taklifning muvozanida esa ikki guruh omillar amal qilib, ular asosiy va asosiy bo'lmagan omillar sifatida mavjud bo'ladi. Soliqlar esa mohiyati, uning narxga munosabati jihatidan bu ikki omilda ham qatnashadi. Masalan, qo'shilgan qiymat va aksiz solig'ida soliqlar asosiy omillar sifatida namoyon bo'ladi. Chunki aksariyat tovarlarga bo'lgan talab ishlab chiqaruvchi taklifi bilan mos kelsa-da, soliqlar narxning tarkibiga kirishi iste'molchining talabiga teskari harakatni keltiradi, ya'ni yoki uning tovarga bo'lgan munosabatini o'zgartiradi yoki uning kamroq narxdagi o'rinbosar tovarlarni tanlashga majbur qiladi. Ammo bu erda ishlab chiqaruvchi foyda normasidan voz kechgan holda talabga mos taklifni shakllantirishi mumkin, bunda soliqlar ishlab chiqaruvchini foydadan mahrum qiladi. Ayrim tovarlarning iste'molida ba'zi hollarda tovarning narxi iste'molchi uchun ahamiyatga ega bo'lmaydi,

bunday tovarlarni iste'mol qilish milliy mentalitetdan ham kelib chiqadi. Masalan, nufuzli tovarlarni sotib olishda iste'molchi ko'pincha hollari uni jamg'arma hisobidan amalga oshiradi, bunday hollarda talab omili asosiy rol o'ynab bunday mahsulotlarning narxiga soliqlarning ta'siri ikkinchi darajali bo'lib qoladi. Soliqlarning talab orqali narxga ta'sir etishida iste'molchilarning daromadlaridan olinadigan soliqlar ham katta rol o'ynaydi. Bu korxonalar va aholida o'ziga xos tarzda kechadi.

Agar korxonalarining foydasidan olinadigan soliqlar oshirilsa, ularda foyda hajmi kamayib foyda hisobidan korxonaning aylanma mablag'alarini to'ldirishga oid siyosati amalga oshirishga imkoni tug'ilmaydi va resurslarni sotib olishda to'siq bo'lishi mumkin, oqibatda ishlab chiqarish miqdoriy jihatdan qisqarib, minimal xarajatlarni qoplash maqsadida mahsulot tannarxi oshishiga olib keladi. Egri soliqlarning oshishi bu erda to'g'ridan-to'g'ri ta'sirga ega. Aholidan olinadigan daromad solig'ining oshirilishi esa ularning real pul daromadlarini kamaytirib, oqibatda esa talabni rag'batlantirishga teskari chiqadi, shu bilan birgalikda jamg'arilishni kamaytiradi.

Soliqlarning darajasi mahsulot narxiga ta'sir etishi orqali mahsulotning realizatsiyasi hajmini ham belgilab beradi. Agar mahsulotga bo'lgan talabning bozordagi passivligi kuzatilsa, soliqlarning soliqlarning narxga ta'siri darajasi kuchayadi va u orqali takror ishlab chiqarish jarayoniga ham o'tishi tezlashadi. Mahsulotga bo'lgan talab yuqori bo'lgan sharoitda esa soliqlarning narxga ta'siri neytral xarakterda bo'ladi. Narx o'zida qo'shilgan qiymat va foyda normasini aks ettirishi sababli soliqlarning narx orqali qo'shilgan qiymat va foyda normasiga ta'sir qilishiga ham sababchi bo'ladi.

Soliqlarning narx bilan o'zaro ta'siri XIX asrda

shakllangan yuklanish nazariyasining shakllanishi va uning rivojlanishida asosiy masalalardan biri bo'ldi. Optimistik yuklanish nazariyasi tarafdorlari (A.Kanar, A.T er, O.Bismark, A.Sh effle) va pessimistik yuklanish nazariyasi tarafdorlari P.Prudon, A.Lassal) soliqlar narx bilan munosabatlarida soliqlarning bir toifadan keyingi toifa aholiga (kambag'al tabaqadan boy qatlam aholiga va aksincha) yuklanish jarayonlarini ko'rsatib bergan bo'lsa, XIX asrning oxirlarida nemis iqtisodchisi K.Rau soliqlarning yuklanish jarayonlarini uning asosiy qismi narxlar orqali amalga oshirilishi bilan birga sotuvchidan iste'molchiga soliqlarning narxlar orqali yuklanishi iste'molchilardan sotuvchilar (ishlab chiqaruvchilar) ga o'tkazilish jarayonlariga nisbatan osonroq kechishini ko'rsatib berdi. XX asrda yuklanish nazariyasi bilan shug'ullangan A.Kurno, R.Mayer, F.Djenkin, K.Viksel , M.Pantaleone, K.Konil yani, L.Eynaudi va shu kabilar soliqlarning narxga ta'sirida asosiy jarayon sifatida soliqlarning yuklanishi yuz berib, bu iste'molchi va ishlab chiqaruvchining o'zaro munosabatlarida asosiy vosita ekanligini isbotlab berishgan. Soliqlarning yuklanishi va iste'molchilar va sotuvchilar (ishlab chiqaruvchilar) o'rtasidagi munosabatlar oddiy holda kechmasdan talab va taklifning kesishuviga ham ta'sir qilishligini aniqlab bergan.

Iste'molchi egri soliqlarni o'z zimmasiga olishi, ishlab chiqaruvchining taklifini qabul qilganligini ifodalab, o'z navbatida, iste'molchi talabining ishlab chiqaruvchi tomondan ta'minlanishi iste'molchining daromadida o'tirgan soliqlarni ularga o'tkazilishini bildiradi. Iste'molchi, shuningdek, o'zida ishlab chiqaruvchining foyda normasining bir qismini olib yuradi, ishlab chiqaruvchining tovarini sotib olishi bilan birga uning egri soliqlarini o'ziga o'tkazib olishi, uning foyda normasini qoplanishini ham

bildiradi. Agar bu erda narx darajasi ikkala tomonni ham qoniqtirmasa, soliqlarning bunday yuklanishi ham, foyda normasining qoplanishi ham sodir bo'lmaydi. Bu erda narx vositachi sifatida xizmat qiladi. XX asrning 20-30 yillarida E.Seligman, P.Samuel son, R.Myusgreyv, M.Fridmen, K.R.Makkonell i S.L.Bryular ham soliqlarning yuklanish jarayonida narx omili asosiy rol o'ynashligini ko'rsatib berishi bilan oxirgilari bo'lgan R.Makkonelli, S.L.Bryular aralash iqtisodiyot sharoitida soliqlarning narxga va narxning soliqlarga ta'siri hamda ushbu ikki jarayonning talab va taklifni muvozanatlashtirishga ta'siri masalalarini chuqur tahlil qilib chiqib, narxning shakllanishida soliqlarning qanday rol o'ynashligi, uning yuklanish darajasiga bog'liq degan xulosalarga tayanildi.

9.4-§. Soliqlarning egiluvchanligi va uning omilli o'zgarishi

Soliqlarning makroiqtisodiy holat bilan uzviyligida soliq, talab, taklif va narxning egiluvchanligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Egiluvchanlik, odatda, jarayonning boshqa jarayonga bog'liqligining darajasini bildirib, narx omilida bu odatda 1% o'zgarish hisobiga yuzaga kelgan holat ifodalanadi. Masalan, egri soliqlarning 1% o'zgarishi mahsulot narxining 1% o'zgarishiga olib keladimi yoki ushbu mahsulotning bozordagi talab hajmidan oshib ketishiga olib keladimi? Bu muhim masala. Agar talabning egiluvchanligi ($Ke > 1$) holatda bo'lsa, u holda taklif doimiy tus oladi, egri soliqlarning oz miqdorda oshirib borilishi unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmaydi va asosiy soliq og'irligi ishlab chiqaruvchida qoladi, agar egiluvchanlik ($Ke < 1$) holatda bo'lsa, soliq og'irligining aksariyat qismi iste'molchiga o'tadi. Taklifning egiluvchanligida ($Ke < 1$)

holat mavjud bo'lsa, bu talabning doimiy xarakterdaligini ko'rsatadi va egri soliqlarning mahsulot narxini oshirishga ta'siri ortadi, natijada esa soliqlarning og'irligi asosan iste'molchi zimmasiga tushadi. Taklifning egiluvchanligida ($Ke < 1$) holat kuzatilsa, narxning o'sishi sezilarsiz tarzda kechadi va soliqlarning og'irligining asosiy qismi ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) zimmasida qoladi.

Talab va taklif o'rtasidagi egiluvchanlikning turlicha holatlari oqibatida egri soliqlar bo'yicha ortiqcha og'irlikning paydo bo'lishiga olib keladi. Bu odatda umumiy soliq og'irligi(yuki) bilan haqiqiy kelib tushgan soliq tushumlari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi:

$$SO_{or} = USO - HST \quad (6).$$

Bu yerda:

SO_{or} – Ortiqcha soliq og'irligi(yuki);

USO – Umumiy soliq og'irligi(yuki);

HST – haqiqiy kelib tushgan soliq tushumlari.

Ortiqcha soliq og'irligi iste'mol va ishlab chiqarishning kamayishiga olib keladi. Shu boisdan ham har bir davlatning soliq siyosatida soliqlarning amal qilish jarayonini tadqiq etish ortiqcha soliq og'irligi hajmini aniqlab uni kamaytirib (so'ndirish) choralarini ko'rishni taqozo etadi. Ortiqcha soliq og'irligini paydo bo'lishi takror ishlab chiqarish jarayonining to'rt bosqichi (fazasi) ishlab chiqarish, ayir-boshlash, iste'mol va taqsimot munosabatlariga ta'sir qilib, provardida esa mamlakat iqtisodiyotining muvozanatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Talab, taklif va narx omillari singari soliqlarning o'zi ham egiluvchan holatga ega bo'ladi. Iqtisodiy qonunlarga muvofiq qaysi iqtisodiy kategoriya (munosabat, jarayon)ga ta'sir etuvchi omillar ko'p bo'lsa, ushbu kategoriyaning ichki tuzilishi nobarqaror bo'lsa, uning egiluvchanligi ham oshib boradi. Soliqlarning egiluvchanligi bu soliqlarning budjetga kelib tushishi yoki

soliq yukining omillar (YaIM, milliy daromad, aholi daromadlari, talab, taklif, narx va shu kabilarning darajasi) ta'siri o'zgarish jarayonlarini ifodalaydi.

$$SE = (\Delta ST / ST) / (\Delta AO / ODH) \quad (7).$$

Bu yerda:

SE – S oliqlarning egiluvchanlik koefitsenti;

ΔST – S oliq tushumlari o'sishi (barcha soliq turlari bo'yicha);

ST – Soliq tushumlarining dastlabki holati (barcha soliq turlari bo'yicha);

ΔAO – Omillar ta'sirining o'sishi (YaIM, milliy daromad, aholi daromadlari, talab, taklif, narx va shu kabilar);

ODH – Omillar ta'sirining dastlabki holati.

Soliqlarning ushbu egiluvchanlik koeffitsienti uning darajasining o'zgarishiga uning ta'sir etuvchi omillarining 1%ga o'sishining ta'sirini ifodalaydi. Agar soliqlarning egiluvchanlik koeffitsienti $SE=1$ darajaga teng bo'lsa, soliq tushumlariga omillar ta'sirining yo'qligini yoki ularning ta'siri oshuvchi va kamayuvchi holatlarga ega bo'lib, ularning ta'siri o'zaro tengligini ko'rsatadi. Ya'ni bir omil soliq tushumlarining oshishiga ta'sir qilgan bo'lsa, boshqalari uning kamayishiga olib kelgan bo'ladi. Agar soliq egiluvchanligi $SE > 1$ ko'rinishga ega bo'lsa, soliq tushumlari YaIM va boshqa ta'sir etuvchi xarakterga ega bo'lgan omillarga nisbatan tez o'sayotganligi bildiradi. Soliq egiluvchanligining $SE < 1$ holatga egaligi esa soliq tushumlarining YaIM va milliy daromaddagi ulushi kamayib, omilli ko'rsatkichlarning soliq tushumlariga nisbatan o'sish sur'atining yuqoriligini izohlaydi. Soliqlarning egiluvchanligining YaIM bilan bog'liqligi to'g'ri va teskari bog'liqlikka ega bo'ladi. YaIMning bir foiz o'sishining soliq tushumlarini o'sishiga ta'siri umumiy o'rnatilgan soliq yuki darajasiga bog'liq bo'ladi. YaIM hajmi o'sish holatiga

ega bo'lsa-da, ammo soliq yukining darajasi juda past bo'lsa, u holda soliq yukining soliqlarning o'sishiga ta'siri iqtisodiyotning boshqarilishiga bog'liq bo'lib qoladi, ya'ni soliq yuki kamaytirilishi bilan iqtisodiyotning rivojlanish yo'nalishlari faqat bozor mexanizmlariga tashlab qo'yilsa, soliq yukining kamayishi teskari samara berishi mumkin. Agar davlat bosh islohotchi sifatida iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy siyosat yuritsa soliq yukining kamayishi iqtisodiy samara berishi mumkinki, bu O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanish jarayonlari buning tasdig'ini ko'rsatib turibdi.

Soliq yukining umumiy darajasi ishlab chiqarish sohasidan unda yaratilgan YaIM (milliy daromad)ning qancha qismini davlat ixtiyoriga olganligini tavsiflaydi, ammo soliqlar makro va mikro darajada iqtisodiyotning turli jarayonlarga ta'sirini tavsiflab berolmaydi. Shu boisdan soliq yukini tarmoqlar, hududlar, alohida soliq to'lovchilar va soliq turlari bo'yicha uning darajasini tahlil qilish talab etiladi. Davlat soliq yuki darajasiga ta'siri uning umumiy darajasini soliq stavkalari, soliq imtiyozlari darajasiga ta'sir etib yoki yangi turdagi soliqlarni joriy etish (bekor qilish) orqali belgilashi mumkin. Biroq soliq yukining mikro darajadagi holati soliq to'lovchilarning faoliyatiga ham bog'liq bo'ladi. Agar tarmoqlar bo'yicha soliq yuki darajasini tahlil etishda qaysi tarmoqqa soliq tushumlari to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ushbu tarmoqqa davlatning soliq yukining darajasini o'rnatganligini bildirmaydi yoki korxonalar doirasida tahlil qilganda korxonaning umumiy soliq yuki darajasi o'tgan yilga nisbatan oshishi soliq stavkalari va soliq imtiyozlariga bog'liq bo'lmagan holatda ham ro'y berishi mumkin. Bu korxonaning mahsulot sotish hajmining ortishi, ishlab chiqarish jarayonida qo'shilgan qiymatning darajasining ortishi, mahsulot tannarxi bilan

uning bozordagi talabning darajasining muvofiq kelishi jarayonlariga bog'liq bo'ladi. Korxonada ishlab chiqarish jarayoni davom etayotgan va mahsulot realizatsiyasi to'xtagan sharoitda korxonada fondlari bo'yicha soliq yukiga ega bo'lishi mumkin bo'ladi va mahsulot realizatsiyasi kamayishi tufayli soliq yuki kamayadi. Soliq yukining bunday kamayishi korxonada uchun nomaqbul hisoblanadi. Korxonaning mahsulotining realizatsiyasining oshishi esa uning soliq yukini ham oshiradi, ammo bu korxonaga nomaqbul hisoblanmaydi. Demak, soliq yukining mikro darajadagi iqtisodiyotga ta'siri makro darajadagi ta'siriga nisbatan ancha nobarqaror ahamiyat kasb etadi.

Tayanch so'z va iboralar:

Yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, makroiqtisodiy samara, soliq multiplikatori samarasi, soliqlarning egiluvchanligi, soliqlar va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning korrelyasion bog'liqligi, soliq yukining kamayishi teskari samarasi, ortiqcha soliq og'irligi, talab va taklif o'rta-sidagi egiluvchanlik, soliqlarning narxga ta'siri, soliqlarning iste'molga ta'siri, talab egiluvchanligi, taklif egiluvchanligi, davlat budjet xarajatlari multiplikatori, investitsiya samarasi, iste'molga moyillik, jamg'arilishga moyillik.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Soliqlarning makroiqtisodiy samarasi deganda nima tushuniladi?
2. Soliqlarning yalpi ichki mahsulot va milliy daromad bilan o'zaro aks ta'siri qanday holatlarda kechadi?
3. Soliqlarning talab va taklifga ta'sirini tushuntirib bering.

4. Soliqlarning narx bilan bog'liqligining davlat mexanizmi orqali yuzaga chiqishi qay holatlarda mavjud bo'ladi?

5. Soliqlarning narxga ta'sirining bozor mexanizmlarining mohiyatini izohlab bering.

6. Soliq multiplikatori nimani ifodalaydi?

7. Soliq multiplikatori samarasini iste'mol, jamg'arish va narx omillari bilan bog'lab tushuntirib bering.

8. Soliqlarning egiluvchanlik koeffitsienti nimani ifodalaydi?

9. Soliq yukining kamayishi teskari samarasi deganda nima tushuniladi? Ortiqcha soliq og'irligi nima?

10. Talab va taklif o'rtasidagi egiluvchanlikning yuzaga kelishida soliqlarning roli qanday?

11. Iste'molga moyillikning soliq tushumlariga ta'siri qanday bo'ladi?

12. Soliqlarning daromadlar va rejalashtirilgan xarajatlar yo'nalishida yalpi iste'mol va daromadlarga ta'sirini tushuntirib bering.

13. Soliqlarning kamaytirilishi jami daromadlar va jami iste'molga ta'sirini izohlab bering.

14. Olaylik, iste'molga moyillik darajasi $mrc = 0.8$, maksimal soliq stavkasi $t = 0,1$ (ya'ni 10%) koeffitsentni tashkil etgan sharoitda daromad solig'i mavjud bo'lmagan (qo'llanilmagan) sharoitda xarajat multiplikatori qanchaga teng bo'lishini aniqlang.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Budget kodeksi. «Xalq so‘zi», 2013 y., 254 (5928)-son; O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2013 y., 52-1-son.

2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2020 y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 22-yanvardagi «2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash-yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to‘g‘risida»gi PF-5308-sonli Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-iyundagi «Mahalliy budjetlarni shakllantirishda joylardagi davlat hokimiyati organlarining vakolatlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5075-sonli farmoni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-dekabrda «Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini oshirish, mahalliy budjetlarga tushumlarning to‘liqligini ta‘minlash bo‘yicha soliq va moliya organlari javobgarligini kuchaytirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi farmoni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-dekabrda «O‘zbekiston Respublikasining 2018-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-3454-sonli qarori.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-fevralda «Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi F-5214-sonli farmoyishi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 31-maydagi «Imtiyozlar va preferensiyalar berish tartibini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori PQ-3756-sonli qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-iyundagi «Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-3802-sonli qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to‘g‘risida»gi PF-5468-sonli farmoni.

11. Karimov I. Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish eng muhim vazifamiz.–T.: «O‘zbekiston», 2004.–36 b.

12. Sh .Mirziyoev. Biz buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston, 425 b.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh .Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi. 2017-yil, 16-yanvar .

14. Sh avkat Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis Palatalarining Qo‘shma Majlisidagi nutqi. – Toshkent, Xalq so‘zi gazetasi, 2016, 14 dekabr .

15. Mirziyoev Sh .M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: O‘zbekiston, 2017.

-104 b.

16. Mirziyoev Sh .M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: «O'zbekiston», 2017. – 32 b.

17. Mirziyoev Sh .M. «Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz» – T.: «O'zbekiston» NMIU, 2017. – 32 b.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh avkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22-dekabr 2017-yil. Toshkent, Xalq so'zi gazetasi.

19. Abdurahimov M.A. Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixidan lavhalar. T.: Fan. I va II jildlar, 1966, 1970.

20. «Islom dini tarixi va falsafasi» fani bo'yicha MA'RUZALAR MATNI. Toshkent 2010 y. Tuzuvchi: C.Oqilov.

21. Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. «Sharq» nashriyoti, T.: 2001.

22. Alekseenko MM. Vzgl'yad na razvitie ucheniya o naloge. Xar kov, 1870.

23. Bichurin N. Ya. Statisticheskoe opisanie Kitayskoy imperii (v dvux chastyax). M.: Vostochnyy dom, 2002.

24. Bogolepov D. Kratkiy kurs finansovoy nauki. Izdatel stvo «Proletariy» 1929.

25. Bukovetskiy A.I. Vvedenie v finansovuyu nauku.

26. Vaynber B.I. Monety Drevnogo Xorezma.

27. Vitte S.Yu. Konspekt leksiy o Gosudarstvennom xozyaystve. SPb., 1914.

28. De yakonov M.M. Istoriya Drevnogo Irana. 1961.

29. Eger O. Drevniy mir // Vsemirnaya istoriya. T. I. SPb.: Spets. lit., 1997.

30. J. Simond de Sismondi. Новые nachala politekonomii. M., 1897.

31. Zinov eva E. M. «Sentr» i «mesta» v politicheskoy kul ture traditsionnogo Kitaya // Traditsii v obshchestvenno-politicheskoy jizni i politicheskoy kul ture KNR / Otv. red. M. L. Titarenko, L. S. Perelomov. M.: Nauka, 1994.

32. Istoriya Uzbekistana va istochnikax, Vaynber B.I. Monety Drevnogo Xorezma.

33. Kucherov I. I. Nalogovoe pravo zarubejnyx stran. Kurs leksiy. – M.: AO «Sentr YurInfoR», 2003. S. 78-91.

34. Loria A. Finansovaya politika kak rezul tat i orudie interesov vladel cheskix klassov. M.

35. Mil gauzen B.G. Leksii po finansovomu pravu.

36. Mirzo Olim Mushrif. Qo‘qon xonligi tarixi. – T., 1995.

37. Nabiev R.N. Qo‘qon xonligi tarixidan. – T.: Fan, 1973.

38. Nitti F. Osnovnye nachala finansovoy nauki.

39. Parkinson S. Zakon i doxodы. – M.: PKK «Interkontakt», 1992.

40. Pinskaya M.R. Osnovy teorii nalogov i nalogooblojenie. M.: 2004 s.

41. Polyak G.B, Markova A.N. Vsemirnaya istoriya. Uchebnik. – M.: YuNITI.2000.

42. Richarda A. Masgreyva, uchenogo finansista s mirovym imenem «Teoriya gosudarstvennyx finansov» (Nyu-York, 1959).

43. Seligman E. i Sturm R. Etyudy po teorii oblojeniya. SPb., 1908.

44. Sobolev M.N. Ocherki finansovoy nauki. Izd. «Proletariy», 1925.

45. Tarasov P. I. Ocherk nauki finansovogo prava. Vvedenie. Obщaya chast . Osobennaya chast . Yaroslavl , 1883.

46. Targulov Ya. Finansovaya nauka. 1919.

47. Temur tuzuklari. T.: «Cho'lpon», 1991 y.

48. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm, O'zbekiston yangi tarixi. (Tuzuvchilar: H.Sodiqov, R.Shamsiddinov, P.Ravshanov, Q.Usmonov). 1-qism. T.: «Sharq», 2000.

49. Tolstov S.P. Drevniy Xorezm O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi «M» harfi. – Toshkent.

50. Uchebnik finansovogo prava. Plovayskiy S.I. – Odessa, – 1904 g. // Allpravo.Ru - 2005.

51. Fridman M.I. Konspekt leksiy po nauke o finansax, Nalogi, Выпуск II, SPb.

52. Yanjul I.I. Osnovnyye nachala finansovoy nauki. – M., 1904.

**TOSHKULOV ABDUKODIR,
XUDOYQULOV SADIRDIN**

SOLIQ NAZARIYASI

Muharrir: X. Tahirov
Texnik muharrir: S. Meliquziyeva
Musahhah: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 1940. 29.01.2022.
Bosishga ruxsat etildi 12.09.2022.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog‘ozi. “Times New Roman”
garniturasi. Hisob-nashr tabog‘i. 12,5.
Adadi 200 dona. Buyurtma № 2.

«HISTORY AND PAGE» MCHJ bosmaxonasida chop
etildi. Manzil: Toshkent v., Chirchiq sh.,
Saodat ko‘chasi, 17/1.

SOLIQ NAZARIYASI

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan

ISBN 978-9943-8561-0-3



9 789943 856103
